



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

KAMOLOT SARI

to'plamining 21-soni

- TILSHUNOSLIK
- ADABIYOTSHUNOSLIK
- GID HAMROHLIGI
- TARJIMASHUNOSLIK
- TARIX
- FALSAFA
- XALQARO
MUNOSABATLAR
- IQTISODIYOT
- PEDAGOGIKA
- METODIKA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

KAMOLOT SARI



IQTIDORLI YOSHLAR ILMIY TO‘PLAMI

21-SON

TOSHKENT – 2024 y.

Ushbu to‘plamda sharqshunoslik ilmi bilan shug‘ullanayotgan bo‘lajak tilshunos, adabiyotshunos, tarjimashunos, tarixchi, faylasuf, siyosatshunos va iqtisodchi sharqshunos talabalarning maqolalari o‘rin egallagan.

Ma’sul muharrir:

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD L.To‘rayev

Muharrirlar:

PhD. dots Voxidova Mehri

PhD. Abdullayeva Dilafuz

PhD. Alimov Zuhridin

PhD. To‘rayev Laziz

PhD. Umarova Mohira

PhD. dots.Odilov Bobur

PhD. Ikramova Iroda

PhD. dots. Bo‘ronov Suhrob

PhD. Mustapova Hilola

Nashrga tayyorlovchilar:

Y. Kushanova

Mazkur to‘plam 2024-yil 22-apreldagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 9-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar va mualliflar mas’uldir.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDAGI YORDAMCHI FE’LLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulnoza HAMIDOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti Arab filologiyasi kafedrasida
2-kurs arab-ingliz-1 guruhi talabasi,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti granti stipendiyati.
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi A. Rustamov

Annotatsiya: Mazkur maqolada yordamchi fe’llar haqida ma’lumot beriladi va ularning arab va o‘zbek tilida grammatik va leksik jihatdan o‘xshash va farqli jihatlari qisqacha yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ko‘makchi fe’l, asosiy fe’l, leksik ma’no, grammatik ma’no, أفعال , harakat tarzi, fe’lning vazifa shakllari.

Kirish. Arab va o‘zbek tillaridagi grammatik qoida va vositalarni qiyoslashda, avvalo, bu tillarning o‘ziga xos jihatlari muhim o‘rin tutadi. Arab tili Somiy-Homiy tillar oilasining somiy tarmog‘iga tegishlidir. Somiy tillar tarmog‘i juda katta tarmoq hisoblanadi va olimlar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Qadimgi somiy tilida ashshurlar, ibriylar, finikiylar, oromiylar, va arablar so‘zlashganlar. O‘zbek tili esa turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub bo‘lib, bu guruhga uyg‘ur tili ham kiradi. O‘zbekistonda 26 milliondan ortiq aholi bu tilda so‘zlashadi. Arab va o‘zbek tillari subyektning ish-harakatini bildiruvchi yetakchi fe’l bilan birga kelib, unga turli qo‘shimcha ma’nolarni beruvchi fe’llar yordamchi fe’llar deyiladi. Yordamchi fe’llar ifodalaydigan qo‘shimcha ma’nolar quyidagilar:

1. “bo‘lib qolmoq” va “davom etmoq” ma’nosidagi fe’llar: أضحى, أمسى, ظل, بات, مازال ما دام, ما فتئ, ما انفك, ما برح, ليس, صار, أصبح, كان, kabi fe’llardir.

2. “bo‘lmoq”, o‘tgan va kelasi zamondagi ish-harakatni ifodalaydi: “كان” va uning o‘xshashlari أخواتها, كان deb ataluvchi bu fe’llar ismiy gapda bog‘lovchi vazifasida kelib, ismiy jumla egasini bosh kelishikda, kesimini esa tushum kelishigida

kelishini talab qiladi. Fe'liy jumla – fe'l kesimli gapda esa fe'l kesim bilan murakkab fe'l zamonlarini hosil qiladi.

3. "أصبح" – ertalab bajarilgan ish-harakatini bildiradi. أمسى esa kechqurun bajarilgan ish-harakatni bildiradi. Ammo bu fe'llar va bularga o'xshash صار fe'li ko'makchi fe'l ma'nosida kelganda "bo'lib qolmoq", "aylanib qolmoq" ma'nolarini anglatadi.

U go'zal bo'lib qoldi. هي أصبحت جميلة.

Apelsin sharbatga aylandi. صار البرتقال عصيرا.

ظل va دام fe'llari esa "davom etmoq" ma'nolarini beradi:

Ish bir hafta davom etdi. ظل العمل متصلا لمدة أسبوع.

4. Bu fe'llarning ba'zilar davomlilikni ifoda etadi. ما فتئ, ما زال, ما انفك, ما برح fe'llari "hali ham", "to'xtamayapti" kabi ma'nolar bilan tarjima qilinadi va har ikkala zamonda ham faqat inkor shaklda keladi:

Hayotimiz hali ham qiyin. ما زالت حياتنا صعبة.

U hali ham kasal. ما برح مريضا.

U hali ham o'ylayapti. لا يزال يتفكر.

ما دام va ليس to'liq fe'llari har ikki zamonda to'liq, واضح, ظل, أمسى, بات, صار fe'llari esa faqat o'tgan zamonda tuslanadi.

5. Gapdagi ish-harakatning boshlanishini bildirish uchun quyidagi fe'llar ishlatiladi:

أخذ, بدأ, ابتداء, جعل, راح, شرع, أصبح, صار, أقبل, قام

Bu fe'llardan keyin yetakchi fe'l hozirgi-kelasi zamonda ishlatiladi. Mazkur qo'shma fe'lning zamonini yordamchi fe'l aniqlaydi: qo'shma fe'l o'tgan zamonda bo'lsa, ular ham o'tgan zamonda, qo'shma fe'l hozirgi-kelasi zamonda bo'lsa, yordamchi fe'l ham hozirgi-kelasi zamonda keladi.¹

من أول أيلول يصير التلامذة يذهبون إلى المدرسة

بدأ العمال يعملون من الصباح.

6. Ish-harakatning o'tgan zamonda bajarilganligini va hozirgi zamonda ham davom etayotganligini quyidagi yordamchi fe'llar ifodalaydi:

¹ Ibrohimov.N.Yusupov.M.-Arab tili grammatikasi. Toshkent-1997

Bu fe'llardan keyin ham yetakchi fe'l hozirgi-kelasi zamonda keladi. Masalan, Xalqimiz tinchlik uchun kurashgan va hozir ham kurashishda davom etmoqda.

U kishi kechgacha yurishda davom etdi. تابع الرجل يسير حتى المساء

7. Ish-harakatning bajarilish arafasida turganligini yoki ish-harakatning bajarilishiga oz qolganligini ushbu fe'llar bildiradi. كاد va أوشك. كاد fe'lidan keyin yetakchi fe'l hozirgi-kelasi zamonda, avshaka fe'lidan keyin esa أن yuklamasi bilan istak maylida keladi. Misol uchun:

Qo'rqinchdan bola o'lay dedi. كاد الطفل يموت من الخوف

Menga bir falokat bo'lay deyapti. توشك الكارثة أن تحلّ بي

Kada fe'li inkor ma'noda kelganda "zo'rg'a", "deyarli" ma'nolarini bildiradi.

Masalan: Buni biz zo'rg'a tushunamiz. لا نكاد نفهم هذا

Men uni deyarli tanimayman. لا أكاد أعرفه

8. Ish-harakatning amalga oshish ehtimoli borligini asaa fe'li ifodalaydi va bu fe'l faqat o'tgan zamon shaklida ishlatiladi. Undan keying fe'l faqat o'tgan zamon shaklida ishlatiladi. Undan keyingi fe'l AN yuklamasi bilan istak maylida keladi.

Ehtimol Zayd yozar. عسى زيد أن يكتب

Bu fe'lga ba'zan birikma olmosh qo'shilib keladi va u gapning egasini bildiradi:

Ehtimol men seni ko'rarman. عساي أن أراك

9. Ba'zan fe'li inkor yuklamasi vazifasida ishlatiladi. Masalan, درى fe'lidan لا أدري = لست أدري bilmayman.

Men bilmayman, kimman-u qayerdaman 1 لست أدري يا حبيبي من أنا أين أنا 1

O'zbek tilida esa ular quyidagi leksik ma'nolarni ifodalaydi:

Ravishdoshning -a//y, -(i)b shakllariga qo'shilib, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq singari fe'llar ko'makchi fe'llar hisoblanadi. Ko'makchi fe'lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe'l hisoblanadi. Ko'makchi fe'l faqat yetakchi fe'l bilan birgalikda qo'llanadi. Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo'llanuvchi olmoq (xatni

¹ Grammatical categories in Arabic and English. Shahobiddin Yoldashev Gulnoza Hamidova Khurshida Abdusalomova page 6

olmoq), tugatmoq (o‘qishni tugatmoq), turmoq (o‘rnidan turmoq), tashlamoq (qog‘oz tashlamoq) fe‘llaridan farq qiladi. Ravishdoshning -a//y shakliga qo‘shiluvchi boshlamoq ko‘makchi fe‘li harakatning boshlanishi, olmoq ko‘makchi fe‘li esa harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma‘nosini ifodalaydi. Yotmoq, yurmoq, turmoq ko‘makchi fe‘llari ravishdoshning -(i)b shakliga qo‘shilib, harakatning davomiyligini bildiradi. Yubormoq, tashlamoq, qo‘ymoq ko‘makchi fe‘llari harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi. Chiqmoq ko‘makchi fe‘li harakatning to‘la yakunlanganini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, arab tili va o‘zbek tili alohida til oilalariga kirishi sababli ba‘zi farqlar (zamonni ifodalash ifodalamasligi va nisbat) uchrasa-da, ularda o‘xshash jihatlar ham uchraydi(gapdagi sintaktik vazifasi va otlashish hodisasi). Klassik va zamonaviy arab tillari asosan bir xil grammatikaga ega bo‘lib, arabcha so‘zlashuv uslubi esa ko‘p jihatdan farq qiladi.¹ O‘zbek tili esa oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi til. Demak, ikki til kelishik kategoriyalari o‘rtasida o‘xshashliklar umumiy bo‘lib, bu tillar etimologik jihatdan bo‘liq emas. Arab va ingliz tillari turli til oilalariga tegishli. Arab tili semit oilasiga mansub. Bu sintetik til. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasiga kiradi. U sintetik til bo‘lish bilan birgalikda, analitik til ham bo‘la oladi. Arab tilidagi so‘z tartibi ingliz tilidan ko‘ra moslashuvchanroq bo‘lib, u elementlarning qayerda ketma-ket bo‘lishidan qat’i nazar, ularning grammatik funksiyalarini ko‘rsatadi.² Yuqoridagi fikrlar aynan bizning ilmiy izlanishlarimizdan kelib chiqqan natijani tasdiqlaydi. Kelgusida bu qisman yoritilgan mavzu yanada to‘liqroq yoritib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov.N. Yusupov.M.-Arab tili grammatikasi. Toshkent-1997
2. Hojiyev.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
3. Arab tili fanidan Filologiya (sharq tillari) bakalavriaturasining I-IV kurslari uchun ma‘ruza matnlari. 2010.
4. Grammatical categories in Arabic and English. Shahobiddin Yo‘ldashev Gulnoza Hamidova Khurshida Abdusalomova page 6.
5. Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
6. Mogno_edu — Arab tili haqida 10 ta ma‘lumot.

¹ Mogno_edu — Arab tili haqida 10 ta ma‘lumot.

² <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/23311983.2021.1899568>

7. القاهرة . العربية اللغة علم . حجازم فهمي لزمود .د. 4. 1989

8. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/23311983.2021.1899568>

ARAB VA INGLIZ TILLARIDA OLMOSH KATEGORIYASI

Shahobiddin YO'LDOSHEV

TDSHU, Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili yo'nalishi

(arab-ingliz) guruhi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi A. Rustamov

Annotatsiya: Ushbu maqola arab va ingliz tillaridagi olmosh kategoriyasi haqida chog'ishtirma va ilmiy asosda yozilgan bo'lib maqolada bu grammatik kategoriyaning o'ziga xos va murakkab jihatlari nazariyalar bilan isbotlangan holda tushuntirilgan, hamda mantiqiy xulosa ham mavjud.

Kalit so'zlar: Damir, indefinite, universal, reflexive.

Gapda ot va sifatning o'rniga ishlatiladigan so'z turkumi olmoshdir.

Damir(olmosh)

Arab tilida olmoshlarning bir necha turi bor. Ular:

1.Kishilik olmoshlari — أَنَا ، أَنْتَ ، أَنْتِ ، أَنْتُمْ ، هُوَ ، نَحْنُ ، هِيَ ، هُوَ ، هُنَّ ، هُمْ هُمَا ، هِيَ ، هِي

2.Birikma olmoshlari — هُنَّ ، هُمْ ، هُمَا ، هِهَا ، هِهُ ، هِكَ ، هِي

3.Ko'rsatish olmoshlari — أُولَئِكَ ، تِلْكَ ، ذَلِكَ ، هَؤُلَاءِ ، هَذِهِ ، هَذَا

4.So'roq olmoshlari — كَيْفَ ؟ أَيُّ ؟ مَنْ ؟ مَا ؟

5. Ajratuvchi yoki ta'kidlovchi olmosh.

Quyidagi jadvaldan barcha olmoshlarni bilib olishingiz mumkin:

لِلرَّفْعِ Raf	لِلنَّصَبِ Nasb	بِالْفِعْلِ Fe'lga	بِالْإِسْمِ Ismga	الْمُتَكَلِّمِ الْمُخَاطَبِ الْعَائِبِ III shaxs II shaxs I shaxs
أَنَا	إِيَّايَ	صَدَقْتُ	صَدِيقِي	لِلْمُتَكَلِّمِ الْوَاحِدِ ذَكَرًا أَوْ أُنْثَى
نَحْنُ	إِيَّانَا	صَدَقْنَا	صَدِيقُنَا	لِلْمُتَكَلِّمِ وَمَعَهُ غَيْرِهِ
أَنْتَ	إِيَّاكَ	صَدَقْتَ	صَدِيقَكَ	لِلْمُخَاطَبِ
أَنْتِ	إِيَّاكِ	صَدَقْتِ	صَدِيقَكَ	لِلْمُخَاطَبَةِ
أَنْتُمْ	إِيَّاكُمْ	صَدَقْتُمْ	صَدِيقَكُمْ	لِلْمُخَاطَبِينَ أَوْ الْمُخَاطَبَاتِينَ
أَنْتُنَّ	إِيَّاكنَّ	صَدَقْتُنَّ	صَدِيقَكُنَّ	لِلْمُخَاطَبَاتِ

لِلْغَائِبِ	صَدِيقُهُ	صَدَقَ	إِيَّاهُ	هُوَ
لِلْغَائِبَةِ	صَدِيقَهَا	صَدَقَتْ	إِيَّاهَا	هِيَ
لِلْغَائِبَيْنِ	صَدِيقَهُمَا	صَدَقَا	إِيَّاهُمَا	هُمَا
لِلْغَائِبِينَ	صَدِيقَهُمْ	صَدَقُوا	إِيَّاهُمْ	هُم
لِلْغَائِبَاتِ	صَدِيقَهُنَّ	صَدَقْنَ	إِيَّاهُنَّ	هُنَّ

KISHILIK OLMOSHLARI

shaxs	jins	birlik	ikkilik	Ko'plik
III	muzakkar muannas	هو huva u هي hiya u	هُمَا humā u ikkalovi	هم hum ular هن hunna ular
II	muzakkar muannas	أنت anta sen أنت anti sen	أنتُمَا antumā siz ikkalovingiz	أنتُم antum sizlar أنتُنَّ antunna sizlar
I	muzakkar muannas	أنا ana men	-----	نحن nahnu bizlar

KO'RSATISH OLMOSHLARI

Yaqin predmetlarga nisbatan ko'rsatish olmoshlari quyidagilar:

Jins	Birlik	ikkilik	Ko'plik
muzakkar	ذا zā bu	ذَان zāni bu ikkisi	أولاء
muannas	ذِي zū, ذه zihī bu تَا tā, تِهَا tihī	تَان tāni bu ikkisi	'ulā' i bular

Uzoq predmetlarga nisbatan ko'rsatish olmoshlari quyidagilar:

Jins	Birlik	ikkilik	Ko'plik
muzakkar	ذَاكَ zāka ذَلِكَ zālika u, o'sha	ذَانِكَ zānika u ikkisi, o'sha ikkisi	'ulā' ika Ular, o'shalar
muannas	تَاكَ tāka تِلْكَ tilka u, o'sha	تَانِكَ tānika u ikkisi, o'sha ikkisi	'ulā' ika Ular, o'shalar

Odatda yaqin predmetlarga nisbatan ko'rsatish olmoshlariga ها hā old qo'shimchasi qo'shib qo'llaniladi:

Jins	Birlik	ikkilik	Ko'plik
muzakkar	هَذَا hazā bu	هَٰذَانِ hāzāni bu ikkisi	هَٰؤُلَاءِ hā'ulā' i bular
muannas	هَٰذِهِ hāzihi bu	هَٰتَانِ hātāni bu ikkisi	هَٰؤُلَاءِ hā'ulā' i bular

SO'ROQ OLMOSHLARI

Arab tilida so'roq olmoshlari so'roq gaplarda qo'llaniladi. So'roq gaplar ohang yordamida ifodalanishi bilan birga so'roq olmoshlari orqali ham tuziladi:

مَنْ أَنْتَ – Sen kimsan? مَا هَٰذَا – Bu nima?

BIRIKMA OLMOSHLAR

Kishilik olmoshlarining ikkinchi turi birikma olmoshlar deyiladi va otga, predloglarga, fe'lga va yuklamalarga qo'shib kelishi mumkin¹. Birikma olmoshlar quyidagi shaklga ega:

shaxs	jins	Birlik	ikkilik	ko'plik
III	mz	هُـ	هُمَا	هُمَّ
	mn	هَـ	هُمَا	هُنَّ
II	mz	كـ	كُما	كُهم
	mn	كـ	كُما	كُنَّ
I	mz	يـ		نا
	mn			

Ot so'z turkumiga birikuvchi olmoshlar odatda egalikni bildiradi va o'zbek tilida egalik affikslari bajargan vazifani bajaradi² (-im, — ing, — i, — si). Boshqacha aytganda, qaratqich kelishigida kelgan kishilik olmoshlari bilan vazifadoshdir (mening ...im, sening ...ing, uning ...si (i) va ho.).

Masalan: كِتَابُهُ – Uning kitobi, سَيَّارَتُكَ – Sening mashinang.

AJRATUVCHI YOKI TA'KIDLOVCHI OLMOSH

Ot kesimli gaplarning kesimi ba'zan aniq holatdagi so'zdan iborat bo'ladi. Qiyoslang: Bu hayotdir -> Bu (siz bilan menga ma'lum bo'lgan) hayotdir. Buni o'zbek tilida quyidagi ibora yordamida ifodalash mumkin: "Hayot degani mana shu". Birinchi variant "Bu hayotdir" ilgari o'rganganimiz umumiy qoida asosida shakllanadi: هذه حياة. Ikkinchi variantdagi iborani ifodalash uchun gapning egasi bilan kesimi o'rtasiga ularga jinsda va sonda mos bo'lgan kishilik olmoshi qo'yiladi hamda shu kishilik olmoshi ajratish olmoshi deb yuritiladi.

Masalan: هذه هي الحياة — Hayot degani mana shu³

Olmoshlarning ingliz tilida bir necha turi mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

•Kishilik olmoshlari (Personal Pronouns)

I, you, he / she / it, we, they, me, him, her, it, us, them

•Egalik olmoshi (Possessive Pronouns)

my, your, his, her, its, our, their, mine, yours, his, hers, ours, theirs

•Ko'rsatish olmoshlari (Demonstrative Pronouns)

¹ Abdujabborov A. Arab tili. — T., 2005. B 51

² Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- T. 1997. B 66

³ Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: Ўқитувчи, -С.48.

this, that, these, those, such

•O‘zlik olmoshlari (Reflexive Pronouns)

myself, yourself, himself, herself, itself, ourselves, yourselves, themselves

•Birgalik olmoshlari (Reciprocal Pronouns)

each other, one another

•So‘roq olmoshlari (Interrogative Pronouns)

who, what, which, whose, whoever, whatever, whichever

•Nisbiy olmoshi (Relative Pronouns)

who, whose, which, that

•Noaniqlik olmoshi (Indefinite Pronouns)

some, something, somebody, someone, any, anything, anybody, anyone

•Inkor olmoshi (Negative Pronouns)

no, nothing, nobody, no one, none, neither

•Gumon (ayiruvchi) olmoshlari (Indefinite Pronouns)

other, another

•Umumlashtiruvchi (universal) olmoshlar (Universal Pronouns)

all, each, both, either, every, everything, everybody, everyone

Xulosa qilib shuni yozishimiz mumkinki, arab tili som tillari oilasiga mansub bo‘lib, uning grammatikasi boshqa som tillari oilasi grammatikasi bilan juda ko‘p o‘xshashliklarga ega. Klassik va zamonaviy arab tillari asosan bir xil grammatikaga ega bo‘lib, arabcha so‘zlashuv uslubi esa ko‘p jihatdan farq qiladi. Ingliz tili esa hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Shundan kelib chiqadiki, ikki til olmosh kategoriyalari o‘rtasida o‘xshashliklar umumiy bo‘lib, bu tillar etimologiyasiga bo‘liq emas. Yuqoridagi qiyosiy tahlillar esa bizga ikki tildagi bu grammatik kategoriyani o‘zlashtirishni osonlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М. 1985.С 48
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. — Т.,1997.В 66
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. — Т., 2005.В 51
4. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: 1981.

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA O‘SIMLIK NOMLARI BILAN BOG‘LIQ ISMLARNING O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Sarvinoz NISHONBOYEVA
TDSHU, Turkshunoslik fakulteti, 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Z. Salimova.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada, asosan, o‘simlik nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan turk va o‘zbek tillaridagi ismlar tahlil qilinadi. Shuningdek, turk va o‘zbek ismlaridan misollar berilgan va ularning bir-biriga muvofiqligi tahlil qilingan. Bundan tashqari, fitonimlar yordamida yasalgan ismlar formulalari berilgan va ikki til orasida qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: fitonimlar, ismlar, o‘simliklar, gul nomlari, muvofiqlik.

Dunyo aholisining turmush tarzini o‘simliklarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki qadimdan o‘rim-yig‘im bilan yashab kelgan va mevalar, ayniqsa, o‘simliklar dunyosi insoniyatning ajralmas qismiga aylangan. O‘simliklar dunyosi uning inson hayotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda, madaniy hayot uchun alohida ahamiyatga ega. Bu esa tilshunoslikda o‘simliklarni leksik-semetik va lingvistik-madaniy jihatdan o‘rganishni taqozo etadi. Inson yaratilgandan beri o‘simliklar bilan aloqada bo‘lgan. Ular gohida o‘simliklardan oziq-ovqat sifatida, gohida esa o‘z dardini davolash uchun dori sifatida foydalanishgan. Ikkala asosiy ehtiyojni ham qondiradigan o‘simliklar vaqt o‘tishi bilan qondirish ehtiyojlariga qarab yoki shakli o‘xshashligi natijasida turli nomlar ola boshladi. Bu o‘sinh insonning vaqt o‘tishi bilan boyib borayotgan so‘z boyligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.¹ Inson hayoti flora dunyosiga katta e’tibor qaratadi. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilishda, ularni turli diskursda (adabiy, she’riy, ilmiy) ko‘rib chiqish davom etmoqda.² O‘simliklar ko‘p jihatdan tekshiriladi va bu tekshiruvlarga muvofiq ravishda nomlar berila boshlandi. Hozirda barcha o‘simliklarni o‘z nomlari mavjud. O‘simliklarga nom berila boshlagandan keyin ularning nomlaridan insonlar o‘zlari uchun ism tariqasida ham foydalana

¹ Yasemin Y. Türkçe bitki adlarinin anlam bilimi açısından incelenmesi. doktora tezi. t.c. Sakarya üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü:2020. Ön söz

² Salimova Z. ”Turk va o‘zbek tillarida inson obrazining zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarda ifodalanishi”. Toshkent: 2023.B-93

boshlashdi. Shuningdek, nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlarning roli ko‘paydi. Xususan, gul nomlari qizlar uchun jozibador ismlarga aylana boshladi. Gullar go‘zallik va nafosat timsoli hisoblanadi. Odatda, gul fitonimi yordamida chiroyli, xushxulq va nafosatli ayollar obrazi aks ettiriladi¹. Stiv Wonder: “Sevgi guldek go‘zal bo‘lsa, onam sevgining go‘zal gulidir” – deb bejizga aytmagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, gullardan nafaqat ayollarning ismi sifatida, balki ularning go‘zalligini ta’riflash uchun ham qo‘llanilgan.

O‘zbek ismlari turli-tumanlik bilan ajablanarli, juda ajoyib qurilish va ko‘p qirrali qiymatga ega. Bu ismlar ekzotik va g‘ayrioddiy ko‘rinishi mumkin. O‘zbek ayollari ismida gullarga oid ismlarni uchratish mumkin. Chunki fitonimlarga oid ismlar odatda ayollarning nafis, dilbar va maftunkor go‘zalligini yoritib berish uchun xizmat qiladi. Misol tariqasida Lola ismini olish mumkin. Lola ismi loladek yashnagan, nafosatli, chiroyli, ko‘rkam, go‘zal qiz yoki lolalar ochilgan paytda tug‘ilgan qiz degan ma’nolarni anglatadi. Turklar har doim tabiat bilan chambarchas bog‘liq hayot kechirgan. Ular bu hayot davomida suvdan, daraxtlardan, o‘simliklardan, hayvonlardan va barcha tirik mavjudotlardan bahramand bo‘lishdi. Shu sababli ham turklarning tabiat bilan bo‘lgan aloqasi katta va buni barcha sohada uchratish mumkin. Shuningdek, tabiat nomlaridan olingan ismlar bunga yaqqol misol, bo‘la oladi. Bundan tashqari, yangi tug‘ilgan qizga gul nomini berish juda qadimiy an’anadir. Bola gul nomi bilan atalsa, go‘dak ulg‘aygach xuddi gullardek go‘zal bo‘ladi, deb ishoniladi. Bu e’tiqodga qo‘shimcha ravishda, gul nomlari juda ijobiy va go‘zal ma’nolarga ega hisoblanadi.

Turk va o‘zbeklar dunyosida gullar bilan bog‘liq bo‘lgan birliklardan qizlarni ismiga qo‘yishda keng foydalaniladi. Gul fitonimlariga oid ismlar qo‘yish, asosan, Turkiyada juda ham keng tarqalgan. Xususan, Yaprak, Fidan, Selvi, Kiraz, Ayçicek, Buket, Burçak, Çicek, Demet, Fulya, Gelincik, Gül, Gonca, Gülçicek, Kardelen, Nevgül, Nevra, Papatya, Süsen, Yasemin, Yonca, Yosun, Akasya, Reyhan va yana shu kabi ko‘plab ismlarni misol tariqasida olish mumkin. Bu ismlarning barchasi

¹ Salimova Z. ”Turk va o‘zbek tillarida inson obrazining zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarda ifodalanishi”. Toshkent: 2023.B-97

o‘simliklarga oid bo‘lib , har birining o‘zgacha ma‘nolari mavjud. Xususan, lug‘atlar Çiçek ismini o‘simlikning turli xil ranglari bilan bezatilgan xushbo‘y qismi deb atashadi. Ammo gul hayotni va hayot manbaini anglatadi. Bu go‘zallik va xushbo‘ylikni va chaqaloqqa bu nomni berish tabiatning eng go‘zalligini anglatadi. Ayçicek ismi esa oy kabi yorug‘ , guldek go‘zal degani. Kungaboqar quyosh chiqqanida o‘ngga buriladi, botganda esa unga ergashadi, shuning uchun u o‘zining go‘zalligini quyoshdan oladi. Kungaboqar quyoshdek go‘zal yuzli degan ma‘noni bildiradi. Bilamizki, gullarning turfa xil ranglari mavjud bo‘lib, gullarga oid ismlarda ham ranglar boshqa-boshqa ma‘nolarni anglatib ism ma‘nosini o‘zgartirib yuboradi. Masalan, turklardagi Akasya ismi bu gulning qizil, pushti, oq va sariq ranglari bor. Agar Akasya ismi oq akasiyaga nisbatan qo‘yilsa, do‘stlik ramzini anglatadi va bu do‘stlarni qadrlaydigan va do‘stlarini juda yaxshi ko‘radiganlar degan ma‘noni beradi. Sariq akatsiya esa platonik sevgini anglatadi. U izhor qilinmaydigan va izhor qilishdan uyaladigan sevgi gulidir. Pushti va qizil akatsiya bu go‘zallik, nafislik va nafosatni anglatadi. Jumladan, Lola ismi sevgini ifodalovchi nafis gul. U o‘z mavsumidan tashqari gullamaydi. Shuning uchun bu gul vaqtni qadrlaydigan gul hisoblanadi. Lola ismi ham ranglarga ko‘ra farqlanadi. Qizil lola sevgini tan olishni anglatrsa, sariq lola umidsiz sevgini anglatadi. Shuningdek, bu ismlar qizlarning ismiga yanada chiroy qo‘shadi. Çiğdem, lale, manolya, menekşe, nergis, nilüfer, orkide, yazgülü kabi gul nomlaridan olingan ismlarni ham uchratish mumkin. Ko‘p so‘zlardan, ayniqsa, o‘simliklar va mevalarning nomlaridan iborat shaxs ismlarining oldiga yoki oxiriga “atirgul” va “lola” so‘zlarini qo‘shish orqali hosil qilingan ismlarning sezilarli soni bor: Agagül, Akcagül, Akgül, Almagül, Aygül, Ayıtgül, Ayläle, Bagıtgül, Bahargül, Bâbekgül, Bâgül, Bibigül, Bikegül, Cumagül, Çemen, Çeper, Dessegül, Enegül, Ecegül, Ecekegül, Erikgül, Gızılgül, Gunça, Gül, Gülay, Gülbagt, Gülbahar, Gülbadır, Gülbibi, Gülbike, Gülcemal, Gülçeçek, Güldesse, Gülälek, Güli, Gülnar, Gülnur, Gülsoltan, Gülşen, Gültäç, Gülüstan, Gülzar, Leyli, Läle, Mamagül, Melevşe, Nargül, Nergis, Novgül, Novruzgül, Ogulgül, Pamıkgül, Ragna, Sarıgül, Sazakgül, Siñren, Soltangül, Sümbül, Tâzegül, Togtagül, Servigül, Üzümgül, Yaylagül, Yazgül, Yıpargül va shu kabilar shular jumlasidan hisoblanadi. Qo‘shimcha sifatida shuni ham

aytib o‘tish joizki, ba’zi so‘zlarga gül so‘zini qo‘shish orqali ham ko‘plab ismlar yaratilgan. Gül, gülay, gülderen, gülendami, gülören, güleser, gülser, gülseren, gülşah, gülşen, gülden kabi so‘zlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, Berdi Sariyev gül so‘zi bilan yasaladigan ismlarni 7 ta kategoriyaga bo‘lib izohlagan:

1. “Gül+İsim = İsim+Gül” formulasida yasalgan ismlar:

Gülay / Aygül, Gülbahar / Bahargül, Gülbibi / Bibigül, Gülbike / Bikegül,
Güldesse / Dessegül, Gülnar / Nargül, Gülsoltan / Soltangül

2. “Gül + İsim = İsim + (ı, i) + Gül” formulasi bilan hosil qilingan ismlar:
Gülbagt / Bagtıgül, Gültäç / Täcigül

3- “Renk + gül” formula bilan yasalgan ismlar: Akgül, Akcagül, Gızılgül,
Sarıgül

4- “Konum, yer bildiren sözcükler + gül” formulasi bilan yasalgan ismlar:
Sähragül, Yaylagül

5- “Akrabalık terimleri + gül” formulasi bilan yasalgan ismlar: Bábekgül
(Bebek) , Ogulgül (Oğul) , Agagül (Ağabey/abi, amca), Ecekegül (Abla) , Bibigül
(Hala/bibi), ENEGül (Anne/Nine), Ecegül (Anne), Mamagül (Büyükanne)

6- “Gün + gül” formulasi bilan yasalgan ismlar: Annagül, Adnagül, Cumagül

7- “Bayram günü + gül” formulasi bilan yasalgan ismlar: Ayıt + gül, Hayıt +
gül.¹

Shuningdek, tog‘ va cho‘l o‘simliklari nomidan olingan ismlar ham turklarda keng tarqalgan. Jumladan, Arca, Arcaveli, Arça, Arpapolat, Borcak, Borcakberdi, Çalı, Çemen, Çalı, Çerkez, Çınar, Çınarberdi, Çınarbibi, Çınargülü, Çomuç, Dagdan, Endap, Ezgen, Gandım, Gunça, Gücüm, Gürmek, Kerkav, Ketgen, Maysa, Maysabibi, Maysabike, Maysacemal, Maysagözel, Maysagül, Maysahan, Maysatäç, Mekge, Nergız, Nergiz, Nergizcemal, Nobar, Nobaralı, Ocar, Ocarberdi, Ocardurdı, Ocargülü, Pamık, Pamıkcemal, Pamıkgözel, Peşmek, Pudak, Pürli, Rana, Ragna, Reyhan, Reyhangul, Sazak, Sazakberdi, Sazakgul, Siñren, Sözen, Sümbül, Şemşat, Toplak,

¹ SARIYEV B. (2017). “Türkmen Ad Biliminin Botanik Gücü”, Berdi Sariyev — Türkmen Türkçesi ve Kültürü Üzerinde Makaleler (Haz.Emrah Yılmaz, Tuğba Yılmaz,) Ankara: Akçağ Yay., 105-113.

Torañni, Turşek, Yaprak, Yılgin, Yovşan va Yovşangeldi kabi ismlar ham fitonim nomlaridan olingan.

O‘zbek tilida ham fitonimlarga oid ismlarni ko‘p uchratish mumkin. Masalan, Rayhon, Nargis, Lola, Gunafsha, Jasmin, Binafsha va shu kabilar. Shuningdek, turk tili kabi o‘zbek tilida ham yuqorida keltirilgan Berdi Sariyevning yaratgan kategoriyasi kabi so‘zlardan oldin yoki keyin gul so‘zini qo‘shish orqali ham ismlar hosil qilingan. Xususan, Gulchehra, Gulmira, Gulsara, Gurnora, Gulnoza, Gulsanam, Gulhayo, Chinnigul, Mohigul, Gulzoda, kabilar shular jumlasidan hisoblanadi. Turk va o‘zbek tilidagi bu ismlarning ba’zi o‘xshashlik tomonlari ham mavjud. Masalan, Rayhon=Reyhan, Lale=Lola, Nargis=Nergis, Gulshan=Gulşen, Gulzar=Gülzar va yana shu kabi ismlar faqat talaffuzida farq qiladi, ma’nosi esa turk va o‘zbek tilida ham deyarli bir xil bo‘ladi. Qo‘shimcha sifatida shuni ham aytib joizki, xalq dostonlarida fitonimga oid ismlarni tez-tez uchratish mumkin. “Ravshan” dostonidagi ushbu parchani misol keltirish mumkin: “Avazxonga Gulqiz degan bir barno suluvni olib berib, uyini tushirib berib, davrini surib yuraverdi. Hasanxonga xon Dallidan bir o‘g‘il paydo bo‘ldi. Go‘ro‘g‘libek to‘ylar qilib, otini Ravshanbek qo‘ydi. Avazxon bir-ikki yildan so‘ng qizli bo‘ldi. Go‘ro‘g‘libek quvonib, suyunib, munga ham to‘ylar qilib, otini Gulnor qo‘ydi.”¹

Farzandlar uchun mukammal ismni tanlash haqida gap ketganda, ko‘plab otanonalar fitonim nomlarining go‘zalligi va ramziyligiga jalb qilinadi. Tabiatan ilhomlangan bu ismlar nafaqat tinchlik va tabiat dunyosiga aloqadorlik tuyg‘usini uyg‘otadi, balki kichkintoylarning shaxsiyatiga o‘ziga xos tuyg‘u qo‘shadi. Fitonim nomlari chuqurroq ma’noga ega va bola hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu tomonlama ham fitonim nomlari ism uchun ajoyib tanlov bo‘la oladi. Botanik nomlardan ism qidirayotganda bir qancha omillarga to‘xtalib o‘tish joiz hisoblanadi:

1. Ma’nosi va ramziy ma’nosi: Har bir botanika nomi o‘ziga xos ma’no va ramziy ma’noga ega. Masalan, Gelimcik bu yozda qishloqda o‘sadigan yorqin qizil gul. U unitilmas sevgilarni anglatadi.

¹ “Kuntug‘mish” va “Ravshan” dostonlar. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh nashriyoti. Toshkent:2011. B-165.

2. Talaffuz va imlo: Noyob va g'ayrioddiy ism tanlash ajoyib bo'lsa-da, uning talaffuzi oson va tushunarli imloga ega ekanligiga ishonch hosil qilish ham muhim omillardandir. Farzand butun hayoti davomida o'zini tanishtirishi va ismini ko'p marta yozishi kerakligini ham unutmaslik kerak. Murakkab talaffuzi yoki imlosi bilan ism tanlash keraksiz qiyinchilik yoki chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

3. Ommaboplik va trendlilik: Barchaga ma'lumki hozirgi kunda har bir sohada zamonaviylik katta rol o'ynamoqda. Shu sababli, ismning ommabopligiga ham urg'u berish lozim.

4. Ovoz va oqim: Ismlar tildan chiqadigan yoqimli va jarangdor ritmga ega bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, botanik nomlar bilan bog'liq ismlar insonga tabiiylik va go'zallik qo'shadi. Botanika nomlari nafaqat noyob va abadiydir, balki ular atrof-muhit bilan aloqani aks ettiradi va tabiatga muhabbatni uyg'otadi. Atirgul va yasemin kabi klassik variantlardan tortib, noodatiy nomlarga qadar har qanday afzallik va uslubga mos keladigan botanika nomi mavjud. Inson shaxsiyatiga botanika nomini qo'shish tabiiy dunyoni hurmat qilish va dunyoga hayrat va minnatdorchilik tuyg'usini uyg'otishning bir usuli hisoblanadi. Shunday qilib, ismlarni ko'rib chiqayotganda, an'anaviy variantlardan tashqari mavjud botanika nomlarining keng doirasini o'rganish kerak bo'ladi. Buni o'zbek tilida ham turk tilida ham tatbiq qilish esa ikki til doirasida so'z boyligining kengayishiga zamin yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sariyev B. (2017). Türkmen Ad Biliminin Botanik Gücü, Berdi Sariyev — Türkmen Türkçesi ve Kültürü Üzerinde Makaleler (Haz.Emrah Yılmaz, Tuğba Yılmaz,) Ankara: Akçağ Yay., 105-113.

2. Yıldız Y. (2021). Bitkilerin adlandırılmasında benzetmenin rolü. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi, 4 (1), 176-18.

3. Salimova Z. Turk va o'zbek tillarida inson obrazining zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarda ifodalanishi. Toshkent: 2023

4. Yasemin Y. TÜRKÇE BİTKİ ADLARININ ANLAM BİLİMİ AÇISINDAN İNCELENMESİ. DOKTORA TEZİ. T.C. SAKARYA ÜNİVERSİTESİ SOSYAL BİLİMLER ENSTİTÜSÜ:2020. Ön söz.

5. Bozorov H. Some remarks on phytonyms in uzbek folk-tales. Article. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) journal, Termiz:2022. P-151.

6. KABAK, T. (2018). Toplumsal Ekoloji Bağlamında Türklerin Doğa ile ilişkilerine Genel Bir Bakış: Mandıra Filozofu Filminin Düyündürdükleri. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi, 7(1), 276-291.

7. “Kuntug‘mish” va “Ravshan” dostonlar. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh nashriyoti. Toshkent:2011. B-165.

Internet saytlar:

1. www.wikipedia.org
2. <https://blog.ciceksepeti.com/kiz-bebekler-icin-cicek-isimleri/>
3. <https://m.sabah.com.tr>
4. <https://lotusmagus.com>
5. <https://astroneergo.ru>
6. <https://scholarexpress.net>

РАЗНИЦА МЕЖДУ ГРАММАТИКАМИ 이/가 И -은/는 В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Дильфуза АББАСОВА

ТГУВ, доцент кафедры корейской филологии

Шахноза АКРАМОВА

*Студент 3-курса кафедры истории, культуры,
политики и экономики корей*

Аннотация: будет познавательно для иностранцев и этнических корейцев, которые изучают грамматику корейского языка. Данная статья об окончаниях именительного падежа '-오|/가' и выделительной частицы '-은/는'. Эти две грамматики как двойняшки, в которых многие путаются. У каждой из окончаний есть своя работа, но именно в какое время они выполняют свою работу я не могла найти ответ. И долго не задумываясь я решила изучить различие этих двух окончаний. Надеюсь, моя статья поможет вам в дальнейшем правильно употреблять данные грамматики корейского языка и больше не путаться.

Ключевые слова: корейский язык, грамматика корейского языка, корейцы, падежи, выделительная частица, иероглифы.

한글(хангыль) с корейского языка переводится как алфавит. 한 означает великий, 글 – буква, письмо. Хангыль¹-Великие буквы, появились на свет еще в средние века, а именно в 1443 году группой корейских ученых, во главе которых был Седжон Великий². До появления Хангыля한자 (ханча)- китайские иероглифы играли ведущую роль в жизни Кореи, и по сей день 한국 사람들이пользуются иероглифами в научной литературе, газетах или же для записи слов китайского происхождения.

Создать из ничего, то что останется в памяти многих, то что принесет пользу и облегчит жизнь народу и сотни посещений мысли, что ничего не получится, недоверие в глазах людей, особенно любимых, просто изматывает и опускает руки человека! Вот что видели мои глаза, когда я смотрела фильм Чо Чхоль Хёна — Язык нации. Этот фильм заберет вас в древнюю Корею, где вы можете посмотреть, как создавался корейский алфавит. Сон Кан Хо сыгравший роль короля Седжона исповедует вам, как раздраженный король Кореи затрудняясь читать сложные китайские иероглифы, которые нужны были для молитвы богам решается создать буквы, которые будут понятны и легки в написании, чтении и запоминании. Тогда простолюдины, у которых не было в то время возможности получать образование и изучать письменность, тоже могли бы учиться и получать образование с помощью букв, а ни иероглифов. Из-за сложности иероглифов только дети, принадлежавшие высшему рангу могли получать образование. Досмотрев фильм я вздохнула со словами Слава Богу! Мы не живем в эру, когда нужно строить цивилизацию и открывать Америку как Колумб. И цивилизация, и Америка существуют, точно так же и с языками,

¹ Корейский алфавит. Ким О.А. Грамматические особенности частиц винительного падежа '-을/를' в корейском языке // Шарқшунослар анжумани. –Т.: ТошДШИ, 2009. –3-сон. – С. 96-102 (5 стр)

² 4-й ван корейского государства Чосон, правивший в 1418-1450 гг Ким О.А. Грамматические особенности частиц винительного падежа '-을/를' в корейском языке // Шарқшунослар анжумани. –Т.: ТошДШИ, 2009. –3-сон. – С. 96-102 (5-6 стр)

буквы и грамматики созданы, нам осталось всего лишь открыть и изучить глубже.

Подлежащее – это главный член в предложении, которому относятся остальные слова для описания действия или принадлежности предмета, отвечая на вопросы именительного падежа кто? что?

Имена существительные могут изменяться по форме, в результате чего получают различные окончания. Различные формы имен существительных называются падежными формами, а окончания – падежными окончаниями. Для того, чтобы научиться понимать корейскую речь и правильно говорить по-корейски, нужно усвоить правила употребления падежей и правила образования падежных форм.

Именительный падеж указывает на субъект предложения. Главные члены в предложении, выраженные именительным падежом, отвечают на вопросы кто? что? '-오/가' в корейском языке является окончанием именительного падежа. Употребляется для оформления подлежащего, в котором содержится новая информация ранее не упомянутая.

Если есть 받침¹ (патчим) добавляется окончания '-오'. Например:

책 – 책이 книга

잔 – 잔이 кружка

꽃 – 꽃이 цветок

В данном случае у вышеперечисленных слов имеется патчим, они заканчиваются на согласную букву, следовательно грамматике корейского языка к словам прибавляется окончание '-오'

Если 받침 (патчим) нет добавляется окончания '-가'. Например:

¹ Согласные буквы, которые завершают слоги и пишутся только после гласных. Ким.Н.Д. Корейский язык. Ташкент-2013 г. (29 стр)

나무 — 나무가 дерево

친구 – 친구가 друг

가수 – 가수가 певец

В данном случае у вышеперечисленных слов не имеется патчима, они заканчиваются на гласную букву, следовательно грамматике корейского языка к словам прибавляется окончание '-가'.

Примеры для употребления окончаний именительного падежа '-이/가' в предложениях:

방에 책이 있어요 – в комнате есть книга

카페에 커피가 없어요 – в кафе нет кофе

В этих предложениях мы передаем новую информацию и впервые употребляем слова книга, кофе. Мы не называем и не описываем предмет. Какая это книга? какое именно кофе? американо, латте или капучино? Мы не даем конкретную характеристику подлежащим и раньше не упоминали эти предметы, получается для слушателя это новое сообщение. И это является причиной прибавления к подлежащем окончаний именительного падежа '- 이/가'.

Выделительная частица или по-другому основной падеж '-은/는' является противоположностью окончаний именительного падежа '- 이/가'. В предложениях являются окончанием подлежащего и присоединяются к существительному. Отвечают на вопросы кто? что? Употребляются в случаях, когда предмет речи был уже упомянут, или же когда говорится о конкретном предмете речи, давая ему описания, чтобы донести слушателю об определенном предмете.

Если есть 받침 (патчим) добавляется окончания '-은'. Например:

옷 – 옷은 одежда

밥 – 밥은 варёный рис

돈 – 돈은 деньги

В данном случае у вышеперечисленных слов имеется патчим, они заканчиваются на согласную букву, следовательно грамматике корейского языка к словам прибавляется окончание '-은'

Если 받침 (патчим) нет добавляется окончания '-는'. Например:

엄마 – 엄마는 мама

우유 – 우유는 молоко

강아지 – 강아지는 щенок

В данном случае у вышеперечисленных слов не имеется патчима, они заканчиваются на гласную букву, следовательно грамматике корейского языка к словам прибавляется окончание '-는'.

Примеры для употребления окончаний основного падежа '-은/는' в предложениях:

이 사람은 의사예요 – этот человек является доктором

В данном предложении мы называем и делаем акцент на одного определенного доктора, этим самым передавая собеседнику точную информацию о конкретном человеке:

이 전화는 친구의 것이예요. – Этот телефон принадлежит другу.

В этом предложении точно также речь идет о конкретном предмете. Допустим учительница спрашивает: Кому принадлежит этот телефон? 이 전화가 누구의 것이예요? Ученик отвечает: 이 전화는 친구의 것이예요. В первом

предложении учительница употребляет окончание '- 가', потому что она в первый раз употребляет слово телефон - это новая информация, о которой она ранее не говорила. А во втором предложении ученик употребляет '- 는', потому что это слово уже было упомянуто учительницей, он делает акцент на телефон и тем самым дает понять именно какой телефон принадлежит его другу.

Если говорить не на языке грамматики, то '- 이/가' используется когда идет речь об объекте. А когда представление/знакомство, характеристика, понимающийся факт, сравнение/сопоставление, события и факторы используется '- 은/ 는'. Например:

저는 민수예요 – Я Минсу (представление/знакомство)

형은 대학생이에요 – брат студент (характеристика)

가을에는 비가 와요 – осенью идет дождь (разумеющийся факт)

대학교는 예뻐요 – университет красивый (сравнение)

내일에는 방학 있어요 – завтра каникулы (события и факторы)

Грамматика корейского языка для узбекоязычных может быть легче нежели для русскоязычных. Согласно источникам, корейский язык имеет генетическое родство с алтайской семьёй языков. К алтайской семье относятся: тюркские, монгольский и тунгусо-маньчжурские языки, подтверждая что корень этих двух языков один. Ввиду этого очень много сходств между грамматиками узбекского и корейского языков. А русский язык относится к индоевропейской группе языков и имеет родство со славянским, греческим, французским и английским языками. Исходя из этого можно назвать причину, по которой некоторые грамматики корейского языка даются сложно, что приводит к недопониманию русскоязычных изучающих корейский язык.

Как и говорилось ранее, если изучить язык глубже, то человек начнет понимать, и заучивание будет даваться легче. И со временем придет осознание того, что есть языки намного сложнее. Корейский язык с богатой историей, является милым, интересным и популярным на сегодняшний день. Доказательством этому могут послужить, например: китайский и японский языки, которые тоже известны, один благодаря экспорту, другой аниме передачами. Однако не всем под силу взяться за изучение китайских иероглифов и японских алфавитов, которые и являются преградой для распространения этих двух языков. Именно по этой причине Седжон Великий и пришел к выводу, что людям нужен корейский язык.

Список литературы:

1. М.А.Бакланова, Е.А.Хохлова, Ю Чжо Ен Корейский язык (Базовый курс). 2021 г.
2. Чун Ин Сун, А.В.Погадаева Корейский язык Издательство АСТ. 2018 г.
3. Т.А.Новикова, Н.В.Иващенко 기초 한국어 Учебник корейского языка Издательство АСТ. 2008 г.
4. А.В.Ан Корейская грамматика ООО «Издательство АСТ». 2021
5. Ким.Н.Д. Корейский язык. Ташкент-2013 г.
6. Чун И.С, А.В.Погадаева Корейский с нуля ООО «Издательство АСТ», 2022 г.
7. Чун И.С, А.В.Погадаева И. Л. Касаткина. Самоучитель корейского языка ООО «Издательство АСТ». 2022 г.
8. Ли Киён, Юн Чивон. Корейский язык. 2016 г.
9. Ким О.А. Грамматические особенности частиц винительного падежа '을/를' в корейском языке // Шарқшунослар анжумани. –Т.: ТошДШИ, 2009. –3-сон. – С. 96-102
10. Ким Джонг Сук, Пак Донг Хо, И БёнГ Гю и др. Грамматика корейского языка для иностранцев – 1. Комуникейшн букс, — Сеул. 2005.

TURK TILIDAGI TEZ AYTISHLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Sabrina MENGIROVA

TDSHU, Turkshunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD Z. Salimova

Annotatsiya: Mazkur maqolada, asosan, turk tilidagi tez aytishlar va ularning o‘ziga xosligi tahlil qilinadi. Shuningdek, turk tilidagi tez aytishlarning, o‘zbek tilidagi tez aytishlar bilan o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tez aytish, talaffuz, fonetika, ravon muloqot, tarjima, o‘xshashlik

Tez aytish – xalq og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan jumlar qo‘llaniladi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi. Masalan, besh mis barkash, besh mis barkashning ichida besh mis barkash. Tez aytishda har bir tovush o‘z o‘rnida to‘g‘ri, ravon talaffuz qilinishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan hisoblanadi. To‘g‘ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi.

Og‘zaki nutqda har xil talaffuz qilinadigan tovush, qo‘shimcha va so‘zdan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi to‘g‘ri talaffuz me‘yori hisoblanadi.¹ O‘tmishda katta yoshdagi odamlar ham o‘tirishlarda, to‘ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so‘z boyligini oshirishga va nutqning ravon bo‘lishiga xizmat qiladi. Turkcha tez aytishlar ham aynan shu hollarda qo‘llaniladi. Tez aytishlar o‘ziga xos mavzuga ega emas. Ular bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan va mumkin bo‘lmagan vaziyatlarni birlashtirib, qandaydir mantiqsiz xulosalar chiqarish orqali hayratlanarli effekt yaratadilar. Tez aytishlar, bolalarga tez-tez takrorlash orqali tinglash, gapirish va tilning barcha xususiyatlarini o‘rganish va yodlash odatiga ega bo‘lish imkonini beradi. Bolalar tez

¹ Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent:2008

aytishlari ertak, hikoya, topishmoq va xalq teatri kabi ba'zi adabiy janrlarda, bolalar o'yinlarida uchraydi. Turkcha tez aytishlarning turlariga ko'ra 4 guruhga bo'linadi: ertak tez aytishlari, o'yin tez aytishlari, marosim tez aytishlari va mustaqil tez aytishlar (faqat so'z o'yin qiymatiga ega.) Turk adabiyotida tez aytishlarning birinchi yozma namunalari XI asrdan topiladi. "Devon-u lug'otit turk" da ayrim tez aytishlar kiritilgan.

Tez aytishlar, bolalarning xatti – harakatlari rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi va bolalarning his-tuyg'ularini rivojlantirishda rol o'ynaydi. Tez aytishlar bolalarning o'z ona tilidan go'zal va qoidalariga muvofiq foydalana olishiga xizmat qiladi. Mavjud ona tiliga muhabbat oziqlanadi, ko'payadi va albatta, bu ularning tasavvurlarini boyitishiga yordam beradi. Yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, bolalarga omma oldida gapirish uchun jasorat beradi. Turkcha tez aytishlar bolalar o'yinlari va ertaklarining boshida, o'rtalarida va oxirida qo'llaniladi. Turkiyada mintaqaga qarab ham tez aytishlar turli nomlar olishi mumkin. Masalan, Sharqiy Anatoliyada "döşeme", Janubiy Anatoliyada "sayışma" so'zlari tez aytish ma'nosida qo'llanadi¹. Nutq va o'qish faoliyatida tez aytishlar bilan ishlash muhim o'rin tutadi. Ravon tildan foydalanish uchun tez aytishlardan foydalanish kerak. Hozir til ko'nikmalarini egallash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ayrim turkcha tez aytishlarga misollar ko'rib chiqiladi:

1) acaba sarımsaklasak da mı saklasak zamanı, sarımsaklamasak da mı gelir zamanı;

2) Âdem madene gitmiş. Âdem madende badem yemiş. Mademki Âdem madende badem yemiş, niye bize getirmemiş;

3) Alis'le Memiş mahkemeye gitmiş, mahkemede mahkemeleşmişler mi mahkemeleşmemişler mi?

4) be birader buraya bak başı bereli burma bıyıklı bastı bayan berberiyle bizim Bedri Bey birlikte bir pirinci birinci buluşta birbirine dizip Bursa pazarına indi Bir berber bir berbere "Bre berber, gel birader, biz beraber Berberistan'da bir berber dükkanı açalım." demiş. Endi turkcha tez aytishlarni bir necha turlari ko'rib chiqiladi:

¹ <https://www.turkedebiyati.org/tekerleme-nedir/>

Ertaklarda: turkcha ertaklarning boshida va ba'zan oxirida tez aytishlar kiritilishi mumkin. Bular odatda unchalik katta ma'noga ega emas, lekin ular tinglovchini real dunyodan ajratadi va ertakka tayyorlaydi:

Evvel zaman içinde

Kalbur saman içinde

Develer tellal iken

Pireler berber iken

Ben anamın beşiğini

Tıngır mıngır sallar iken.¹

“Qadim o'tgan zamonda, Somonda panjara, Tuyalar qichqirar edi, Burgalar sartarosh bo'lsa-da, Men onamning beshigiman, Sekin silkitar ekan”. O'zbek tilidagi ertaklarning mana bu ko'rinish bilan boshlanishiga o'xshatilishi mumkin: “Bor ekan, yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, chumchuq chaqimchi ekan...” Albatta, har bir xalqning xalq og'zaki ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ya'ni har bir xalq o'zining tarixi, madaniyati, urf-odatiga bevosita bog'liq holda xilma-xil va turli mavzularda bo'ladi. Qiziqarli tomoni, ertaklarning bu qismi turklarda tez aytish sifatida ham qo'llanadi. O'zbeklarda esa bunday emas.

O'yinlarda: ba'zi og'zaki o'yinlari butunlay tez aytishlar orqali o'ynaladi:

Kutu kutu pense

Elmamı yerse

Arkadaşım (...)

Arkasını dönse.

Bunday o'yinlar bizga begona emas. O'yin jihatidan turk tilida ham o'zbek tilida ham tez aytishlar mutlaqo qo'llaniladi.

Turklardagi yana bir qiziqarli tez aytishlardan biri bu hisoblash. Sanoqchi butun sanoq davomida barmog'i bilan o'yinchilarni birma-bir ko'rsatadi. Tez aytish tugagach barmog'i ko'rsatgan o'yinchi o'yinni tark etadi:

Ooo...

Portakalı soydum

¹ <https://tr.wikipedia.org/wiki/Tekerleme>

Başucuma koydum
Ben bir yalan uydurdum
Duma duma dum
Kırmızı mum
Dolapta pekmez
Yala yala bitmez
Ayşecik cik cik cik
Fatmacık cık cık cık
Sen bu oyundan çık.

Türk tili o‘zining boy unli tizimi va o‘ziga xos tovush uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatga hissa qo‘shadigan muhim tarkibiy qismlardan biri türk tilidagi so‘zlarning ko‘pchiligi uchun ohangni belgilaydigan unililar uyg‘unligidir. Ushbu asosiy tushunchani tushunish, agar türk fonetikasi tez aytishlar orqali o‘rganilsa, osonroq bo‘ladi.¹

Türkcha oson tez aytishlar:

1. Makas, makas, makas,
Ali dayı, noktaya bas,
Trampetler çalınıyor,
Yüzbaşılar darılıyor,
Darılmayın yüzbaşılar,
Can yürekten ayrılmıyor.
2. Gül dibi bülbül dili gibi, gül dibi bülbül dili.
3. Bu tesbihi imamelemeli mi, imamelememeli mi?
4. Bizde bize biz derler, sizde bize ne derler?

Türkcha bolalar tez aytishlari:

1. Pırıl pırıl gülüşler,
İnci gibidir dişler.
Bunlar karışık işler,

¹ <https://www.worldtranslationcenter.com/blog-posts/turkish-tongue-twisters-a-fun-exploration-of-turkish-phonetics>

Bu elmayı kim dişler?

Dişlerse öykü dişler,

İşte toz pembe düşler.¹

Türkçha qiyin tez aytishlar:

1. Şu yoğurdu sarımsaklasak da mı saklasak, sarımsaklamasak da mı saklasak?
2. Şemsi Paşa pasajında sesi büzüşesiceler.
3. Bu kara kantar kırk kilo kara katran tartar.
4. Dal sarkar kartal kalkar, kartal dal sarkar.²

Albatta, o‘zbek tilida ham qiyin tez aytishlar mavjud: qishda kishmis pishmasmish, pishsa kishmis qishmasmish va shu kabi juda ko‘plarini misol keltirish mumkin.

Türkçha eng uzun tez aytishlar:

1. Sizin dala konmuş, hallu, bellu, gabellu, kabak bas bel baykuşu, Bizim dala konmuş, hallu, bellu, gabellu, kabak bas bel baykuşuna, “Sen nasıl bir hallu, bellu, gabellu, kabak bas bel baykuşunun”, demiş. Bizim dala konmuş, hallu, bellu, gabellu, kabak bas bel baykuşu da, Sizin dala konmuş, hallu, bellu, gabellu, kabak bas bel baykuşuna.

2. Bir pirinci birinci buluşta bir inci gibi birbirine bağlayıp, Perlepe berberi bastıbacak Bedri ile beraber Balıkesir pazarına parasız giden bu paytak budala, babası topal Badi’den biberle bir papara yedi.

3. Kınıklı kılıbık kırpıntı Kıyasettin, Kırımlı kılkuyruk kıtmiri kıkır kıkır kıkırdatarak küşkütük küçümen küfeci külhaniyle külüştür Kürsat’ı külünlü küngür üstüne kütte dek devirdi.

Bunday tez aytishlarni ham uzun ham qiyin deyishimiz mumkin. Nafasini yaxshi ushlab turolmaydigan odamlar bulardan bittasini oxirigacha ham ayta olmasligi mumkin.

Türkçha eng qisqa tez aytishlar:

¹ <https://www.sabah.com.tr/galeri/yasam/tekerlemeler-en-zor-kolay-kisa-diksiyon-komik-oyun-ve-cocuk-tekerlemeler-ve-tekerleme-ornekleri/8>

² <http://www.tongue-twister.net/tr.htm>

1. Götür küpü, dök küpü. Getir küpü dök küpü. 2. Gül dibi, bülbül dili gibi. 3. Çarşıda kaza ucuz, çarşıda darı ucuz, çarşıda boza da ucuz mu? 4. Falcı, falcının falına, fasa fiso dedi. 5. Sudan çıktı iki su şadı, biri erkek şu şadı, diğeri dişi şu şadı. 6. Bu bankaya eski vezneder gelecek, bu bankaya eski vezne dar gelecek.

Türkcha eng kulguli tez aytishlar:

1. Bir iki tombul tekir

Camdan bakar

Başına takar

Hop, hop, altın top

2. Mustafa, Mıstık,

Arabaya kıstık,

Üç mum yaktık,

Seyrine baktık.

3. Leylek leylek havada,

Yumurtası tavada,

Gel bizim hayata,

Hayat kapısı kitli,

Leyleğin başı bitli.

4. Kuzu kuzu me

Bin tepeme

Haydi gidelim

Ayşe teyzeme.

5. Yağ yağ yağmur,

Teknede hamur,

Bahçede çamur,

Ver Allah'ım ver,

Sicim gibi yağmur.

6. Ayşe Hanımın keçileri,

Hop hop hopluyor,

Arpa, saman istiyor,

Arpa, saman yok,
Kilimcide çok.
Kilimci kilim dokur,
İçinde bülbül okur.
İki kardeşim olsa,
Biri ay, biri yıldız,
Biri oğlan, biri kız,
Hop çikolata çikolata,
Akşam yedim salata,
Seni gidi kerata.¹

Tez aytishlar tilning tovush naqshlarini tushunish uchun qiziqarli yondashuvni taklif qiladi va turk tili bundan mustasno emas. Turk tilining tez aytishlarini o‘rganib, ushbu ajoyib tilning fonetikasiga va u o‘z ichiga olgan madaniy jozibaga ega bo‘lish mumkin. Chet tilini o‘rganishda, so‘zlarning orfoepiyasini bilishda tez aytishlarning ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent:2008
2. S. Rahimov. B. Umurqulov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent:2003

Foydalanilgan internet saytlari:

- 1) <https://www.turkedebiyati.org/tekerleme-nedir/>
- 2) <https://www.worldtranslationcenter.com/blog-posts/turkish-tongue-twisters-a-fun-exploration-of-turkish-phonetics>
- 3) <https://www.sabah.com.tr/galeri/yasam/tekerlemeler-en-zor-kolay-kisa-diksiyon-komik-oyun-ve-cocuk-tekerlemeler-ve-tekerleme-orneklari/8>
- 4) <http://www.tongue-twister.net/tr.htm>

¹ https://mbirgin.com/?c=Cevap&TopicID=1102&t=ensevilentekerlemelersesli&v=https%3A%2F%2Fwww.archive.org%2Fdownload%2Fm1gin%2Fmbirgin.com%2Fuserfiles%2Faudio%2FSesli_Mesaj%2FSesli_Mesaj_Ozel_Bolum_-En_Sevilen_Tekerlemeler_Temmuz_2009.mp3

OGAHİY HIKMATLARI

Sevinch PO‘LATOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
1-kurs arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d.dots.O. Turdiyeva

Annotatsiya: Ushbu maqola Ogahiyning turli mavzularni qamrab olgan purma’no hikmatlari tahliliga bag‘ishlangan. Adibning hikmatlari o‘quvchi ongiga ta’sir etib, uning zehni oshirishga, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, fazilatlar, illatlar, nodonlik, sabr-u qanoat, Ayyub payg‘ambar, mehmondo‘st.

Dunyoda ko‘p donishmandlar, ko‘p san’atkorlar o‘tgan, lekin o‘zbek adabiyoti tarixida Ogahiydek serqirra ijodkor, mutarjim, yetuk muarrix (tarixchi) sifatida o‘zidan alohida iz qoldirgan shaxslarni uchratish qiyin. Ogahiydek buyuk adib ijodi haqida adabiyotshunos olimlarimiz salmoqli ishlarni amalga oshirganiga qaramay, Ogahiy ijodini o‘rganish va uning ustida tadqiqotlar olib borish adabiyotshunoslarimiz oldida turgan ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, adabiyotshunos olim, professor Ibrohim Haqqulov buyuk shoir Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning she’ri o‘ziga, o‘zi mohiyatiga, mohiyati badiiy zakosini yolqinlantirajak oliy haqiqatlarga uyg‘un kelib, shaxsiyati esa sir, irfon, fazilat maxzani bo‘lib qolaveradigan iste’dod sohiblari bu dunyoda siyrak uchraydi. Muhammad Rizo Ogahiy ana shunday zotlarning ham peshvolaridan. O‘z zamonasidayoq e’tirof etilganidek, u ogohlarning ogohi, haqgo‘ylarning sarboni, oriflarning shoiridir deb ta’riflagan.

Ogahiy nafaqat turli xil mazmun va mavzularni qamrab olgan yirik tarixiy asarlar muallifi, balki juda ko‘p janrlarda ijod etgan shoir hamdir. Bu esa uni yetuk va serqirra ijodkor ekanligining dalilidir. Jumladan, Ogahiy g‘azal, muxammas, mustazod, murabba’, masnaviy, qasida, tarje’band, ruboiy tuyuq, chiston, muammo, marsiya va boshqa janrlarda o‘z iqtidorini namoyon qilgan. Shuningdek, u yozib qoldirgan hikmatli so‘zlari ham mavjudki, bu hikmatlar shoirning insonparvarlik xususiyatini yanada ko‘proq ochib beradi. Ogahiy hikmatlarining ahamiyatli jihati

shundaki, adib o‘z hikmatlarida insonga xos bo‘lgan fazilatlar – kamtarlik, halollik, rostgo‘ylik, mardlik, adolat, sahiylik, insof, bashariyat muammosi bo‘lgan ko‘pgina illatlar –yolg‘onchilik, nomardlik, rahmsizlik, munofiqlik kabilarni keng va chuqur falsafiy mushohadalar asosida juda chiroyli, insonning qalbiga bevosita kirib boradigan badiiy estetik mahorat bilan bayon qilgan. Uning hikmatlari she‘riy shaklda hamda sharqqa xos bo‘lgan pandnoma uslubida yozilgan. Hatto adibning ko‘pgina hikmatlari maqol darajasiga ko‘tarilib, xalq ichida maqoldek jaranglaydi.

Uning quyidagi hikmatlaridan birida nodonlik va nodon kishilar haqidagi fikr ilgari suriladi:

*Ey ko‘ngul, odam xayol aylab dema nodonga so‘z,
Chunki ul inson emas, topsang deyil insonga so‘z.
So‘zdur inson ko‘ngluda bir gavhari qimmatbaho
Oni xor etma debon har hushi yo‘q hayvong‘a so‘z.¹*

Adib jamiyatdagi illatlarning sababchisi johillik va nodonlik deb hisoblaydi. Chunki ma‘rifatli jamiyatda haqiqat hamda adolat ustuvorlik topishi tabiiy hol. Shuning uchun ham shoir ushbu hikmatning birinchi baytida nodonga gapirishdan qaytaryapti. Inson ongi bilan ma‘rifati-yu aqli bilan hayvondan ajralib turadi. Agar bu xislatlar insonda bo‘lmasa, demak uning martabasi hayvon bilan barobardir. Ikkinchi baytida esa so‘z gavhardek ulug‘ va qimmatbaho, uni nodon kimsaga aytib isrof qilmaslikni aytadi, zero hayvon gavhar qadrini bilmaganidek nodon ham so‘z qimmatini tushunmaydi.

Shoir insonning qadr-u qimmatini oshiradigan fazilatlardan biri, ya‘ni qanoat haqida shunday yozadi:

*Qanoat go‘shasida xoksor o‘lmoqni odat qil,
Agar yetmak tilarsan mehr yanglig‘ avji izzatg‘a.²*

Ogahiyning ushbu hikmatida qanoat quyoshga qiyoslanadi. Quyosh asta-sekin ko‘tarilgani kabi, sabr-u qanoatga odat qilgan kishi ham asta-sekin izzat-ikrom va yuqori darajaga erishadi.

¹ Ogahiy. Hikmatlar. E.Ochilov .– Toshkent: TDSHU , 2021, 27-bet

² Ogahiyning badiiy kashfiyotlari. Ma’sul muharrir B. To‘xliyev. – Toshkent, TDSHU, 2021, 5-bet

*Ey ko'ngul, vasl istasang sabr et balo-yu dardg'a
Kim muqarrab Tangrig'a bu shevadin Ayyub erur.¹*

Shoir yuqoridagi yana bir hikmatida sabr-u qanoat qilish borasida Ayyub payg'ambardan o'rnak olishga chaqiradi. Qur'oniy qissalardan ma'lumki, Ayyub Xudo tomonidan jo'natilgan barcha balo-yu qazoga rozi bo'ladi, ya'ni yetti o'g'li-yu yetti qizidan judo bo'ladi, sog'ligi va boyligi ham qo'lidan ketadi, shunga qaramay u sabr qiladi va yolg'iz Xudoga suyanadi. Bu sabr-u qanoatini ajri sifatida Yaratgan uning barcha yo'qotishlarini qaytarib beradi.

Quyidagi hikmat esa inson ishida muvaffaqiyatga erishish uchun bu dunyoning aldovlari-yu, o'yin kulgulariga berilmasdan himmatli bo'lishga da'vat etadi. Shuningdek gunoh qilishdan qochib, doim yaxshilik qilishni uqtiryapti.

*Gar istasang ishingam olam aro kushoyish,
Adlu sahou bazlu himmatni ayla varzish
Shardin bo'lub gurezon, xayr aylamakni qil ish...²*

Boshqa bir hikmatda mehmondo'stlik haqida gap boradi, ya'ni unda uyga mehmon kelganida unga uy to'ridan joy berish, mehmonnavozlik qilishga targ'ib qilinadi, zero mehmon xoh do'st bo'lsin, xoh dushman, uning izzatini joyiga qo'yishni odatga aylantir, deydi shoir.

*Agar mehmon sanga bo'lsa muyassar,
Ango joying uyin joy et muqarrar.
Chu mehmon do'stingdur xoh dushman
Ochiq yuzlikni-yu izzatni qil fan.³*

Tongda erta uyg'onish fazilati haqida shoir shunday deydi:

*Tongda uyg'onmoq saodatdin nishon inson uchun,
Baxtsiz aylar uyquda bo'lsa gado-yu shoh subh.⁴*

Ya'ni, erta tongda uyg'onish insonni saodatli qiluvchi bir xislat ekanligi ilmiy va amaliy isbotlangan masalalardandir. Ogahiy saharda uxlashdan qaytarib, agarda

¹ Ogahiy. Hikmatlar. E.Ochilov. – Toshkent: TDSHU, 2021, 66-bet

² Ogahiy. Hikmatlar. E.Ochilov. – Toshkent: TDSHU, 2021, 180-bet

³ Shu asar, 134-bet

⁴ Shu asar, 7-bet

tongni uyqu bilan qarshi olsa bu shohni ham gadoni ham birdek baxtsiz qiladi, deya ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida shuni shuni aytish mumkinki, mutafakkir shoir Ogahiy hikmatlari insonga pand-o'gitlar beradi. Ularni o'qigan inson o'zini chiroyli amal va go'zal xulq ila bezaydi hamda undan ko'p saboqlar oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ogahiy. Hikmatlar. E.Ochilov. – Toshkent: TDSHU, 2021
2. Ogahiy. Jamoling jilvasi (to'plovchi, so'z boshi va izohlar muallifi E.Ochilov) – Toshkent. O'zbekiston, 2013
3. Ogahiy musammatlari. Gulnoz Xalliyeva. – Toshkent "MUMTOZ SO'Z", 2019
4. Ogahiyning badiiy kashfiyotlari. Ma'sul muharrir B. To'xliyev. – Toshkent, TDSHU, 2021
5. Ogahiy ijodiy merosi va Sharq adabiyotida adabiy an'ana. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. -Toshkent, 2022
6. Ibrohim Haqqul. Ogahiyning shaxsiyati va she'riyati xususida & Ogahiy. Devon. - Toshkent, 2019

OGAHIIY NAZMIDA FASLLAR TASVIRI

Ruxsora SHUKUROVA

*TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti xalqaro jurnalistika yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d dots. O. Turdiyeva*

Annotatsiya: Maqolada Muhammad Rizo Ogahiy nazmida tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlar tahlil qilingan. Ogahiyning g'azal, ruboiy, masnaviy va hikmatlarida fasllar tasviri ifodasi go'zal ranglarda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, fasl, peyzaj, ruhiyat tasviri, she'riyat.

Ogahiyning sal kam yigirma ming misrali she'riy merosi turkiy tilda yozilgan bo'lib, "Ta'viz ul oshiqin" devonida to'plangan. Ogahiy devonidan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy-didaktik, ishqiy va boshqa mavzudagi she'rlar joy olgan. Ularning aksariyati turli mavzularda bo'lishiga qaramasdan, shoir ijodida tabiat tasviriga bag'ishlangan bir qancha she'rlarni ham uchratishimiz mumkin. Tabiat, fasllar tasviri berilgan she'rlarida Ogahiyning peyzaj ustasi, mahoratli, chinakam san'atkor ekanligi namoyon bo'ladi.

Ogahiy nazmda fasllar muhim ahamiyatga ega bo'lib, shoir ruhiyatini aks ettirishga xizmat qiladi. Xususan, fasllar tasviri go'zal ta'riflangan shuningdek, ijodkor fikrlarining o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Ogahiy fikricha, bahor kelishi nafaqat tabiat uyg'onishi, balki, qalblardagi sevgining qayta uyg'onishi, kuchayishi uchun darak bergan go'zal fasldir. Bahorni faqat tabiat emas, oshiqlar ham kutishini ta'kidlagan shoir fikrlari quyidagi ruboiysida yaqqol ko'rinadi.

Yetkurdi safo yer yuziga fasli bahor,
Ochildi gul-u, lola-yu, nasrin bisyor.
Kelgilki, chamanlar ichra bazm tuzub,
No'sh aylag'ali tarab, ey yor.

Ogahiy tabiat go'zalligining inson ruhiyatiga ijobiy ta'sirini va natijada paydo bo'ladigan ezgu fikrlarni olqishlaydi.¹

Shoir ijodida qish – odamlarni qiynaydigan, azob beradigan fasl sifatida qalamga olinadi. Shunday bo'lsa-da, muallif qish mavsumida kishiga rohat beradigan ba'zi jihatlarni ham ta'riflagan, o'ziga xos xususiyatlari go'zal o'xshatish va jonlantirishlar bilan ochib berilgan. Yoz va kuz fasllari ham o'zining betakrorligi bilan shoir ijodidan chetda qolmagan. Fasllar tarovati, go'zalligini tasvirlashda shoir tashbeh, tashxis, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi. So'zimiz isboti sifatida quyidagi she'riga to'xtalamiz:

Navbahor ayyomi bo'lsa har kim ayshu bog'siz,
Loladek bir lahza g'amdan ko'ngli ermas dog'siz.
Kimsa bo'lsa bog'i bo'stonsiz agar fasli bahor,
O'yla naxledurki, bo'lg'oy shoxu yafrog'siz.
Har ko'ngulkim, bog' aro ishrat mayidin shod emas,
Mash'aledurkim, yorug'liq yo'qtur onda yog'siz.
Har kishi koshonasikim bo'lmasa bog'i oning,
Yoz ayyomida bir do'zax erur uchmog'siz.
Bordurur qishdin sovuqroq suhbatin garm aylamak

¹ Ogahiyning badiiy kashfiyotlari. – Toshkent. 2021. 24-bet

Yoz fasli yor birla uyda bog‘u rog‘siz.¹

Bu misralar har bir o‘quvchida bahor fasli va uning kirib kelishiga atab yozilgandek tasavvur uyg‘otadi. Unda fasli bahor jonlantirilgan holda, oshiq ruhiyati ham fasl bilan uyg‘unlikda aks etganini his etish mumkin. Masalan, birinchi baytda navbahor ayyomi bog‘larsiz, ko‘ngilxushliklarsiz bo‘lsa, har kim loladek, g‘amdan ko‘ngli dog‘ bo‘lishi, ikkinchi misrada, agar bahor bog‘-u bo‘stonsiz keladigan bo‘lsa, o‘yla (naxledurki) “nihol”lar shox-u yaproqsiz bo‘lishi, bahor insonga kayfiyat bag‘ishlaganidek ko‘chatlarga shox va yaproqlar baxsh etishi tasvirlangan. Keyingi baytlarda har bir ko‘ngil ham xursandchiliklardan shod emasligi yog‘siz mash‘alaga qiyoslanadi. Ya’ni shoir g‘amgin kishilarni yog‘i bo‘lmaganligi sabab yorug‘ligi yo‘q mash‘alaga o‘xshatib (tashbeh) san’atidan foydalangan. Har bir kishining uyida bir bog‘i bo‘lmasa, yoz ayyomida issig‘dan qiynalishi (uchmog‘siz) “jannat”siz bir do‘zax bo‘lishini ta’kidlagan ijodkor, so‘nggi misrada qishdan ham sovuq suhbatni (garm) “issiq” aylashning, yoz faslida bog‘u-rog‘siz ham yashashning iloji borligini “yor bilan birga bo‘lish” deb hisoblagan.

Ko‘rganimizdek, bahor, qish va yoz fasllari o‘zining xususiyatlari bilan shoir ruhiyatini, fikrlarini to‘liq ochib bergan. Adibning nazm durdonalari chuqur ma’noga ega. Shoir she’rining kompozitsiyasini qurish-dan boshlab, so‘z, qofiya tanlashga ham juda katta e’tibor bergan. She’riyatni omma hayotiga, jamiyat muammolariga, kundalik turmush jumboqlariga bevosita yaqinlashtirishda Ogahiyning xizmati katta. Shoirning mahorati falsafiy mushohadalarga boyligi sababidan hanuzgacha o‘quvchilar qalbidan joy olib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shoir ijodi serqirra va turli tuman mavzular ko‘lami bilan alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Shoir she’riyatida fasllar tasviri ruhiy holat bilan uyg‘unlikda ochib berilgan. Ogahiy fikricha, dilga tushgan muhabbat, bu dard emas, balki, qalbni davolovchi, uni nopokliklardan tozalovchi malham, hatto, qishda iliqlikni, yozda salqinlikni ta’minlovchi vosita hamdir. Mazkur misralar mazmunini to‘la-to‘kis tushunish uchun ishqning martabalari haqidagi tasavvurni esga olish joiz bo‘ladi.

¹ Ogahiy. Hikmatlar. E. Ochilov. – Toshkent. TDSHU, 2021. 70-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ogahiy ijodiy merosi va sharq adabiyotida adabiy an‘ana masalasi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent-2022w.w.w. tsuos.
2. Ogahiy. Hikmatlar. E. Ochilov. – Toshkent: TDSHU, 2021.
3. Ogahiy. Jamoling jilvasi (to‘plovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi E. Ochilov) – Toshkent. O‘zbekiston, 2013.
4. Ogahiy musammatlari. Gulnoz Xalliyeva.–Toshkent “MUMTOZ SO‘Z” , 2019.
5. Ogahiy ijodiy merosi va Sharq adabiyotida adabiy an‘ana. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. -Toshkent, 2022.
6. Ibrohim Haqqul.Ogahiyning shaxsiyati va she‘riyati xususida & Ogahiy. Devon.-Toshkent, 2019
7. Ogahiyning badiiy kashfiyotlari. –Toshkent, 2021

OGAHIY TUYUQLARI

Feruz TOJIBOYEVA

*TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti, 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: TDSHU f.f.n., dotsenti R. Alimuhammedov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tariximizda tarixchi, shoir va tarjimon, davlat va jamoat arbobi sifatida nom qoldirgan Ogahiyning lirikasi haqda so‘z yuritiladi. Maqolada uning tuyuq janriga oid ijod namunalari tahlil qilingan bo‘lib, so‘z ma‘nolari farqlangan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, izlanishlar, tuyuq janri, lirika, so‘z ma‘nolarining farqlanishi, so‘z ishlatish mahorati, ma‘noning turfaligi.

“Adabiyot – jamiyat bag‘rida tug‘ilar ekan, jamiyat qonunlari, ijtimoiy islohotlar, siyosiy jarayonlar ham badiiy asar mazmuni va mohiyatiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Chunki uni yozayotgan adib, tarixchi yoki shoir o‘zi yashayotgan davrining vakili sifatida xalqning orzu-armonlaridan tortib, dard-u muammolarigacha his qiladi. O‘z ko‘ngil orasidan o‘tkazib, tuyg‘ular bilan boyitib, “oddiy voqea”ni san’at darajasiga yetkazadi”¹. Shunisi ayonki, qaysi davr shoir, adibining asarini o‘qisak, o‘sha davr muhitini his qilishimiz sababi ham ana shunda. Adabiyotimizning buyuk darg‘alari Alisher Navoiy asarlarida o‘zgacha, Bobur, Atoyi asarlarida o‘zgacha bir taftni his qilamiz. Bulardan

¹ Янги Узбекистоннинг исте’додли ёшлари. Тошкент. Та’лим нашриёти.2021-йил.304-бет.

tashqari, Ogahiy asarlari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ogahiyning ijodini uning tarjimalari, tarixiy asarlari va she'riyatiga ajratish mumkin. Ogahiy she'riyati o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. "Ogahiy ijodini o'rganish asrimiz boshlarida chet el va rus olimlari tomonidan boshlangan. Jumladan, V.Bartold, S.Tolstov, N.Veselevskiy, A.Kun, P.Ivanovlar, shuningdek, o'zbek olimlaridan M.Yo'ldoshev, Ya.G'ulomov, Q.Munirov, V.Zohidov, S.Dolimov, Yu.Yusupov (Ayyomiy), va boshqa ko'plab allomalarimizning xizmatlari hurmat va ehtiromga loyiq¹. Shoirning ijodiy merosini ko'lami va badiiyati jihatidan Navoiyga muqoyasa qilsa bo'ladi.Uning tarixiy asarlari taniqli sharqshunos olim Q.Munirov tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, qisqa sharh va izohlar bilan cheklanilgan, xolos.Shoir lirikasi xususida ham qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Shulardan V.Zohidovning Ogahiy lirikasi bo'yicha qilgan tadqiqotini keltirish mumkin"².

Ogahiy turli xil janrlarda ijod qilgan bo'lib, qay birida ijod qilmasin, barchasida faqat rost so'zni aytadi, ko'ngil uchun muomala qilmaydi. Eng ajoyib janrlardan biri bo'lmish tuyuq uning ijodida miqdor jihatdan ko'p bo'lmasa-da,tuyuq janrining ko'zga ko'ringan namunalari deya olamiz. Shu o'rinda tuyuq haqida qisqacha ma'lumot berishni lozim topdik: "Tuyuq Turkiy xalqlar yozma adabiyotiga xos janrlardan biri bo'lib, ko'p asrlardan buyon rivojlanib keldi. Sharqshunos va adabiyotshunos olimlarning fikrlariga ko'ra, tuyuq janrining klassik poetika talablariga mos keluvchi ilk namunalari Burxoniddin Ahmad Sivasiy qalamiga mansubdir. Tuyuqning o'zbek yozma adabiyotining janri sifatida to'la shakllangan va badiiy ijod jarayonida ancha keng qo'llanilgan va bu janrning atamasi sifatida tuyuq so'zining qo'llana boshlashi davri XIV asrning so'nglari va XV asrlarga to'g'ri keladi"³. "Tuyuqning asosiy xususiyati shundaki, unda to'rtlik sifatida qofiyalashga e'tibor qilinsa-da, ham eshitalishda bir xilda bo'lsa-da, biroq omonim tarzida har xil ma'noni bildirishi lozim"⁴.

Ogahiyning tuyuqlarida faqatgina yor vasli kuylamaydi, unda insonning ma'naviy komillikka intilishi, axloqiy yetuk darajaga yetishishi uchun undov chaqiriqlar, har narsadan yaxshilik qidirish, shukr qilish kabi g'oyalarni ilgari suradi.

¹ Огахий абадияти -Тошкент. Узбекистан. 1999- йил. 105-бет.

² Огахий абадияти -Тошкент. Узбекистан. 1999- йил. 105-бет.

³ Р.Орзубеков.Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент. 1976. 91-бет.

⁴ Р.Мажидий. Огахий лирикаси. – Тошкент. 1963. 102-бет

Dardi zahri soldi chinlar qoshima,
Kelmadi xolim so‘rarg‘a qoshima,
G‘am yukini chekmakda, ey dil, chobuk o‘l,
Xargiz ushbu ishda boshing qoshima¹.

Yuqorida keltirilgan satrlarda: birinchi satrda “qoshima” so‘zi qosh ma’nosida (insonning qoshi), ikkinchi satrda oldimda, yonimga ma’nosida qo‘llanayotgan bo‘lsa, to‘rtinchi satrda “qashlamoq” (bosh qashlamoq) ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lib, misra so‘nggida shoir pushaymon bo‘lma, qo‘y deya o‘ziga tasalli beradi.

Bo‘ldi kun umrung kuning vaqti tush
Nafsi sarkash otini ko‘p chopma, tush,
Xobgoh etgil qanoat manzilin,
Yo‘qsa hargiz ko‘rmagungdur rost tush².

Bu to‘rtlik tuyug‘da esa birinchi “tush” peshin vaqtini ifodalayapti. Bu bilan shoir umrining yarmi o‘tib bo‘lganini, yarmi “peshini” kelganini aytmoqchi. Ikkinchi satrda esa “tush” tushmoq fe‘l ma’nosida ifodalanyapti, ya’ni umring ham yarmiga kelib qoldi, endi nafsni aytganiga quloq solma, qanoat manzilini o‘z go‘shangga aylantir deya nasihat qiladi. To‘rtinchi tush esa “tush ko‘rmoq” ma’nosidagi “tush” (ot so‘z turkumi).

Chehrasining garchi muhriq nori bor,
Bergusi doim niholi nori bor,
Sig‘mog‘ung bazmi aro, ey muddaiy,
Termulub turma bu yerda, nori bor!³

Yuqoridagi to‘rtlikda garchi “nori bor” so‘zi 3 marta kelgan bo‘lsa-da, ikki xil ma’noni ifodalagan: birinchi va to‘rtinchi misralarda “kuyduruvchi o‘t”, ikkinchi misrada esa anori bor ma’nosida.

G‘am yuki to qomatim yo qilmadi,

¹ Мухаммад Ризо Огахий. Ишк ахлининг тумори. – Тошкент. Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти. 1999. 155-бет.

² Мухаммад Ризо Огахий. Ишк ахлининг тумори. – Тошкент. Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти. 1999. 155-бет.

³ Мухаммад Ризо Огахий. Ишк ахлининг тумори. – Тошкент. Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти. 1999. 155-бет.

Oxim o‘tig‘a falak yoqilmadi,
Qilmadi rahme manga, xud o‘zgaga,
Bilmadim kim, qildimu yo qilmadi?¹

Birinchi satrdagi “yo qilmadi” ma’nosi “ega olmadi, buka olmadi”. Ikkinchi misrada esa “yoqilmoq” (fe’l) ma’nosida, to‘rtinchi misrada ikkilanish tarzida qildimikin yo qilmadimikin degan mazmun bor.

“Ogahiy tajnis so‘zlar orqali ruboiylar, qit’lar, g‘azallar ham bitgan. Bu hol shoirning o‘zbek tili imkoniyatlarini juda sinchiklab kuzatganligidan, ulardan unumli foydalanganligidan dalolat beradi.

Uch baland aylab qanot,
Kim ering xirs aylamish qa’ri qanot,
Ilginga olib riyozat toshini,
Kibru naxvat boshin ul toshdin qanot.

- tuyug‘ida “qanoat” omonimi “qanoat” “qonatish” (buyruq fe’li) ma’nolarida kelib, muhim didaktik tezisini xizmat ettirilgan”².

Ogahiyning nafaqat tuyuqlari, har bir sohada, janrda qilgan ijodi maqtovgga loyiqdir. Ogahiy o‘z lirikasi ta’sir kuchini oshirish uchun yana boshqa xilma xil she’r tuzulishlari va shakllarini qo‘llaydiki, insonning bahri-dili ochiladi:

Dardu dilim anga dedim, dema ani manga dedi,
Kim manga oshiq o‘lsa, ul lozim erur ango dedi.
Yuz uza ikki nargising, vah, ne balo, qaro dedim,
Ko‘nglungu joning olg‘uchi ikki qaro balo dedi,
Lablaring og‘zima yetur, jon topayin ango dedim,
Lali tabassum aylabon yo‘qmu o‘lum sango dedi.³

Yana:

Ko‘rmasam mehru jamolin mohi anvarni netay,
So‘rmasam lali zulolin, obi kavsarni netay.

¹ Мухаммад Ризо Огахий. Ишк ахлининг тумори. – Тошкент. Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти. 1999. 155-бет.

² Р. Орзубеков. Туюк поэтикаси. – Тошкент: Узбекистон. 1985. 19-бет.

³ Р. Мажидий. Огахий лирикаси. – Тошкент. 1963. 130-бет.

Qaddining ra'no niholin gar tomosho qilmasam,

Bog' aro nazzorai sarvu sanavbarni netay.¹

Ogahiy asarlarini qancha chuqur o'rgansak, unda ifodalangan ma'noning qanchalar chuqur ekanini guvohi bo'laveramiz. Tuyuq janrida uning ijod qilishi ham so'z boyligini qanchalar chuqur ekanini, so'zlarni mahorat bilan qo'llay olishidan dalolat beradi. Tuyuqda boshqa janrlarga qaraganda estetik zavq olish hissi ko'proq, buni sababi ham shoirning rang barang so'zlarni jilolantirishida, aslida. Ogahiy esa bu vazifani to'la to'kis uddalay oldi deya ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Янги Ўзбекистоннинг исте'додли ёшлари. Тошкент. Та'лим нашриёти.2021-йил.
2. Огахий абадияти – Ташкент. Ўзбекистон. 1999. 151 бет.
3. Р.Орзубеков.Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент. 1976. 168 бет.
4. Р.Мажидий. Огахий лирикаси. – Тошкент. 1963. 138 бет.
5. Мухаммад Ризо Огахий. Ишк ахлининг тумори. – Тошкент. Абдулла Кодирий номидаги халк мероси наширйоти.1999. 320 бет. –
6. Р.Орзубеков. Туёк поетикаси. – Тошкент: Ўзбекистон. 1985. 23 бет. –

MAQOL VA MATAL JANRDAGI BADIY XUSUSIYATLAR

Elinur USMONOVA

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 106-guruh

Ilmiy rahbar: O'zbek filologiyasi fakulteti

Folklorshunoslik va dialektologiya kafedراسи

katta o'qituvchisi H. Aliqulova

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan maqollardagi paremlar hamda ularning o'z va ko'chma ma'nolari xususida so'z yuritiladi. Ushbu maqolada maqol tipidagi paremlarni turli xil shakllarda tahlil qilib, maqollarning ma'no mazmuni yuzasidan amalga oshirilgan tahlillarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: maqol, parema, tahlil, umumbashariy, ko'chma ma'no ,o'z ma'no.

Har bir xalqning og'zaki ijodi uning fe'l-atvori, urf-odati va an'analari, orzu-

¹ Р.Мажидий. Огахий лирикаси. – Тошкент. 1963. 130-бет.

intilishlari va tabiatini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘zgudir. Xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lmish maqollar asrlar davomida misqollab to‘plangan, ne- ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelayotgan noyob xazinadir. Shuning uchun ham maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo‘lib, unda ibratli fikr aytiladi. Shu haqiqat bilan maqolni ibratli so‘z deyish ham mumkin.

Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini yuqorida aytilganidek, tugal fikr tarzida qat’iy ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma- xilligi, iboralarning turg‘unligi shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanilish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so‘zga alohida e’tibor berish kerak. Ularda shunday so‘zlar borki, bu so‘zlar tarixda butunlay boshqa ma’nolarni anglatgan. Masalan, **tuz** so‘zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so‘z **to‘g‘ri, odobli; dala, tekislik** ma’nolarini anglatgan va faqat maqollardagida saqlanib qolgan. “Qiz saqlasang, tuz saqla. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo‘l¹”.

Maqollar so‘z san’ati mahsuli sifatida o‘z ma’noda va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi mumkin. Maqollarning so‘zlari ko‘pincha ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘ladi. Ularni o‘z ma’nosida tushunsak kutilgan ma’no chiqmaydi. Masalan, “Elga xizmat – oliy himmat” maqolidagi so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llangan. Lekin “Olmaning tagiga olma tushadi” maqoli ma’no jihatdan o‘z ma’nosida emas. Bu maqol aslida ”olma” haqida emas, balki inson va uning fe’l-atvori haqida. Shuning uchun ham bu maqol ko‘chma ma’noda ishlatilyapti.

Ma’lumki, til ko‘p qirrali hodisalarni aks ettiradi, tilda tipik, barqaror kategoriyalar bir qatorda oraliq hodisalar ham uchrab turadi². Bunday holatni maqollarda ko‘rish mumkin. Chunki ular tugal fikrni ifodalash xususiyatiga ega.

Maqol va matal oralig‘ida keng ko‘lamda maqol-matal tipidagi ifodalar joylashgan bo‘lib ular o‘zida maqollik va matallik xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday ifodalarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ularda qism so‘zlar

¹O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent – 2005. 5-bet

²Федорова А.К. Трудные вопросы синтаксиса. М., 1972. С. 3.

o‘z ma’nosida ishlatilsa ikkinchi qism ko‘chma ma’no ifodalaydi¹. Bu haqida yuqorida ham ta’kidlab o‘tdik.

Quyida esa paremiologik lug‘atlarda maqol-matal tipidagi paremalarning quyidagi shakllarini uchratishimiz mumkin.

1. Ikki mantiqiy markazdan iborat bo‘lib, grammatik jihatdan bitta gapga teng keluvchi paremalarda birinchi mantiqiy markaz o‘z ma’nosida qo‘llanadi:

a) bu mantiqiy markaz bitta so‘zdan iborat bo‘ladi: “**Jon** koyitmay, ish bitmas²”;

b) juft so‘z bo‘ladi: “Kamtar kerilmaydi, **Mol-dunyoga** berilmaydi³”;

c) ibora bo‘ladi: “**Beti qattiq** buyurmagan ovqatni ichadi”.

2. Ikki mantiqiy markazdan iborat bo‘lib, grammatik jihatdan bitta gapga teng keluvchi paremalarda ikkinchi mantiqiy markaz o‘z ma’nosida qo‘llanadi: “Tavakkal — **erning yo‘ldoshi**”.

3. Grammatik jihatdan ikki gapga teng keluvchi paremalarda birinchi gap o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘ladi: “**O‘rgimchakdek o‘rmala**, Bedanadek yo‘rg‘ala”.

4. Grammatik jihatdan ikki gapga teng keluvchi paremalarda ikkinchi gap o‘z ma’nosida qo‘llanadi: “Eplashga ep kerak, **Bog‘lashga — ip**⁴”.

5. Grammatik jihatdan ikkidan ortiq gaplari mavjud bo‘lgan paremalarda keyingi bir nechta gap o‘z ma’nosida qo‘llanadi: “Abjir bo‘lsa farzanding, Cho‘ldan non terar. **Yalqov bo‘lsa farzanding, Yerdan don termas**⁵”.

6. Grammatik jihatdan bir necha gapdan iborat maqol – matal tipidagi paremalarda faqat birinchi so‘z o‘z ma’nosida keladi: “**Husning** bo‘lguncha baxting bo‘lsin”.

Yuqorida keltirilgan misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘z ma’nosida qo‘llanuvchi bo‘lak umumiy ko‘chma ma’no ifodalovchi qismning mazmunini reallashtiradi shu bilan birgalikda aniqlashtiradi ham undagi mazmunni

¹Жуков В.П. Словарь русских пословиц и поговорог. М., 1966. С. 11.

²Mirzayev T.O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. 33-bet.

³O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent – 2005. 185-bet.

⁴O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent — 2005. 206-bet.

⁵O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent — 2005. 200-bet.

tezroq va aniqroq ilg'ab olishga ko'maklashadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, xalq maqollari bu boyligimizdir. Otabobolarimiz siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir. Maqolda xalqning tarixi, urf-odati, turmush tarzi, fe'l-atvori, boringki, butun borlig'i aks etadi. Shunday ekan maqollar xoh o'z ma'noda xoh ko'chma ma'noda qo'llansin ammo u orqali anglashilgan fikr, ma'no-mazmun biz uchun kerak va biz undan kerakli o'rinlarda foydalana bilsak, har doim hamroh qilsak fikrimiz yanada oydinlashadi va ravshanlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Federov.A.K. Трудные вопросы синтаксиса. – М., 1972. С. 3.
2. Jukov.V.P. Словарь русских и поговорок. М., С. 11.
3. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: Sharq, 2016.
4. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: Sharq. 2005.

OGAHY G'AZALLARIDA ISHQ MAVZUSI

Parvina KAZAKBOYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi I. Xudoynazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiyning qisqacha tarixi va ijodidagi ishq mavzusiga to'xtalib o'tdik. Shoirning ishq mavzusida yozilgan bir necha g'azallari, ruboiylari, musammanlari tahlil qilingan. Shuningdek, she'rlarida tasvirlagan badiiy vosita obrazlari hamda shoirning o'sha davrdagi ijtimoiy qarashlariga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Ta'viz ul oshiqin”, “Devoni forsiy”, bayt, mustazod, obraz, radifli g'azal, “Yorima ayting”, “Gul yuzing siymosi”, “Qomati sarvu yuzi gul”, musamman, “Ey ko'ngil”.

Muhammad Erniyozbek Ogahiy (1804-1894) o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalaridan hisoblanadi. U Xorazmda yashab, ijod qilgan. Ogahiy merosini o'rganish bugungi kunda keng omma orasida tadbiiq etilyapti. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi Muhammad Rizo

Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to'g'risidagi qarori¹ bunga yaqqol misoldir.

Ogahiy Xivadagi adabiyotning yetuk namoyandasidir. U o'z hayot yo'lida juda barakali ijod qildi. Shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli ulkan devoni bir necha janrlarda yaratilgan. Devonga "Ash'ori forsiy" nomi bilan jami 20 ming misradan ortiq she'rdan tarkib topgan. Devondagi asarlar mazmun-mundarijasi markazida ishq mavzusi turadi.²

Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita, she'riyatida ish-iymon, e'tiqod, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan: o'zigacha bo'lgan 7-8, 10-12 baytli g'azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan. Uning ushbu ishqiy g'azali mustazod janrining qo'sh orttirma misrali shaklida yozilgan³:

*Ey yor, sanga ushbu jahon bog'i aro gul bir oshiqi hayron,
diydoriga shaydo,*

*Bir shuyftadur kokili mushkulinga sumbul ham holi parishon,
ham boshida savdo.⁴*

Ogahiy ham, ulug' sharq allomalari izidan borib, oshiqlik martabasiga loyiq bo'lish uchun sadoqat, halollik va chidam matonatni birlamchi deb hisoblaydi. Shoir nazdicha, bu fazilatlardan mosuvo kishi oshiqlik nimaligini anglamaydi va bilmaydi.⁵

*Har kimki, tariqi ishq aro sodiq emas,
Oshiqlik oningdek kishiga loyiq emas.*

Har nechaki cheksa tun-u kun uhu fig'on,

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 2019 yil 20 martdagi 280-sonli Qarori.

² Abdullayev. V "O'zbek adabiyoti tarixi". Toshkent, O'qituvchi, 1964. 347-b.

³ Dolimov. S "Ogahiyning hayoti va ijodi". Toshkent. 1963. 12-b.

⁴ Ogahiy "Ta'viz ul oshiqin". Qo'lyozma. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qo'lyozma instituti. Inv.N.938,7443.

⁵ Vohidov. R, Eshonqulov. H "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi". Toshkent. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006. 403-404-b.

*Bilgilki, jamoli yorg'a oshiq emas.*¹

Ogahiy lirikasida sevgi bilan bog'liq bo'lgan har qanday tuyg'u kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga shoirning shu masalaga munosabati, oshiqning sevgi bilan bog'liq bo'lgan turli kechinmalari: visol, hijron, firoq, rashk va hokazo tusidagi tuyg'ularini ifodalash yo'sinida ko'rinadi. Ogahiyning "Yorima ayting" radifli g'azalida ham shunday munosabatlar bayon etilgan.²

Dunyodagi barcha lazzatni inson go'zalligi va o'z yorini sevgan, bu sevgiga butun borlig'i bilan berilgan, nozik yurak to'lqinlarini chuqur sezadigan, o'z yoriga hattoki dardlarini aytishga haddi sig'maydigan oshiq obrazi jonlantirilgan.

*Ko'nglum g'amin, ey do'stlarim yorima ayting,
Jonim alamin la'li shakarborima ayting.[6]*

Bu baytda birinchi baytdagi g'oya davom ettiriladi. Koshki mening bu dardlarimni eshitib, rahm qilib, kulbamga kelsa, men uni zor bo'lib kutishimni vafodoringga ayting, deb murojaat qiladi.

Ogahiy g'azallarida lirik qahramon ko'nglidagi ish darajama-daraja yuqori pog'onaga ko'tarilib boriladi. Ko'ngliga olovdek ish tushgach, qahramon ishq hajrida to'l-g'onadi, yoridan shikoyat qila boshlaydi, qiyinchiliklarini tasvirleydi va asta-sekin yorining go'zalligini, uning naqadar ishonuvchan ekanligini, ming noz-u adosi ila oshiqni naqadar o'tga solganligini Ogahiy g'oyat ustalik bilan ritmik kuyga soladi. Oshiq g'oyatda matonatli, yoridan har qancha jabr ko'rmasin, undan aslo voz kechmaydi.

*Voh, menga qahr etib ul qotili bebok sanam,
Beradur zahri jafo,
Iltifot aylabon ag'yorg'a, tinmay bir dam,
tutadir jomi vafo.*³

¹ Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1 jild. Devon. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. 190-348-388-b.

² Ogahiy she'riyatidan. Toshkent. 1983. 120-b.

³ Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1 jild. Devon. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. 190-348-388-b.

Oshiq uchun yor go'yoki har dam joniga jabr qiluvchi bir qotil sifatida gavdalanadi. Shu o'rinda ma'shuqa oshiq ko'ngliga ishqdan o't soldi-yu o'zi tinimsiz unga jabr etadi, ishqila mast qiladi-yu, bu yo'lda uni har dardga muhtalo etadi.

Shuningdek Ogahiy ishqiy g'azallarida ma'shuqani gul obrazida ham ifodalagan. Ogahiyning tasviricha, ma'shuqani ko'rganda husnda tengsiz bo'lgan gul ham yoqasini yuz pora qiladi. Chunki, yorning go'zalligi aql-u hushdan judo qila olish xususiyatiga egadir. A.Rustamov fikriga ko'ra, gul – oshiqning ma'rifatni egallash uchun ishtiyoqi kuchaygan yoshlik davridir¹. Binobarin o'z ko'nglidagi kuchli ishtiyoqni ma'rifat nurlari bilan nurafshon etib, kamolotga erishgan oshiq irfon eshiklari ochilgach, betimsol bir hayratda qoladi. Baytda uch bora qo'llangan “gul” yorning yuzidan tashqari, oshiq va uning yosh qalbidagi kuchli ishtiyoq va hayratni ham ifodalaydi.

Gul yuzingni toki ko'rdi, ey pari ruxsora gul,

Jaybini devonalardek ayladi yuz pora gul.[6]

Ogahiy “Gul yuzing siymosi” g'azalida shunday misralarni tizgan:

Yuzi gulzorida zulfi sunbulin dom aylagach,

Bir nazar holing'a ul sho'x gulandom aylagach.[6]

Baytda zulfi sunbuli bilan oshiqqa tuzoq qo'ygan gul yuzli, sho'x gulandom xususida so'z yuritilmoqda.

Shoirning “Qomati sarvu yuzi gul” g'azalida quyidagi misralar uchraydi.

Jilva qilsa qachon ul qomati sarvu yuzi gul

Ish mango nolau qumriyu fig'oni bulbul.[6]

Oshiq qomati sarv daraxtidek, yuzi esa guldek go'zal yori jilvasini ko'rganda qumridek nola, bulbuldek fig'on chekishini ma'lum qilmoqda.

Ogahiy musammanlari ham g'oyat yuksak mahurat va badiiyat bilan yozilgan. Musammanlarining asosiylari ham ishq mavzusidadir. Bunga Ogahiyona uslubda yozilgan “Ey ko'ngul” musammani misol bo'la oladi. Bu musammaning 11-bandida shunday deyilgan:

Ishq manga bo'lmish ul oy ko'yida maskan aylamak,

Dardlig'aybot o'qub, holing'a shevan aylamak,

¹ Rustamov. A “So'z xususida so'z”. Toshkent. Yosh gvardiya. 1987. 42-43-b.

*Husni vasfin g'azal birla mubarhan aylamak,
Masnaviy ichra g'ami ishqin mubarhan aylamak,
Ogahiy yanglig' ruboiy san'atin fan aylamak,
Fikr ila dilkash muxammaslar muzayyan aylamak,
Lek emas erdi hadim nazmi musamman aylamak,
Bo'ldi bu jur'atg'a bois hukmi sulton, ey ko'ngul.¹*

Ushbu bandda oshiq ma'shuqa ko'yida dardli she'rlar bitish, unga atab g'azallar, masnaviylar, ruboiylar, dilkash muxammaslar yozishni o'ziga kasb qilib olganligi aytiladi. Zimdan bir oshiq timsolida shoirning o'zini ko'ramiz.

Barcha ulug' shoirlardek Ogahiyda ham dard va hasrat ko'p. U oshiq sifatida tole'sizligi, zamonning kajrafligi, adolatning qo'li qisqaligi, dono va aqllarning xor-zorligi va qalbi dardga to'lganligidan zorlanadi. Lekin Ogahiyda hasratga, kulfat g'ussaga qullik yo'q. Aksincha, hasrat uning maslagiga tobe, g'ussa uning idrok va hissiyotiga qaramdir. Chunki Ogahiyda tafakkur va tahayyul maqomi balanddir.²

Ogahiy ijodi juda serqirradir, uni hali ko'p o'rganish zarur. Chunki Ogahiy qaytib bo'lmas daholar sirasiga kiradi. U hayotning har jabhasida o'zini namoyon eta olgan o'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiydan keyingi o'rinda turuvchi yozuvchidir. Shoir merosida nafaqat tarixshunoslik, tarjimashunoslik sohasi balki ishqiy g'azallar va she'rlar ham muhim o'rin egallaydi. Insonni haqiqiy hurlikka, ruhiy kenglikka olib chiquvchi birgina vosita bor, u ham bo'lsa – ishq. Ana shu ishq orqali kishi Allohga yetadi. O'zining va olamning mohiyatini, sir-asrorini anglaydi. Bu tuyg'u faqatgina sevgi bilan chegaralanib qolmay, balki vatanga muhabbat tuyg'ularini ham namoyon etadi. Ogahiy ijodida ishq mavzusi shunday g'oyalarni ilgari suradi. Shoir haqiqiy mohir qalam sohibidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 2019 yil 20 martdagi 280-sonli Qarori.

¹ Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1 jild. Devon. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1971. 388-b.

² Haqqulov. I "She'riyat. Ruhiy munosabatlar". Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1990. 240-b.

2. Abdullayev. V “O‘zbek adabiyoti tarixi”. Toshkent, O‘qituvchi, 1964. 347-b.
3. Dolimov. S “Ogahiyning hayoti va ijodi”. Toshkent. 1963. 12-b.
4. Ogahiy “Ta’viz ul oshiqin”. Qo‘lyozma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qo‘lyozma instituti. Inv.N.938,7443.
5. Vohidov. R, Eshonqulov. H “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”. Toshkent. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. 403-404-b.
6. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1 jild. Devon. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1971. 190-348-388-b.
7. Ogahiy she’riyatidan. Toshkent. 1983. 120-b.
8. Rustamov. A “So‘z xususida so‘z”. Toshkent. Yosh gvardiya. 1987. 42-43-b.
9. Haqqulov. I “She’riyat. Ruhiy munosabatlar”. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1990. 240-b.

XX ASR IKKINCHI YARMIDA BAHRAYN HIKOYANAVISLIGINING RIVOJLANISH BOSQISHLARI

*Muxlisa ABDULLAJONOVA
TDSHU, Arab filologiyasi yo‘nalishi
3- bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar:fil.f.n.,dots. Sh. Ahmedova*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fors Ko‘rfazi arab mamlakatlaridan biri bo‘lgan Bahrayn adabiyoti xususida soz yuritilgan. Shuningdek, qisqa davr mobaynida Bahrayn adabiyotida jadallik bilan turli xil oqimlar, yo‘nalishlar vujudga kelganligi yoritilgan..

Kalit so‘zlar: Fors ko‘rfazi, Bahrayn, XX asr ikkinchi yarmi, hikoyanavislik, Xalaf Ahmad Xalaf, Muhammad al –Majid, realizm, modernizm.

Zamonaviy Bahrayn adabiyoti Fors Ko‘rfazida joylashgan boshqa arab mamlakatlari singari endigina rivojlanish hamda jahon adabiyotiga chiqish jarayonini boshidan kechiryapti. Zamonaviy tUSDagi adabiy jarayon yo‘liga Fors ko‘rfazi davlatlari XX asr ikkinchi yarmidan boshlabgina qadam tashlashganliklariga qaramasdan, hozirda u jadal bilan rivojlanmoqda. Bunga sabab qilib, hozirgi zamonaviy sharoitlarda jahon adabiyoti boshidan kechirgan tajribalarini keng axborot texnologiyalari orqali olish mumkinligini olishimiz mumkin¹.

¹ Sh.Ahmedova. Formation and improvement of realistic story in Kuwait and Bahrain literature. Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences

Nisbatan qisqa davr mobaynida Bahrayn adabiyotida tezlik bilan turli xil oqimlar, yoʻnalishlar vujudga kelyapti. Hali bir adabiy oqim toʻliq shakllanib ulgurmasidan oldin, uning oʻrniga boshqasi paydo boʻlyapti, natijada, uning mavzusida Misr, Suriya, Livan davlatlarida boʻlgani kabi oʻzgacha bir jarayon yuzaga kelyapti.

XX asrning 50-60-yillarida Bahrayn zamonaviy novellistikasida boshqa janrlar bilan bir qatorda, realistik yoʻnalishlar ham mavjud edi. Bu Bahraynda neft topilganidan soʻng yuz bergan keskin oʻzgarishlar, ulkan iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishlarni toʻgʻri qabul qila olmaslik, tez hazm qila olmaslik natijasi sifatida qaraladi. Shu paytning oʻzida realizmning shunday yoʻnalishi ham paydo boʻldi-ki, u bor ijtimoiy sharoitlarni inobatga olgan holda insonning uni oʻrab turgan borliq bilan boʻlgan munosabatini aks ettirishga urinadi. Shu asrning 70-yillariga kelib, Bahrayn adabiyotida yuqorida koʻrsatib oʻtilgan oqimlarning modernizm gʻoyalari bilan jipslashishi kuzatiladi. Bunday vaziyatdan foydalangan yosh adabiyotshunoslar ularni oʻrab turgan, tez surʼatlar bilan oʻzgarib borayotgan dunyoni, unga boʻlgan oʻz munosabatlarini oqqa koʻchirishga urindilar.

Neft manbalarining topilishidan ilgari Bahrayn madaniyati arab – musulmon madaniyati asosida tashkil topgan edi. Bahrayn madaniyatida Islom dini va u bilan bogʻliq qadriyatlar, aholi hayot tarzi oʻz aksini topgan¹. Qadimda va hozirda ham butun arab mamlakatlari uchun yagona boʻlgan milliy adabiy til arab dunyosini vujudga keltiradi, bu til ularni har doim oʻzaro bogʻlab kelgan va bu holat adabiyotda ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Bundan tashqari Bahrayn yana boshqa bir guruh bilan aloqador-ki, bu – Fors koʻrfazi mamlakatlaridir. Umumiy mentalitet, qadriyatlar, bir-biriga oʻxshab ketadigan udumlar, qarashlar, axloq normalari ularni oʻzaro birlashtiradi.

Bahrayn ob-havosi, tabiiy sharoitlari qattiq boʻlganligi sababli, uning aholisining hayoti faqatgina hayot uchun zaruriy xom-ashyolarni topish, kun kechirishga qaratilgan edi va oʻz-oʻzidan bunday sharoitlarda madaniyat, sanʼat masalalariga

Volume 2 | Special Issue 6 June 2022, ISSN: 2181-1784. (SJIF 2022: 5.947).- P.410

¹ Sh. Ahmedova. NARRATIVE RPOSE IN THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF AND FEATURES OF ITS ACCELERATED DEVELOPMENT. Literary Imagination. Issue 3 (2), Oxford University Press 2017. -P.752

e'tibor qaratilmasdi. Albatta, ma'lum bir shaxslar adabiyot bilan, xususan, she'riyat bilan shug'ullanishardi, lekin, ular ozchilikni tashkil qilgan.

XX asr 80-90 yillariga kelib Bahraynda hikoyanavislik ham rivojlandi. Zamonaviy iste'dodli hikoyanavislar qatoriga Muhammad Majidni ham qo'shish mumkin¹. Adabiyotda realizm tarafdori bo'lgan, zamonaviy Bahrayn novellasining asoschisi Xalaf Ahmad Xalafdan farqli ravishda Muhammad al -Majid hayot mazmunini izlayotgan insonning ichki dunyosiga o'z e'tiborini qaratadi. Bu yo'nalish Bahrayn adabiyotida juda ham kuchlidir, bu haqda G'arb adabiyoti ta'siri ostida bo'lgan Omin Solihning ijodi ham dalolat beradi. Muhammad Majidning qarashlari u o'zi e'lon qilgan "Hayot ma'nosizdir, har bir inson unga o'zi ma'no bersin" shiorida o'z ifodasini topdi. Uning "Qayg'uli simfoniya dan lahzalar" deb nomlangan novellalar to'plamidagi qahramonlar o'z maqsadiga erishish yo'lida, avvalambor, muhabbatga erishishda mag'lubiyatga duch keladilar. Ular o'zlarini jamiyatga, atrofdagilarga qarshi qo'yadilar va yolg'izlikdan iztirob chekadilar. Qahramonning ruhiy azoblarini chuqurroq ochib berish, uni hayot bilan qarshiligini ko'rsatish maqsadida metafirik obrazlardan foydalanadi. Muhammad al -Majid qofiyali nasrda yozilgan "Tarix tubidan 3 qo'shiq" deb nomlangan hikoyalar to'plamining muallifidir².

Zamonaviy Bahrayn hikoyanavisligining rivojlanishi realistik hikoyalar asoschisi hisoblangan Muhammad Abdul Malikning nomi bilan uzviy bog'liqdir. U "Biz quyoshni sevamiz" va "Furgon egasining o'limi" deb nomlangan hikoyalar to'plamining muallifidir. Muhammad Abdul Malik asosan shahar va qishloqlarda yashayotgan, zulm va savodsizlikka muvaffaqiyatsiz qarshi chiqayotgan qashshoq va kambag'allar taqdiri haqida yozadi. Muallif o'z qahramonlarining harakatlari va voqealarini batafsil tasvirlaydi. Muhammad Abdul Malikning ijodida shaxsning "begonalashishi" mavzusi ham mavjud. "Kamalak" deb nomlangan hikoyada yozuvchi ziyoli inson obrazini yaratganida jamiyat va o'z-o'zi bilan konfliktda bo'lgan qahramonning ikkilanishini ko'rsatadi. Uning qahramoni o'zining ruhiy inqirozi sababini tushunishga besamara foyda qiladi.

7. - ص. 1981 غلوم ابراهيم عبد الله. القصة القصيرة في الخليج العربي. الكويت و البحرين. مطبعة الارشاد. بغداد،¹

15. - ص. 1981 غلوم ابراهيم عبد الله. القصة القصيرة في الخليج العربي. الكويت و البحرين. مطبعة الارشاد. بغداد،²

Muhammad Abdul Malik romannavis sifatida ham mashhurdir. 1980yilda uning “Yonayotgan ko‘mir” deb nomlangan romani nashr etildi. Romanda u dialogdan keng foydalanadi, bunda dialog uzuq–uluq bo‘lib, bu dialogni tasvirlanayotgan voqealar bilan bog‘lash qiyin. Bu esa o‘z navbatida, asarni tushunilishini qiyinlashtiradi.

Muallif ko‘p narsa haqida ishchilarning taqdiri, ularning pudratchilar bilan munosabati, mamlakatdagi ish to‘xtatish harakati haqida hikoya qilib berishga harakat qiladi.

Darhaqiqat, Muhammad Majid hamda Muhammad Abdul Malik¹ hikoyalari orqali hududdagi xalqni bezovta qilgan hayotiy kolleziyalar va ijtimoiy hodisalar haqida yetarli darajada tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Bu adiblar qaysi bir badiiy uslubga yondashmasinlar, ular real zamindan uzilmas edilar. Ular ijodida o‘quvchini ko‘p jalb etadigan narsa bu — yorqin obraz suratlarini muayyan tarixiy shart — sharoitlar bilan chegaralangan turli voqeliklar asosida qurilganligidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr 80-yillarda Bahrayn adabiyoti ancha takomillashdi, unda tashqi muhit tasviri bilan insonning ichki dunyosini ko‘rsata oladigan, psixologik tahlilga tayangan asarlar yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. غلوم ابراهيم عبد الله. القصة القصيرة في الخليج العربي. الكويت و البحرين. مطبعة الارشاد. بغداد، 1981. ص. 735 – 735.
2. الشباط عبد الله احمد. ادباء في الخليج العربي. –الكويت، دار الوطنية الجديدة للنشر و التوزيع. الرياض، 1986. ص. 357.
3. Sh.Ahmedova. Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.,2021. 188b.
4. Sh.Ahmedova. Formation and improvement of realistic story in Kuwait and Bahrain literature. Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences Volume 2 | Special Issue 6 June 2022, ISSN: 2181-1784. (SJIF 2022: 5.947).- P.410-417
5. Sh. Ahmedova. NARRATIVE RPOSE IN THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF AND FEATURES OF ITS ACCELERATED DEVELOPMENT. Literary Imagination. Issue 3 (2), Oxford University Press 2017. - P.752- 760

3. – ص. 1986 الشباط عبد الله احمد. ادباء في الخليج العربي. –الكويت، دار الوطنية الجديدة للنشر و التوزيع الرياض،¹

ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ ДЖУБРАНА ХАЛИЛА ДЖУБРАНА И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ПРОРОК»

Бахтиёр САИДОВ
ТДШУ, направление арабской филологии
студент 3-го курса (вечерней) арабско английской группы
Научный руководитель: к.ф.н., доц. Ш. Ахмедова

Аннотация: В данной статье мы исследуем духовное наследие Джубрана Халила Джубрана, сосредотачиваясь на его влиянии на современное общество в контексте духовно-нравственного воспитания. Мы анализируем основные темы и идеи, заложенные в “Пророке”, и рассматриваем их актуальность и важность для современных поколений. Статья предлагает новый взгляд на ценность этого произведения в формировании духовных и моральных ценностей в современном мире, подчёркивая его роль как неиссякаемого источника вдохновения и мудрости.

Ключевые слова: Пророк, творчество, духовно-нравственные аспекты, актуальность, вдохновляющее воздействие, современное общество, новый взгляд, ценность, роль, источник вдохновения, духовность и нравственность.

Джубран Халил Джубран (6 января 1883 года Бишари Ливан) – выдающийся ливанский писатель, поэт и мыслитель оказавший глубокое воздействие на человеческую душу¹. Его знаменитое произведение “Пророк”² стало неотъемлемой частью мировой литературной культуры и остаётся актуальным и вдохновляющим и по сей день.

Джубран Халил Джубран – один из самых влиятельных и уникальных поэтов XX века, чье творчество переплетается с философией, духовностью и глубоким пониманием человеческой природы. Его произведение “Пророк” стало символом мудрости и вечных истин, проникающих сквозь времена и культуры. В настоящей статье мы рассмотрим, какие уроки и вдохновение можно извлечь

¹ Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-: TDSHU, 2009.- B.40

² Книга «Пророк» Жубран Халид Жубран, перевод Игоря Зотникова <https://4italka.ru>

из этого произведения в контексте современного духовно-нравственного воспитания.

Текст «Пророка»¹ удивительный. Во многом эта книга притч, но точно так же ее можно назвать одной из самых смелых религиозных фантазий XX века, которая в том или ином виде пытается соединить книги иудаизма, христианства и ислама. На стыке трех религиозных культур и существует авторское сознание Джебрана — человека, который обрел первый успех в США в 1890-е годы, а вслед за тем вернулся домой, в Ливан, чтобы закончить образование и понять, кто он на самом деле. Эта миграция, внутренняя и внешняя, во многом определила биографию Джебрана — чтобы обрести дом, из него надо уйти — и подсказала ключевые темы «Пророка» (хотя, разумеется, они далеко не сводятся только к «автобиографическому коду» писателя).

Сюжет «Пророка» прост (и кажется, даже не важен по сравнению с его идеями): некий Аль-Мустафа, «избранный и желанный», живет в городе Орфалез и хочет сесть на корабль, которого долго ждал — и который отвезет его на Восток. Удерживая пророка, местные жители задают ему вопросы, на которые он и отвечает настоящими стихотворениями в прозе.

«Пророк» появился как феномен религиозной толерантности: он был написан ливанцем-христианином, жившим в США — и при этом открытым для влияния других религий. Эта книга отражает не просто множество религиозных традиций, но и показывает, что, встречаясь в жизни одного человека, они могут обогащать друг друга. Сам Джебран был одним из тех людей, которым для понимания своего места в мире необходимо постоянно странствовать. Повествователь в «Пророке» и рассказывает свои истории, уже предчувствуя свое путешествие. При этом напомним, что отправляется он в путь на Восток, так что перед нами своего рода перевертыш — вместо Америки как Земли Обетованной он ищет что-то другое.

¹ Книга «Пророк» Жубран Халид Жубран (электронная версия, источник – LibCat/Ru. (<https://Lit.Cat/Ru>)).

Прославившая Джубрана Халиля Джубрана книга “Пророк” — это вершина философии писателя, переведена более чем на 100 языков мира. Пророк — философская поэма, в которой описывается встреча Пророка по имени Альмустафа с жителями вымышленного города перед его отъездом. Пророк отвечает на их вопросы о различных аспектах жизни, таких как любовь, семья, работа, свобода, смерть и другие. Каждая глава посвящена определённой теме, и через притчи и аллегории Джубран выражает свои философские и духовные убеждения и предлагает глубокие уроки о жизни и смысле человеческого бытия.

Фундаментом этих убеждений и наставлений является сущность самого поэта, выросшего в условиях глубоко религиозного — окружения как христианской, так и мусульманской общин Ливана усвоившего и впитавшего их ценности а также познавшего культуру и реалии нового света того времени — США. Как следствие «Пророк» стал симбиозом лучших идей различных культур и верований, универсальным духовно нравственным источником для воспитания и совершенствования человека.

В произведении "Пророк" Халила Джубрана, любовь представлена как одна из центральных и наиболее важных тем. Пророк рассматривает любовь в различных ее проявлениях и аспектах, относясь к ней как к одному из основополагающих элементов человеческой жизни и духовного развития. Вот цитаты из раздела Любовь: “Когда любовь призывает вас, следуйте ей”.

Любовь как источник благополучия Пророк описывает любовь как источник радости и удовлетворения, который наполняет жизнь смыслом и ценностью. Любовь помогает людям ощущать свою принадлежность к миру и другим людям.

Любовь как сила единения: Пророк утверждает, что любовь способна объединить людей и преодолеть различия между ними. Он говорит о любви как о силе, которая способна преодолеть преграды и разрешить конфликты.

Любовь как духовное познание: Пророк описывает любовь как средство понимания и познания более глубоких аспектов жизни и себя. Через любовь

человек может достичь более глубокого понимания своего внутреннего мира и мира вокруг него.

Любовь как жизненная сила: Пророк говорит о любви как о силе, которая придает жизни смысл и направление. Он подчеркивает, что любовь является источником силы и вдохновения для преодоления трудностей и преодоления испытаний.

Более того, он сам был примером великой платонической любви к Ливано-палестинской писательнице Майе Зияде, с которой переписывался 19 лет и никогда не ее видел. В свою очередь, Мая тоже оставалась верной ему до конца, прожив всю жизнь в безбрачии.

Эти аспекты смысла любви, выраженные в произведении, помогают читателям понять ее значение и значение для человеческой жизни и духовного развития. Здесь по нашему мнению сильно сказывается и христианское воспитание, так как именно любовь есть одно из фундаментальных положений Евангелии «возлюби Господа Бога твоего всем сердцем твоим и всею душою твоею и всем разумением твоим: сия есть первая и наибольшая заповедь; вторая же подобная ей: возлюби ближнего твоего, как самого себя; на сих двух заповедях утверждается весь закон и пророки». Но в произведении это приобретает более многогранный и яркий феномен, как автор расписал ее в нескольких аспектах.

В произведении "Пророк" свобода рассматривается как одно из фундаментальных понятий, описывающих состояние человеческой души и ее отношение к миру. Пророк Халила Гибрана представляет свободу как нечто более глубокое, чем просто отсутствие физических оков или внешних ограничений. Вот несколько аспектов смысла свободы в произведении:

Свобода как внутреннее состояние. Пророк указывает на то, что истинная свобода начинается внутри нас самих. Он говорит о том, что свобода – это состояние души, которое не подвластно внешним обстоятельствам или физическим ограничениям.

Свобода выбора – пророк подчёркивает важность свободы выбора в жизни человека. Он говорит о том, что мы свободны в своём выборе действий и реакция на мир вокруг нас, и наш выбор определяет нашу судьбу.

Также им описаны свобода от страха, предрассудков. В целом свобода в произведении преподносится как внутреннее состояние индивида обеспечивающее человеку внутренних и внешнюю гармонию, независимо от бытующих предрассудков и консервативных взглядов.

О браке

Любите друг друга, но не делайте оков из любви.

Пусть это будет беспокойное море, колышущееся между берегами ваших душ.

Наполняйте чашу друг друга, но не пейте из одной чаши.

Давайте друг другу свой хлеб, но не откусывайте от одного куска.

Пойте и танцуйте вместе и будете радостны, но позволяйте друг другу бывать наедине с собой.

Будьте вместе, но не слишком вместе. Будете рядом, но не слишком близко. Потому что и колонны храма стоят отдельно. И дуб, и кипарис не растут в тени друг друга¹.

Здесь главный смысл что брак должен не стеснять, не навязывать а дополнять друг другу при полном понимании и уважении индивидуальности супругов.

Через много лет после своего появления «Пророк» все еще остаётся чем-то исключительным. Людям религиозным вполне достаточно их собственных писаний, «Пророк» же никогда не претендовал на статус чистой поэзии, но стремился быть чем-то большим. Это смелая попытка переступить культурные и религиозные различия и создать своего рода «надрелигиозную» версию пророческой книги все еще остается направленной в будущее.

¹ Книга «Пророк» Жубран Халид Жубран (электронная версия, источник – LibCat/Ru. (<https://Lit.Cat/Ru>)).

Несмотря на то, что «Пророк» был впервые опубликован в 1923 году, его уроки и мудрость остаются актуальными и важными для современного общества. В эпоху быстрых изменений и социокультурных вызовов, работы Джубрана продолжают вдохновлять и наполнять смыслом людей всего мира.

Источником угроз в, собственно, социокультурной сфере могут быть: социальное неравенство, кризис идентичности, дефицит солидарности, состояние неуверенности в завтрашнем дне и отсутствие долгосрочных перспектив, массовизация, технологизация, виртуализация культуры, морально-нравственный кризис и другие. Приведенный перечень рисков и угроз не является исчерпывающим. По нашему мнению, только высокая нравственность и глубокая духовность как личности таки общества в целом могут противостоять этим угрозам и нейтрализовать их. И именно эти человеческие ценности заложены в произведении Пророк, и они были, есть и будут всегда актуальны и насущны пока существует род человеческий и в свою очередь взгляд Джубрана Халиля на любовь, справедливость, свободу и мудрость остаются актуальными и помогают нам лучше понять себя и мир, в котором мы живем.

Заключение: как и всякий религиозный текст в поэтической форме, «Пророк» написан с оглядкой на Библию и Коран. Однако его поэтическое начало самодовлеющее. Новые смыслы рождаются в нем из самого текста, из «далековатого сближения» метафор и столкновения образов. При этом в книге, несмотря на ее название, нет истины откровения — читатель должен дойти до всего сам. «Пророк» был написан Джебраном в 1923 году по-английски и в том же году увидел свет. Интерес к нему до сих пор огромен. То что произведение до сих пор будоражит умы, достаточно сказать, что только в США с момента первой публикации «Пророка» уже продано более четырех миллионов экземпляров и вплоть до сегодняшних дней ежегодно распродается более 80 тысяч книг в год. В 2014 вышел анимированный фильм «Пророк» по мотивам произведения представлен на Международном кинофестивале в Торонто и Канском международном фестивале и имел огромный успех по всему миру. Духовное наследие Джубрана Халила Джубрана, особенно его произведение

"Пророк", представляет собой ценный источник мудрости и вдохновения для современного общества. Его уроки о любви, жизни, смерти и духовности продолжают звучать сильно и проникновенно, напоминая нам о важности духовного развития и нравственных ценностей в нашей жизни.

Использованная литература и источники:

1. Книга «Пророк» Жубран Халид Жубран (электронная версия, источник – LibCat/Ru. (<https://Lit.Cat/Ru>)).
2. Книга «Пророк» Жубран Халид Жубран, перевод Игоря Зотникова <https://4italka.su>
3. Шестопап Е. Б., Селезнева А. В. Социокультурные угрозы и риски в современной России // Социологические исследования. 2018. № 10. С. 90-99.
4. Воспоминания Джулиет Томпсон о Халиле Джеброне Напечатано в World Order №12:4 стр. 29-31, 1978 Субботний выпуск парижской «Геральд» за 8 декабря 1956 года. (<https://bahaiarc.org>).
5. Арабская литература XX века, (<https://dzen.ru>).

YUSUF IDRISNING “SHO‘RPESHONA” HIKOYASIDA IJTIMOIIY MUAMMOLARNING BADIIIY TALQINI

*Sardorbek BOTIRALIYEV
TDSHU, Arab filologiyasi yo ‘nalishi
3-bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: fil.f.n., dots. Sh. Ahmedova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada misrlik taniqli adib Yusuf Idrisning “Sho‘rpehona” hikoyasi tahlil qilingan. Shuningdek, adib ijodi, u haqidagi ayrim ilmiy tadqiqotlar nomi zikr qilingan, hikoyadan olinadigan xulosalar bayon qilingan. Maqola o‘zbek tilida Yusuf Idris hikoyasi tadqiqiga bag‘ishlangan dastlabki izlanishlar sirasiga kiradi.

Kalit so‘zlar. Hikoya, Misr, Yusuf Idris, obraz, timsol, jamiyat.

Yusuf Idris 1927-yilda Misrda tug‘ilgan. Asl kasbi shifokor bo‘lgan. Ammo arab hikoyanavisligida o‘ziga xos iz qoldirdi. Uning hikoyalari dunyo bo‘ylab turli xalqlar tillariga o‘girildi, ko‘plab o‘quvchilar diqqatini tortdi. Yusuf Idris ijodi tadqiqiga

bag‘ishlangan tadqiqotlar, xususan, Viktor Ivanovich Kripchenkoning “Misrlik hikoyanavis Yusuf Idris ijodi” (1970-y.)¹, Teodor Prochazka “Yusuf Idris asarlarida mavzu qo‘llash va xarakterlantirish” (1972-y.)², Ranya Faruq Shalabiyning “Adabiy yaqinlik: Yusuf Idris hamda Uilyam Folkner hikoyalarida tematik va stilistik antitezis” (2002-y.)³ mavzularida yoqlangan ilmiy ishlar uning jahon munaqqid va adabiyotshunoslari e’tirofiga sazovor bo‘lgan yirik adib ekanligidan xabar beradi.

Yozuvchining bolaligi turli qiyinchiliklar va sinovlar og‘ushida kechgani uning kelajakda adabiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga ruhiy-ma’naviy zamin hozirladi. Bo‘lg‘usi hikoyachi hayot maktabida jiddiy “tahsil ko‘rdi”. Yusufning otasi shaharlik bo‘lib, ijtimoiy jihatdan o‘ziga to‘q, davlat xodimi edi. Ota uchinchi xotiniga uylangach, Yusuf onasi bilan qishloqqa, buvisining uyiga qaytadi. Ana shunda u uchun murakkab kunlar boshlanadi⁴. Yusuf asarlarining aksari ijtimoiy hayotdan ezilgan kishilar hayotini yoritishi mazkur sabablar bilan bog‘lanadi. Jumladan, biz tahlilga tortmoqchi bo‘lganimiz “Sho‘rpeshona” hikoyasi ijtimoiy muhitdan xabar beruvchi asarlardan biridir. Unda bosh qahramon Abduning misolida butun boshli kambag‘al va ishsizlar jamiyatini ko‘ramiz.

Hikoya ilk bor 1954-yilda nashr qilingan “Eng arzon kechalar” to‘plamida keltirilgan. Ushbu to‘plam kitobxonlar orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lganligidan internet sahifalarida to‘plamning ovozlashtirilgan shaklini ham topdik⁵. Ushbu hikoya tahlili bo‘yicha qisqa muddatli izlanishimiz davomida bor yo‘g‘i ikkitagina tahlilni uchratdik.

Asar qisqa hikoya janrida yozilgan. Unda qo‘shnilarning qiyin paytlarda bir-biriga yordam berishi, ba’zi vaqtlar bir-birining ortidan g‘iybat qilishi, ayollarning bir-birlariga qilgan ta’nalarida to‘laqonli realizmni ko‘ramiz.

¹ В.Н. Кирпиченко. Творческий путь египетского новеллиста Юсуфа Идриса. Канд. дисс. филол. наук... – Москва, 1970. – 349 с

² Theodore Prochazka. Treatment of theme and characterisation in the works of Yusuf Idris. University of London School of Oriental and African Studies, August 1972. – 350 pp.

³ Ranya Farouk Shalaby. Literary Kinship: Thematic and Stylistic Antithesis in the Short Stories of Yusuf Idris and William Faulkner. – The American University in Cairo AUC – 75 pp.

⁴ Rogger Aller. Selected studies in modern arabic narrative: history, genre, translation. – Atlanta, Georgia: 2019. – 227 pp.

⁵ يوسف إدريس — أرخص ليالي [https://www.youtube.com/watch?v=_5uifED1-mY] – Фойдаланилган сана: 04.03.2024.

Asar nomi muallif tomonidan “Shug‘lana”¹ (mashg‘ulot, ish) deb nomlangan. Ammo tarjimon uni “Sho‘rpehona” deb atagan. Tarjimon Sarvar Abdullayev hikoyaning umumiy mazmunidan kelib chiqib, bosh qahramonning achinarli holatini hikoya uchun unvon qilib olgan bo‘lsalar, ajab emas.

Hikoyaning umumiy syujeti haqida qisqacha so‘z yuritadigan bo‘lsak, voqealar Abdu ismli yigitning pulga muhtojligi bilan boshlanadi. Hikoya avvalida muallif bosh qahramonning kelib chiqishi, qanday ishlar qo‘lidan kelishi va har qanday ishga borini berib, kamchiliksiz bajara olishi to‘g‘risida so‘z yuritgan. Abduning ishsiz qolishi ayolini tashvishga soladi. Eridan pul topib kelishini talab qiladi. Talba ismli qo‘shni kishi Abduga pul evaziga donorlik qilishni maslahat beradi. Abduga bu taklif ma‘qul tushib kasalxonaga otlanadi. Ammo donorlik qilish uchun maxsus talablar borligi Abduni tashvishga soladi. Baxtiga qoni talablarga mos keladi va ma‘lum mablag‘ evaziga donorlik qiladi, ya‘ni, qonini sotadi. Bu ishni davomli tarzda qiladi. Natijada hayoti yaxshi tomonga o‘zgaradi. Oilasida ham halovat topa boshlaydi. Ammo bir muddat o‘tgach unda kamqonlik aniqlangani sababli hamshira undan qon olishni rad etadi. Abdu donorlik qilishga harchand urinmasin hamshira uni fikridan qaytarishga majbur bo‘ladi. Hikoya qahramoni yana avvalgidek kambag‘allikka mahkum bo‘ldi. Bu ham yetmagandek bemor va quvvatsiz edi.

Muallif Nafisa obrazi orqali ba‘zi ayollarning “xislatlari”ni ko‘rsatib bergan. Uning eri bilan munosabatida o‘zgaruvchanlikni ko‘ramiz. U eriga maishiy ahvolidan kelib chiqib muomala qiladi. Ular boshlaridan kechirayotgan qiyinchilik va nochorlik Abduga bog‘liq emasligiga muallif ochiq-oydin ishora qilgan. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, asarning g‘oyasi insonlarni har qanday holatda yaqinlariga nisbatan insofliroq bo‘lish va sabr qilib, hamisha yaxshilikdan umid qilishga chaqiriq deb hisoblaymiz. Qolaversa, o‘z ishiga jiddiy mas‘uliyat bilan yondashuvchi yigitning ishsiz yurishi, kasalxonada kishilar qon sotish uchun turna qator navbatda turishi, qo‘shnilar Abduga achinsalar ham unga yordam qo‘lini cho‘za olmasliklari muallifning jamiyatdagi ishsizlik va kambag‘allik darajasining yuqori ekanini ko‘rsatib bermoqchi bo‘lganini anglatadi.

ص 156 – 2019. : الناشر مؤسسة هندوي القاهرة – أرخص ليالي. يوسف إدريس¹

Asarda keskin burilish yasagan voqea Talbaning Abduga donorlik qilishni maslahat berishidir. Kulminatsion nuqta esa, so‘ngi qismida, bosh qahramonda bemorlik aniqlanishi va hamshira Abduga o‘lishini aytsa ham qarorida qat’iy turib olishi. Bu hikoya qahramonining pul topish uchun hamma narsaga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

Asar hajman kichik bo‘lgani uchun obrazlar tizimi u qadar keng emas. Unda bosh qahramon Abdu, uning ayoli Nafisa, shifoxonadagi hamshira, ish topib beruvchi Talba va bir martadagina eslangan qo‘shni Hamida bilan nonvoy Foidlarni ko‘ramiz. Hikoyada badiiy tasvir vositalari ham nihoyatda kam qo‘llangan. “Ularning yuzlari choyshabdek oqarib ketganidan yaltirar edi”, “ularning inoq shivir-shivirlari naru moda kabutarlarning g‘uv-g‘uv ovozigga o‘xshardi”, “ora-sira ona bolasini erkalagandek erini erkalab qo‘yar edi” jumllarini tashbeh san‘atiga misol qilsak bo‘ladi. Asarda milliy kolorit hamda folklor namunalari umuman ko‘zga tashlanmaydi. Hikoya so‘ngida hamshira Abduga qon bersa o‘lishi haqida aytadi. Uning beparvolarcha: “Roziman”, – degan javobiga “Bu g‘ayriinsoniylik” , – deydi. So‘ng Abdu, bizningcha, asardagi eng yaxshi falsafiy mushohada bo‘lgan jumlanini aytadi: “Bu-chi, insoniylikmi?”

Ha, u pul uchun qonini sotayotgani qanchalik tuban ish ekanligini, insoniylikdan yiroq ish qilayotganini chuqur anglardi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Nafisaning besabrligi erining davomli ravishda o‘z qonini sotishiga, natijada kasallik orttirib, o‘sha ishga ham yaramay qolishiga olib keldi. To‘g‘ri, vaqtincha bo‘lsa ham hayotlari yaxshilandi, ammo bir kishining sog‘lig‘i oldida jig‘ildonning vaqtincha “yayrashidan” ne naf?! Axir hikoya so‘ngida yana ishsizlik va ochlikka giriftor bo‘lishdi-ku! Asardagi yechim Nafisa sabr qilishi, to‘qlikda ham, ochlikda ham erini hurmat qilishi kerak. Boshqa tarafdin biz Yusuf Idrisni o‘tgan asr Misr jamiyatidagi fojia, odamlar dardi, og‘riqlarini teran tuygan adib o‘laroq ko‘ramiz hamda zamonaviy Misr adabiyotidagi ijtimoiy muammolarga bo‘lgan umumiy yondashuvning xususiy ifodasiga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon adabiyoti jurnali. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. – 2017, 9-son. 208 b.
2. Ranya Farouk Shalaby. Literary Kinship: Thematic and Stylistic Antithesis in the Short Stories of Yusuf Idris and William Faulkner.– The American University in Cairo AUC, 2002 – 75 pp.
3. Rogger Aller. Selected studies in modern arabic narrative: history, genre, translation. – Atlanta, Georgia: 2019. – 227 pp.
4. В.Н. Кирпиченко. Творческий путь египетского новеллиста Юсуфа Идриса. Канд. дисс. филол. наук... – Москва, 1970. – 349 с.
5. أرخص ليالي — يوسف إدريس
[https://www.youtube.com/watch?v=_5uifED1-mY] – Фойдаланилган сана: 04.03.2024.
6. الناشر مؤسسة هندی القاهره – أرخص ليالي .يوسف إدريس . 2019. – 156 ص.

“KALILA VA DIMNA”- ABADIYOTGA DAXLDOR YODGORLIK

Irodaxon IBROXIMOVA
TDSHU, Arab filologiyasi yo‘nalishi
3- bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Sh. Ahmedova

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab adabiyotining gullab yashnagan davri (VII asr o‘rtalari — XII asr) “Yangilanish” davri nasri asoschisi Abdulloh ibn al-Muqaffaning “Kalila va Dimna” hind xalq eposi tarkibiga kiruvchi “Bilor va Brahmanlar bobi” tarjimasi tahlilga tortilgan. Hikoya asosan mamlakatni idora etish va davlatni mustahkamlash uchun podshohlarning qanday xususiyatlarga ega bo‘lishini, beozorlik, saxovat va shijoatdan qaysi biri eng yaxshi fazilat ekanligini bayon qiladi.

Kalit so‘zlar: Ibn al-Muqaffa, Kalila va Dimna, didaktik, hikoyatlar, personaj, individual, Brahmanlar, vazir, jazo, pushaymonlik, donolik, hozirjavoblik, sadoqat, beozorlik, shijoat, nafs va umuminsoniylik.

VIII va XII asrlar mobaynida arab adabiyotida samarali davr bo‘lgan. Arab istilolaridan keyin arab tilini qabul qilgan xalqlar ham bu tildan o‘zlarining ilmiy va adabiy ijodida foydalanganligi ham arab madaniyatining rivojlanishida katta turtki bo‘lgan. Hossatan shu davrda arablar fani va adabiyoti jahon maydoniga chiqadi hamda jahon madaniyatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. O‘sha davrlarning

mashhur olimlari matematik va astronom al-Xorazmiy, matematik va faylasuf al-Kindiy, shifokor Abu Bakr ar-Roziy, shifokor va faylasuf Ibn Sino, faylasuf al-Farobiy, geograf al-Istaxriy, tarixchilar: al-Mas'udiy, al-Beruniy, at-Tabariy shular jumlasidandir. Yuqorida keltirilgan olimlar turli xalqlardan va xalifalikning turli joylaridan bo'lsa-da arab tilida yozganligi arab adabiyoti gullab yashnashiga asos bo'ldi. Nafaqat adabiyot, she'riyat va nasr ham sezilarli darajada rivoj topgan. Bu davr adabiyoti rivojlanishi asosan uch bosqichda: "yangilanish" davri, "qadimgi davrga qaytish" bosqichi va "badiiy uyg'unlik" davri edi.

"Yangilanish" davrida she'riyat bilan birga badiiy nasr ham yuzaga keldi. Uning asoschisi bo'lgan Abdulloh ibn al-Muqaffa (721-757) Eronda Jur qishlog'ida (hozirgi Feruzabod) zardushtiylar oilasida tug'ilgan. Keyinchalik islomni qabul qilgan va Ummaviylar va Abbosiylar halifaligi davrida yashab yaxshi amaldor va yozuvchi sifatida tanilgan. U fors manbalariga tayanib, davlat tuzilishi va siyosat masalalariga bag'ishlab bir qancha risolalar yozgan, ularda xalifalikning davlat tizimini tanqid qilgan hamda uni Sosoniylar davlati namunasi bo'yicha isloh etishni taklif etgan. Ibn al-Muqaffa ikki – "Kichik odobnoma" va "Katta odobnoma" risolalarini forsiydan arab tiliga tarjima qilgan. Ularda yaxshi tarbiyali insonning axloq-odobi haqidagi qoidalar, shuningdek, hukmdorlar o'zlarining faoliyatida va qo'l ostidagilar bilan muomalada rioya etishlari kerak bo'lgan qoidalar berilgan¹.

Ibn al-Muqaffa "Kalila va Dimna"² nomli hind nasihatlar to'plamini pahlaviy tilidan arab tiliga tarjima qilganligi bilan arab va jahon adabiyotiga katta hissa qo'shgan. "Kalila va Dimna"ning asl hind tilidagisi saqlanib qolmagan. Ammo Sanskrit tilidagi qayta nashri "Panchatantra" bizgacha yetib kelgan.

"Kalila va Dimna", rivoyatlarga ko'ra, aslida qadim zamonlarda hind faylasuf olimlari tomonidan yozilgan. U hind folklori asosida yaratilgan bo'lib "Panchatantra", "Xitopadesha" va boshqa asarlar bilan ildizi birdir.

¹ M.Ziyavuddinova. Mumtoz arab adabiyoti. O'quv qo'llanma . T., 2012-B.70

² Kalila va Dimna. /Tarj. Suyuma G'aniyeva.-T.: Yangi asr avlodi. 2010. -260 b.

“Kalila va Dimna” VI asr o‘rtalarida Eron shohi Anushirvon Hindistondan saroy fuzalolaridan bo‘lgan Barzue hakim tomonidan yashirincha Eronga keltirilib, pahlaviy tiliga tarjima qilingan.

Eski Sharq an‘anasiga ko‘ra, Ibn al-Muqaffa “Kalila va Dimna” ni tarjima etish asnosida faqat muqaddima yozibgina qolmay, asarning asosiy matniga ham birmuncha o‘zgarishlar kiritgan. Masalan, u “Dimna ishining tekshirilishi” faslini o‘zidan qo‘shgan.

X-XI asrlarda “Kalila va Dimna” Ibn al-Muqaffa tarjimasi asosida yana suriya tiliga, XI asrning oxirlarida yunon tiliga, XII asrda yunonchadan slavyan tiliga, XIII asr o‘rtalarida yahudiy tiliga, bir necha o‘n yillardan keyin esa lotin tiliga tarjima qilingan. Ana shu oxirgi tarjima fransuz, italyan, nemis va boshqa g‘arb tillariga qilingan tarjimalarga asos bo‘lgan.

“Kalila va Dimna”ning qayta ishlangan varianti shunchalik o‘zgarib ketganki, tarjima ekaniga qaramay, kitob arab o‘rta asr nasri tarixida juda katta o‘rin tutadi.

“Panchatantra”- hind ertaklari, masallari, rivoyatlari, hikmatlarining to‘plami bo‘lib, odamlarni oqilona xatti-harakat qilishga o‘rgatish, donolar bisotidan bahramand bo‘lish maqsadida tuzilgan. “Panchatantra”ning ma‘nosi “besh kitob”dir¹. To‘plam beshta bobdan iborat. Uning birinchi bobida – do‘stlik qanday buzilishi haqida, ikkinchi bobida – qanday qilib do‘st orttirilishi, uchinchisida – qanday jang qilinishi, to‘rtinchisida esa – egallangan narsa qanday yo‘qotilishi, beshinchisida – aqlsiz ishlar qanday sodir etilishi haqida hikoya qilinadi.

Yuqorida aytganimizdek “Kalila va Dimna” – didaktik xususiyatga ega bo‘lgan asar. “Oqillar bu kitobni undagi donishmandlikdan bahramand bo‘lish uchun, aqlsizlar esa ko‘ngilxushlik uchun o‘qiydilar”. Kitobda hukmdorlarning o‘z yaqinlari va qo‘l ostidagilarga nisbatan xatti-harakatining qoidalari qiziqarli shaklda bayon etilgan, buning ustiga muallif yuqori martabali shaxslarni chaqimchilarga ortiqcha ishonishdan va ayblanuvchilarni ayblashda shoshqaloqlikdan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. Siyosiy mulohazalar ancha ehtiyotkorlik bilan yoritilgan. Muallifning fikricha, hukmdor odil va rahmdil bo‘lishi hamda so‘zining ustidan chiqishi va g‘azabini jilovlay olishi kerak. Huddikim “aybsiz odamlar qo‘rqadigan podsho – eng yomon podsho” singari.

¹ M.Ziyavuddinova. Mumtoz arab adabiyoti. O‘quv qo‘llanma.T., 2012-B.71

“Kalila va Dimna”ning “Bilor va Brahmanlar bobi ham xuddi shu mavzuda fikr yuritadi. Bu hikoya Shohlarning qudrat va shavkatidan dalolat beruvchi narsa beozorlik va donolikdir deb aytadi. Ayni zamonda u xalqning osoyishta yashashligi ham davlatning mustahkamligi uchun eng zarur xosiyatdir... . Chunki saxiylik bilan biror toifani rozi qilish mumkin, shijoat esa har doim kerak bo‘lavermaydi. Beozorlik va donolik esa hamma vaqt, ham jamoat bilan muomalada, ham lashkarni va raiyatni idora etishda darkor bo‘ladi. Beozorlikning asosiy sharti aqlli va tajribali odamlar bilan maslahatlashmoq, nodon va johil odamlardan qochmoqdir. Chunki hech narsa insonga do‘stlik kabi kuchli ta‘sir eta olmaydi. Shuning uchun ham bir maqol bor: “Sen do‘stingning kimligini aytib ber, men esa sening kimligingni so‘zlab beraman”. Saxiylik bilan butun dunyoni oltinga to‘ldirgan, shijoat bilan urushlarda g‘olib chiqqan kishi beozorlik xislatidan mahrum bo‘lsa, bir nojo‘ya harakat bilan bularning hammasini yo‘qqa chiqarib yuborishi mumkin. Lekin saxiyliги va jasurligi bo‘lmasa ham, muloyim va dono bo‘lsa, shu bilan hammaning ko‘nglini olishi, hatto dushmani ham bartaraf qilishi mumkin. Shunisi ham borki, birgina beozorlikning o‘zi yetmaydi, beozorlik iroda va qat‘iyat bilan birga bo‘lsa yaxshi, bu xislatlar bo‘lmasa beozorlikning o‘zi nuqson hisoblanadi. Agar shoh bu narsani nazaridan qochirsa, uning hayotdan olgan lazzati, mamlakatni idora etish ishlarida qozongan muvaffaqiyatlari arzimagan bir g‘azab tufayli yo‘q bo‘lib ketadi. Ma‘lumki shohlarning baxt-tolei ularning aql va kamoliga, vazirlarning tadbir va sadoqatiga bog‘liqdir. Podsho olim va beozor bo‘lsa, uning vaziri ma‘rifatli bo‘lsa, u barcha murod maqsadlariga erishib, har ishda g‘alaba qozonadi. Qaysi tarafga boqsa, baxt va davlat uning ketidan yuradi. Butun quloqlar uning ovozigа, ko‘zlar uning ishorasiga muntazir bo‘lib turadi. Agar podsho aqlli vazirning tadbir va maslahatlari asosida ish olib borsa, baxtsizlik va falokatdan omon qolishi mumkin. “Bilor va Brahmanlar”¹ hikoyasi so‘zimizni yaqqol na‘munasidir. Bir kuni podsho tush ko‘rib undan qo‘rqib uyg‘onadi. Tushning ta‘birini bilish maqsadida brahmanlarga murojaat qiladi. Lekin bu holatdan brahmanlar o‘zlarining maqsadlarida foydalanmoqchi bo‘ldilar va unga yaqinlarini hamda jangda yordamchi fili va otini ham yo‘q qilishni aytishadi. Buning sababi Podsho ko‘plab

¹ Kalila va Dimna. /Tarj. Suyuma G‘aniyeva.-T.: Yangi asr avlodi. 2010. -B.215

brahmanlarni qatl qildirganiga intiqom edi. Bunday ta'birdan u tushkunlikka tushadi, uning yaqin vaziri va do'sti bu holatni fahmlab, podshoning suyakli ayolini ishga solib vaziyatni to'g'rilaydi. Podsho tushi boshqa adolatli, uzlatta yashovchi brahman, tarafidan, podshohga qo'shni davlatlardan hadyalar kelishini ta'bir qiladi. Hammasi iziga tushgach podsho ayolini taqdirlash uchun hadyalar ichidan toj yoki libosni tanlashni izn beradi. Suyukli ayoli tojni tanlagach, libos podshoning boshqa ayoliga taqdim qilinadi. Xuddi shu libos suyakli ayolning rashkiga, podshoning esa g'azabiga sabab bo'ladi. Podsho hurmatsizlikdek rashkdan qattiq g'azab otiga minib suyakli ayolini qatl qildirishga buyuradi. Ammo bunday vaziyatda podshoning yaqin vaziri o'zining zakovati ila holatni to'g'rilashga harakat qiladi. Ayolni qatl qildirmay uyiga olib boradi. Podshoga yolg'on gapirib uni amr-farmonini bajarganini aytadi. Amrining rostdan ham bajo keltirilganligini yoki aksi bo'lganligini so'rashdan uyaladi. Shoh vazirning sabrli, dono, yumshoq ko'ngilli va tajribali ekanligini bilgani uchun ayolining o'limi kechiktirilganiga ko'nglida ishonar edi, lekin aksini eshitib qolishdan qo'rqib, uning nomini tilga olishga botinmadi. Bu masalaning naqadar nozik ekanligini faqat oqil odamlargina emas, hatto nodonlar ham tushunadi.

Shunday vaziyatda vazir shohga qarab:

~ Ey shohim, g'amnok bo'lmang, bekorga tashvish tortishning foydasi yo'q. Xafagarchilik badanni bo'shashtirib, aqlni zaiflashtiradi. Podshoning g'ambodaligini ko'rib, mulozimlar ham qayg'uradilar, dushmanlar xursand bo'ladilar. Sabr qiling, shohim. Agar istasalar men bu hodisaga o'xshagan bir hikoya so'zlab beray..... deydi. Aytilgan hikoyadan podsho battar holatga tushib suyakli ayoli o'lganiga ishonadi.

Aybni vazirdan qidirib, unga shikoyat qiladi, hamda ayblay boshlaydi.

Shoh deydi:

Sendan uzoq bo'lmoq lozimdir.

Vazir deydi:

Ikki xil odamdan uzoq bo'lmoq lozimdir: biri – qilgan ishining natijalarini hisobga olmaydigan, yaxshi bilan yomonni farq qilmaydiganlar;

ikkinchisi – ko'zlarini boshqalarning moliga tikkan, quloqlarini fisq-fasod va g'iybatlarga o'rgatgan, vaqtini aysh-ishrat bilan o'tkazgan yomon nafsli odamlardan. Shu

zaylda Shoh uni ayblaydi vazir nasihatamus gaplar bilan mot qilaveradi. Shu tarzda Shohning ayblovlariga javob berayotganda uning o‘zi aybdorligi namoyon bo‘ladi.

Achchiq javoblarni eshitgach afsusda shohni ko‘rgan vazir uning ko‘nglini yupatadi, shuningdek suyuqlisi o‘lmaganini oshkor qiladi.

Bunday vaziyatdan keyin shoh deydi:

~ Bundan keyin o‘ylamasdan sendek mulozimlarning maslahatini olmasdan, o‘lchab-bichmasdan turib amr-farmon bermayman¹.

Shohlarning eng yaxshi xosiyati bo‘lgan donolik, beozorlikning afzalligi haqidagi hikoya shu mazmunda.

Xulosa shundaki aqlli odam jazo bermoq uchun shoshilmaslik kerak. Amalga oshiradigan tadbirning natijasini oldindan biladigan, atroflicha o‘ylab ish qiladigan adolatli, saxovatli va raiyatparvar shoh baxtiyor sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Ziyavuddinova. Mumtoz arab adabiyoti. O‘quv qo‘llanma.T., 2012.
2. Kalila va dimna /Tarj. Suyuma G‘aniyeva. -T.: Yangi asr avlodi, 2019..
3. http://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ibn_al-Muqaffa

“NIL SHOIRI” HOFIZ IBROHIM IJODIDA VATAN TUYG‘USI MASALASI

*Ma’rifat HOLIQOVA
TDSHU, Arab filologiyasi yo‘nalishi
4- bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Sh. Ahmedova*

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Nil shoiri” Hofiz Ibrohim ijodiy faoliyati xususida so‘z yuritiladi vatan tuyg‘usi masalasi badiiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mumtoz she’riyat, Hofiz Ibrohim, Mustafo Komil, Sa’d Zag‘lul, Qosim Amin, Abu Nuvos, Abu Tammom, al-Buxturiy, Ibn ar-Rumiy, Abu-l-Alo al-Maarriy.

¹ Kalila va Dimna. /Tarj. Suyuma G‘aniyeva.-T.: Yangi asr avlodi. 2010. -B.225

Misr yangi mumtoz she'riyatining yana bir yirik namoyandasi- Hofiz Ibrohimdir¹. U Ahmad Shavqiyning zamondoshi va do'sti edi. Ahmad Shavqiydan uch yil keyin 1871-yilda tug'ilgan Hofiz Ibrohim u bilan bir yilda (1932) vafot etgan. Ijodda maslakdosh bo'lgan ikki shoirning hayot yo'li bir-biridan katta farq qiladi. Agar Shavqiy Qohirada zodagon oilasida tug'ilib, yoshligidan hayotning barcha ne'matlaridan bahramand bo'lib, tahsil olish uchun Yevropaga yuborilgan bo'lsa, Hofiz Yuqori Misrning Beyrut nomli kichkina shaharchasida kambag'al oila sida tug'ildi va yoshligidan otadan yetim qolib, hayotning og'ir tashvishlarini boshidan kechirdi. O'zi xohlamasa ham akasi maslahati bilan 1888-yilda Qohiradagi harbiy bilim yurtiga kirdi va 1891-yili kichik zobit unvonida uni bitirib chiqdi. 1896-yilda ingliz generali Kitchener boshchiligidagi ingliz va misrliklardan tashkil topgan armiya safida Sudanga yuborildi. Hofizning harbiy xizmati og'ir o'tdi. Armiyada hukm surgan qo'pol munosabatlar, ayniqsa, ingliz qo'mondonining misrliklarga nisbatan o'zlarini takabburona tutishlari va mensimasdan muomalada bo'lishlari Hofizning nozik tabiatiga qattiq botardi va nafrat tuyg'usini uyg'otardi. Harbiy bilim yurtida she'rlar yoza boshlagan Hofiz, Sudandan Qohiradagi do'stlariga askar hayotidan shikoyat qiluvchi ko'p hazin she'rlar yo'llardi². Shoir inglizlarning Sudanga qilgan harbiy yurishining haqiqiy maqsadi Sudanni ozodlikdan mahrum qilish va yangi mustamlakaga ega bo'lish ekanini yaxshi anglagan edi. Hofiz bir nechta misrlik zobitlar bilan inglizlarning mustamlaka siyosatiga qarshi chiqadi va g'alayonda ishtirok etishda ayblanib, oldin sudga beriladi, keyin esa iste'foga chiqarib yuboriladi. Xizmati uchun nafaqa olishdan butunlay mahrum etilib, 1900-yil armiyadan haydalgan Hofiz Ibrohim Misrga, Qohiraga qaytadi. Qo'lida tayinli kasbi yo'qligi uchun u juda qiyin iqtisodiy ahvolda qoldi. Bu og'ir sharoit uni xalqqa yana ham yaqinlashtirdi, u endi kambag'allarning qanday hayot kechirishini tashqaridan emas, balki ich-ichidan o'z ko'zi bilan ko'rdi va boshdan kechirdi.

Shu yillari Hofiz Ibrohim Misrdagi jo'shqin vatanparvar siyosiy doiralarga yaqinlashdi. Bu doiralarda Mustafo Komil, Sa'd Zag'lul, Qosim Amin, Hasan Osin,

¹ Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-: TDSHU, 2009.- B.101

² Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-: TDSHU, 2009.- B.102

Mahmud Sulaymon kabi milliy-ozodlik harakatining sarkardalari qatnashar edilar. Ularning faoliyati ta'sirida shoirning dunyoqarashi shakllandi. Yig'irlarda vatan mustamlakaga aylanganligi, uning boyliklari tortib olinganligi, diyorning talanishi, hurriyatning toptalishi haqidagi nutqlar, suhbatlar, tortishuvlar va muzokaralar Hofizning shu yillardagi she'rlarida o'z aksini topdi. Ko'p o'tmay yosh shoir o'zining vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan she'rlari bilan keng jamoatchilik ichida tanila boshladi.

Hofiz Ibrohimning mafkurasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan yana bir omil bu shayx Muhammad Abduhning dinni isloh qilishga qaratilgan harakati bo'ldi. Shayx Muhammad Abduh da'vatlari din masalasida erkinroq fikr yuritishga va dinni hozirgi kun talabiga moslashtirishga qaratilgan edi. Hofiz islom dini islohoti masalasida ustoz Muhammad Abduhga yondashdi va vatandoshlarini insoniyat yutuqlaridan foydalanib, qoloqlikdan va jaholatdan chiqib taraqqiyot yo'lidan borishga undadi. Yosh avlod insoniyat erishgan fan va texnika ixtirolaridan to'la foydalanish kerakligini uqtirdi. Shoir Misr xalqining taqdiri va kelajagi to'g'risida ko'p o'yladi, uning aql-idrok va ilmiy yo'ldan borishga targ'ib etdi. Shunday qilib Hofizning hayoti birinchi bosqichdayoq xalqining hayoti bilan chambarchas bog'lanib ketdi. O'zi xalqdan chiqqan bu shoirning orzu-niyatlari xalq tuyg'usi, istak-xohishi, ezgu niyatlari bilan bir xil edi. Uning she'rlarida oddiy mahallalarda yashovchi misrliklar tug'yoni, qalblaridagi g'alayoni aks etardi. Shuning uchun ko'p o'tmasdan u muxlislar tomonidan "shoir al- Nil" – "Nil shoiri" unvoniga sazovor bo'ldi, bu ibora haqiqiy Misr shoiri ma'nosida ishlatilardi. Balki uning bu unvonga sazovor bo'lishi Nil daryosiga go'yo jon bag'ishlab jo'shqin murojaatlar qilgani sabab bo'lgandir!

Ey, Nil, uyg'on! O'tdi uyqu payti, o'rningdan tur!

Xudo sening xalqingga yangi hayot bag'ishladi.

Bu hayotni endi o'ndirolmas hech Zolimlar zulmiyu, tahdidi, hukmi.

Ey, yangi tong avlodi, jasur bo'linglar.

O'z uyingiz himoyasida mag'rur turinglar!¹

¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/arab-she-riyati/muhammad-hofiz-ibrohim-1871-1932>

Hofiz Ibrohim o‘n yil ishsiz yurdi. Ammo tirikchilik yuzasidan yuqori mansabli amaldorlarga yoki puldor boylarga madhiyalar yozmadi, chunki bu yo‘lni hassos, nozik tabiati inkor etardi. Shoir G‘arb adabiyoti namunalaridan qilgan tarjimalari evaziga topgan ozgina mablag‘i bilan qoniqdi. Jumladan, Viktor Gyugoning mashhur “Xo‘rlanganlar” romanini arab tiliga tarjima qildi.

1911-yil Hofiz Ibrohim do‘stlari tavsiyasi bilan Qohiradagi Davlat kutubxonasiga bo‘lim boshlig‘i qilib ishga tayinlandi. Bu joyda u to vafotigacha ishladi.

Hofiz Ibrohim shoir sifatida mumtoz she‘riyat namunalari ta‘sirida shakllandi. U, ayniqsa, abbosiylar xalifaligi davridagi shoirlarga alohida mehr qo‘ygan edi. Abu Nuvo, Abu Tammom, al-Buxturiy, Ibn ar-Rumi, Abu-l-Alo al-Maarriy kabi IX–XI asrlarda ijod qilgan shoirlarning she‘rlarini yod olib, ifodali o‘qishdan charchamas edi.

Qadimgi shoirlardan u she‘r shakllarini, jarangdor qofiyalar tanlashni, vaznlarda muvozanat saqlashni va boshqa she‘riy texnika fazilatlarini o‘rgandi. Ammo Hofiz Ibrohim mumtoz she‘riyatga ko‘r-ko‘rona yondashmadi va o‘zi uchun qadimgi mumtoz she‘riyatning sun‘iy muhitini yaratmadi. U eski qoliplarni yangi mavzu bilan to‘ldirib, she‘rlarida yangi ijtimoiy-siyosiy ong tafakkurini gavdalantirdi:

Qachon ko‘rar ekanman:

Nil suvlaridan Faqat mo‘minlar bahramand bo‘lar

Kuylasam agar Misr holatini

Tinmay yosh to‘kaman misoli gavhar.

So‘yilishini sezgan zotli tuyadek

Arosatda qoldim: qochish yo o‘lim.

Gar so‘zlasam — tashlarlar meni zindonga

Agar so‘zlamasam — kuyadi dilim.

Nochorlik barcha o‘tgan — ketganlarda namoyon bo‘lsa-da yashagan yerimiz misoli oltin.

1905 yildagi Denshavay fojeasiga atab Hofiz bir nechta she‘rlar ezdi:

Oftob urib o‘lim topgan bizga hayotni meros ayladi,

Uygʻotdi odamlarni mudroq uyqudan¹.

Hofizning 1906–1911-yillarda yozgan asarlarida mustamlaka mavzusi salmoqli oʻrin egallaydi. Bular “Lord Kromer bilan vidolashuv”, “Ser Goritni kutib olish” va boshqa qasidalaridir. Masalan, 1906-yil inglizlar tashabbusi bilan Misr hukumati matbuot haqidagi qonunni eʼlon qildi. Bu qonun vatanparvar partiyalar faoliyatiga qarshi qaratilgan edi. Uning asosida vatanparvarlarning ovozini boʻgʻish, matbuotga yaqinlashtirmaslik siyosati yotar edi. Necha-necha nashriyotlar faoliyati toʻxtatildi, bosmaxonalar yopildi, roʻznoma va jurnallar musodara qilindi. Hofiz oʻsha kunlari kuyunib yozgan edi:

Misr – hamon chayqov bozori,
Hamma narsa sotilar unda – kulfatimiz bu,
Matbuot yaramizga boʻlar edi malham
Balo kelib, uni ham boʻgʻishdi bu dam².

Hofiz yoshlarni kelajak bunyodkorlari deb bilar va shuning uchun u yoshlarga boshqacha eʼtibor bilan qarar, ularning his- tuygʻularini yaxshi tushunar va qoʻllab-quvvatlardi, payti kelganda ragʻbatlantirib madad qoʻlini choʻzar edi:

Salomlar boʻlsin nihol kabi oʻsib unib chiqqan yosh avlodga,
Sizlar bilan yangilandi bu koʻhna dunyo.
Aslo maʼyuslikka tushmangiz, shuhratimiz tez tiklanmasa ham
Necha bor yiqilgan koʻtarilib qaddin rostlar takror.
Qaddin rostlar agar falaklarga choʻzilsa orzu — umidlar,
Agar osmonlarga ketsa niyat iltijolari,
Men bilaman, shuhratni qaytarish emasdir oson,
Lekin jipslashtiring uning uchun irodangizni³.

¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/arab-she-riyati/muhammad-hofiz-ibrohim-1871-1932>

² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/arab-she-riyati/muhammad-hofiz-ibrohim-1871-1932>

³ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/arab-she-riyati/muhammad-hofiz-ibrohim-1871-1932>

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Hofiz Ibrohim “Nil shoiri” sifatida vatanni sevmiq, uning ozodligi uchun kurashmoq, millat obro‘isini ko‘tarib yurmoq kabi oldiga qo‘ygan burchini to‘la-to‘kis va oliy darajada ado etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Xodjayeva R.U Yangi davr arab adabiyoti tarixida ma’rifatparvarlik jarayoni. O‘quv qo‘llanma.T.:TDSHI,1999.
2. Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti(XIX-XX) asrlar. Darslik. T-: TDSHI, 2009.
- 3.<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/arab-she-riyati/muhammad-hofiz-ibrohim-1871-1932>

TAVFIQ HAKIMNING “G‘ORDA UXLAYOTGANLAR” ASARINING G‘OYAVIY — BADIY XUSUSIYATLARI

*Nilufar O‘RMONOVA
TDSHU, Arab filologiyasi yo‘nalishi
3- bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots. Sh. Ahmedova*

Annotatsiya: Maqolada arab adibi Tafiq Hakimning “G‘orda uxlayotganlar” asari bilan “Qur‘on Karim” va nasroniy ta’limotiga oid qadimiy afsona o‘rtasidagi o‘xshash jihatlar badiiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Tafiq Hakim, roman, hikoya, Efis, Dekiy, Kahf, sura, nasoro.

Har bir yozuvchi asar yozar ekan u she’r, pesa, roman, hikoya, qissa yoki novella bo‘lsin avvalo yozuvchining turmush tarzi, ijtimoiy kelib chiqishi, o‘sha davr siyosati, xalq dardi ya’ni kechinmalari, jamiyatning og‘riqli nuqtalari va ijodkorning ruhiy kechinmalari juda katta ahamiyat kasb etadi.

Misr yangilanish maktab vakillarida ham Misr davlatining mustamlakachilikdan ozodlikka chiqish yo‘lida chekkan zahmatlari, yosh avlodni bu hodisalarga munosabati, ziyolilar qatlamini o‘ziga xos kurashi, oddiy xalqni chekkan

mashaqqatlari, hukumatning byurokratik muhiti va mustamlakachilarining xalqni mulkini talon-taroj qilishlari yangilanish maktab vakillarini asarlarida aks etgan¹.

Tafiq Hakim- arab yangilanish maktabi vakillaridan. Asl mutaxassisligi boshqa bo'lishiga qaramay adabiyotga bo'lgan qiziqishi, o'sha davrdagi hukumatning nohaqliklari adibni dunyo tan olgan ko'plab asarlarni muallifi bo'lishiga sabab bo'lgan.

Uning "Viloyat tergovchisining xotiralari" qissasi, "Ruhning qaytishi", "Til biriktirish", "Sof muhabbat" komediyasi kabi ko'plab asarlari rus tiliga tarjima qilingan. Qohira, Damashq, London, Parij, Stokgolm va dunyoning boshqa ko'plab shaharida asar o'ynaladi. Ana shunday mashhur va birinchi yozilgan pyesalaridan biri "G'orda uxlayotganlar"² asaridir.

"G'orda uxlayotganlar" asari chuqur falsafiy ma'noga ega asar. Avvalo adib asarni bir nechta qadimiy manbalarga tayangan holda yozgan. Eng katta manba "Qur'on Karim" so'ng naroso dinida keltirilgan afsonadir.

"Qu'ron Karim"dagi "Ashabul Kahf" qissasi, nasroniylik mifologiyasidagi "Uxlayotgan yetti Efislik o'smir" afsonasi Tafiq Hakimning "G'orda uxlayotganlar" asari orasida o'xshashlik va umumiy joylari bor.

Ushbu asarlarni ichida eng qadimiysi "Uxlayotgan yetti Efislik o'smir" bo'lib III asrda yashagan yettita o'smir bola haqida. Afsonada kelishicha Imperator Dekiy uning qo'shinida xizmat qilgan nasoro shu bilan birga zodagon oilaga mansub yettita o'smirlarga o'zi e'tiqod qiladigan xudolariga qurbonlik qilishni buyuradi, tabiiyki afsona qahramonlari bosh tortadilar. Imperator ularga muhlat beradi ya'ni vazifalaridan ozod qilib o'zi harbiy yurishdan qaytgungacha fikrlaridan qaytishlari uchun o'smirlarni qo'yib yuboradi. Yigitlar tog'ga chiqib u yerdagi bir g'orda kun kechira boshlashadi. Sheriklaridan biri non olish uchun bozorga borganda Imperator urushdan qaytib ularni sud qilish uchun qidirayotganini biladi va kelib qolgan sheriklari bilan birga hukm uchun Imperator huzuriga borishadi. Imperator ularni o'limga mahkum qiladi. O'zlari yashiringan g'orga ochlikdan o'lishlari uchun qamashadi va ustlaridan devor urib

¹ Xodjayeva.R.U .Yangi davr arab adabiyoti tarixida marifatparvarchiliu jarayoni. O'quv qo'llanma.T.:TDSHI,1999.- B.4

² Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-.: TDSHU, 2009.- B.46

yuborishadi. Ammo ular o‘lmaydilar balki chuqur uyquga ketadilar. Afsonada kelishicha oradan 200 yil o‘tgach yana avvalgiday sheriklaridan bir kishi bozorga non sotib olish uchun boradi. Yo‘lda o‘zgarishlarni ko‘rib ajablanadi va bozor kirishida xoch osilganini ko‘rib hayron qoladi chunki ular dinlari taqib qilingan zamonda yashar edi va fikrlaricha faqat bir yoki ikki kun uxlashgan edilar. Non sotib olish uchun bergan tangasi u asrga tegishli emasligini payqagan sotuvchi o‘smirni xazina yashirganlikda ayblab uni yepiskoplarini oldiga olib boradi. Yepiskop bu oddiy holat emas deya yigit bilan g‘orga boradi, kiraverishdagi 200 yil oldin ular ko‘milayotganda g‘ordagi yigitlarni ismlari tushirilgan mato topadi. Tez orada bu gap barcha yerga tarqaladi va o‘sha davrni imperatori ularni ko‘rish uchun keladi. Voqealik oxiri ularni g‘orga qaytarishliklari va bu safar qiyomatgacha uyquga ketishligi bilan tugaydi¹.

Tafiq Hakimni “G‘orda uxlayotganlar” asarining qahramonlari dastavval yetti kishidan iborat bo‘lgan xuddi yuqoridagi afsona qahramonlari kabi. Muallif tomonidan asar qayta-qayta yozilishi natijasida qahramonlar soni uch kishigacha qisqartiriladi. Voqealar rivoji yuqoridagi afsonada kelgani kabi Rimga ko‘chiriladi. Majusiy hukmdorning zulmidan qochish uchun nasoro diniga e‘tiqod qiluvchi uch kishi g‘orga chiqib ketishadi. Afsonadan farqli o‘laroq 300 yil uyquga ketishadi². Bu esa “Qur‘on Karim” dagi qissaga muvofiq.

Qahf surasining 22 — oyatida esa odamlar, “G‘or sohiblari” ni uch kishi bo‘lgan to‘rtinchisi itlari edi, ular besh kishi bo‘lgan oltinchisi itlari edi va yana bir toifalari esa ular yetti kishi edi sakkizinchilari it edi deyдилar. Ularning aniq adadi odamlar bilguncha emasligi kelgan. Tafiq Hakim ham qahramonlarining sonini necha marta o‘zgartirgan. Uning asarida it haqida hech narsa kelmagan. “Qur‘on Karim” da it ostonada oyog‘ini cho‘zib yotganligi haqida aytilgan³. Asarda ayni “Qur‘on Karim” da va afsonada kelgani kabi g‘or sohiblaridan biri bozorga boradi, zamoni o‘zgarganini va ularni davrida bo‘lgan zulm va qarshiliklardan holi zamon kelganini ko‘rishadi.

¹ Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-: TDSHU, 2009.- B.48

² Qur‘on Karim, Kahf surasi 25-oyat

³ Qur‘on Karim, Kahf surasi 18-oyat

Shunday bo‘lishiga qaramay uch holatda ham g‘or sohiblari qayta g‘orga kiradilar va abadiy uyquga ketadilar.

Tafiq Hakimning “G‘orda uxlayotganlar” asarining falsafiy g‘oyasi, inson hayotda tirikligining mazmuni tirikligi bilan emas balki uni o‘rab turgan qadrdonlari bilan birgaligida. Har qanday qiyinchilik bo‘lsin yaqinlaringizni qadriga borligida yeting va ularni yonlarida bo‘ling deydi. Chunki asar qahramonlarining biri badavlat bo‘ladi uyg‘onganda uning uyi o‘rnida bozor bo‘lib qolgan boshqasini esa suygan ayoli allaqachon dunyodan o‘tib ketgani va oralaridagi uchinchi qahramonni cho‘pon bo‘lganligi uyg‘ongach podasi g‘oyib bo‘lganliklarini ko‘rishadi. Har biri uchun hayotlarini mazmuni bo‘lgan narsalarning yo‘q bo‘lganliklarini ko‘rgan asar qahramonlari g‘orga qaytishga qaror qiladilar.

Ushbu asarning mazmuni solishtirayotgan manbamiz “Qur‘on Karim” dagi g‘or egalari qissasi bilan umumiy mazmunda bo‘lsa-da “Kahf surasi” dan oladigan xulosalarimiz boshqa.

Hazrat Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy “Kahf surasi”ga bergan ta‘rifida: “Men Kahf surasining haqiqatini anglash uchun ikki yil sarfladim. Ushbu vaqt ichida bir yigirma arabcha kitob va urducha tafsir kitoblarini mutolaa shu tafsirlar ichida bitta forscha tafsir ham bor edi.

Odatda biz Kahf surasini faqat g‘or egalari qissasi deb tushunamiz. Suraning asl maqsadiga ko‘pchilik e‘tibor qaratmagan. Ushbu suraning asl maqsadi, mag‘zi va markaziy nuqtasi shunday iboratki:

Robbimiz bu dunyoda insonni sakkiz xil holatda imtihon qilib sinaydi: izzat (obro‘, mansab, boylik), zillat(xorlik, faqirlik), sihat (salomatlik), bemorlik (kasallik), naf‘ (foyda, daromad) nuqson(zarar, kamchilik) xursandlik (shodlik va xurramlik), qayg‘u (g‘am-anduh).

Har bir banda har soatda mana shu holatlardan bir holat ichida bo‘ladi. Agar shu sakkiz holat taqsimlanadigan bo‘lsa, ikkiga bo‘linadi. Yaxshi holat va yomon holat ya‘ni banda izzat ichra bo‘ladi yoki xorlikda. Sihat yoki bemorlik holatida bo‘ladi. Biz ikki holatdan biri bilan imtihon qilinamiz; Yaxshi yoki yomon holat bilan.”

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, Qur’onda kelgan qissalar eng go‘zal qissalar hisoblanadi. U yerda kelgan qissalar bizlarni sabrga va qiyinchilik vaqtlarida ulardan ibrat olishimiz, bu narsalar vaqtincha ekanini va biz sinov topshirayotganimizni unutmagan holda, yo‘l ko‘rsatib turishda go‘zal qo‘llanmadir.

Tafiq Hakimni hamda “Qur’on Karim” va afsonalarni o‘rgangan holda, davrni tiklanish davri ekanligini va xalqning kechinmalari, o‘sha vaqtdagi boshqaruvdagi adolatsizlik, ijodkorga yoqmagan jihatlariga javob o‘laroq desak bo‘ladi. Chunki Tafiq Hakim realist yozuvchi bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 Qur’on Karim, Kahf surasi 18-25 oyat
- 2 Xodjayeva.R.U Yangi davr arab adabiyoti tarixida ma’rifatparvarlik jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.,:TDSHI,1999.
- 3 Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX asrlar). Darslik.T-.: TDSHI, 2009.
- 4 www.wikipedia.ru

TAVFIQ HAKIM ASARLARINING MAVZULAR KO‘LAMI

Xolida SADULLAYEVA
TDSHU, Arab filologiyasi yo‘nalishi
3- bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: fil.f.n.,dots. Sh. Ahmedova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Misr yozuvchisi Tawfiq Hakimning ijodiy faoliyati yoritilgan. Shuningdek, asarlarining badiiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Misr modernistlari, Tawfiq al-Hakim, Misr qishlog‘i, marifatparvarlar, badiiy g‘oya.

Arab adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan va nomi Misr modernistlari qatorida tilga olinadigan Tavfiq al-Hakim 1898-yil 9-oktyabrda Misrning Iskandariya shahrida badavlat misrlik qozining oilasida dunyoga keldi¹. U yoshligidan adabiyot va san’atga mehr qo‘ydi, shu uchun bo‘lsa kera tez-tez teatrlarga

¹ Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-.: TDSHU, 2009.- B.85

Jorj Abyad kabi mashhur aktyorlarning spektakllarini tomosha qilish uchun borardi. O'rta ta'limni davom ettirayotib, yosh iste'dod egasi pyesalar yozishni mashq qila boshladi. Keyinchalik Tavfiq al-Hakim Qohira universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi, hattoki bir necha yil davomida prokuratura organlarida faoliyat ko'rsatdi, lekin bu sohaga ota-onasining qistovi bilan qadam qo'ygan bo'lajak adib tez orada uni butunlay tark etdi.

Shunday qilib Tavfiq al-Hakim hayotini to'liq adabiyotga baxshida etdi. Ijodining boshida adib ota-onasining jamiyatdagi obro'siga putur yetkazmaslik uchun Husayn Tavfiq nomi ostida faoliyat ko'rsatdi, bunga sabab o'sha davrda yozuvchilik yuqori qatlam orasida qoralangan va unga bema'ni ish sifatida qaralgan. Adib uchun esa yozuvchilik kasbi hayotining mazmuni edi, yozuvchi bo'lish go'yoki uning taqdiriga bitilgandek edi. Asarlarining xilma-xilligi, badiiy g'oyasining naqadar chuqur ma'noga ega ekanligi, xalq dardini o'z dardidek aks ettirgani bunga yaqqol dalildir.

Tavfiq al-Hakimning ko'plab arab ijodkorlaridan farqli tomoni shundaki, adib G'arb adabiyotiga taqlid qilishdan qochdi va «o'z daraxtlarini chet el o'simliklari to'sib qo'ymasligini» yoki «ishqilib, biz o'zgalar ovozi bilan baqiradigan to'tiga aylanmasak bo'ldi» degan g'oyalarini ilgari surdi.

1937-yilda Tavfiq al-Hakim qalamiga mansub "Viloyatdagi tergovchining xotiralari" asari bosmadan chiqadi¹. Asar kundalik shaklida yozilgan bo'lib, undagi voqealar bir dehqonning qotilini qidirayotgan tergovchi asosiga quriladi. Uni o'qigan kitobxon XX asr Misr qishlog'idagi hayot nechog'li zerikarli va g'amgin bo'lganiga guvoh bo'ladi. Qishloq aholisi tun-u kun qora mehnat bilan band, odamlarning buguni ham ertasi ham dehqonchilik bilan bog'liq. Dehqon oilasida tug'ilgan farzand ham kelajakda dehqon bo'lishga mahkum. Dehqonlar tomi g'o'zapoya va makkajo'xori bilan to'lgan o'zlarining pastak va tor uylarida kun kechirishga majburlar. Ularning mashg'uloti halol mehnatdir, ammo maqto'v sifatida eshitadiganlari faqat haqoratdir.

Asarning birinchi bobida sodir etilgan jinoyat yopiqligicha qolaveradi, lekin voqealar rivoji davomida hukmdorning xalqqa qilgan jinoyatlari fosh bo'ladi. Qissada tergov va sud sahnalari yozuvchi tomonidan aks ettiriladi. Aslida xalq manfaatlarini

¹ Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-: TDSHU, 2009.- B.87

himoya qilishi lozim bo‘lgan qonun, xiyonatkor adliya xodimlari qo‘lida xalqqa qarshi to‘qmoqqa aylanadi. Tergovchi asar oxirida alam bilan «Qani o‘sha adolat? Men uni tasavvur ham qilolmayman, hech qayerda uni ko‘rmadim. Bizga hech kim hech qachon uni ko‘rsatmagan», — deydi.

Sud tizimi yozuvchi tomonidan keskin tanqid ostiga olinadi. Sudlanayotgan insonlar qaysi gunohlari uchun sud majlisida ayblanuvchi sifatida ishtirok etayotganlarini ham bilmaydilar. Sud ularning bo‘yniga son-sanoqsiz osmondan olingan soliqlarni marjon kabi osib qo‘yadi. Hukm qat’iy e’tirozga esa aslo o‘rin yo‘q, insonlarning achchiq qismatga taslim bo‘lishdan o‘zga ilojlari yo‘q. Osmon yiroq – yer qattiq.

Tavfiq al-Hakim Misr adabiyotida “Arab dramaturgiyasining kashshofi” sifatida tarixda qoldi. “Rangba rang teatr” pyesalar to‘plamining so‘zboshisida adib go‘yoki uni “parishon san’atkor” deya tanqid qiluvchilarga quyidagicha javob qaytaradi: “har qanday Yevropa dramaturgi o‘z ishida ellinlar davridan meros qolgan mumtoz obrazlarga asoslanadi, bizning mamlakatlarimizda esa dramatik asarlar yaratish tajribasi hali oz, chunki arab adabiyoti dramaturgiyani janr sifatida bilmasdi. Menda tur va janrlarning shunday rang-barangligi ana shu joydan boshlanadi: ijtimoiy yoki maishiy romandan falsafiy dramalarga yoki siyosiy komediyalarga, goh adabiy tilda, goh shevada yozishlarim shundan”.

Yozuvchining hammaning nazariga tushishiga sabab bo‘lgan pyesasi “G‘orda uxlayotganlar”¹ pyesasi bo‘ldi. Bu asarga talab yuqori bo‘lganidan o‘sha yili qayta nashr qilindi, bir yil o‘tar-o‘tmas Qohiradagi milliy teatrda sahnalashtirildi. “G‘or ahli” afsonasi butun sharq olamida mashhurlikka erishgan. Hattoki Muqaddas Qur’oni Karimning Kahf surasida ham bu qissa keltirilgan. Tavfiq al-Hakim bu pyesasida hind afsonasi bo‘lgan “Uxlayotgan yetti o‘smir”dagi syujetdan foydalangan.

Voqealar rivoji Rim provinsiyalaridan birida kechadi, uch nasoro yigit Rim imperatori ta’qibida qochib bir g‘orga boradilar va u yerda qattiq uyquga ketadilar. Oradan uch yuz yil o‘tgach ular qayta uyg‘onadilar va atrofdagi barcha o‘zgarib ketganligiga guvoh bo‘ladilar. Uch nasoroning biri cho‘pon edi, endi uning ulkan podasi yo‘q. Ikkinchisining uyi o‘rnida bozor qurilgan, yaqinlari va do‘stlari

¹ Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-.: TDSHU, 2009.- B.90

allaqachon bu yorug‘ dunyoni tark etishgan. Uchinchisi esa sevgan insoni huzuriga shoshiladi bir fursat uni topgandek ham bo‘ladi, lekin keyin bilsaki bu qiz boshqa suyuqlisining o‘ziga juda ham o‘xshash chevarasi ekan. Bosh qahramonlar yangi dunyoga ko‘nikishga harakat qilsalar-da, afsuski bu hayotda o‘z o‘rinlarini topa olmaydilar va yana g‘orga qaytib chuqur uyquga ketadilar.

Hayotning asl mohiyati va qimmatini insonni o‘rab turgan tevarak dunyodagi insonlar va ular bo‘ladigan aloqalardadir. Inson ayni bir zamon va makonda yaratilar ekan, bu hech ham behikmat bo‘lmaydi. Odam bolasi turli xom hayollarni qilmasdan o‘ziga berilgan umrning qadriga yetib, har soat va har daqiqada mazmunli hayot kechirmog‘i lozim. Aynan shunday falsafiy g‘oyalarni Tavfiq al-Hakim “G‘orda uxlayotganlar” pyesasi orqali insonlarga aytishni maqsad qilgan.

1952-yilda Misr yurtida katta inqilob bo‘ldi, har bir sohada bo‘lganidek adabiyotda ham ulkan o‘zgarishlar kuzatildi. Realistik tamoyillar ham she’riyatning ham nasrning asosiga aylandi, matbuot esa g‘oyasiz va zamondan orqada qolgan adabiyotga qarshi urush e‘lon qildi.

XX asrning 50-yillaridan keyin Tavfiq al-Hakim bir necha bor komediya janriga murojaat qildi. Bu orqali adib jamiyatda ildiz otgan va taraqqiyot tomiriga kishan solib turgan bir necha muammolarni ko‘rsatib berdi. 1954-yilda dramaturg “Nozik qo‘llar” komediyasini yozdi. Asarda inqilob tufayli barcha mol-mulkidan ayrilgan aristokrat haqida hikoya qilinadi. Bu xudbin, o‘ta dimog‘dor va mutakabbir aristokrat har qanday mehnatga nafrat ko‘zi bilan qaraydi. Haqiqiy baxt mehnatda va uning ortidan keladigan barakada deb hisoblovchi oddiy xalq vakili g‘oyaviy jihatdan aristokratga qarshi qo‘yiladi.

1956-yilda esa “Bitim” komediyasi kitobxonlar hukmiga havola etiladi. Asarda dehqonlarning feodal zamindor zulmiga qarshi kurashi ko‘rsatilgan. Dehqonlar o‘zlarining nochor qismatlariga ko‘nikib yashashlari, erkinlikka intilmasliklari, hayotlarini yaxshi tomonga o‘zgartirishga harakat qilmasliklari doimo Tavfiq al-Hakimni ranjitgan. Shu uchun ham bo‘sa kerak adib bu asarda dehqonlarni o‘z haq-huquqlari uchun kurashadigan insonlar sifatida gavdalantirgan.

Yozuvchi inqilobdan keyingi davrda “Haqqoniylik va san‘at” hikoyalar to‘plamini yozadi. G‘oyaviy jihatdan bu asar “Viloyatdagi tergovchining xotiralari”ni

esga soladi. Chekka viloyatlar ham davlatning bir qismi ekanligini ta'kidlagan holda, adib u yerdagi muammolar soyasida davlat apparatining nosozligini ochib beradi. "Sud vrachi" hikoyasida esa dehqonlarning o'ta qashshoq hayot tarzi tasvirlangan. Inson yashashi mumkinligini tasavvur qilib bo'lmaydigan kulbalardan dehqonlar holsiz, rangpar va och holda chiqib keladilar. Ularning farzandlari esa o'rmalab yuruvchi jonzotlardek qorinlarida sudralib yuradilar. Hammalarining tanalariga ko'plab kasalliklar in qurgan. Aslida insonlarni beminnat va tekinga davolashi kerak bo'lgan vrach va feldsherlar shu dehqonlardan foydalanib boyiydilar, ularning so'nggi qonigacha so'rib oladilar. "Qishloqdagi dachaliklar" hikoyasida qishloqdagi chidab bo'lmas shart-sharoitlardan qochib, dengizdagi kurortga kelgan tergovchi haqida so'z yuritiladi. Ilgari tergovchi qishloqqa borib ayblanuvchilarni tergov qilgan bo'lsa, endi ayblanuvchilar uning oldiga keltiriladi. Ayblanuvchilar uchun bu ayni muddao bo'ladi, chunki bu yerda qishloqda yo'q dam olish va hattoki dengizda cho'milish kabi baxtga ega bo'ladilar. Ba'zi ayblanuvchilar aybsiz deb topilib, ozod qilinsalar-da qishloqqa qaytishni hech ham xohlamaydilar. Bu kulgili holat ortida ayanchli bir xulosa bor: dehqon uchun qishloqdagi ozod hayotdan ko'ra qamoqdagi hayot afzal. Chunki qishloqdagi og'ir mehnatga to'la hayot qamoqdagi hayotdan ham yomonroq va achinarliroqdir.

1966-yilda Tavfiq al-Hakim "Tashvishlar banki" nomli roman-pyesasini yozib tugatdi. Bu asar ham shaklan ham mazmunan juda qiziqarlidir. Oldin talaba bo'lgan, hozir esa ishsiz ikki talab do'st tungi Qohira ko'chalarini kezaadilar. Ulardan biri odamlar o'z dard va muammolarini olib keladigan, ularning o'ziga esa xayrixohlik va yechimlar olishadigan antiqa bank ochishni taklif qiladi. Bu g'oyaga bir ishbilarmon qiziqib qoladi va ikki do'stga homiylik qiladi. Mamlakatning turli yerlaridan ishsizlik, yuqori narx-navo va oilaviy kelishmovchiliklar kabi muammolar bilan qiynalayotgan insonlar bu bankka yopirilib keladilar. Keyinroq, do'stlar ishbilarmon va uning tanishlari oddiy xalqdan hukumatga qarshi fitna qilishda foydalanmoqchi ekanini bilib qoladilar. Ular fitnachilarni fosh etishga harakat qiladilar. Bu asar o'qimishli ommaga mo'ljallangan. Chunki chekka viloyatlarda teatrlar yo'q, oddiy xalq esa yoppasiga savodsiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, XX asrda “Misr modernistlari” nomi ostida bir qancha ma’rifatparvarlar paydo bo‘la boshladi. Ular eskilikdan qochib, yangilik tomon intildilar, quruq va bema’ni voqealarni hikoya qilishdan uzoqlashib, real xalqchil asarlar yozishni, bu orqali oddiy xalqni ma’rifatli qilishni maqsad qildilar. Ular Misrni qoloqlik botqog‘idan chiqib, taraqqiyotga yuz burishining tarafdori bo‘ldilar. Aka-uka Muhammad va Mahmud Teymurlar, Toha Husayn, Muhammad Husayn Haykal kabi ma’rifatparvarlar o‘z asarlarida faqat va faqat haqiqatni tarannum etdilar. Tavfiq al-Hakim ham arab adabiyotining ana shunday realistik yozuvchilaridan edi. U Misrdagi dehqonlar qashshoqligini, ma’muriy apparatning shafqatsizligini, byurokratizmni va sud xodimlarining vijdotsizligini butun millatga ko‘rsata oldi. Doimo xalq dardini qo‘rqmay baralla kuyladi, oddiy xalqning manfaatlarini o‘z manfaatlaridek himoya qildi va ular uchun ma’rifatparvarlik bilan kurash olib bordi. Haqiqatdan ham shunday, bir asarni qog‘ozga tushirishdan oldin yozuvchi qo‘liga qalam olar ekan, u har qachon o‘z vijdonining, unga non va tuz bergan Vatanining, uni voyaga yetkazgan xalqining oldida mas’uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akbarova M.H “Yangi davr arab adabiyoti”. (XIX-XXasrlar). Darslik. T.,2009. 343 b.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Tawfiq_al-Hakim
3. <https://www.britannica.com/biography/Tawfiq-al-Hakim>
4. <https://al-bab.com/modern-arab-writers-tawfiq-al-hakim>

BAHRAYN YOZUVCHISI -ALI ABDULLOH XALIFA

*Zulfiya MO‘MINOVA
TDSHU, Arab filologiyasi yo‘nalishi
3-bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar:fil.f.n.,dots. Sh. Ahmedova*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bahraynlik adib Ali Abdulloh Xalifaning ijod yo‘li tadqiq etilgan. Shuningdek asarlarining badiiy xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Bahrayn, Ali Abdulloh Xalifa, adib, dengiz, XX asr ikkinchi yarmi.

Bahrayn adabiyotining paydo bo'lishi va rivojlanishi bevosita arab adabiyoti bilan bog'liq bo'lib, islomdan oldingi she'riyatda boshlangan. Shu bilan birga, u oxirgi 30 yilda jadal rivojlandi¹. 1965 yildan boshlab, Bahraynda yosh yozuvchilarni adabiy to'garaklarga birlashishga bo'lgan harakatlari kuzatildi. Adabiyotchilarni mamlakatdagi madaniy kuchlarni birlashtirishga bo'lgan intilishi 1969 yil sentyabr oyida Bahrayn adabiyotchi va yozuvchilar jamiyatining paydo bo'lishiga olib keldi. Yosh yozuvchilarning bu birlashmasi, mamlakatda adabiy harakatni ko'tarilishida ahamiyatli rol o'ynab, unga tashkillashtirilgan xarakter berdi. Har yili jamiyat tomonidan madaniyat kunlari o'tkaziladi, ular doirasida boshqa arab mamlakatlari, ayniqsa, Quvayt adabiyotchilari bilan aloqalar amalga oshiriladi, ma'ruzalar o'qiladi, adabiy asarlar muhokama qilinadi. Ma'ruza o'qish uchun turli arab mamlakatlaridan yozuvchilar taklif qilinadi. Masalan, 1983 yil dekabr oyida "Zamonaviy arab nasr va nazmda adabiy maktab va yo'nalishlar" nomi ostida ma'ruzalarning majmuasini mashhur iordaniyalik adib Iso an-Naurm o'qidi². 1976 yildan boshlab, jamiyat tomonidan "Kitobot" adabiy jurnali nashr etila boshlanadi. Oynoma yiliga muntazam bo'lmasa-da, 4 marotaba chiqariladi. Jurnalning mas'ul muharriri Ali Abdulloh Halifadir. Jamiyatning o'z dasturi bor, u "Mafkuraviy yo'nalish" nomi ostida 1970 yilda nashr etilgan. Bu dasturda "hayot bilan hamnafas ijod, yozuvchilarni ommalar bilan hamnafasligi" g'oyasi olg'a suriladi. Bahrayn yozuvchilarining aksariyati realistik yo'nalishdagi yozuvchi bo'lganliklari ajablanarli emasdir, chunki ular "hayot uchun ijod" shiori ostida ijod qiladilar. Zamonaviy Bahrayn adabiyotida realistik yo'nalishning boshchisi mashhur shoir, Bahrayn adabiyotshunoslari va yozuvchilar jamiyatining raisi Abu Abdulloh Xalifadir. U 30 yillarda she'r yoza boshladi, bu she'rlar Livan jurnali "al-Xafadis"da chop etildi. Ali Abdulloh Xalifa – "Palma chanqog'i", "Ustun (Machit) nidosi" (2 nashr – 1969 va 1974 yillar)³ kabi to'plamlarning muallifidir. Shoirning o'zi hikoya qilishicha, u Jubron Xalil Jubron va

¹ Sh.Ahmedova .Xalij arab mamlakatlari adabiyotida ma'rifiy bosqichning o'ziga xosligi. TDSHI, Sharq mash'ali. Ilmiy jurnal.2018. -B.16

² Sh.Ahmedova. Fors ko'rfazi arab mamlakatlari adabiyoti. O'quv qo'llanma. T., 2021. –B.43

³ Sh.Ahmedova. Fors ko'rfazi arab mamlakatlari zamonaviy hikoyanavisligining rivojlanish boqichlari. //“Sog'lom ona va bola” yiligi bag'ishlangan ilmiy amaliy anjuman. O'zbek sharqshunosligi: bugungi va ertasi. Ilmiy to'plam TDSHI.2016 . -B.105

Shabbdan dars olgan. Uning ijodining asosiy mavzularidan biri — dengiz mavzusi. Shoir dengiz oldi sohillarida yashovchi aholining ruhiy kuchini, dengiz bilan olishgan dur olib chiquvchilarning kuchini kuylaydi. Ularga u durni sotib oluvchilarni qarshi qo‘yadi. Muallif o‘z yaqiniga muhabbat, o‘z vataniga sadoqat va muhabbatni eng yaxshi inson xislati deb hisoblaydi.

Ali Abdulloh Xalifa shevada ham bir qator asarlar yaratgan. Bu asarlarda u inson, uning yaxshi hayot uchun kurashining muammolarini ko‘taradi. Shoir “tungi qorong‘ulikka yorug‘lik olib kiradi”, “Palmalarning chanqog‘i” insonning ozodlik va hayotga bo‘lgan huquqini hurmat qilishni talab qiladi. Nima sababdan shevaga murojaat qilganligi haqidagi savolga javob berib, u iordaniyalik tanqidchi Xalil Abavinga intervyu berayotganida “sabab oddiy, ammo jiddiy. Men Fors ko‘rfazidagi ilk to‘plamim chiqqanida, mazkur to‘plamda muammolarini aks etgan oddiy insonlarim uni o‘qimayotganligini bildim. Bu insonlarga yaqinroq va tushunarliroq bo‘lishi, ularning qalblariga yetish uchun men ko‘prik sifatida shevadan foydalandim”, -deb aytadi.

Shevadagi she‘riyat Bahraynda keng tarqaldi. Bunga misol sifatida Ibrohim Buhindiy va Abdurahmon Rafi‘a (1972 yilda chiqqan “Xalq she‘rlari” to‘plamining muallifi)larni ijodini keltirish mumkin, ular o‘z soddaligi va musiqaviyligi bilan qo‘shiq-larni eslatadi. Shevaga Bahraynlik adiba, shoira Munis Faris ham murojaat etadi.

Ali Abdulloh Xalifaning shevadagi she‘rlariga kelsak (shoirning o‘zi ularni “qo‘shiq” deb ataydi), bu she‘rlar “Palmalarning chanqog‘i”¹ to‘plamini tashkil qildi. Ammo shoir an‘anaviy qo‘shiq shaklidan chiqishga intiladi. U xalq adabiyoti materiali, rivoyat, matal, maqol, afsonalardan foydalanib, yangi mavzularni ifoda etadi, bu mazmuni chuqurroq ochib, she‘riyatini boyitadi. To‘plamda ramziylik juda ham ko‘p ishlatilgan. Hattoki, to‘plam nomidagi Palma bu Bahraynliklarda azaldan farovonlik va mo‘l-ko‘lchilik ramzidir.

Ali Abdulloh Xalifaning ijodi haqida Bahrayn tanqidchilari ko‘p yozganlar. Ayniqsa, Bahrayndagi “she‘riyatning birinchi tanqidchisi, yoshlarning kichik

35. — ص. 1986 الرياض، الشباط عبد الله احمد. ادباء في الخليج العربي. — الكويت، دار الوطنية الجديدة للنشر و التوزيع¹

nazmining tanqidchisi” Muhammad Jobir al –Ansoriy (Bahraynda adabiy harakat tarixi tadqiqotchisi)ning ko‘plab maqolalari aynan A.A.Xalifaning ijodiga bag‘ishlangan.

Ali Abdulloh Xalifa novellist sifatida ham ma’lumdir. Aynan shu janrdan u o‘z ijodini boshlagan, ammo uning badiiy tomondan bo‘sh bo‘lgan ilk hikoyalari tan olinmadi. Xalifaning keyingi ijodidagi hikoyalaridan eng sarasi, bu yoshlarning romantik muhabbati haqida hikoya qiluvchi “Qo‘shiqchi va malika” novellasidir.

Ali Abdulloh Xalifa tanqid bilan ham shug‘ullanadi, uning qalamiga “Fors ko‘rfazi xalq qo‘shiqlari” maqolalar to‘plami mansubdir.

Bahraynning eng mashhur shoiri bu Ibrohim al –Arayid (1908 yilda tug‘.). U katta avlod yozuvchilariga mansub bo‘lib, zamonaviy Bahrayn adabiyotining manbaida turgan. Ibrohim al –Ara’yid she’rlarining qator to‘plamlarning muallifidir. Ular ichida “Kelinlar”, “Xotira”, “Shag‘amlar” kabi to‘plamlari shuhrat qozongandir. Bundan tashqari u qahramonona poemaning muallifidir. Ular ichida tarixiy “Makka va Quddus” hamda ijtimoiy “Mazlumlar yeri” poemalari e’tiborga loyiq. Shu bilan bir qatorda u bir nechta nazariy tadqiqotlarning muallifidir, masalan, “She’riyat va san’at”, “She’riy uslublar” arab she’riyati bo‘yicha “Zamonaviy arab she’riyati va ularning muammolari” ma’ruza siklining muallifidir. Ibrohim al –Arayid Bahraynning ko‘zga ko‘ringan jamoat va siyosiy arbobidir, u hukmron doiralarga juda yaqindir. Bundan tashqari arablashtirilishning tarafdori ham.

Bahraynning eng yirik shoirlari qatorida Qosim Xaddod nomini ham aytib o‘tish joiz. U “Yaxshi xabar” (1970), “Sotqin shahardan boshliq Husaynning yo‘q bo‘lishi” (1972), “Ikkinchi qon” (1975), “Muhabbat qalbi” (1980) kabi she’riy to‘plamlarining muallifidir. Qosim Hadod bilan bir qatorda shoira Hamdu Xamis ham turadi, u “Bolalikka umid” (1978) kabi to‘plami bilan mashhurdir¹.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, hozirgi zamon Bahrayn adabiyoti shakllanish bosqichida bo‘lib XX asrning 60-yillarida Arab mamlakatlari (Misr, Suriya, Livan, Tunis, Jazoir va boshqalar) bosib o‘tgan adabiy-badiiy jarayonlar davrini boshidan kechirmoqda.

¹ Sh.Ahmedova. Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.,2021. –B.48

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. غ.لوم ابراهيم عبد الله. القصة القصيرة في الخليج العربي. كويت و البحرين. مطبعة الارشاد. بغداد، 1981. – ص.735
2. الشباط عبد الله احمد. ادباء في الخليج العربي. – الكويت، دار الوطنية الجديدة للنشر و التوزيع.الرياض، 1986. – ص. 357
3. Sh.Ahmedova. Fors ko'rfazi arab mamlakatlari adabiyoti. O'quv qo'llanma. T.,2021. 188b.
4. Sh. Ahmedova. Fors ko'rfazi arab mamlakatlari zamonaviy hikoyanavisligining rivojlanish bosqichlari ToshDShI. //“Sog'lom ona va bola” yiliga bag'ishlangan ilmiy amaliy anjuman. O'zbek sharqshunosligi: bugungi va ertasi. Ilmiy to'plam TDSHI.2016 .
5. Sh. Ahmedova. Xalij arab mamlakatlari adabiyotida ma'rifiy bosqichning o'ziga xosligi. TDSHI, Sharq mash'ali. Ilmiy jurnal.2018.

ARAB VA O'ZBEK MA'RIFATPARVARLARI HARAKATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Zulayho NURMATOVA
TDSHU, Arab filologiyasi yo'nalishi,
3-bosqich (kechki) arab-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: fil.f.n.,dots. Sh. Ahmedova*

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab va o'zbek ma'rifatparvarlari harakati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek marifatparvarlik harakatlari maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotlar olib borilganligi xususida soz yuritilgan.

Kalit sozlar: ma'rifatparvarlik davri, Jubron Xalil Jubron, Amin ar-Rayhoni, Mixail Nuayme, Abu Madiy.

Arab mamlakatlarida ma'rifatparvarlik davri o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bunda “An-Nahda” (“Uyg'onish”)¹ harakati ahamiyatga molikdir.

Tarixga nazar solsak, hamma davrlarda ham ma'naviyati qashshoq xalqlar har doim zalolatga yuz tutgan, rivojlanmagan. Suriya-Amerika adabiy maktabi ana shunday xalqlarning tafakkurini yuksalishiga, “Ey insonlar, ko'zlaringizni ochinglar” zamirida yuzaga kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xuddi shunday davr bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmay qolmagan, aholini qoloq qilish, ma'nan

¹ Xodjayeva.R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixida marifatparvarchiliu jarayoni. O'quv q'ollanma.T.:TDSHI,1999.- B.4

yuksalishiga qarshi chiqib, xalqning savodxon bo'lishiga to'sqinliklar bizning yurtimizda ham vujudga kelgan.

Millat va xalqimiz mana shunday ikki tomonlama o'ta ayanchli va xavfli ijtimoiy-siyosiy muhit hamda vaziyatga duch kelgan bir paytda musulmon ziyolilar din homiylari orasidan yangi bir taraqqiyparvar guruhning harakati paydo bo'ldi. Ular "jadidchilar" bo'lib, o'z xalqini zalolatdan qutqarishning birdan-bir to'g'ri yo'li avval tarbiya va ma'rifat, so'ng islohot ekanligini juda to'g'ri anglab etdilar.

Shuning uchun ham jadidlar millat va xalqni g'alayon va qo'zg'olonga, inqilobiy buzg'unchilikka da'vat etmadi. Aksincha, ularni diniy-dunyoviy ma'rifat, ilm-fan, madaniyat va yangiliklar bilan qurollantirib tarbiyalash, o'zligini anglatish, ijtimoiy-ma'naviy g'aflat uyqusidan uyg'otib, turmush tarzi, tafakkuri, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti va ma'orifini o'zgartirishga bel bog'ladilar.

O'zlikni anglash, milliy g'ururni tarbiyalash, milliy tafakkurni o'stirish bilan bog'lik, tarixiy muammolaridan biri-ajdodlarimizning o'z erki, vatan ozodligi yo'lida mustamlakachilik zulmiga qarshi olib borgan kurashlari tarixidir.

1913 yili Abdulla Avloniy va Munavvarqori tashabbusi bilan "Turon" jamiyati tashkil etildi. Ushbu "Turon" jamiyati ikki yil davomida Toshkentda qiroatxona ochdi, teatr truppasini shakllantirdi, gazeta va nashriyot ta'sis etdi¹.

Jadidlar fikricha, har bir g'oyaning milliy g'oyaga aylanishi uchun ikki talabga javob berishi kerak: 1) g'oya millatning haqiqiy ehtiyojidan, turmush tarzidan, asriy an'analaridan va albatta, imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak; 2) ushbu g'oya millat tomonidan anglab yetilishi, boshqa so'z bilan aytganda, milliylashtirilishi kerak. Ya'ni, g'oya millatning har bir vakili yuragiga etib borishi kerak.

XX asrning boshlarida Suriyada ham ma'rifiy realizm ma'rifatparvar yozuvchilarning ijodi orqali rivojlandi. Frensis Marrash, Ali Xalqiy, Fuad ash-Shaib kabi yozuvchilar asarlarida ilmni, ma'rifatni targ'ib qilish orqali jaholatga, qoloqlikka qarshi kurash olib bordilar. Suriya-Amerika maktabi vakillari (J.Halil Jubron, Amin ar-Rayhoni, M. Nuayme) ijodida ham ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surildi².

¹ U. Dolimov. Turkiston jadid maktablari. — Toshkent: Universitet, 2006.-B.26

² Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-: TDSHU, 2009.- B.38

Suriyani asta-sekin yevropalashishiga, feodal munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi, mamlakatni burjua taraqqiyoti yo‘liga burdi, xalq ahvolini yanada og‘irlashuviga sabab bo‘ldi. Misr, Fransiya, Braziliya, AQShga ommaviy emigratsiya boshlandi. Amerikada, qisman Nyu–Yorkda arab muhojirlarining kattagina koloniyalari vujudga keldi, u yerda o‘ziga xos siyosiy va madaniy hayot tashkil topdi, turli xayriya va adabiy jamiyatlar paydo bo‘ldi, ko‘p sonli arabcha, inglizcha gazeta va jurnallar chop etildi. Bu yerda ular vatandagidan arzonga tushar, poligrafik sifati yuqori bo‘lar, eng muhimi — senzura yo‘q edi. O‘ziga xos “Suriya–Amerika adabiy maktabi”ning yuzaga kelishi uchun qulay sharoit tug‘ildi. Amerikadagi barcha adiblar Jubron Xalil Jubron boshchiligidagi “Ar-Rabitu al-qalamiya” (“Qalam uyushmasi”) adabiy to‘garagi va Al-Haddod muharrir bo‘lgan “as-Soyyih” (“Sayyoh”)¹ jurnali atrofida uyushdilar.

Jubron Xalil Jubron, Amin ar-Rayhoniyy, Mixail Nuayme, Abu Modiy, Nasib Arida, Nodira Haddad, Al-Haddod, Rashid Ayyub, Amin Mushrok va boshqalar ana shu guruh a‘zolari edilar. Ulardan uchtasi M. Nuayme, N. Arida, A. Haddod Falastindagi rus maktabida ta‘lim olganlar. Ularning qarashlari ma‘lum darajada rus adabiyoti ta‘sirida shakllangan edi.

Amerikadagi o‘ziga xos adabiy maktabni birinchi avlod arab muhojirlari emas, uch madaniyat - Amerika, Yevropa va arab madaniyatlari ta‘sirida shakllangan ikkinchi avlod yaratdi. Muhojirlarda sokin arab qishloqlari bilan ular tushib qolgan yangi muhit-ulkan Amerika shahari o‘rtasidagi ziddiyatni alam bilan his etish tuyg‘ulari tarbiyalagan edi.

O‘zi va xalqining najotini kitoblardan izlagan Amin ar-Rayhoniyy, Jubron Halil Jubron, Mixail Nuayme kabilar ijodini, o‘zbek jadidchilaridan Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonovlar ijodiga qiyoslasak, masalan: Amin ar-Rayhoniyy dunyoni o‘zgartirish yo‘lini avvalo shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirishida va xalqni ma‘rifatli qilishda, “to‘g‘ri tarbiya va haqiqiy ta‘limda” deb bildi.

¹ Akbarova.M.H Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX) asrlar. Darslik.T-: TDSHU, 2009.- B.39

Taniqli ma'rifatparvarimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz.

Yozuvchilarning realizmga tomon yo'li onson kechmadi. Ularning ijodida realizm, romantizm va sentimentalizm bilan chatishib ketdi. Tabiatga mehr, vatanni qo'msash, adolatli jamiyat haqidagi o'ylar, gumanizm arab Sharqi adiblari ijodidagi yetakchi g'oyalardir. Yozuvchilar ijodida diniy aqidalar, kolonial zulm kishanlari, Suriya va Lubnon xalqining huquqsizligiga qarshi norozilik ifodalandi, arab mamlakatlarining ijtimoiy taraqqiyoti masalalari ham dadil qo'yildi. Suriya-Amerika maktabi shoirlari arab she'riyatining an'anaviy qonunlarini yangiladilar. Abu Madi, M. Nuayme, Jubronlar faqat shakldagina emas, mazmunda ham an'analarga ko'r-ko'rona amal qilishdan voz kehdilar, yangi janr – mansur she'rni yaratdilar. Diniy mavzu muhojir arab adiblari ijodida salmoqli o'rin egalladi. Ularga xos xarakterli xususiyat – diniy murosasozlik, diniy fanatizmdan holilik. Qalam assotsiatsiyasi a'zolari masihiylik va islomga e'tiqod qilar edilar, shuning uchun dunyoni so'fiyona idrok etish har ikki dinni yarashtiruvchi sinalgan vosita bo'ldi. Assotsiatsiya a'zolari diniy nizolar kemirib yotgan vatan fuqarolarini o'zaro birdamlikka muhtoj ekanini his etdilar. Shuning uchun muallifning "Men"ini darvesh, tanho musofir, tarki dunyo qilgan so'fiy obrazi bilan tenglashtirish yuzaga keldi. Tasavvuf bilan bog'liq simbolika muhojirlar she'riyatini yangi mazmun bilan to'ldirdi, fikr va hissiyotga boy ichki olamini ochishga ko'maklashdi. Shuningdek, "Jadidchilar"¹ olamida ham Turkiston jadidchilik harakatining rahbarlari sanalgan Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi rolni o'ynashgan. Buxoroda — Fayzulla Xo'jaev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa — Polvonniyoz Yusupov bu harakatga boshchilik qilishgan².

Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to'lqinlantiradigan, hayajonga

¹ B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.- B.5

² B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.- B.22

soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma'naviy barkamollikka yetishda dinni to'g'ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makoni- ni tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg'or demokratik institutlarni bunyod qilish, o'ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg'or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi.

Xulosa qilib aytsak, shu davrda maydonga kelgan har qanday ma'rifatparvarlik harakatlari maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi. Hozirgi zamon yoshlarining bu kabi ilm-salohiyatli bo'lishi, maktabchilik asoslari, dars o'tish tartiblarini joriy etilishida ma'rifatparvar yozuvchilarning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarova M.X. Yangi davr arab adabiyoti. (XIX-XX asrlar). T.,2009.
2. U.Dolimov.Turkiston jadid maktablari.- Toshkent:Universitet, 2006.
3. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
4. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. T., 2016.

GID HAMROHLIGI VA TARJIMASHUNOSLIK

KOMPYUTER TERMINLARINING TURK TILIGA O‘ZLASHISHI

Nargiza HAKIMOVA
TDSHU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD., dotsent N. Ismatullayeva

Annotatsiya: Hozirgi kunda turk tili boshqa tillardan kirib keluvchi so‘zlar orqali, yohud ichki manba yordamida boyimoqda. Shuningdek, yangi innovatsion texnologiyalar asrida har bir ishlatilayotgan texnika o‘z nomiga ega bo‘lishi zarur. Demak, kompyuter terminlari va ularning tarjima usullari dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Kalit so‘zlar: Til, terminlar, turk tili grammatikasi, kompyuter terminlari.

Rivojlanib borayotgan zamonda yangi texnologiyalarga bo‘lgan talab katta. Demak, kompyuter hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan terminlarning tarjimasiga bo‘lgan talabni qondirish tarjimonlar oldida turgan muhim masalalardan biri.

Termin — bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi¹.

Terminologiya esa muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog‘ining, san‘at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui.

Demak, terminlar sinonimga ega bo‘lmagan muayyan so‘zlardir. Turk tilining boyish manbasi o‘zbek tiliga o‘xshash, ya’ni 2 xil: ichki va tashqi. Ichki manbaga oldin ushbu tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarni bir biriga qo‘shish yoki, bir asosga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yasaladi.

Ikkinchi usul bu so‘z o‘zlashtirish, ya’ni boshqa tillardan yangi texnologiyani o‘z nomi bilan qabul qilish. Bu o‘rinda yangi texnologiyalarga asosan ingliz tilida nom qo‘yilgani uchun, ushbu tilni turk tilining asosiy tashqi boyish manbalaridan biri sifatida e’tirof etish zarur.

¹ Farida, H. (2023). Kompyuter Terminlari Tarjimasida Yuzaga Keladigan Muammolar Va Vazifalar. *Miasto Przyszłości*, 36, 172-174.

Har qanday tarjimon uchun sifatli tarjima faoliyatining asosiy va samarali usullari va strategiyalarini bilish juda muhimdir. Terminlarni tarjima qilish tilning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan eng muhim narsalardan biridir. Tarjima sifatini oshirish maqsadida deyarli barcha mamlakatlarda tarjima masalalarini tartibga soluvchi maxsus qonunlar va qoidalar mavjud. Hozirgi vaqtda tarjimonlarning terminlar tarjima faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan turli xil tarjima strategiyalari va usullari mavjud¹.

Ushbu maqolada kompyuter va unga aloqador jihozlarning turk tilidagi nomlari borasida ma'lumotlar beriladi. Tahlil uchun 5 ta so'z tanlab olindi va ularning kelib chiqishi tavsif etiladi.

Kompyuter olami va uning ishlash jarayonini bilan shug'ullanuvchi fan informatika tilning boyligi va imkoniyatini hisobga olmagan holda butun dunyoda paydo bo'layotgan so'zlarni turk tiliga ba'zan shunchaki qanday bo'lsa shundayligicha olib kirmoqda. Masalan, *noutbuk* so'zining tarjimasini turk tiliga "dizüstü bilgisayar" sifatida qabul qilinganiga qaramay, bu so'z "laptop", ya'ni inglizcha talqini orqali ko'proq qo'llaniladi. Demak turk tilda so'zlashuvchilar orasida "laptop" ko'proq qo'llaniladi. Buni sof turkcha so'zning talaffuz qilish uchun uzunligi bilan izohlash mumkin².

Shuningdek, *ekran* so'zi turk tilida ham o'zbek tili bilan bir xil talaffuz qilinadi. bunga turk va o'zbek tillari bir oilaga mansubligi bilan izohlash mumkin.

Ingliz tilidagi "mouse" termini esa turk tilida "fare" tarzida qo'llaniladi. Ushbu so'zning asl ma'nosi sichqon yoki kalamush. Ushbu so'z o'z turkcha muqobilini to'liq topgan so'z sifatida misol keltirish mumkin.

O'zbek tiliga termin bilan kirib kelgan *printer* so'zi o'z turkcha tarjimasiga ega bo'lib, bu "yazinci", ya'ni "yazmak" so'ziga "ci" ot yasovchi qo'shimchasi qo'shilgan. Natijada "yazinci" – yozganlaringizni chiqaruvchi moslama ma'nosini beruvchi

¹ Boltayev, B., Azamatov, A., Asqarov, A., Sodiqov, M., & Azamatova, G. (2015). Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. *Toshkent: "Cho'lpon" nomidagi NMIU, 160.*

² Dilnavoz, Y. (2023). ALEKSANDR MIXAYLOVICH SHCHERBAK—"ARUZ RISOLASI" NING TADQIQOTCHISI. *Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).*

yasama soʻz hosil boʻlgan. Bu oʻz oʻrnida printerning vazifasini anglatadi. Ushbu soʻz turk tiling ichki manba orqali boyishiga yaqqol misoldir.

Bundan tashqari turk tili terminologiyasida telefon yoki elektron qurilmalarga quvvat beruvchi moslama *Şarj cihazı* shaklida qoʻllaniladi. Ingliz tilida ushbu termin *charger* boʻlib, *charge* yaʼni quvvatlantirmoq feʼliga “r” ot yasovchi qoʻshimchani qoʻshish orqali affiksatsiya usulida yangi soʻz yasalgan. Ammo turk tilida ushbu soʻz kompozitsion usulda yasalgan. *Şarj* bu quvvat, energiya degani, esa *cihazı* es moslama qurilma maʼnolarini anglatadi. Demak, *Şarj cihazı*, feʼl+ ot tipdagi kompozitsion yasama termindir. Oʻzbek tilida esa ushbu soʻz asosga qoʻshimcha qoʻshish orqali hosil qilinadi, *quvvat+la+n+tir+gich*, yaʼni bir asosga ikkita soʻz yasovchi va ikkita lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilgan. Natijada ot soʻz turkumidan avval feʼl keyin yana ot yasalgan.

Bunday soʻzlarni shunchaki turk tiliga qabul qilishda davom etadigan boʻlsak turk tilining leksik qatlamiga yetarli darajada taʼsir qiladi¹. Kompyuter texnikasi rivojlanishda davom etar ekan u yangi soʻzlarni kashf qilishda davom etadi. Shunday ekan bugungi kunda tilshunoslar hamda tarjimashunoslar oldida kompyuter texnikasining til leksikasiga taʼsirini kamaytirish yoki bartaraf etish masalasi turibdi. Kompyuter terminlarining tarjimasining murakkabligi, albatta, u soʻzning aynan muqobili yoʻqligidir, lekin bu kompyuter orqali kirib kelayotgan soʻzlarni tarjima qilishning iloji yoʻq degani emas. Kompyuter neologizmlarini tarjima qilishda tarjimaning har qanday yoʻlidan (kalkalash, umumlashtirish, maʼnoni berish, antonim tarjima, transliteratsiya) foydalanishimiz zarur.²

Turk va oʻzbek tili bir tillar oilasiga mansub boʻlganligi sababli ikkala tildagi terminlar va ularning kelib chiqish manbalari nisbatan oʻxshash. Bugungi texnologiyalar asrida yangi texnikalardan foydalanmaslik imkonsiz. Demak tarjimonlar uchun muhim vazifalardan biri bu yaratilayotgan yangi jihozlarga tilning ichki manbalaridan foydalanib toʻgʻri va qulay tarjima topish. Shuningdek topilgan tarjima

¹ Шемакин, Ю. И. (2005). Естественные системы и искусственные модели. *Открытое образование*, (2), 69-76.

² Ismatullayeva, N. R. (2022). Chet tili darslarida tarjimani oʻrgatish metodikasi. *Ijtimoiy fanlar tadqiqoti va sharhi xalqaro jurnali*, 5(12), 448-452

xalq orasida ham qo‘llanilishi va ommalashishi zarur. Agar turk va o‘zbek tillariga tashqi manbalardan jihozlar o‘z nomi bilan kirib kelishda davom etsa, bu yuqorida sanalgan tillarning lug‘at boyligiga keskin ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Farida, “Kompyuter Terminlari Tarjimasida Yuzaga Keladigan Muammolar” 2023
2. Boltayev, B., Azamatov, A., Asqarov, A., Sodiqov, M., & Azamatova, G. (2015). Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. *Toshkent: "Cho‘lpon" nomidagi NMIU, 160.*
3. Dilnavoz, Y. (2023). ALEKSANDR MIXAYLOVICH SHCHERBAK–“ARUZ RISOLASI” NING TADQIQOTCHISI. *Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры*
4. Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. – М.: Высшая школа, 1992
5. Ismatullayeva, N. R. (2022). Chet tili darslarida tarjimani o‘rgatish metodikasi. *Ijtimoiy fanlar tadqiqoti va sharhi xalqaro jurnali, 5(12), 448-452.*

REGARDING THE TRANSLATION OF MUHAMMAD YUSUF’S POEMS INTO ENGLISH

Mokhinur AZIMKULOVA

*Student of Tashkent State University of Oriental Studies,
Faculty of oriental philology and translation studies,*

Field of study — translation theory Korean-English group first year student.

*Supervisor: TSUOS, “Translation Studies and International Journalism”
associate professor of the department, etc. Professor Kh. Hamidov*

***His poetry can truly be called winged poetry, poetry that flies high in the sky
and gives wings to hearts.***

Erkin Vohidov

Abstract: This article talks about Muhammad Yusuf’s life, his life path, and his sense of patriotism in his scientific and creative works. Also, the issues of translation of a number of his poems, “Confession” in english, the achievements, mistakes and shortcomings of the translation will be studied.

Key words: translation of poems, translation problems, sense of the motherland.

Our nation's favorite poet is the hero of Uzbekistan, the author of many wonderful poems Muhammad Yusuf was born on April 26, 1954 in the village of Qovunchi, Marhamat district, Andijan region, in a farmer's family.¹ Despite being a child of a simple, hard-working family, he was one of those children who was eager for knowledge from a young age. There is no work of Muhammad Yusuf that we do not know by heart. His poems are written with a burning heart and a fiery heart, so his poetry books are read from hand to hand. Familiar poplars, "I have a speech in the nightingale", "Iltijo", "Sleeping girl", "Konglimda bir yor", "Erka kiyik" are among them.²

The article examines the English translation of the poem "Confession" written by Muhammad Yusuf. Azam Obid skillfully translated the poem from Uzbek to English. The real meaning of the poem is that the poet proudly expresses that through this poem, our motherland Uzbekistan is not equal to any other country, does not doubt its beauty, and does not exchange even simple tandoor for the famous restaurants of Rome.

In many cases, the name of the poem is not translated into another language, it is left alone. But the translator translated the word "Iqror" without difficulty because the word "Confession" is also available in English. The feeling of love for the motherland stands out in the poem. Confessing the incomparability of our motherland, the poet begins his poem like this:

O, ota makonim. Onajon o'lkam, O'zbekiston, jonim to'shay soyangga. Senday mehribon yo'q, Seningdek ko'rkam. Rimni alishmasman bedapoyangga.

If we pay attention to the analysis of the poem, the phrase "my father's place" means the place where my father was born and grew up, my beloved country, in the very first part of the poem, we also pay special attention to the word "bedapoyangga" we should pay attention. This is exactly how the translator translated these sentences:

Oh, my father's birthplace My lovely motherland, Let me lay my soul on your shade. Uzbekistan, You are the kindest, You are so great, For Rome your clover-field

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/the-live-voice-of-the-people-in-the-work-of-muhammad>

² <https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>

*I cannot trade.*¹ In translation, *ota makonim- father's birthplace, bedapoyangga-clover-field*, we know that the translation of each genre has its own difficulties, especially in poetry, the translator has a hard time. Because the matching of rhymes and poem weights is definitely one of the most important topics in translation.

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar, Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirilar. Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb, Tog'laring ortimdan ergashib yurar. Before the analysis of the translation, if we look at the general meaning of the poem, it means that no matter how many countries I see and what places I have been, I can keep my head up and I will not lose my love for my homeland.

The Earth is covered with water and slopes, I saw many countries, fates and hopes Your mountains uphold me and follow, Asking to be proud high and low. If we look at the analysis of the next line of the poem, the word “*go'sha*” in the uzbek literary language means land, space, place. In the translation, the meaning of the poem is revealed in a comprehensible way, although the translation of the exact word is not given. Another important thing about the translation is that in the english translation, the sentence is translated from the end in order to get the meaning of the sentence, this method was skillfully used by the translator. For example: *Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb, Tog'laring ortimdan ergashib yurar.* as well as english language: *Your mountains uphold me and follow, Asking to be proud high and low* that is, your mountains support me and ask me to be proud. As we can see, the place of the third and fourth lines has changed in the translation. Why is this method used? Because it is not only the poem that is being translated into english, but also the story that is used to reveal the meaning of simple texts in an understandable way. The line translated by the translator through this method is very understandable for the reader and the public.

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin. Yo xudbinman men yo bir sodda kasbman men – Parijning eng go'zal restoranlarin,2 Bitta tandiringga alishmasman men. In the third line of the poem, the sentences that we consider important are: “*suluvlarning eng faranglarin*” and “*tandir*”. First of all, it is interesting how the word “*tandir*” was

¹ <http://azamabidov.uz/?p=1666>

² <https://tafakkur.net/iqror/muhammad-yusuf.uz>

translated because it was not in the English language, and secondly, the words “*suluv*” and “*farang*” also mean beautiful, graceful. Let’s see how the translator translates these sentences:

I met the most adorable white hands, It seems I am trusting or a self-lover Since for me the best Paris restaurants Before your tandoor are out of favor. The term “white hands” in the poem is translated as “*oq bilakli*” when translated literally. This word was used instead of the phrase “*suluvlarning eng faranglarin*” mentioned above. The most important thing is that although two different words are used in two languages, the meaning is the same. The word “*tandir*” is left in the form of “*tandoor*” because it is a foreign word for the English language.

Azam Obid translated the “problematic” words used in the next lines of the poem to suit both the translation and the reader. Let’s pay attention to one example: “Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing” is translated as “alamb that’s born in Bakhmal in springtime” translated correctly. Also “arab ohusi” (Arabian antelope) sentence is no exception.

The last syllable of the poem:

Sen bilan o‘tgan har kun bayram — bazm, Sensiz bir on qolsam vahmim keladi. Seni bilganlarga qilaman ta’zim, Seni bilmaslarga rahmim keladi. Finished in the form. The method we discussed above also applies to this line of the poem (Seni bilmaslarga rahmim keladi).

Each day I spend with you is a big foto Without you I’m scared, I’m full of worry I welcome those who know you and respect For those who don’t know you ! feel sorry. Since it was translated from the end, the position of the lines has changed (I welcome those who know you and respect For those who don’t know you!)

It would be appropriate for us to pay attention to something more interesting. “*Sen bilan o‘tgan har kun bayram – bazm*” translated as “*Each day I spend with you is a big foto*” in this sentence “*bayram – bazm*” words translated as “*big foto*”. When the sentence is translated literally, it means “*katta rasm*” But if we look at it from a scientific point of view, the word is used in the form of an idiom and it is meant to say that it is important for me to spend time with you, it is good. In fact, the word is not an

idiom, but the translator used the word in the form of an idiom in accordance with the sentence. I think this is actually a great achievement of the translator.

In general, we considered the achievements, mistakes and shortcomings of the translation. The conclusion drawn from this is that the translation of the poem is clear and fluent. The translator also translated the English translation in a manner similar to the style of Muhammad Yusuf. There is no poem that cannot be sung as a song. Every holiday, event, and creative circle is not complete without the participation of Muhammad Yusuf's poems or his poems sung as songs. This year marks the 70th anniversary of Muhammad Yusuf's death, but his memory will remain in our hearts forever, his works are studied all over the world.

References:

1. <https://www.ziyouz.uz/en/uzbek-literature/42-literature-of-independence-period/127-muhammad-yusuf-1954-2001>
2. <https://www.poemhunter.com/muhammad-yusuf-musa>
3. 10-sinf ingliz tili darslik/
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-live-voice-of-the-people-in-the-work-of-muhammad-yusuf>
5. <https://humoscience.com/index.php/ss/article/view/1154>
6. <https://tafakkur.net/iqror/muhammad-yusuf.uz>
7. <http://azamabidov.uz/?p=1666>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-live-voice-of-the-people-in-the-work-of-muhammad>
9. <https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>

XORIJIY TILLARDA TELERADIO DASTURLAR TAYYORLASH: MAQSAD VA ASOSIY VAZIFALAR

Fardona YAXSHIBOYEVA
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
xalqaro jurnalistika yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbari: PhD (TDShU) D. Ro'ziqulov

Annotatsiya: Maqolada davlat va nodavlat telekanallari orqali chet tillarni o'rgatish, xorijiy tilda axborot uzatish masalalari tahlilga tortilgan. Telekanallarda

muntazam ravishda ingliz, turk, fransuz, nemis va rus tillarida olib borilayotgan ko'rsatuvlarning yutuq va kamchiliklari o'rganilib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: rukn, telekanal, professional tarjima, xorijiy til, informatsion dastur, raqamli format, onlayn translyatsiya.

Mustaqillik yillaridan so'ng yurtimizda ko'plab sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, mass-media sohasini rivojlantirish va bu borada shart-sharoitlarni yaratish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu soha uchun maxsus qonun va qarorlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarda uzatilayotgan axborotlarning shaffofligini ta'minlash, ishonchlilik darajasini aniqlash, axborotni beg'araz uzatish, senzuraga yo'l qo'ymaslik, soha xodimlarining xavfsizligini ta'minlash kabi muhim ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birgalikda yurtimizda chet tillarni mukammal darajada o'rganish uchun imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Turli sohalarda til o'rgatishga ixtisoslashgan yo'nalishlar paydo bo'lganidek, mass-mediada ham chet tillarni o'rgatish uchun maxsus teledasturlar va radioeshittirishlar, gazeta va jurnallarda maxsus ruknlar tashkil etilgan.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq mass-mediaga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, hozirgi kunda yurtimizda xorijiy tillarni o'rgatishga bo'lgan sa'y-harakatlar yana jadallashmoqda. Bunga kundalik hayotimizda har kuni guvoh bo'lmoqdamiz. Qaysi soha mutaxassisi bo'lmasin, xorijiy tilni bilishi belgilab qo'yilmoqda. Shu bilan birgalikda xorijiy tillarni o'qitish va o'rgatish bo'yicha yangi metodlar tatbiq etib kelinmoqda. Hattoki, mass-mediada xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashgan maxsus teledasturlar soni kengaytirilmoqda. So'zimizning yaqqol tasdig'i sifatida "Foreign languages" telekanalining xorijiy tillarda uzatilayotgan teledasturlarni ko'rishimiz mumkin. Nafaqat teleradio, hattoki gazeta va jurnallarda ham xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashgan ruknlar gazetaning har soniga joylab borilmoqda. "Tong yulduzi", "Ma'rifat" gazetalari shular jumlasidandir.¹

Nafaqat gazeta va jurnallar, qolaversa telekanallarda ham hozirgi kunda bunday dasturlar yanada ko'payib bormoqda. "Foreign languages" telekanalida chet tilda namoyish etib boriladigan ko'rsatuvlar juda qiziqarli, rang-barang, tomoshabin

¹ <http://gazeta.uz>

e'tiborini o'ziga beixtiyor torta oladi. Sababi "Foreign languages" telekanali dasturlari orqali bir nechta til o'rganish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Ya'ni ushbu telekanalda rus tili, nemis tili, fransuz tili, turk tili, ingliz tillarida turli dasturlar tashkil etilgan. Bularning barchasi til o'rganish jarayonida ko'maklashishga ixtisoslashgan chora-tadbirlar hisoblanadi.¹

Dasturlarga alohida to'xtaladigan bo'lsak, "Our pride" ko'rsatuvi ingliz tilida yuritiladi. Haftada bir marta efirga uzatiladi. Davomiyligi 33 daqiqani tashkil qiladi. Boshlovchisi mazkur teledasturda ingliz tilida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan professional o'qituvchilar va turli kasb egalarining yutuqlari, muvaffaqiyatga erishishda duch kelgan qiyinchiliklari haqida so'z yuritadi. Ularning do'stlari, hamkasblari va shogirdlari havas qiladigan fazilatlarini haqida intervyu beradi. Bu dastur til o'rganishga bo'lgan bilim va qiziqishni oshirish bilan birgalikda yoshlarga o'z ustida ishlashi uchun motivatsiya beradi. Dastur qahramonlarining erishgan yutuqlari beixtiyor insonning havasini keltiradi. Tomoshabinning o'zida ham shunday maqsadlarga erishish istagini uyg'otadi. Agar o'z maqsadi yo'lida odimlayotgan bo'lsa, yanada harakatga undaydi.

Boshlovchilari dasturni pozitiv kayfiyatda olib boradi. Yutuqlari bilan birgalikda bu telekanal o'ziga yarasha kamchiliklardan xoli emas². Internet asri bo'lgan hozirgi zamonda OAV tahririyatlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda auditoriyasini kengaytirishda bu omil muhim rol o'ynamoqda. Sababi hozirgi kunda butun dunyoda axborot uzatish, reklama yoki boshqa turdagi materiallarni tayyorlash va tarqatishda internet sahifalarining ko'magi va o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, mass-medianing har qanday turdagi tarmoqlari o'zining internet saytlarini yaxshi yo'lga qo'yib borishi uning yanada ommabop bo'lishi va keng tarqalishiga zamin yaratadi.³

"Yoshlar" teleradiokanali raqamli formatda ishlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-iyuldagi "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining

¹ O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni // Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: Adolat. 2008.

² Mamatova Y.M., Qosimova N.S. Zamonaviy mass-mediada sharh. – T.: Tamaddun. 2021.

³ https://t.me/mtrk_tvasturlar

raqamli telekanallari sonini ko'paytirish, ulardan to'liq formatda foydalanish, sifatli to'ldirish va xizmat ko'rsatish to'g'risida"gi qaroriga asosan ish boshlagan ushbu telekanal o'z nomi bilan yoshlar uchun mo'ljallangan turli ma'naviy-ma'rifiy, ko'ngilochar dasturlarni namoyish etmoqda.¹

2021-yil 18-noyabrdan boshlab, "Yoshlar" telekanali ixtisoslashtirilgan reklama xususiyatiga ega bo'lgan telekanal sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Unda ingliz tilida "Breaking news" informatsion dasturi efirga uzatiladi. Ko'proq yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida statistik axborotlar beriladi.

"Bolajon" telekanalidagi dasturlarni tahlil qilish jarayonida shuni bildimki, ushbu telekanalda avvalgi 3 yilgi ko'rsatuvlarga qaraganda hozirgi kunda chet tilda uzatiladigan dasturlar soni keskin kamayib ketgan, buning sababi dasturlar o'zini oqlolmagan. Bu muammoga yechim dasturlarni kamaytirish emas. Aksincha undan-da qiziqarli kontentlarni ishlab chiqish lozim. Telekanalda til bo'yicha qiziqarli dasturlar yo'q emas, sanoqli bo'lsa ham, albatta, bor.

2017-yil 24-iyul kuni ilk bor efir yuzini ko'rgan "O'zbekiston 24" telekanali hozirgi kunda 24 soat tomoshabinlar uchun xizmatda. Aniqrog'i, bugungi kunda axborot oqimida lokomotiv hisoblanadi. Shu bilan birgalikda 336 nafar ijodkorni o'z safiga birlashtirgan. Sherzod Ro'ziyev, Navbahor Karimova, Muhammadnozim Mavlonov, Ulug'bek Rahmonqulov kabi tajribali ijodkorlar faoliyat olib borishadi. Bu dastur haqida umumiy xulosa juda yaxshi, ayniqsa boshlovchilari juda aniq va ravon gapirishadi. Qisqacha reportajlari aniq faktlarga asoslangan, rus tili va ingliz tilidagi dasturlari foydali ma'lumotlarga limo-lim.

2012-yil 1-yanvardan "Dunyo bo'ylab" telekanali "Madaniyat va ma'rifat" telekanali bilan birgalikda o'z eshittirishlarini O'zbekiston hududi bo'ylab taqdim eta boshlagan. "Dunyo bo'ylab" telekanali O'zbekiston aholisi uchun tarix, geografiya, milliy iqtisodiyot, turizm, arxeologiya va ekologiyaga doir ko'rsatuvlar tayyorlab tomoshabinlarga taqdim etib kelmoqda². "Dunyo bo'ylab" telekanali jahonning yetakchi telekanallarining geografiya, ekskursiya, jahon mamlakatlarining zamonaviy rivojlanish

¹ <http://lex.uz>

² https://t.me/FLTV_MTRK

istiqbollari, jahon xalqlarining o'ziga xos va mos milliy urf-odatlarini, madaniyatlari va sayyohlik salohiyatiga doir bir qancha hujjatli filmlarini litsenziya asosida taqdim etib kelmoqda. Shu bilan birgalikda dasturda turli sohalar bo'yicha qiziqarli va foydali axborot, yangiliklarga ega bo'lishi mumkin. Bular turistik zonalardan to'qol meh'nati bilan yasaladigan buyumlar, tasviriy san'at va ularning turlari, milliy va noodatiy taomlar, milliylikni o'zida uyg'unlashtirgan zamonaviy liboslar, hayvonot dunyosining siz bilgan va bilmagan tomonlari, yarmarkalar, muz saroylar, bularning barchasi haqida ushbu telekanal orqali ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, yurtimizda sodir bo'layotgan dolzarb mavzular haqida ham so'z boradi. ¹

Muxtasar qilib aytganda, xorijiy tillarda teleradio dasturlardan ko'zlangan maqsad aholining til o'rganish ko'nikmasini oshirish va yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'z ona tilida axborotga ega bo'lishida ko'makchi bo'lishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatova Y.M., Qosimova N.S. Zamonaviy mass-mediada sharh. – T.: Tamaddun. 2021.

2. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni // Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: Adolat. 2008.

3. <http://lex.uz>

4. <http://gazeta.uz>

5. https://t.me/mtrk_tv_dasturlar

6. https://t.me/FLTV_MTRK

7. <https://www.mtrk.uz/uz/tv/dunyo/>

AFG'ON XALQI MULOQOTIDA DINIY FRAZEOLOGIZMLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING TARJIMASI

Doniyor RAXIMOV

TDSHU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi

dariy-ingliz guruhi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: TDSHU, f.f.n dots. R. Sharipov

Annotatsiya: Bu ilmiy tadqiqot natijasida dariy tilida so'zlashuv tilidan va afg'on xalqi kundalik muloqot tilidan xabardor bo'lishimiz va ularning nutqida diniy

¹ <https://www.mtrk.uz/uz/tv/dunyo/>

frazeologizmlar naqadar faol tarzda qo'llanilishini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, tarjima jarayonida dariy tilida o'zbek tilidan farqli ravishda biz uchun erish hisoblangan ba'zi diniy frazeologizmlarning ular hayotida keng qo'llanilishini va tarjima jarayonida nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim ekanligini o'rganib olishimiz mumkin. Diniy frazeologizmlar tarjima qilish mobaynida qaysi jihatlarda so'zga va qaysi hollarda ma'no jihatdan muqobil variant qo'llash to'g'ri ekanligini bilib o'rganib olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, diniy frazeologizmlar, og'zaki tarjima, diniy tarjimashunoslik, afg'on madaniyati, og'zaki nutq, muqobil variant, dariy tili.

Frazeologizmlar inson so'z boyligini oshiruvchi va tilning chiroyini ochib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. U tilning rang-barangligi va bo'yoqdorligini oshirishga yordam beradi va shu bilan birgalikda uning bezakdorligi aniqlashda ham katta o'rin tutadi. Frazeologizmlardan o'z nutqida qo'llash faqatgina o'sha til egasi yoki tilni mukammal biluvchi shaxs tomonidan xosdir va tilni yuqori darajada bilishidan dalolat beradi. Frazeologizmlar asrlar davomida xalqning turmush tarzida turli xil hodisa va voqealar sodir bo'lishi natijasida kelib chiqqan bo'lib, o'sha voqeani bir so'z, so'z birikmasi yoki bir gap yordamida ifodalashda yordam beradi. Frazeologizmlarning tilda soni jihatdan qancha ko'pligi orqali o'sha tilning qanchalik boy tarixga ega ekanligini bilib olishimizga yordam beradi. Ayniqsa sharq mamlakati xalqlari tilida frazeologizmlar keng qo'llaniladi va turmush tarzidagi oddiy muloqotni voqea va hodisani so'zlashuvchilar o'rtasida tushunishida va tezroq anglab yetishida yordam beradi.

V.A.Maslova ta'kidlaganidek: "Tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi va hokazolar mujassamlashgan"¹.

Frazeologizmlar tilshunoslikdagi tasnifiga ko'ra ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan bo'lib ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror ya'ni turg'un birikmalarga aytiladi.

¹ Maslova V A. Lingvokul'turologiya. 2-ye izdaniye. Academia.– M., 2004.

Frazeologizmlar tilshunoslikda eng ko'p o'rganilgan lingvistik sohalardan biri hisoblanadi. Chunki frazeologizmlar har doim shakllanib boradi va yillar o'tgani sayin yangilari hosil bo'lib boraveradi. Shuningdek, frazeologizmlarning aniq soni ham mavjud emas va hech bir inson o'z ona tilidagi barcha frazeologizmlarni bilmaydi.

Frazeologizmlar shunday so'z birikmasiki uning aniq tarjimasi ham mavjud emas ya'ni bo'layotgan voqea va borayotgan gapga qarab turli ma'nolarda kelishi va har bir inson turlicha tushunishi va turlicha talqin qilishi mumkin. Yuqorida aytilgani singari inson o'z ona tilidagi ko'plab frazeologizmlarni bilgan taqdirida ham uning barcha ma'nolarini bilavermaydi. Shu sababli tilshunoslikda eng qiziq va qiyin sohalardan biri hisoblanadi.

I. G'ofurov o'zing "Tarjima nazariyasi" kitobida tarjima qilish jarayoni haqida shunday ta'rif beradi: "Albatta, tarjima har qancha mukammal bo'lmasin, hech qachon u asliyatning o'rnini bosolmaydi. Tarjima asliyatga tenglashilmaydi. Ibodatda esa asliyat o'rniga o'tmaydi. Asl ohang, asl so'z va asl sir-sinoat doim asliyatning o'zida. Islomda ibodatlarni asliyat birla ado etish bu mislsiz ne'mat!"¹, Dariy tilida so'zlashuvchi aholining nutqida diniy iboralar keng qo'llaniladi va ularning turlari ko'p va rang-barangdir. Bu kabi iboralarni tarjima qilayotgan tarjimon oz bo'lsa-da qiyinchilikka uchrashi mumkin. Chunki diniy frazeologizmlar tarjima qilayotganda ehtiyotkorlikni talab qiladi, bunga sabab aynan o'sha iboraning tarjimasini to'liq ochib bergan holda tarjima qilinishi kerak aks holda boshqa ma'nolar kelib chiqishi yoki o'zgarib ketishi yuzaga keladi va bu hollarda eng to'g'ri usul bu o'sha so'z yoki iboraning o'zini translitiratsiya usulidan foydalangan holda so'zni ko'chirib o'tkazish va kalkalash usuli orqali tarjima qilish mumkin².

Diniy frazeologizmlar tarjimasida juda ehtiyotkor bo'lish lozim. Diniy mavzular eng nozik mavzulardan biri hisoblanadi. Diniy frazeologizmlar tarjimasida salgina xato qilish ham mumkin emas. chunki bu kichik xatolar o'quvchiga din haqida noto'g'ri tushuncha va ma'lumot berishi mumkin. Agar bir dinga e'tiqod qiluvchi til egalari muloqotini yoki asarini tarjima qilish birmuncha oson hisoblanadi, chunki o'sha dinga

¹ G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. TARJIMA NAZARIYASI. – T., 2012.

² G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. TARJIMA NAZARIYASI. – T., 2012.

e'tiqod qiluvchi tarjimon diniy frazeologizmlar xususida tushunchaga ega bo'lganligi sababli, uning ma'nosini va mohiyatini to'liq anglab yetadi va to'g'ri frazeologizm tanlagan holda to'g'ri tarjimani amalga oshiradi. Diniy frazeologizmlardan foydalanilayotgandan qisqa so'zlar yordamida qochmaslikka harakat qilish kerak. Agar tarjima qilinayotgan asl til va tarjima qilinayotgan tarjima tili ikki xil dinga e'tiqod qiluvchi xalq bo'lsa, unda juda sinchikovlik bilan tarjima qilinadi. Birinchi navbatda ikki dinni yaxshilab o'rganib chiqiladi. So'ngra navbatma-navbat ikki dinning o'xshashliklar va farqlarini o'rganib chiqishi lozim. Bir-birida mavjud narsalar va bir-birida mavjud bo'lmagan narsalar haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Tarjima qilish jarayonlarida asosan uch usuldan foydalaniladi ya'ni tarjima qilinayotgan frazeologizm tildagi muqobilini variantini berish, teng qiymatli ekvivalent so'zdan foydalanish yoki frazeologizmni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish¹.

Diniy iboralar ularning kundalik hayotidagi oddiy so'zlashuvda ham faol ishlatiladi. Masalan ular xayrlashuv vaqtida

خدا حافظ (شما)

بامان خدا

(شمارا) بخدا سپردم

خدا يارتان، الله يارتان

پناهتتان بخدا

kabi iboralardan foydalanishadi. Bularning barchasi xayr, ko'rishguncha va shu kabi xayrlashuvda foydalanuvchi iboralar hisoblanadi.

Dariy tilida خدا so'zi bilan yasalgan frazeologizmlar ko'p. Ular turli voqealardan turlicha tarjima qilinadi. Quyida خدا so'zi bilan yasalgan dariy tilida keng qo'llaniluvchi va ko'p ishlatiluvchi frazeologizmlar keltiriladi. Ularning ko'plari o'zbek tilida ham mavjudligi sababli o'zbek tiligi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi.

Bular:

خدا خیر کند!

خدا خیر پیش کند!

خدا مبارک کند!

¹ Mamarajabov B. Tarjima tarixi. – Toshkent., 2021.

خدا ترا عمر بدهد.
خدا عمرت بدهد.
خدا ترا از ما نگیرد.
خدا ترا از ... نگاه کند.
خدا ترا انصاف بدهد.
در قهر خدا شوی.
در غضب خدا شوی.
خدا ترا جزا بدهد.
خدا جزایت بدهد.

Gap tarkibida *از خدا خواستم* kabi duo iboralari o‘zbek tiliga ilohim, iltijo qilmoq, duo qilaman tarzida xudoga iltijo qilish yoki qarg‘ish ma’nolarida tarjima qilinadi.

Bu kabi terminlar nafaqat mustaqil tarzda yoki yozma va og‘zaki gaplarda, balki turg‘un birikmalar va maqollarda ham keng ishlatiladi. Bu kabi maqollar tarjimada o‘zbek tilidagi muqobil varianti, uning ma’nosini to‘laqonli ochib beruvchi yoki ma’no jihatdan yaqin va bo‘layotgan hodisaga to‘g‘ri keluvchi o‘zbek tili lug‘at boyligidan kelib chiqqan holda tarjima qilinadi.

شب در میان خدا مهربان

Kech bo‘lib qoldi, ertaga gaplashamiz ma’nosida

حق خدا و حق همسایه

Agar bu gapni to‘g‘ridan to‘g‘ri va so‘zma so‘z tarjima qildagan bo‘lsak *xudoning haqi va qo‘shning haqi* deb tarjima qilinadi. Ma’no jihatdan esa *qo‘shniga hurmat ko‘rsatish* deya tarjima qilinadi.

Dariy tilida so‘zlashuvchi til egalari muloqotida diniy frazeologizmlar nafaqat qasam ichish yoki biror holat bo‘lmasligi yoki bo‘lishiga iltijo qilish maqsadida emas boshqa holatlarda ham ishlatiladi. Shunday holatlar xursandchilik, hayratlanish, shukr qilish va shu kabilardir.

خدا so‘ziga yana boshqa so‘zlar qo‘shish orqali turli iboralar yasalganini ko‘rishimiz mumkin va ular o‘zbek tilidagi tarjimasida yanada ko‘proq ma’nolarni anglatadi ¹.

Shart-istak maylidagi gaplarda خدا نکند va خدا کند frazeologizmlari ham foydalaniladi va yuqorida shu maylda kelgan gaplarda farqli ravishda tilak, istak ma’nolarini ifodalashda qo‘llaniladi.

خدا کند که باران شود

Zora yomg‘ir yog‘sa (iltijo qilish)

خدا نکند که احمد ناوقت برسد

Ishqilib Ahmad vaqtida kelsin-da yoki Xudo ko‘rsatmasin Ahmad vaqtida kelmay qolsa

خدا کند که مزاحم تان نشده بتشم

Ishqilib, sizga xalal bergan bo‘lmay

خدا so‘ziga ی harfi orttirilishi va ناخواستە so‘zi qo‘shilishi orqali *Xudo ko‘rsatmasin* iborasi vujudga keladi. Bu ibora dariy tilida ham o‘zbek tilida ham kirish so‘z sifatida gapda ishtirok etadi va tarjimada grammatik joyini o‘zgartirmaydi ².

Yuqorida yasalgan خدا نخواستە iborasiga yana boshqa باشد so‘zi qo‘shish natijasida yangi ibora hosil bo‘lgan va tarjimada biror bir g‘amgin va qayg‘uli xabarga javob berishda alohida qo‘llaniladi va *Xudo asrasin* ma’nosida tarzida tarjima qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, diniy frazeologizmlar dariy tilida keng qo‘llaniladi va ko‘plab o‘z sinonimlari oddiy hayot turmush tarzi muloqot jarayonida faol ishlatilishi bilan frazeologizmlarga boy til hisoblanadi, bu iboralar o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida voqea va hodisaga qarab turli ma’nolarni ifodalaydi va ko‘p muqobillari orqali tarjima qilish mumkin, ammo shunga qaramasdan har bir sinonim bir-birining o‘rnini to‘laqonli bosa olmaydi va ma’no chegarasiga ega, shu sababli bu kabi frazeologizmlar tarjima qilish davomida ehtiyotkor bo‘lish lozim, ayniqsa, diniy terminlar ko‘proq qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Diniy frazeologizmlar so‘zma so‘z boshqa ma’noni anglatishi, bir gap ichida kelganda esa, umuman boshqa ma’noni

¹ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – T., 2019.

² Umarova S. Dariy tili. –T., 2019.

anglatishi yoki ma'no oshishi va bo'rtishi mumkin va noto'g'ri tarjima qilinsa din tushunchasini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslova V A. Lingvokul'turologiya. 2-ye izdaniye. Academia.– M., 2004.
2. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. TARJIMA NAZARIYASI. – T., 2012.
3. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. TARJIMA NAZARIYASI. – T., 2012.
4. Mamarajabov B. Tarjima tarixi. – Toshkent., 2021.
5. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – T., 2019.
6. Umarova S. Dariy tili. –T., 2019.

TARIX VA FALSAFA

QIYOMAT KUNI URUSHIDAN SO‘NG ARAB-ISROIL MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azamat FAYZULLAYEV
Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti
Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: PhD Sh. Ikromov

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1947-yildan keyingi Yaqin Sharqda yuzaga kelgan eng katta siyosiy muammolardan biri – Isroil davlatining tashkil etilishi hamda Falastin davlatining tuzilmay qolganligi bilan bog‘liq mojarolardan biri bo‘lmish 1973-yilgi Qiyomat kuni urushi hamda undan keyingi Arab-Isroil munosabatlarida yuz bergan katta o‘zgarishlar hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Falastin, Isroil, Misr, Qiyomat kuni urushi, Anvar Sadat, Menaxem Begin, Kemp-Devid shartnomasi.

1947-yil 29-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi Falastinni ikki davlat – yahudiy va arab davlatlariga bo‘lish to‘g‘risidagi qarorni qabul qildi. Shu bilan birga Quddus borasida nizolar bo‘lmasligi uchun uni xalqaro shaharga aylantirdi. 1948-yil 14-may sanasida Isroil Mustaqillik deklaratsiyasi imzolandi va Isroil davlati tashkil topgani bilan esda qoldi. 1964-yilda Arab davlatlari ligasining qarori bilan mintaqada yashovchi arablar manfaatini himoya qilish uchun “Falastin ozodlik tashkiloti” (FOT) tuzildi.

Isroil 1967-yilgi “Olti kunlik urush” paytida mamlakat yangi hududlar ustidan nazoratni qo‘lga kiritdi:

- 1) Sharqiy Quddus;
- 2) Jo‘lan tepaliklari;
- 3) Iordan daryosi G‘arbiy sohilining katta qismi;
- 4) G‘azo sektori (2005-yildan boshlab Falastin nazoratiga o‘tgan);
- 5) Sinay yarimoroli (1979-yilda Isroilning tan olinishi va sulh evaziga Misrga qaytarildi).

1973-yilgi urush yuqorida boy berilgan hududlarning Misr va Suriya nazoratiga qaytarilishi uchun olib borilgan edi. Isroil hamda Misr-Suriya ittifoqi o'rtasidagi urush 1973-yil 6-oktyabrda arab koalitsiyasining yahudiylik dinida keng nishonlanadigan dam olish, ro'za va ibodat kuni – Yom Kippur bayramida Isroil harbiy pozitsiyalariga kutilmagan hujumi bilan boshlandi.¹ O'sha kunlarda arab davlatlarida ham ramazon oyi ham kirib kelgan edi, shuning uchun bu urush ba'zi manbalarda “Ramazon urushi” deb ham ataladi. Misr-Suriya qo'shinlari Sinay yarimoroli va Jo'lan tepaliklarini egallab olishga urinib, 1967-yilda belgilangan o't ochishni to'xtatish chizig'ini kesib o'tdi. AQSH va sobiq SSSR o'z ittifoqchilariga katta qurol eksporti kampaniyasini boshladi, bu esa dunyoni ikki qudratli davlat o'rtasidagi qarama-qarshilik yoqasiga olib keldi.²

Urush Misr qurolli kuchlari brigadalarining Suvaysh kanalini ommaviy va muvaffaqiyatli kesib o'tishi bilan boshlandi. Misr harbiy kuchlari o't ochishni to'xtatish chizig'ini kesib o'tib, deyarli hech qanday qarshiliksiz Sinay yarimorolida oldinga siljidi. 1973-yil 6-8-oktabr kunlari Misr armiyasi amalga oshirgan ushbu harbiy hujum “Badr operatsiyasi” deb nomlandi.³ Uch kundan keyin Isroil hukumati o'z qurolli kuchlarining ko'p qismini safarbar qildi va Misrning zafarli yurishini to'xtatdi, bu esa ikki o'rtadagi jangovar harakatlarni susaytirdi. Suriyaliklar Jo'lan tepaliklariga hujumlarini Misr hujumi bilan bir paytga muvofiqlashtirdi va Isroil nazoratidagi hududda katta yutuqlarga erishdilar. Biroq uch kun ichida isroillik harbiy kuchlar suriyaliklarni urushdan oldingi sulh chizig'iga surib chiqardi. Shundan so'ng Isroil mudofaa kuchlari Suriyaga to'rt kunlik qarshi hujumga o'tdi. Bir hafta ichida Isroil artilleriyasi Damashqning chekka tumanlarini o'qqa tuta boshladi.⁴ Misr prezidenti Anvar Sadat (1970-1981) asosiy ittifoqchisining hududiy yaxlitligidan xavotirlana boshladi. U Sinay yarimorolida joylashgan ikkita strategik dovonni egallab olish urushdan keyingi muzokaralar chog'ida o'z mavqeini mustahkamlashiga

¹ El-Gamasy (1993). The October War: Memoirs of Field Marshal El-Gamasy of Egypt. The American University in Cairo Press. p. 181.

² Abraham Rabinovich. The Yom Kippur War: The Epic Encounter That Transformed the Middle East. — Knopf Doubleday Publishing Group, 2007. — P. 592.

³ [https://en.wikipedia.org/wiki/Operation_Badr_\(1973\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Operation_Badr_(1973))

⁴ Gawrych, George (2000). The Albatross of Decisive Victory: War and Policy Between Egypt and Israel in the 1967 and 1973 Arab-Israeli Wars.

ishongani sabab misrliklarga faol qarshi hujumga o'tishni buyurdi, ammo ularning hujumini Isroil harbiylari qaytardi. Shundan so'ng isroilliklar ikki Misr qo'shinlari o'rtasidagi tutashgan joyga qarshi hujumga o'tib, Suvaysh kanalidan o'tdi. Misr hududiga kirib, shiddatli janglarda janubi-g'arbdagi Suvaysh shahri tomon sekin-asta yura boshladilar, natijada har ikki tomondan ham katta talofatlar bo'ldi. 24-oktyabrga kelib isroilliklar o'z pozitsiyalarini sezilarli darajada yaxshiladilar, Misrning uchinchi armiyasi va Suvaysh shahrini qamal qilishni yakunladilar. Bu voqea AQSH va sobiq Sovet Ittifoqi o'rtasida keskinlikka olib keldi. Bu ziddiyatni yumshatish maqsadida 1973-yil 25-oktyabrda o't ochishni to'xtatish haqida kelishuv imzolandi.¹

Yom Kippur urushi Arab-Isroil mojarosining davomi bo'lib, 1948-yildan beri ko'plab janglar va urushlarga sabab bo'lgan nizo edi. 1967-yilgi "Olti kunlik urush" paytida Isroil Sinay yarimorolini Suvaysh kanaligacha bosib oldi. Shu tariqa yarimorolni o't ochishni to'xtatish hududiga aylantirdi. Shimolda esa Suriya nazorati ostida bo'lgan Jo'lan tepaliklarini yarmini bosib oldi.

1973-yil 6-oktyabrda boshlanib 25-oktyabrga qadar davom etgan Qiyomat kuni urushi ham "Olti kunlik urush" kabi Isroilning harbiy g'alabasi bilan yakunlandi, biroq arab davlatlar armiyasi ham Isroil harbiy qudratiga sezilarli darajada talafot yetkazdi. Biz bu urushdan quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

a) 1973-yilgi urush Misr prezidenti Anvar Sadat (1970-1981) hukumatining 6 yil oldin boy berilgan Sinay yarimorolini qaytarib olish yo'lidagi kurashi edi. Urushning dastlabki kunlarida Misr armiyasi yaxshi harakat qilib Isroildan ba'zi hududlarni qaytarib olishga erishsa-da, biroq Isroil havo va quruqlik kuchlarining tezkor hujumlari hamda AQSH dan olingan mudofaa tizimlari tufayli Misr armiyasini Suvaysh kanalidan orqaga surib chiqarishga erishdi.

b) 1974-yilda Isroilda hukumat almashdi, Isroil tarixidagi yagona ayol bosh vazir Golda Meir o'rniga Itxak Rabin hukumat tepasiga keldi. Golda Meir sionistlar partiyasi bo'lmish "Maarax"ning yetakchisi sifatida Isroilning 1973-yilgi urushdan keyin arab davlatlari bilan tinchlikka erishish siyosatini, ular bilan diplomatik aloqalar

¹ Quandt, William (2005). Peace Process: American Diplomacy and the Arab-Israeli Conflict Since 1967.

oʻrnatilishini qoraladi, Falastinga muxtoriyat huquqi berilishi va u yerdagi arab xalqining oʻz boshqaruvini erkin tanlash huquqlarini rad etdi.¹

c) 1973-yilgi urush davrida AQSH prezidenti Richard Nikson Isroilga moliyaviy va harbiy jihatdan yordam berib turdi. Urushda Arab koalitsiyasining magʻlubiyatidan soʻng, AQSHni jazolash va urushdan keyingi kelishuvlarga kattaroq taʻsir oʻtkazish maqsadida Yaqin Sharqda neftni eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti hisoblangan OAPEC tomonidan AQSHga nisbatan neft embargosi qoʻyiladi. Embargoning boshlangʻich pallasida bir barrel neft narxi ikki baravar, keyinchalik esa toʻrt baravar koʻtarildi. Shundoq ham oshib borayotgan aholi xarajatlariga bu juda katta zarba edi. Embargo aynan dollarning qadri pasayishi yuqori boʻlgan davrga toʻgʻri keldi va ikkisi birgalikda jahon bozorida yangi iqtisodiy retsessiya vujudga keltirish ehtimolini oshirib yubordi. Oʻsha paytda AQSH import qiladigan neftning 70 % qismi Yaqin Sharq hissasiga toʻgʻri kelgan. Ayni davrda, prezident Nikson va davlat kotibi Genri Kissinjer vaziyatni yumshatish maqsadida arab davlatlari bilan kelishuv olib borishga kirishdi, shu bilan birga “Project Independence”ni tuzishadi. Bu loyihadan maqsad AQSHning Yaqin Sharq neftiga qaramligini pasaytirishdan iborat edi. Bu davr Amerika tarixida Yaqin Sharq bilan yuzaga kelgan eng murakkab palla hisoblanadi. Bir tomondan, Isroilni moliyaviy va siyosiy jihatdan qoʻllab-quvvatlashi shart, boshqa tomondan esa jahondagi eng yirik neft eksportyorlarining ikkinchi gegemon kuch boʻlgan sobiq SSSR tomoniga oʻtib ketishini oldni olishga majbur. Genri Kissinjer vositachiligida oʻtkazilgan Arab-Isroil kelishuvlaridan soʻng, 1974-yilda Isroil Sinay yarimoroli va Joʻlan tepaliklarini okkupatsiyadan ozod etishga rozi boʻldi. 1974-yil martda neft embargosi rasman tugatildi.²

Xulosa 1978-yilda AQSH prezidenti Jimmi Karter taklifi bilan Isroil bosh vaziri Menaxem Begin va Misr prezidenti Anvar Sadat Vashingtondagi muzokaralarga taklif etiladi. Muzokara yakunida “Kemp-Devid shartnomasi” deb atalgan bitim imzolanadi (1978-yil 17-sentyabr). Unga koʻra, Isroil Sinay yarimorolini Misrga qaytardi va Falastin xalqining qonuniy huquqlarini tan oldi. Shuningdek, Isroil nazorati ostidagi

¹ Протокол совещания у Голды Меир 7 октября 1973, Дов Конторер, «Вести», 7 октября 2010

² <https://www.history.com/topics/middle-east/yom-kippur-war>

hududlar aholisiga ularning kelajakdagi siyosiy maqomi to'g'risida yakuniy qaror qabul qilingunga qadar muxtoriyat berish bo'yicha o'zaro kelishuvga erishildi. Tomonlar tomonidan Iordan daryosining g'arbiy sohili va G'azo sektoriga bag'ishlangan BMT Xavfsizlik Kengashining 242-rezolyutsiyasini munosabatlarni tartibga soluvchi asos sifatida ma'qulladi. Tomonlar falastinliklarning bo'lajak boshqaruv shaklini tanlash huquqini tan oldilar, bu falastinliklar tomonidan o'z mustaqil davlatiga bo'lgan huquqlarini tan olish sifatida talqin etildi. FOT va XAMASga o'z qurolli guruhlarini qonuniylashtirish uchun asos bo'lgan Falastinga muxtoriyat berilishini tan olish haqidagi kelishuv kelajakdagi muammolarga zamin hozirladi. 1979-yil 26-martda M.Begin va A.Sadat Vashingtonda Misr-Isroil tinchlik shartnomasini imzoladilar. Bu ikki davlat o'rtasidagi urushni to'xtatdi, ular o'rtasida diplomatik va iqtisodiy munosabatlar o'rnatdi. Shartnomani imzolagan Misr prezidenti Anvar Sadat, Isroil bosh vaziri Menaxem Beginga Tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti topshirildi. Biroq Misrdagi harbiylar Sadatning bu qarorini Falastin xalqiga xiyonat hamda Misr manfaatlarini oyoqosti qilish deb baholadi. 1981-yil 6-oktyabrda harbiy parad vaqtida uyushtirilgan suiqasdda prezident Anvar Sadat otib o'ldirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. El-Gamasy (1993). The October War: Memoirs of Field Marshal El-Gamasy of Egypt. The American University in Cairo Press. p. 181.
2. Abraham Rabinovich. The Yom Kippur War: The Epic Encounter That Transformed the Middle East. — Knopf Doubleday Publishing Group, 2007. — P. 592.
3. Gawrych, George (2000). The Albatross of Decisive Victory: War and Policy Between Egypt and Israel in the 1967 and 1973 Arab-Israeli Wars.
4. Quandt, William (2005). Peace Process: American Diplomacy and the Arab–Israeli Conflict Since 1967.
5. Протокол совещания у Голды Меир 7 октября 1973, Дов Контонер, «Вести», 7 октября 2010
6. <https://www.history.com/topics/middle-east/yom-kippur-war>
7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Operation_Badr_\(1973\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Operation_Badr_(1973))

OGAHYIY-YIRIK TARIXCHI OLIM, UNING MUARRIXLIK FAOLIYATIDAN AYRIM MULOHAZALAR

Xurshid O'ZBEKOV
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari, jumladan “Qasidai nasihat”, “Firdavsul-iqbol” asarlarida keltirilgan tarixiy jarayonlar tahlili berilgan va davr voqealari boshqa asarlar bilan qiyoslangan.

Kalit soʻzlar: “Shohidi iqbol”, V.Velyaminov-Zernov, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon II, Saidmuhammadxon.

Adabiyotimizning yirik vakillaridan biri, Boburning tili bilan aytganda “ko‘p va xo‘b yozg‘on”likda Navoiydan keyingi o‘rinda turadigan mutafakkir Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy merosi keng qamrovli va noyobligi jihatidan qimmatlidir. Ogahiy tarixiy asarlar yozibgina qolmay balki, ko‘plab tarjima asarlar ham muallifidir. Ogahiy juda ham ko‘plab asarlarni tarjima qilganki, o‘sha davrda hech bir tarixchi tarjimon Ogahiy bilan raqobatlasha olmagan. Ogahiyga eng ko‘p Saidmuhammadxon davrida tarjima asarlarga buyurtma berilgan bo‘lib, keyin Muhammad Rahimxon davrida ham davom etgan. Tarixiy asarlarda keladiki, Ogahiy har bir tarjima asarlarim uchun xonlar tomonidan zar-u siymolar bilan siyladim deydi. Bundan ko‘rinib turibdiki shoir tarjimalari uchun mukofotlangan. Bu kabi e‘tiborni Ogahiy g‘azallari bilan xonlarga minnatdorchilik bildirgan. Ogahiy til o‘rganishga katta e‘tibor bergan, arab, fors, turk tillarini mukammal bilgan. Ogahiy umri davomida 19 ta tarixiy asarlarni tarjima qilgan. Ogahiy faoliyati davomida Olloqulixon hukmronlik qilgan davr (1825-1843) voqealariga bag‘ishlab “Riyozud-davla”, Rahimqulixon podsholigining dastlabki yillarida (1843-1846) “Zubdatut-tavorix”, Muhammadaminxon zamonasi “Jome‘ul-voqeoti sultoniy”, Sayyid Muhammadxon hukmronlik qilgan davr (1856-1865) tasvirida “Gulshani davlat”, nihoyat, Muhammad Rahimxon taxtga o‘tirgan (1865 –1910) davrda “Shohidi iqbol” kabi tarixiy asarlarni ham yaratdi. Ogahiy lirikasida sevgi masalasi ham o‘rin olgan. Shoir bu kabi tuyg‘u-kechinmalarni asosan ikki obraz: oshiq va ma’shuqa obrazlari orqali ifodalaydi. Bunga misol Ogahiyning

“Yorima ayting” radifli gʻazali misoldir. Ogahiy faqatgina tarixiy asarlar, tarjima asarlari bilan cheklanib qolmay balki, sheʼriy va badiiy tarjima sohasidagi ajoyib asarlari bilan birga Oʻrta Osiyo xalqlariga katta mahorat bilan yozilgan kitoblari bilan ham mashhurdir. Mazkur asarlarda Xiva xonligidagi oʻzbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq xalqlarining ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining Buxoro, Qoʻqon xonliklari, Eron, Hindiston, Afgʻoniston bilan boʻlgan munosabatlarini, oʻzaro urushlarni, Rossiya boʻlgan savdo aloqalarini, xon va beklar jabr-zulmiga qarshi koʻtarilgan xalq qoʻzgʻolonlarini, xalqlarning urf-odatlarini keng miqyosda yoritib berilgan. “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kam boʻlmasin, tarixiy voqealarni bayon etishi va ularda keltirilgan aniq materiallarning koʻpligi jihatidan Qoʻqon va Buxoro xonliklari tarixiga doir bizgacha yetib kelgan hamma asarlarni oʻzidan ancha ortda qoldiradi”¹. Ogahiyning beshta tarixiy asari, Shermuhammad Munis tamomlay olmay qoldirib ketgan “Firdavsul-iqbol” asari (Ogahiy bu asarni davom ettirib, 1840 yili poyoniga yetkazadi) oʻzbek, turkman, qozoq va qoraqalpoq xalqlarining tarixini oʻrganishda katta ahamiyatga egadir. Oʻrta Osiyo respublikalarining tarixchilari oʻz xalqlarining XIX asr tarixini yaratgan vaqtlarda, albatta, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlariga murojaat qiladilar va manba sifatida ulardan foydalanadilar. Munis va Ogahiy saroy muarrixlari edilar. Xorazm xonlari haqiqatni soʻzlashga aslo yoʻl qoʻymas, xonlarning shaʼniga qarshi soʻzlagan har qanday shaxs qattiq jazolar edilar. Ogahiy doimo xavf-xatarda yuradi, shuning uchun u oʻz asarining “Debocha”sida: “...goho podshoh xizmatining taraddudi bila koʻnglumda ming gʻam va goho vazir mulozamatining tajassusi bila jonimga yuz alam”, deb yozadi. Xon boshliq saroy amaldorlari Ogahiyi doimo taqib etganlar. Bu taʼqiblarni quvvatlaydigan shoirning bir bayti bor:

Solgʻusi gardun parishonligʻ banotun-nashdek

Tuzsa majlis doʻstlar nogoh agar Parvin kibi².

¹ Бартольд В. В. Сочинения, том II, часть I. Издательство Восточной литературы, Москва, 1963, стр. 285-286.

²Muhammadrizo Ogahiy Asarlar.5-jild.-T.:1978; 6-bet. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1978 y.

Ogahiy tarixiy hodisalarni, xalq boshidagi og‘ir musibatlarni haqqoniy tasvirlaydi. Masalan, “...davroni inqilobnishon ichida ko‘p voqe bo‘lmushdurkim, oz dushman ittifoqidan ofati sahim va kichik g‘anim ijmoidin mehnati azim paydo bo‘lib, nabard arsasida farzindek kajxiromlik bilan ot surib, ulug‘ shoxlarni piyodalig‘ martabasiga tushurub motlig‘ sarhadig‘a yetkurubdurlar”.

Ogahiy xalq qo‘zg‘olonlarining uchqunidan otashgoh, qatrasidan to‘fon paydo bo‘lishini yaxshi anglay olgan edi. Ogahiy o‘z g‘azallarida xalq boshiga og‘ir musibatlarni haqqoniy tasvirlaydi. Ogahiy xalq qo‘zg‘olonlarini sabablarini to‘g‘ri yoritgan. Masalan, (1827-1828) yilda Oydo‘stbiy boshchiligidagi qo‘zg‘olonning asosiy sababini xalqdan yig‘ilgan soliqlardan deb ko‘rsatadi. Turkmanlardan Soqid qabilasining Soatquli sardorga qarshi olib borgan (1827-1828) yildagi qo‘zg‘oloni yana ham xarakterlidir. Qo‘zg‘olonchilar Soatquli sardorni va urug‘-aymoqlarini o‘ldiradilar, qo‘zg‘olon xon qo‘shini tomonidan bostiriladi. Bu qo‘zg‘olonni sabablarini Ogahiy qo‘zg‘olonchilar tilidan bayon qiladi: “...Soatquli sardor qatli uchun qilg‘on shane juratimizga sabab o‘ldirkim, ul doim... bizlarning qal va tadvirimizg‘a rog‘ib va akobirlarimizning xal va tahqirig‘a tolib erdi va yana ba‘zi nomashru ishlarga qiyom va zulmi sarif mubodaratig‘a iqdom ko‘rguzur erdi...”¹

Bu fikrlar Ogahiyning arkoni davlar harakatiga bo‘lgan munosabatini ham ko‘rsatadi. Ogahiy o‘z tarixiy asarlarida qo‘zg‘olonchilarning Rossiyadan o‘zlariga madad tilaganini, ulardan ko‘mak kutganini, xalqning Xiva xonidan tamom yuz o‘girganini bayon qiladi. Masalan, Muhammad Aminxon 1855 yilda turkman qo‘zg‘olonchilari tomonidan o‘ldirilgandan so‘ng, taxtga Abdullaxon, keyin Qutlig‘ Murodxonlar o‘ltiradi. Bularning har ikkisi ham oz vaqt hukmronlik qilganlaridan so‘ng, ba‘zi bir qabilalar tomonidan o‘ldiradilar. Shu tariqa Rossiya xonlikning ichki ishlariga aralasha boshlaydi. Ko‘plab elchilar jo‘natiladi. U elchilar maqsadi qo‘zg‘olonlarni bostirish yoki tartib o‘rnatish emas balki, xonlikni ijtimoiy, siyosiy, harbiy va tabiiy jihatdan o‘rganish edi. Elchilik aloqalaridan so‘ng, Xiva xonligi bilan Rossiyaning iqtisodiy aloqalari ancha rivojlandi va ma‘lum tartibda susaydi. Shu munosabatlar bilan Rossiya va O‘rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy, siyosiy va harbiy

¹O‘sha joyda.

vaziyatini sinchiklab o'rganishga qattiq kirishdi. Jumladan, 1848 yilda A.I.Butakov boshchiligidagi ekspeditsiya ikki yil (1848-1849) davomida Orol dengizini o'rgandi va uning kartasini tuzdi.

Shu birga Xiva xonlari Rossiya elchilarini samimiyat bilan qabul qila boshladilar. Ikki davlat o'rtasida tinch-totuv yashash, savdo va iqtisodiy munosabatlarni yaxshilash haqida shartnomalar tuziladi. Ayni zamonda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus qo'shinlari O'rta Osiyoga kirib kela boshlaydilar, Sirdaryo atrofiga istehkomlar quradilar, Orol dengizida paroxodlar yurgizadilar, shu tariqa birin-ketin xonliklarning shaharlarini qo'lga kiritadilar. Shu munosabat bilan Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklarining fuqarolari rus xalqiga e'tiqod bilan qaraydilar va rus xalqi tufayli xonlarning jabr-u zulmidan ozod bo'lishni umid qiladilar.

Ogahiy o'zining beshta tarixiy asarida Xiva xonligidagi xalq qo'zg'olonlarni yoritib berish bilan birga mamlakatdagi o'zaro urushlarni va bu urushlarning oqibatini ham keng miqyosda bayon qiladi. Tarixchi Ogahiy o'z asarlarida ikki xil urushni tasvirlaydi: chet mamlakatlar bilan urush (Eron va Afg'oniston), O'rta Osiyo xonliklari bilan urushlar (Buxoro xonligi). Birinchi diniy xarakterga ega edi, ikkinchisi bir-birining hududini talash va bosib olish niyatida qilinadi. Har ikkala urush ham xalqni talon-taroj, qul qilib sotishga, g'animat, o'lja topishga asoslanardi.

Bu xildagi urushlar, talon-tarojlar mamlakat iqtisodiga katta putur yetkazadi, xalqning ahvoli, hayoti yanada og'irlashadi, sun'iy sug'orish inshootlari izdan chiqadi, Xiva xonligida aholining soni keskin kamayadi, xalq turli mamlakatlarga ko'chib keta boshlaydi.

Ogahiy o'z tarixiy asarlarida o'zaro urushlarning xalq boshiga olib kelgan musibat va fojialarni ochiq-ravshan bayon qilib, bu urushlar natijasida shaharlar (qal'alar)ning vayron bo'lishini, xalqning, bolalarning qirilishini zo'r qayg'u bilan tasvirlaydi.¹

Shuni ham qayt qilib o'tish kerakki, amir Nasrulloning Xiva xonligiga qarshi urush boshlash munosabati bilan amirning g'ayri-insoniy harakatlarni fosh qilish

¹ Muhammadrizo Ogahiy, Zubdatut-tavorix, 414-bet. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978 y.

maqsadida Ogahiy uning Qo‘qon xonligiga qilgan vahshiyona hujumini ham ta’kidlab o‘tadi. XIX arda O‘rta Osiyo xonliklarida, shu jumladan Xiva xonligi, bir tomondan, xalq qo‘zg‘olonlari, ikkinchi tomondan, o‘zaro urushlar, uchinchidan, qahatchilik va ocharchiliklar xalq hayotini dahshatli holatga solib qo‘ygan edi.

XIX asr feodal jamiyatining tanazzuli keskin tus olgan bo‘lsa ham, Xiva va boshqa xonliklarda savdo aloqalari to‘xtamadi, ayniqsa, Rossiya bilan bo‘lgan savdo aloqasi O‘rta Osiyo xonliklari tarixida muhim rol o‘ynadi.

Ogahiy bundan tashqari o‘zining tarixiy asarlarida Xiva xonligining ba’zi bir madaniy, ijtimoiy turmushi masalalarini jumladan, sun‘iy sug‘orish, obodonchilik, qurilish ishlarini ham yoritadi. Ma’lumki sun‘iy sug‘orish O‘rta Osiyoda dehqonchilikni rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ogahiy bu kabi jihatlarni ham o‘z asarlarida bayon qiladi. Jumladan, Ogahiy, beshta tarixiy kitobida qazish, suv chiqarish va yangi kanallar bunyod qilish masalalarini diqqat bilan yoritib beradi. Bu og‘ir mehnatning hammasi xalq boshiga tushgan. Masalan Ogahiy o‘zining “Riyozud-davla”, “Firdavsul-iqbol”, “Gulshani davlat” va “Shohidi iqbol” kabi asarlarida ham sun‘iy sug‘orish inshootlari haqida bayon qiladi. Ogahiy o‘z asarida bayon qilgan eng muhim qurilishlaridan biri 1258 hijriy (1842-1843 milodiy) yilda qad ko‘targan Xiva shahri atrofini o‘rab olgan uning devoridir. Bu to‘g‘risida Ogahiy o‘zining “Riyozud-davla” asarida batafsil ma’lumot beradi: Ogahiy tarixiy joylar haqida ham yozadi. Shunday tarixiy joylardan biri buyuk mutafakkir Alisher Navoiy qurdirgan saroydir.

Ogahiyning bulardan tashqari tarixiy shaxslarga atab yozgan asarlari ham muhim hisoblanadi. Masalan Ogahiyning “Qasidai nasihat” asari Feruzga bag‘ishlab yozgan. U o‘z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo‘llarini tushuntirib beradi. Qasida masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, unda shoirning siyosiy-ma’rifiy qarashlar yorqin aks etgan. Ogahiy fikricha, har qanday davlat boshlig‘i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Podshoh himmatli, shijoatli, jasur, adolatli, g‘ayratli, saxovatli, sof niyatli, madaniyatli va albatta islomiy bilimni bilishi zarur. Hukmdor shu kabi fazilatlarga ega bo‘lsa, uning hokimiyati kamol topadi va xalq

undan mamnun bo‘ladi degan fikrlarni Ogahiy ushbu asarida ilgari suradi. Ogahiy davlatni boshqarishning yo‘llarini ham ko‘rsatib o‘tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog‘i lozim. U fitna va g‘iybatdan, zulm-razolatdan, g‘aflatlardan, molparastlikdan uzoq bo‘lmog‘i kerak. Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to‘g‘risidagi maslahatlarga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib, arxonalariga qo‘ydirgan, ko‘p ezgu ishlarni amalga oshirgan. Shuning uchun ham Ogahiy tarixiy asarlari badiiy nasr sifatida hamda XIX asr Xivadagi voqealarni aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlar sifatida qimmatlidir.

Xulosa qilishimiz kerakki, Ogahiy bu qilgan ishlari adabiyot tarixi, taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati juda kattadir. Biz bu Ogahiyning ma’naviy merosini tadqiq qilib, uning asarlaridagi tarbiya, axloq, yaxshilik kabi xislatlardan o‘rnak olmog‘imiz lozim. Ayniqsa Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida ma’naviy va axloqiy qarashlar ko‘p va xo‘b tilga olingan. Biz qanchalik shoirning asarlari, g‘azallariga chuqur yondashsak, komillikka erishamiz. Ogahiy “pokiza gavhar so‘zlari” ruhimizni poklab, o‘zligimizni anglashga xizmat qiladi. Inson o‘zligini, ulug‘, mard va jasur ota-bobolarini unutmasa mukammallikka va o‘zi o‘ylagan orzu-istaklarga erishadi. Bu kabi jihatlar Ogahiy zo‘r matonat va mahorat bilan kuylagan ulug‘ g‘oyalarida, ilg‘or, olijanob orzu-istaklarida, g‘azallarida yaqqol ko‘rinadi. Ogahiy o‘zbek klassik poeziyasidagi gumanizm, xalqchilik, realizm kabi an‘analarining haqiqiy merosxo‘ri va ijodiy davom ettiruvchisi ham bo‘lib chiqdi. Ogahiy o‘z ijodiy faoliyati bilan XIX asr tarixiy sharoitidan oziqlanib, adabiyotimizni yangi mazmun bilan boyitdi, unda xalqning hayoti haqidagi eng ezgu orzu-umidlarini ifoda etdi. Ogahiy ijodi o‘zining chuqur ildizlari orqali davr mazmunidan oziqlanib turishi va xalq intilishlarini o‘zida haqqoniy aks ettirishi bilan realistik mohiyatga egadir.

Ogahiy poeziyasining boshqa muhim ahamiyati shundaki, u ulug‘ talant egasi sifatida yuksak badiiy asarlar yaratdi. Ogahiy insonlarga xos bo‘lgan murakkab ruhiy kechinmalarni, eng aziz va muqaddas hisoblangan muhabbat tuyg‘ularini rango-rang bo‘yoqlarda, ravon va jozibador uslubda taannum etdi. Ogahiy poeziyasining yuqori badiiy–estetik xususiyatlari bugungi kitobxonlar uchun ham aziz va qimmatlidir.

Hayot butun murakkabligi bilan dialektik qarama-qarshi nuqtalarni o‘z ichiga olgani kabi, shu hayotni o‘zida aks ettirgan ijod ham murakkabdir, qarama- qarshi nuqtalarga egadir. Ogahiy o‘sha zamonda, adolatsizlik, tengsizlik asosida qurilgan feodal jamiyatida o‘z orzulariga yeta olmadi, aksincha, zamon uning olijanob intilishlariga loqayd qaradi, hatto muxolif bo‘lib qarshi oldi. Zamon bilan shoir o‘rtasida tug‘ilgan ixtilof, shubhasiz, o‘z talantidan boshqa suyanchig‘i bo‘lmagan shoirida qanchadan-qancha kechinmalar, ruhiy azoblar va iztiroblar tug‘dirar edi. Shuning uchun shoir “charx”ga, “falak”ka, “zamona”ga xitob qiladi, nola chekishga majbur bo‘ladi:

Munchakim, ey charx, berding Ogahiyga zahri g‘am,

Qoldim-u ul ichmagan olamda og‘uyona talx¹.

Ogahiyning quyidagi xitoblari ham uning shoir sifatida ijtimoiy hayot tartiblaridan qanoatlanmaganini ko‘rsatib turadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dolimov S. Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodi.-T.:1963;
2. Komilov N. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. -T.:1970;
3. Muhammadrizo Ogahiy Asarlar.5-jild.-T.:1978;
4. Ogahiy.Asarlar. 1-jild. Devon.-T.:1971;
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ogahiy>;

ABDULLAXON II DAVRIDANING HOKIMYATGA KELISHI JARAYONIDA QARSHI VOHASINING O‘RNI

Yuldosh ALTIBOYEV

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti tarix yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: S. Toshtemirova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotasiya: Barchamizga ma‘lumki Shayboniyxon vafotidan keyin u tuzgan davlat birqadar parokandalik botqog‘iga botib qolgan edi. Shayboniy Abdullaxon II

¹ Muhammadrizo Ogahiy. Ta‘vizul-oshiqin. 42-bet. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1978 y.

esa davlatda paydo bo'lgan tarqoqlikni bartaraf etib, deyarli butun Markaziy Osiyoni yagona markazga bo'ysinuvchi davlatga aylantira oldi. Quyida sizga keltiradigan maqolamizda Abdullaxonning shayboniylar davlatidagi tarqoqlikni bartaraf qilish uchun olib borgan janglari va u bo'lib o'tgan asosiy hudud Qarshi vohasining Abdullaxon II davlatidagi o'rni va roli haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qarshi vohasi, "Abdullanoma", Kesh (Shahrisabz), Koson, Nasaf, farsax.

Abdullaxon 1553 yilda Qarshi viloyati hokimiyatini qo'lga kiritadi. Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" kitobida aytilishicha, u "taxtga qadam qo'ygach", xalqqa adolat va inoyatlar va'da qilgan"¹. Qashqa vohasi ham XVI asrning ikkinchi yarmi boshlarida Abdullaxon izmiga o'tadi. Qarshini egallagandan keyin Abdullaxonning nufuzi birqadar ortib ketadi. Sulola boshlig'i Pirmuhammadxon ham u bilan endi hisoblashishni lozim topadi va Abdullaxonning ukasi Ibodulloxonga qizini beradi. Buning ustiga Kesh (Shahrisabz) shahrida hokimlik qilib turgan Burundiq sultonning o'g'li Hoshim sultondan hokimiyatni Ibodulloxonga olib beradi.

Abdullaxon mavqeyi tobora ortib borayotganligini ko'rgan Navro'z Ahmadxon uning oldini to'sib qo'yish choralarini izlaydi. Ma'lumki, u Abdullatifxon o'lganidan so'ng (1551-yil),² Samarqandni egallab olgan edi. Shahrisabzni Ibodulloxon qo'lga olgach, Navro'z Ahmad Turkiston va Xo'janddan katta lashkar to'plab, Kesh ustiga bostirib keladi. Navro'z Ahmad Buxoroga, uning voliyi bo'lib turgan Burhonga³ kishi yuborib, uni yordamga chaqiradi.

Abdullaxon Navro'z Ahmadning bu qilmishini ogoh etish uchun Balxga, Pirmuhammadxonga chopar jo'natadi, undan yordam so'raydi. Balxdan yordam yetib kelmasdan oldin Buxorodan Navro'z Ahmadga ko'mak berish uchun Buxoro voliyi ko'p askar bilan kelib, Koson atrofida o'rnashadi. Abdullaxon Buxoro va Navro'z Ahmad lashkarlarining qo'shilishi oldini olish uchun tezlik bilan Koson yonida to'xtab

¹ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шохий). Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Хакимжонов тарж.: Изохлар муаллифи: Б.Ахмедов. — Т.: "Шарк", 2000, 189-190-бетлар.

² Хофиз Таниш бу санани 955 (1548) деб кўрсатади. 196-бет; «Ўзб. ССР тарихи», I ж. 529-бет.

³ U Shayboniyxonning nabirasi edi. qarang: R. Shamsiddinov, Vatan tarixi (XVI-XX asrlar)—Т.: "Sharq", 210, 23 b.

turgan Buxoro qo‘shinlariga hamla qiladi. Kosonning kun chiqish tarafida ikkala lashkar ro‘baro bo‘lib, jang qilishga tushadi. Muarrir bu jangni tasvir qilar ekan, quyidagilarni yozadi: “Qon daryosining to‘lqini aksidan ko‘kintir falak qizil yoqut tusini oldi. Yulduz martabali mavokiblarning to‘zonidan falakning ravshan ko‘zlari xira va qop-qorong‘u bo‘ldi... Dushman lashkari ko‘pligi va kuchliligi bilan mag‘rurlanib, g‘alaba o‘z tomonida bo‘lishiga ishongan edi... Shu ahvol ustiga tasodifan... Balx tomondan saodat nishonli xon-Pirmuhammad poyonsiz, kuchli sipoh bilan Nasaf atrofiga kelib tushdi. Balx sipohining bir qismi podshohning huzuriga qarab jo‘nadi va a‘lo hazrat mulozamatiga muyassar bo‘ldi”¹

Abdullaxonning Koson jangida holi tang bo‘lib turganda Balxdan Pirmuhammadxonning yordamga kelishi g‘alabani muqarrar qiladi. Hofiz Tanish Buxoriy bu haqda “O‘sha voqeaning guvohi bo‘lgan va uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bir guruh kishilardan eshitdimki, chekinuvchilar urush qurollarini bir farsax masofagacha tashlab ketganlar va hujum qilib borayotgan askarlar uni ot bilan bostirib o‘tganlar”, deydi.

Burhon boshchiligidagi Buxoro qo‘shini yengilib qaytganidan so‘ng, Abdullaxon Pirmuhammad bilan uchrashadi. Ular birgalikda Shahrisabzni qamal qilib turgan Navro‘z Ahmadga qarshi otlanmoqchi bo‘lganlarida, u Shahrisabzdan qaytib, Samarqandga yo‘l olgani xabari keladi. Pirmuhammad Abdullaxonga Qarshiga qaytishni buyurib, o‘zi Shahrisabzga, kuyovi Ibodullaxon huzuriga borib, keyin Kelif yo‘li orqali Balxga qaytib ketadi.

Navro‘z Ahmad Shahrisabzdagi mag‘lubiyatdan so‘ng, Turkistonga borib yangidan mashvarat tuzish, Kesh va Qarshini istilo qilish uchun tinim bilmaydi. “Abdullanoma”da yozilganlarga qaraganda, shu mag‘lubiyatning ikkinchi yili, ya‘ni 1554-yilda u katta qo‘shin bilan Samarqandga bostirib keladi. Shahar xoqoni Sulton Said engilib, shaharni unga topshirishga majbur bo‘ladi va Abdullaxondan yordam so‘raydi. Abdullaxon tezlik bilan o‘zi tug‘ilgan Miyonqolga² yetib boradi va qarindoshlari bo‘lgan O‘zbek sulton, Xisrav sultonlarni yoniga olib, Samarqandni tunda tortib olishga kirishadi. Hofiz Tanish al-

¹ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (Шарафномаи шохий). Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Хакимжонов тарж.: Изохлар муаллифи: Б.Ахмедов. — Т.: “Шарк”, 2000, 201-бет.

² Yuqoridagi asar 205-bet.

Buxoriyning ma'lumot berishicha Abdullaxonning biron bir natijaga erishmaganligini tong yorishib qolganga yo'yadi, aslida, Navro'z Ahmad oldingisidan ko'ra juda katta lashkar bilan kelgan edi va uni yengish oson emasdi. Shu boisdan Abdullaxon Qarshiga qaytishni ma'qul ko'radi. Abdullaxon kurashidan bir ish chiqmagandan keyin Sulton Said yo'ldan shayx Muhammad Sodiq yashaydigan manzilga qarab yuradi. Shayx Muhammad Sodiq haqida Zayniddin Vosifiy ham gapirgan va uni Shahrisabz qozisi deb ko'rsatgan edi. Sulton Said Abdullaxon bilan Qarshiga qaytishda o'z rejasini o'zgartirgan va Shahrisabzga burilib, shayx Muhammad Sodiq yaqinlaridan birini vosita qilib Navro'z Ahmad huzuriga Samarqandga jo'natadi. Navro'z Ahmad Shayx Muhammad Sodiq jo'natgan kishiga iltifot ko'rsatadi va Sulton Saidga Burhondan Buxoroni tortib olib berishni va'da qiladi. Burhon Kosonda yengilib qaytganidan keyin Buxoroga kelib o'z sherigi sulton Muhammadyorni o'ldirgan va hokimiyatga o'zi egalik qilgan edi. Navro'z Ahmadning undan fe'li aynishi Koson mag'lubiyati alami bilan bog'liq bo'lgan.

Navro'z Ahmad Movarounnahrni butunlay egallashga ahd qilgan edi. Uning bu yo'ldagi birdan-bir to'sig'i Abdullaxon edi. Shuning uchun ham dastlab u Miyonqol va Qarshi ustiga yurishni boshlaydi. Abdullaxon kam sonli qo'shin bilan unga qarshi turish befoydaligini bilganidan, Jayhundan o'tib, Balxga, Pirmuhammadxon huzuriga ketishga majbur bo'ladi. Navro'z Ahmad Miyonqolni tobe qilib, Karmana viloyatini o'g'li Do'stmuhammad sultonga beradi. Shahrisabz viloyatining hokimligi uning oldingi voliysi Burunduq sultonning o'g'li Hoshim sultonga olib beriladi. Ibodulloxon, shu tariqa, Shahrisabzni tashlab ketishga majbur bo'lgan. Janubdagi viloyatlarni birin-ketin fath qilayotgan Navro'z Ahmad Qarshini olishga o'g'li Bobo sultonni benihoyat ko'p sipoh va son-sanoqsiz lashkar bilan jo'natadi. Bu paytda Abdullaxon Balxdan qaytib kelgan va Qarshi qal'asida turgan edi. Abdullaxonning oldingi jangda qo'li singan edi. U jarohatlangan qo'lini osib, jang qilish uchun qal'adan chiqadi va qo'shinini uch guruhga bo'ladi. Rustamxonni qo'shinining ilg'origa, O'zbek va Kepak sultonlarni o'ng qanotga, o'zi esa so'l qanotga boshchilik qilishni maslahat qiladilar. O'rtada yuz bergan qattiq jang oqibatida Abdullaxon lashkari mag'lub bo'ladi, Rustamxon va boshqa ko'p bahodirlar jang maydonida shahid bo'ladilar. Abdullaxon chekinib, yana Balxga ketishdan bo'lak chora topolmaydi. Qarshi uchun bo'lgan

kurashlarda tortilgan mag'lubiyat alami Abdullaxonga qattiq ta'sir qiladi. U shunday mahzun kechgan damlarda g'azallar bitadi va alamini ochiq ifoda etadi:

*Umid uz, ey ko'ngil, Qarshi-yu, Koson bahridin o'tgil,
Ki mushtoqman Samarqandga, ikki toqiga ko'z tikkil!*

XVI asr boshlaridan buyon muttasil harbiy harakatlar iskanjasiga tushib qolgan, ikki sulola o'rtasida kechgan qirg'in barot kurashlarning aksariyati o'z sarhadida kechgan Qarshi shaqri esa oldingi shukuhi va tarovatini yo'qotgan edi. Shu boisdan ham Abdullaxon Shahrisabzni qayta qo'lga kiritgan 1556 yildagi Qarshi "bo'lsa, nihoyatda kichik bir joy bo'lib, u ko'pincha dorug'a turadigan joy bo'lib qolgan; mustahkamlikda esa u hech vaqt Shahrisabz bilan barobar kelish da'vosini qilolmaydigan darajaga tushib qolgan"² edi.

1557-yilga kelib Abdullaxon o'z raqiblarning hammasini oradan ko'taradi. Garchand nomiga bo'lsa-da, otasini xonlik masnadiga chiqargan bo'lsa-da, mamlakatning tizgini uning qo'lida edi. U Buxoroda o'rnatilganidan so'ng, Hofiz tanish Buxoriyning shahodat etishicha, "Buxoro sipohini oliy ostonada saqlashni maslahat ko'rmadi. Shuning uchun ham xisrav nishonli Xisrav sulton Iskandar farmon xonning ko'rsatmasi bilan amir Jonali ibn Jug'ultoy nayman, Julma o'g'lon, Nazarbiy ibn Boqibiy nayman va boshqalar bilan Shahrisabzga jo'natildi; ulardan ba'zilar devon xizmatiga tayinlandi: navvob Ibodullo sulton shijoat nishonli amir Sulfonyorbiy durmonni ul hazratdin so'rab olib, o'zining otalig'i qilib tayinladi va o'sha vaqtda o'z suyurg'oli bo'lgan Sog'arj tomonga jo'nadi".

Abdullaxon o'z ukasi Ibodulloni Sog'arjga hokim qilib yuboradi. Sog'arjda Qilich Qora sulton bilan Xudoyberdi sultonlar Qarshi va Sog'arj hokimiyatini almashtirgan edilar. Abdullaxon Buxoroni qo'lga kiritgan, Miyonqol, Qorako'l, Shahrisabzni tobe etgan ushbu mahalda Qarshida Xudoyberdi sulton hukm surar edi. Shu sababdan ham, "iqbolli xon o'sha jannatdek o'lkada hokimiyat tepasiga kelgandan bir necha kun o'tgach, uning qutlug' xotiriga shu ma'ni zohir bo'ldiki, Nasaf viloyati

¹ Поён Равшанов. Қашқадарё тарихи. "Фан", Тошкент, 1995, 709-бет.

² Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Хақимжонов тарж.: Изохлар муаллифи: Б.Ахмедов. — Т.: "Шарк", 2000, 244-бет.

qadimdan Buxoroga tobe bo'lgan. Shu ham ma'lumki, u yerda kim hokim bo'lsa, g'olib chiqqan. Endi shu munosib bo'ldiki, Buxoroga qarashli bo'lgan tamom joylar o'zining tobeligiga kirsin"¹.

Abdullaxon shunday qarorga kelganidan so'ng, 1556-yil, iyulda Xisrav sulton Qarshi ustiga yurish boshlaydi. Qarshini idora qilib turgan Xudoyberdi sulton ham shunday bosqinga tayyor bo'lib turgan edi. U o'z atrofiga iloji yetguncha ko'proq kishi to'plashga intiladi, mudofaa inshootlarini mustahkamlaydi, xandaqlar qazib, murchallarni (okop) taxt qilib qo'ygan bo'ladi. Shu boisdan ham Xisrav sultonning qo'shini Qarshini bir qamlada olishga erisha olmaydi. Qamal bir oyga cho'ziladi.

Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxonning Qarshini qamal qilishi va bu ishning cho'zilib ketishi haqida hikoya qilganida bir gapni aytib o'tadiki, "Qamal vaqti bir oyga yetgach,-deydi muallif,-arkoni davlatdan ba'zilarining maslahati bilan Iskandar martabali podshoh bu viloyat (Qarshi) ishini orqaga so'rib, davlat markaziga keldi"² deydi.

Qarshini olish Abdullaxondan ko'p kuch sarflashni talab qiladi. Buning ustiga, shu vaqtda Mo'g'uliston podshohi Rashidxon Sulton Said sultonni katta qo'shin bilan Samarqandni istilo qilish uchun (Navro'z Aqmaddan oldin Samarqandda Sulton Said hokim edi) yuboradi. Xudoyberdi sulton xam Qarshini jon-jahdi bilan himoya qilib, yordamga ukasi Do'stim sultonni ham chaqiradi. Abdullaxonning omadi juda qiyinchilik bilan yurishadi. Sog'arjda hokim bo'lib turgan ukasi Ibodulloning otaliq begi SulTonyorbiy undan yuz o'girib, Samar qandga, Sulton Said xizmatiga keladi. Bunday yuz o'girishlar o'sha vaqtda ko'p amirlarning tarozi pallasiga qarab ish tutish qobig'ida qolib ketganligi alomati ed.

1557-yilning kuzagida Sulton Said Samarqandni egallab, Xudoyberdi sultonga yordam berish uchun o'z huzuriga kelgan SulTonyorbiyni Qarshiga jo'natgan edi. Qish chiqib, bahor boshlangandan so'ng (1558, mart), Abdullaxon noiloj Qarshiga qarab lashkar tortishga majbur bo'ladi. Xudoyberdi sulton qish ichida ancha kuch to'plagan. SulTonyorbiyning kelishi uning quvvatini oshirib yuborgan edi. Abdullaxonning

¹ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Хақимжонов тарж.: Изохлар муаллифи: Б.Ахмедов. — Т.: "Шарк", 2000, 276-бет.

² Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Хақимжонов тарж.: Изохлар муаллифи: Б.Ахмедов. — Т.: "Шарк", 2000, 279-бет.

Qarshini qamal qilishi ikki oyga choʻzilib ketadi va ikki tomonning ham tinkasi quriydi. Ikki tomon amirlari bexuda qamaldan naf yoʻqligini koʻrib, sulhni oʻrtaga qoʻyadilar. Abdullaxon talabiga koʻra, Qarshi unga tegadigan, Sogʻarj tumani esa Xudoyberdi sultonga beriladigan boʻladi. Boshqacha aytganda, Abdullaxon ukasi Ibodulloning mulkiga Qarshi hokimiyatini almashtiradi. Oʻrtada sulh shu tariqa qaror topgach, Abdullaxon Buxoroga, poytaxtiga qaytadi va ukasi Ibodulloni ham olib ketib, unga shu viloyatdan uchta tumanni bagʻishlaydi. Qarshi viloyatini Shahrisabzga qoʻshib, unga Xisrav sultonni hokim qilib tayinlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki Abdullaxon II Shayboniy sultonlar orasida oʻzining qatʼiyatligi, uzoqni koʻzlab ish tutishi bilan ajralib turadi. U garchi 1582 yilga qadar, yaʼni otasi rasman xon boʻlib turgan yillarda hokimiyat uchun kurashni uning nomidan olib borgan boʻlsa-da, maqsadi kuchli, markazlashgan davlatni qaror toptirishdan iborat boʻlgan edi. Abdullaxon davrida Movarounnahr maʼlum maʼnoda oʻzining yaxlitligini tiklagan edi. Uning yagona davlat uchun olib borgan kurashlari qonga singib ketgan oʻzim boʻlaychilik vasvasasiga baribir, barham beraolmadi. Umrining oxirgi yillarida u yolgʻiz oʻgʻli Abdulmoʻmin bilan hokimiyat bobida nizolashib qoladi. Balxni idora qilib turgan Abdulmoʻmin qarib qolgan otasini oʻz yoʻlida gʻov deb bilar edi. Janjalning kuchayib ketishi faqat ruhoniylarning aralashuvi bilan bartaraf etiladi. Ota-bola oʻrtasidagi sovuqchilik oqibatida Dasht koʻchmanchilari Toshkent viloyatiga bostirib keladilar. Abdullaxon ularga qarshi otlanganda, kasallanib vafot etadi. Abdulmoʻmin hokimiyati esa olti oydan oshmaydi, u suiqasd qurboni boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Хақимжонов тарж.: Изохлар муаллифи: Б.Ахмедов. — Т.: “Шарк”, 2000. 288 б.
2. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. “Фан”, Тошкент, 1995, 900 б.
3. “Ўзб. ССР тарихи”, I ж. 600 бет.
4. Shamsiddinov R. Vatan tarixi (XVI-XX asrlar) – Т.: “Sharq”, 2010, 368 б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MOVAROUNNAHR VA HINDISTON TARIXIDAGI O‘RNI

Zuhra JO‘RAYEVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: A.Nigmatov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahr va Hindiston tarixidagi o‘rni haqida so‘z boradi. XV asr oxiri va XVI birinchi yarimida Movarounnahr va Hindiston bo‘lib o‘tgan siyosiy jarayonlarda Boburning o‘rni yoritilgan va bu haqida fikr-mulohazalar yuritib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Movarounnahr, “Boburnoma”, sulola, Samarqand, Shayboniyxon, xiyonat, Afg‘oniston, Hindiston, Lo‘diy.

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan shoh, adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Bobur hayotida kechgan voqealarni o‘zining “Boburnoma” asarida yozib qoldirgan. U “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy olgan.

Boburning tarix sahnasiga chiqqan holda faoliyat boshlanishi 1494 — yilda Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon, Samarqand podshosi Sulton Ahmad Mirzo ittifoq tuzib, biri Sirdaryoning janubidan, ikkinchisi shimoldan Axsi ustida qo‘shin bilan hujum qilishayotgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Shu orada falokat yuz berib, Axsi qo‘rg‘onida jar yoqasida turgan Umarshayx Mirzo kaptarxonasi bilan birga qulab, halok bo‘ladi. Shu kundan boshlab u ulug‘ bobosi Amir Temurning buyuk davlatini qayta tiklash va mustahkamlashni maqsad qilib qo‘ydi. Bobur hayotini muhim rol o‘ynagan janglar ham Samarqand bo‘lgan. Bu janglar uning hayotini ostin-ustun qilib yuborgan va Boburning shamshirini Hindistonga qaratishga sabab bo‘lgan.

1495-yilda Samarqand Sulton Ali qo'lida edi. Ammo Sulton Mas'ud va Boysung'ur Mirzolar ham Samarqand uchun kurash boshlaydilar. Amakivachchalaridan ilhomlangan Bobur ham bu kurash girdobiga qo'shiladi. Bir muddat Samarqandni qamal qiladi. Ammo do'stlik va sulh taklifi bilan chiqqan Sulton Alining so'zini qabul qilib, ortga qaytadi. Boysung'ur Mirzo esa Samarqandni egallaydi. 1497-yilda Bobur yana Samarqandga yurish boshlaydi. Boysung'ur Mirzo Shayboniixonidan madad so'raydi. Yetti oy davom etgan jangdan so'ng Boburning qo'li baland keladi. Ammo Boburning g'alaba nashidasi uzoq davom etmaydi. Talon-taroj natijasida Samarqand nochor ahvolga tushib qoladi. Qo'shin ta'minotidan ham qiynalishadi. Natijada, uylarini ham sog'ingan cherik ahli birin-ketin Andijonga qochib keta boshlaydi. Hatto, ishongan beklari – Ahmat Tanbal, Xonqulli, Ibrahim Bekchik kabilar ham Samarqandni tark etadi.¹

Ayni shu paytda Andijonda ham notinchlik boshlangandi. Uning sababi Ahmat Tanbal va Axsini vaqtincha boshqarish uchun qoldirgan Uzun Hasanning xiyonat yo'lini tutishi, ya'ni Boburning ukasi Jahongir Mirzoni Andijon hokimi etib tayyorlash rejasini tuzishi edi. Shu tariqa Bobur volidasi va piri Xoja Qozi yo'llagan maktublari va da'vatlari sababli Samarqandni tark etishga majbur bo'ldi.

1498-yil fevral oyida Andijon sari yo'l oldi. U Xo'jandga yetganda, Andijonning muxolifatchilar qo'lida ekanligini eshitadi. O'rtada ham Samarqand, ham Andijondan ajralgan Bobur qattiq ruhiy iztirobga tushadi. Shundan keyin uning hayotida o'g'ir va sinovli kunlar boshlanadi. U ikki yilga yaqin Xo'jand, O'ratepa atrofida na davlat, na mulksiz mashaqqatli hayot kechiradi. 1499 — yilning yoz oylarida O'ratepa atrofida Ali Do'st Tag'oyidan xabar keladi, xabarda agar gunohlari afv etilsa, Marg'ilonni Boburga topshirish niyatida ekanligini aytadi. Bu taklifni Bobur o'ylab o'tirmay qabul qiladi. Bir necha kun yo'l yurib Marg'ilonga yetib keladi. Ahmad Tanbal va Uzun Hasanning zulmidan charchagan xalq Boburni mamnunlik bilan qarshi oladi. Bir necha kunlik jangdan so'ng Andijon qayta qo'lga kiritiladi. Ammo Ahmad Tanbal Jahongir

¹ Ma'naviyat yulduzlari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent — 2011. Bet- 273.

Mirzoni podshoh qilib ko'tarish rejasidan qaytmagan va janglar davom etar edi. Nihoyat, urush sulh bilan yakunlandi.

Bobur 1500 — yilda Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyshabegimga uylandi. Shu yildan Boburning she'rlar yoza boshlagani ma'lum. Uning dastlabki she'rlari fors tilida edi. Boburning saltanat uchun olib borgan kurashida eng avvalo bobosining davlatini tiklash istagi turar edi. Shu orada Turkistondagi o'zbeklar xoni Shayboniyxon Buxoro va uning atroflarini egallab, Samarqandga tahdid solib kelar edi. Sulton Ali Boburga murojaat qiladi, shunda Bobur shoshilinch Samarqand tomonga yuradi. Sangzor bo'yiga yetganda, shahar Xoja Yahyo qo'lida ekanligi ma'lum bo'ladi va u Samarqandni Boburga jangsiz topshiradi. Ayni paytda chopar Shayboniyxonning katta kuch bilan Samarqandga yo'l olgani haqida xabar keltiradi. Bobur kuch to'plash uchun Shahrisabzga jo'naydi. O'n kun o'tmay Shayboniyxon Samarqandni qo'lga kiritadi. Ma'lum bo'lishicha, Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegim Shayboniyxonga xufiyona xat yozadi, unga uylansa, Samarqandni o'g'lidan olib berishini bildiradi. Shayboniyxon bundan ustalik bilan foydalanadi va shaharni jangsiz oladi. So'ng Zuhrabegimni navkarlaridan biriga in'om qilib yuboradi. Sulton Alini gumdon qiladi. Xoja Yahyoni ham ikki o'g'li bilan o'ldirib yuboradi.¹

Samarqandni qo'ldan chiqqanini eshitgan Bobur, 240 kishilik qo'shini bilan tavakkal qilib yana shahar darvozasidan kirishga ahd qiladi va buni uddasidan chiqadi. Shu tariqa 19 yoshida Bobur yetti mingga yaqin qo'shinga ega bo'lgan tajribali podshoh Shayboniyxon qo'lidan Samarqandni 240 kishisi bilan tortib oladi. Afsuski xursandchiliklar uzoq cho'zilmadi. Shayboniyxon shaharni uzoq muddatda qamal qildi va shu vaqt oralig'ida Boburga sulh taklif qildi. Bobur esa shahar aholisi omon qolishi uchun sulhga rozi bo'ldi. Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi.

¹ G'offurjon Sotimov. BOBURIYZODALAR." Ma'naviyat" nashriyoti. Toshkent — 2003. Bet — 9-10.

1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tor-mor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir Mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo‘ladi. 1504-yilning oktyabrida hududi ancha kichik bo‘lgan Farg‘ona viloyatini tashlab, sarson-sargardonlikni boshidan kechirgan Bobur Mirzo Kobul va G‘aznani jangsiz qo‘lga kiritib, ulkan davlat taxtini egallaydi.¹ Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. 1507-yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi, ammo bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi.²

Bobur Mirzo 1508-yilida Afg‘onistonning podshosi deb e‘lon qiladi va Qobul davlat poytaxti bo‘ldi.

1510-yilda Muhammad Shayboniyxon o‘limidan so‘ng Bobur Mirzo Eron shohi Shoh Ismoil dan yordam olib, Movarounnahr yurish boshladi. 1511 yilda Shoh Ismoil qo‘shinlari yordamida shayboniylar qo‘l ostidagi Hisor, Ko‘lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi erlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo‘lga kiritdi. Movarounnahrni butunlay qo‘lga kiritish niyatida bo‘lgan Boburga Safaviylarning tajribali sarkardasi Najmiddan Soniy boshchiligidagi 12 ming qo‘shini kelib qo‘shildi.³

Bobur Samarqandni egallagach, noilojlikdan islomning shialik yo‘nalishiga e‘tiqod qiluvchi shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e‘lon qildi. Bu esa Samarqand xalqining Bobur Mirzodan yuz o‘girishiga sabab bo‘ldi. Chunki Movarounnahr aholisi, Boburning o‘zi ham islomning sunniylik yo‘nalishiga e‘tiqod qilganlar. Bu esa shia va sunniy adovatlarini yanada avj olishiga sabab bo‘ldi. Boburning ittifoqchilari, shia mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning talon-tarojlar (ayniqsa, Samarqand va Qarshi

¹ Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. -Toshkent. Sharq. 2011. 24-bet.

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bobur>

³ B.J.Eshov, A.A.Odilov “O‘zbekiston tarixi” I – jild Toshkent-2013. Bet-346

shaharlarida) tufayli mahalliy aholi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. Bobur va eroniylarning birlashgan qo'shinlari bilan Shayboniylar o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1512-yilning noyabrida G'ijduvon yaqinida bo'lib o'tadi. Mazkur jangda Shayboniixonning jiyani, Sulton Mahmudning o'g'li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo'shnini tor-mor etildi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Bobur Movarounnahrda butunlay chiqib ketdi va Qobul hamda uning atroflarida o'z hukmronligini to'la mustahkamladi¹. Bobur Mirzoning bundan keyingi maqsadi Hindiston sari bo'ldi.

1505-yildan Hindistonga dastlabki yurishini boshladi. Bobur Hindistonga besh marta yurish qildi. Dastlabki to'rt yurishi o'ziga xos sinov yoxud tayyorgarlik yurishlari bo'ldi. Birinchi yurishda (1519-yilda) u Bajur va Behra viloyatlarini bo'ysundirib qaytgandi. Biroq har ikkala viloyat ham Bobur orqaga qaytishi bilanoq mustaqil siyosat olib boraverdi. Shu yili u yana Hindistonga yurish qildi-yu, biroq bus afar Peshovardan qaytib ketdi. Uchinchi bor yurishida Bobur (1520-yilda) Panjobgacha kirib keldi va Sialkot hamda Sayidpur qal'alarini o'ziga bo'ysundirdi. To'rtinchi marta u Hindistonga 1524-yilda yurish qildi va bu safar Lohur va Dibalpurgacha bo'lgan hududlarni egalladi. U Davlatxon Lo'diyning Panjobni o'z ixtiyorida olib qolish niyatidan ranjigan edi. Lekin u Olamxon Lo'diy va Dilovarxon Lo'diyga muruvvat qildi. Panjobni ular ixtiyorida qoldirib, o'zi Kobulga qaytdi. U qaytishi bilanoq, Davlatxon yana Panjobni bosib oldi. 1525-yilgi yurishda Bobur Hindistonni butunlay ishg'ol qilish niyati bilan safarga otlangan edi. Nihoyat, 1525-yilda Bobur 12 ming qo'shin bilan Hindistonga yurish boshladi. 1526-yili 21-aprelida Panipatda Boburning 12 minglik qo'shini Hind sultoni Ibrohim Lo'diyni 100ming kishilik askari bilan to'qnashadi. Bu jangda Bobur qadim turk jang usulidan ya'ni buyuk bobosi Temur tajribasidan mohirona foydalanadi. Shu tariqa jangda Boburning qo'li baland keladi va Hindistonga uning nomi bilan ataladigan mustahkam bir davlat maydonga keladi. Agrani o'ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi. Oradan ko'p

¹ B.J.Eshov, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi" I – jild Toshkent-2013. Bet-346

o'tmay, 1527-yilda Qanva yaqinida ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi. 1528-yilda Chandiriydagi jangda ham ustunlik Bobur tomonida bo'ldi. 1529-yilda Gagra yonidagi janda Ibrohim Lo'diyning ukasi Mahmud Lo'diy bilan bo'lgan to'qnashuvda Bobur lashkari yana g'olib keldi. Shu yilda Bengal shohi Nusratshoh bilan do'stona aloqalar ham o'rnatdi.

Bobur Hindistonda ham xuddi Afg'onistonda bo'lganidek, ko'plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o'zaro ichki nizo, qirg'inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. 1526- yilning 21-aprelida Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayli omon qoladi. Biroq Boburning sog'ligi yomonlashib boradi, 1527 - yilning 13- oktyabrda og'ir xastalanib yotib qoladi. Bobur 1530 -yilning 26-dekabrda Agrada vafot etadi.¹ 1539-yil, vasiyatiga muvofiq, xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan "Bog'i Bobur"ga qo'yildi.

Hind xalqining buyuk farzandi Javoharlal Neru "Hindistonning kashf etilishi", "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Bobur Mirzo va uning nabirasi Akbarga yuksak baho bergan. U shunday deb yozadi: "Bobur — dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukm- dori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi".²

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi xalqimizning farzandlaridir. Ular o'zlarining serqirra faoliyati va ijod durdona asarlari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining buyuk shoiri, iqtidorli sarkardasi, tarixchi va din peshvosi sifatida tanilgan ulug' siymolardan biri hisoblanadi. Biz shunday bobokalonlarimizning avlodlari bo'lganimizdan doimo

¹ N.G'. Nizomiddinov. BUYUK BOBURIYLAR TARIXI (XVI- XIX asr) Managrafiya — T: "Fan va Texnologiyalar" nashriyoti. Toshkent -2012. Bet -75.

² Неруд.Открытие Индии. М., Политиздат, 1989, стр. 272-273.

faxrlanib ularga mos avlod bo‘lishga harakat qilmog‘imiz kerak. Zero kelajak bizning qo‘limizdadir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ma’naviyat yulduzlari. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent — 2011. Bet- 273.
2. G‘offurjon Sotimov. BOBURIYZODALAR." Ma’naviyat" nashriyoti. Toshkent — 2003. Bet — 9-10.
3. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. -Toshkent. Sharq. 2011. 24-bet.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bobur>
5. B.J.Eshov, A.A.Odilov “O‘zbekiston tarixi” I – jild Toshkent-2013. Bet-346
6. B.J.Eshov, A.A.Odilov “O‘zbekiston tarixi” I – jild Toshkent-2013. Bet-346
7. N.G‘. Nizomiddinov. BUYUK BOBURIYLAR TARIXI (XVI- XIX asr) Managrafiya — T: "Fan va Texnologiyalar" nashriyoti. Toshkent -2012. Bet -75.
8. Неруд,Открытие Индии. М., Политиздат, 1989, стр. 272-273.

MA’MUN AKADEMIYASINING TA’LIM SOHASIGA QO‘SHGAN XISSASI

Sevinch JUMABOYEVA
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar Fanlar Fakulteti
tarix yo‘nalishi 1- bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sh. Parmonov
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar Fanlar Fakulteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ko‘hna Xorazmning boy o‘tmish tarixi ming yillarga borib taqaladi. Bundan ming yil avval shu muqaddas zaminida “Dars ul- hikmat va maorif yoki Majlisi ulamo” nomi bilan mashhur bo‘lgan. XI asrda Xorazmshoxlar poytaxti Gurganchgacha vujudga kelgan bilan ilmiy markaz endilikda fanda Ma’mun Akademiyasi yubileyini nishonlash uchun, birinchi prezidentimiz Islom Karimov say-harakati bilan Ma’mun Akademiyasining milliy va umumbashariy taraqqiyotdagi xizmatlarini hisobga olib uning ming yillik to‘yini munosib nishonlashga qaror qilindi. Dar ul-hikma yoki Majlis ulamo nomi bilan atalgani bilan ilm maskani bir guruh olim, adib, shoirlarning tasodifiy yig‘ini emas edi. Ma’mun Akademiyasi avvalo Ko‘hna

Xorazmning uzoq o'tmishdagi ilm ma'rifat ildizlari bilan bevosita aloqador shuning uchun u ilk o'rta asr uyg'onish davri madaniy yuksalishining qonuniy natijasi bo'ldi.

Kalit so'zlar: Ma'mun akademiyasining tashkil topishi, ma'mun akademiyasida o'qish uchun qayerdan ko'plab olimlar Gurganchga kelishgan, Dar ul hikmada ilmiy faoliyat olib borgan olimlar, Muhammad al- Xorazmiyning Bayt ul hikmadagi yetakchi olim va uning ishlari, Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risidagi farmoni.

Bog'dodda tashkil qilingan akademiya nemis fan tarixchisi X. Zuter o'zining matematika va astronomiya tarixiga bag'ishlangan asarida IX-X asrlarda Bog'doddagi, "Bayt ul-hikma" da faoliyat olib borgan 500 dan ortiq olimlarning ruhiyatini keltiradi. Chex olimi Yu.Rushkaning tadqiqoticha bu olimlarning ham deyarli uchdan ikki qismini xorazmliklar tashkil qilgan. Shubxasiz "al-Ma'mun Bayt ul-hikma" sining shuhrati tez orada xalifalikning barcha yerlariga yetadi.

IX asr oxiri X asr boshlarida xalifalikdan erishgan hududlarning hukmdori yoki an'ana sifatida yoki al-Ma'munga taqlid qilib o'z saroylarida ma'rifat ahlini to'plashga urinadi¹. Shu sababli ham Ma'mun ziyoli inson bo'lgani uchun uning nomiga Ma'mun akademiyasi tashkil qilinadi. Bu joyda ko'plab olimlarimiz ya'ni birinchi renessans vakillari tahsil olishgan. Nafaqat o'zimizning olimlarimiz balki chet el olimlari kelib ham tahsil olishgan. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak bizning yurtimiz qadimgi tarixga va buyuk shaxslar yurti bo'lgan desak ham bo'ladi.

Xorazm Ma'mun akademiyasi Ma'muniylar akademiyasi Xorazmda X asr oxiri XI asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy muhit Ma'muniylar davlati 992-1017 tarixi bilan bog'liq. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudratga erishgan Xorazmshoxlar davlati mamlakatni birlashtirish unda tartib o'rnatish bo'yicha tadbirlarni boshlab yuborgan kun tartibda davlat ichki va tashqi siyosatini olib borishda mafkuraviy masalalarni hal qilish maslahatchilarga muhtoj bo'lgan. Uning baxtiga tog'asi, Abu Nasr ibn Iroq o'z davrining o'ta bilimdon olimi bo'lgan 1004 yilning boshida ibn Iroq taklifi bilan Beruniy Gurganchga qaytib kelgan Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit

¹ Сагдуллаев_А_С_Ўзбекистонда_давлат_бошқаруви_тарихи – Б. 462.

yartib berilgan¹. Bu ikki shaxs Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada bo'lganlar. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoroga va hatto arablar Iroqdan ko'plab olimlar Gurganchga kelishgan.

Gurganchda ilm fan uchun katta e'tibor berilgan bo'lib hattoki ko'plab shaharlardan olimlar kelib o'qishgan. O'tgan asrda ham ko'rib turibmizki ilm uchun ko'p imkoniyatlar yaratib berilgan ekanligini bilib oldik. Bunday o'ylash mumkinki hozirgi kunda ham ilm fanga katta imkoniyatlar yaratilgan. Prezidentimiz ham shu olimlarimiz bobolarimiz kabi yoshlarni shu birinchi va ikkinchi renessans kabi vakillar yetishib chiqishi uchun harakat qilmoqda. Nimaga bizda uncha ilm fan rivojlanmay qolgan degan savol ham tug'ilishi tabiiydir. Bizda qadimdan xonliklar bo'lib ular o'zaro birdamlikda ish ko'rishmaganligi o'zlarini manfaati yo'lida ko'plab ishlar qilganliklari bir biri bilan ko'plab ziddiyatlarga borganligi uchun bizni chor Rossiyasi bosib olishi natijasida ko'plab o'zgarishlar yuz bergan².

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda dunyoga Muso al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy va Najmiddin Kubro, Paxlvon Maxmud va Ogahiy singari buyuk zotlarni bergan. Bundan ming yil avval shu muqaddas zaminda "Dar ul hikma va maorif yoki Majlisi ulamo" nomi bilan mashhur bo'lgan Sharqning qadimiy ilmiy markazining vujudga kelganligi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida katta voqea bo'ldi., Dar ul hikma va maorif"ning ilmiy faoliyatini o'tgan asrda Yevropalik va Rossiyalik sharqshunos olimlardan S.P.Tolstov, Y.Qrachqovski, G.Bulgakov o'zbek olimlardan Yaxho G'ulamov, Ibrohim Mo'minov, Muzaffar Xayrullayev va Ashraf Ahmedov va boshqalar tomonidan chuqur o'rganildi³. Ular shu ilmiy markazning xuddi Bog'dodda IX asrdagi "Bayt ul hikma" kabi sharqning o'z davridagi yirik ilm ma'rifat dargohi fanlar akademiyasi bo'lganligini asoslab berdilar. Xorazm poytaxti Gurganchgaga vujudga kelgan Xorazm Ma'mun akademiyasi nomi bilan mashhur⁴.

¹ Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar B 39

² Sadullayev.A Sotliqov.A Xorazm Ma'mun akademiyasining tarxii ildizlari B 68

³ Sadullayev.A Xorazm Ma'mun Akademiyasi B. 28.

⁴ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. 1-kitob – B. 278.

Muhammad al-Xorazmiy (783-890) “Bayt ul-hikma”sining yetakchi olimi ilmiy rahbari fanda yangi yo‘nalish va maktab yaratgan allomalardan edi. U astronomiya matematika geografiya tarix va boshqa fanlar sohasida o‘nlab asarlar qoldirgan. Uning “Al-jabr val muqobala” kitobi jahonda birinchi bo‘lib algebra faniga asos bo‘lgan asarlardir. Olim matematika fanida o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasini yaratdi. Shu asosda u qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish amaliyotining qulay va oson yo‘lini kashf etib Sharq va Yevropani ilg‘or hisoblash tizimiga o‘rgatdi.

Fanda har qanday muntazam izchil hisoblash jarayonini anglatadigan matematik tushunchasi ham al- Xorazmiy nomi bilan bevosita bog‘liq chunki olimning lotinlashgan nomi g‘arbda “Algorizm”, “Algoritmus” bo‘lib o‘zgarib ketgan.

Al- Xorazmiyning 40 yildan ortiq umri Bog‘dodda “Bayt ul-hikma”da o‘tdi. U Marvda so‘ngra Bog‘dod va Damashq shaharlaridagi rasadxonalarda ancha yillar kuzatishlar olib borib o‘zining astronomiyaga oid mashhur asari “Ziji Xorazmiy” ni yaratdi. Ushbu asari bilan u fan olamida birinchi astronomik jadvalga asos solgan olim. Al- Xorazmiyning “Ziji” 1126 yildayoq lotin tiliga tarjima qilingan. Olimning matematika Al-Xorazmiyning matematika astronomiya, trigonometriya va boshqa asarlarda Quyosh, Oy va sayyoralar harakatini kuzatish va boshqa narsalarda keng foydalanib kelingan.

O‘zbekistonda Respublika Prezidentining “Xorazm Ma‘mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risidagi” farmoni 1997 yil 11 noyabr O‘zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish uning jahon ilmiy hamjamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda iste‘dodli va fidoyi olimlarni qo‘llab quvvatlash yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an‘analarni rivojlantirishda qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1 jild Toshkent 1968
2. Sadullayev.A Xorazm Ma‘mun Akademiyasi Xiva 2000
3. Sadullayev.A Sotliqov.A Xorazm Ma‘mun akademiyasining tarxiiy ildizlari T 2003.
4. <https://www.ziyouz.com.maqolalar>

KO'HNA URGANCH TARIXI

Zuxra SHOASLONOVA
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar Fanlar fakulteti
tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sh. Parmonov
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola qadimdan shakllanib kelayotgan va hozirgi kunda ulkan salobatiga ega bo'lgan shahar – Ko'hna Urganch tarixi, uning sulolalar va mustamlakachilik zulmi davri haqida ma'lumot beradi

Kalit so'zlar: Jurjoniya, Xurganch, Urga, Xorazmshohlar, Xumortakin, Najmiddin Kubro, Ibn Batuta, Abulgoziy Baxodirxon, Yangi Urganch, shovot.

Ko'hna Urganch – qadimgi Xorazmning ma'muriy markazi, arablar olamida Jurjoniya nomi bilan ulug'langan salobatli shahar. Bu shahar dastlab qadimiy Xorazm tilida Urkent nomi bilan atalgan bo'lsa turkiy xalqlar uni Xurjanj, Gurganch arablar hukmronligi davrida 712-yildan boshlab Jurjoniya deb yuritilgan. Arab sayyoxlari Ibn Batuta va Ibn Maqsudiylar “Musulmon olamida Jurjoniya ko'ra kattaroq shahar ko'rmadim” deya yozadilar. 995 yilda esa Ma'muriylar sulolasi davrida Shimoliy va Janubiy Xorazm birlashtirilib, poytaxt Gurganjga ko'chirildi. 996-1017 yillarda shahar gullab-yashnadi, kanallar bunyod etildi, saroy va imoratlar, madrasa va masjidlar qurildi¹.

“Majlisi ulamo” nomi bilan ulug'langan Ma'mun Akademiyasi ta'sis etildi. Muqaddasiy “Gurganch kun sayin kengayib boryapti, Xojand darvozasi oldida al-Ma'mun tomonidan qurilgan saroy qad kotargan. Bu saroy darvozalariga teng keladigani butun Xurosonda yo'q. Uning oldiga al-Ma'munning og'li Ali saroy qurdirgan. Saroy oldida Buxorodagidek maydon bor”,-deb yozadi. Xalq og'zaki ijodi afsona va rivoyatlarida Ko'hna Urganch Xur ismli qiz Ganj ismli yigit sevgi-muhabbat

¹ R. Shamsuddinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi-B 221.

timsoli sifatida bino etilgan deyiladi¹. Asli bu nom mil. Avv. VII -VI asrlarda Avestoda tilga olingan bo‘lib, Vurukash ya’ni Orol dengizi bo‘yida Urga shahrining nomidan kelib chiqqanligi qayd etilgan. Avestoda tilga olingan Urga keyinchalik Urin, Urkend, Xurganj, Jurjokiya, Gurgajj, Ko‘xna va Yangi Urganch nomlari bilan tarix sahifalaridan o‘rin olgan. Qoraqalpog‘istonning Janubiy Orol bo‘yidagi geolog-gazchilar yashaydigan shaharchasi Urga deb ataladi. XIII-XIV asrlarda yuz bergan mo‘g‘ul bosqini va tabiiy ofatlar tufayli Urganch aholisi har yerga tarqalib keta boshladi. Ayniqsa 1221-yilda yuz bergan Urganch fojiasidan so‘ng shahar o‘zining salobatli holatini butkul yo‘qotdi.

Jaloliddin Manguberdi Gurganchga etib kelib, shahar mudofaasiga kirishadi. Lekin Gurganchdagi Qipchoq amirlari Turkonxotunning akasi Xumorteginni sulton deb e‘lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo‘ladilar. Bundan habar topgan Jaloliddin Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganchni tark etib Xurosonga ketishga majbur bo‘ladi².

Xorazm poytaxti Gurganch mudofasi ham mo‘g‘ullar istilosi tarixining alohida bir fojiali sahifasi bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi. 1221 yil boshlarida Jo‘ji, Chig‘atoy va O‘qtoy askarlari Gurganchga hujum boshlaydilar. Gurganch qamali 6 oy davom etdi, hadsiz-hisobsiz qurbonlar berildi. Shahar egallangach, mo‘g‘ullarning bu erda sodir etgan mislsiz yovuzliklarini bayon etishga qalam o‘jizlik qiladi. Barcha erkaklar, bolalar qilichdan o‘tkaziladi. Xotin-qizlar qip-yalang‘och qilinib, bir-biri bilan urishishga majbur etiladi, so‘ngra mo‘g‘ul jangchilari tanloviga beriladi, qolganlari qirib tashlanadi. Hech kimga shafqat ko‘rsatilmaydi. Shaharning o‘zini er bilan barobar qilish uchun Amu to‘g‘oni ochib yuborilib, Gurganch suv ostida qoladi. Shahardagi uzoq asrli ma‘naviyat durdonalari, qimmatli qo‘lyozmalar, kitoblar saqlanib kelgan kutubxonalar, barcha noyob asori-atiqalar er bilan yakson etiladi³.

Chingizxon Najmiddin Kubroning qanday shaxsligini bilardi shuning uchun ham unga shaharni tashlab chiqib ketishi haqida maktub yozadi. Kubro esa “Yo vatan

¹ K. Nurjonov. “Xorazm maqol, matal va iboralarning tarixiy ildizlari”. B 58.

² Hamdam Sodiqov. Sulton Jaloliddin Manguberdi-B 21.

³ Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova O‘zbekiston tarixi B 122.

Yo sharaflı o‘lim” deya hitob qiladi. Shu tariqa 7 oy davom etgan qirg‘in tarix zarvaraqlariga Urganch fojiasi nomi bilan kiritildi. XIV asrning boshlarida Oltin O‘rda ta’siriga o‘tgandan so‘ng shaharda binokorlik ishlari jonlandi. 1333-yilda Gurganjga kelgan mashhur arab sayyohi Ibn Battuta buning guvohi bo‘lgan.

Oradan bir qancha vaqt o‘tgach 1342-yilda Amir Temur shaharning G‘arb va Sharqni bog‘lovchi Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligini inobatga olib uni tiklashga buyruq beradi. Ammo 1572- 1573-yillarda Amudaryoning o‘z o‘zanini o‘zgartirishidan so‘ng shahar butunlay harobaga aylandi. Buning oqibatida aholi Volga bo‘yi va Shimoliy Kavkazga ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi. Parokandaliklardan so‘ng Abulg‘oziy Bahodirxon 1646-yilda Yangi Urganchga asos soldi. Vorisi Anushaxon esa shovot va yormish kanallarini ta’mirлагan holda Urganch hududlariga suv olib kirdi. 1700-1806 yilda davom etgan sulolalar davrida va sho‘ro davrida ham Urganch Xorazmning ma’muriy markazi bo‘lib qolaverdi. Shu tariqa 1930- yilda Urganch okrug, 1938- yildan esa viloyat markazi maqomini oldi¹. Qadimgi ko‘hna Urganch esa 1924-yilda Turkmaniston tarkibiga kiritildi. Shaharning qadimiy qismi 1985-yilda Davlat tarixiy-madaniy muzey-qo‘riqxonasi deb e’lon qilindi.

Xulosa qilib aytganda ulkan o‘tmishni boshidan kechirgan shahar tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Hozirda qadimgi ko‘hna Gurganch shahri Turkmanistonning Toshxovuz hududiga to‘g‘ri kelsa, Abulgoziy Bahodirxon asos solgan Yangi Urganch Xorazm viloyatining ma’muriy markaziga aylantirildi. Ayni damda ham bu kóhna shahar mamlakatimizning e’tiborga loyiq va sayyohlar kóp tashrif buyuradigan hududlaridan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R. Shamsuddinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi . Toshkent – 2010;
2. Matnazarova G. Xorazm tarixi. T. 2010.
- 3 K. Nurjonov. “Xorazm maqol, matal va iboralarning tarixiy ildizlari”
4. Hamdam Sodiqov. Sulton Jaloliddin Manguberdi. T 2009.
5. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova O‘zbekiston tarixi. T 2005

¹ Matnazarova G. Xorazm tarixi.-B 76.

G‘AZNAVIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA YUKSALISHI

Shodiyona JUMANOVA

— *Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti tarix yo‘nalishi*

1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sh. Parmonov

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tariximizda o‘chmas iz qoldirgan G‘aznaviylar davlatining paydo bo‘lishi, qo‘shni davlatlar bilan munosabati, G‘aznaviylarning yuksalishi, Mahmud G‘aznaviyning G‘aznaviylar davlatining yuksalishiga qo‘shgan hissasi, Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga yurish qilishi

Kalit so‘zlar: Mahmud G‘aznaviy, Sulola, Alptegin, 32ta harbiy unvon, ilm — fan, madrasa.

Dunyo tarixiga o‘chmas iz qoldirgan davlatlardan biri G‘aznaviylar hisoblanadi. G‘aznaviylar davlatiga Alpteginning g‘ulomi va kuyovi Sabuktegin asos solgan. Davlat nomi saltanatning poytaxti G‘azna shahri nomidan olingan. V.V. Bartoldning ma‘lumotlariga ko‘ra, Mahmud G‘aznaviy 999-yilning oktyabr-noyabr oylarida tantanali ravishda taxtga o‘tirgan. Boshqa tadqiqotchi K. E. Bosvort esa bu voqea 998-yilda sodir bo‘lgan deb ko‘rsatadi. Bu davrda Mahmud G‘aznaviy xalifa Muqaddirdan Xurosonni boshqarish uchun yorliq hamda “Saltanat tayanchi va musulmonlar jamiyatining ishonchli vakili” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

XI asr boshlariga kelganda Musulmon Sharqining eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan G‘aznaviylar davlatining chegaralari g‘arbda Ray va Isfahon shaharlari, Kaspiy dengizi hamda shimoli -g‘arbda Xorazm va Orol dengizigacha cho‘zilgan, sharqda esa Shimoliy Hindistonning kattagina qismini o‘z ichiga olgan va janubda Balujistongacha yetgan edi. G‘aznaviylar davlatining paydo bo‘lishini har bir xalq o‘zining tarixi bilan bog‘liq holatda talqin qiladi¹. Masalan: Bu sulola asos topgan

¹ A. Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi I T.2019. 365-b

Gʻazna viloyati “isyonkor turk lashkarboshilari”ga boylik orttirish uchun qulay joy sifatida sharhlanib oʻz-oʻzidan shu yerda kuchga kirgan va mazkur shahar nomida tanilgan gʻaznaviylar sulolasi tarixi ham goʻyo xuddi shunday maqsad yoʻlida yuzaga kelgan va faoliyat koʻrsatgani bayon etilgan.

Gʻaznaviylarning eng kuchaygan davri amir Sabuktegin, ayniqsa, sulton Mahmud Gʻaznaviy hukmronligi yillariga toʻgʻri keladi. Bu sulolaning ham rasman, ham amaldan paydo boʻlishi 996- yilga borib tarqaladi. Mahmud Gʻaznaviyning otasi Sabuqtegin asli Sirdaryo boʻylarida yashagan barsxon turkiy qabilasiga mansub boʻlib, yoshligida asir olinib, soʻngra qul qilib sotilgan edi. Somoniylar turkiy gvardiyasi boshligʻi Alptegin uni oʻz qarmogʻiga olgan. Somoniylar davlatining turkiy askarlar qoʻshinida xizmat qilgan Sabuqtegin 977- yildan boshlab Gʻazna va uning atroflarini Somoniylar noibi sifatida boshqaradi. Sabuqteginning taʼsiri mamlakat ichra tez orada shu qadar kuchayib ketdiki, uning qarshisida Nuh II taxtdan rasman oʻtirgan aslida zaif hukmdorga aylanib qoldi. Somoniy hukmdori Mansur II (997-999) va Mahmud Gʻaznaviy oʻrtasida nisbatan yaqin munosabatlar oʻrnatilgan edi. Otasining oʻlimidan soʻng Mahmud akasi Ismoilni taxtdan tushirib, oʻzi hukmdorlik darajasini egallaydi¹ (998-1030). Gʻaznaviylar davlatining eng yuksalgan davri Sulton Mahmud (998-1030) vaqtiga toʻgʻri keladi. Sulton Mahmud katta qoʻshin tuzib, uni shu davrning qurol-aslahalari bilan, yetarli maosh bilan taʼminlab juda koʻplab bosqinchilik yurishlarini olib borgan.

Homidjon Homidiyning yozishicha, “Sulton Mahmud davlat idora xayʼatida ham, viloyat hokimlari devonida-yu, qoʻshin sarkardalari orasida qattiq intizom orqasidan jiddiy nazorat oʻrnatgan boʻlib, mahalliy hokimlarning ichki va tashqi ahvolidan maʼlumot yetkazib turuvchi maxsus mahkama tashkil etgandi. Uning qoʻshinida bir necha yuz jangovar fillar, daryolarni kechib oʻtish uchun suzuvchi soʻllar boʻlgan ekan. Sulton lashkarining asosiy qismini harbiy hunarlar oʻrgatilgan qullar tashkil qilgani manbalarda qayd etilgan. Mahmud Gʻaznaviy eng zamonaviy qurollar bilan taʼminlangan 32 harbiy hunar oʻrgatilgan yuksak jangovar ruhdagi yuz minglab suvoriy va piyoda lashkarlarga ega edi”. Metindek intizom, qattiqqoʻllik va

¹ Normatov Otabek Mahamatjonvich. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. Toshkent -2023. 93-b

talabchanlik siyosatiga asoslangan Mahmud Gʻaznaviyning harbiy yurishlariga uncha hech bir kuch bas kela olmasdi. U XI asr boshlarida Qoraxoniylar bilan shimoliy chegara sifatida Amudaryoni belgilab olgach, oʻzing asosiy eʼtiborini Hindistonga, gʻarbda Xuroson va unga chegaradosh hududlarga qaratadi. Faqat Hindistonga 17 bor yurish qilib, u yerdan katta miqdorda oʻlja va boyliklar olib keladi. Birgina 1019 -yilda Kanuadja shahrini egallab, olib kelingan oʻlja oltin, kumush va qimmatbaho buyumlaridan tashqari 350 ta fel va 57 ming qul asirni tashkil etgan. 1008 — yilda Qoraxoniylar bilan tuzgan shartnomani buzib, Amudaryoning shimolidagi Xuttalon va Jagʻaniyonni bosib oladi. 1010-1011- yillar katta qoʻshin bilan jang qilib Gʻur viloyatini egallaydi. 1017 — yilga kelib esa, Mahmud Gʻaznaviy nigohi strategik qulay boʻlgan Xorazmga qaratiladi. U Xorazmshohlar saltanatidagi qaltis siyosiy vaziyatdan foydalanib, xususan, Xorazmshoh Maʼmunning oʻlimidan foydalanib, katta qoʻshin yuborib, osonlik bilan egallab oladi. Ayni paytda, shuhratparast Sulton Xorazm Maʼmun akademiyasining bir qator atoqli namoyandalarini, shu jumladan, Abu Rayhon Beruniyni Gʻaznaga koʻchirib ketadi. Uning soʻngi istilochilik yurishlaridan biri Eronning Ray viloyatini egallash boʻldi¹. Mahmud Gʻaznaviy davrida yerlar benihoya kengayadi mamlakat shaharlari, ayniqsa Gʻazna viloyatida juda ham chiroyli inshootlar barpo etiladi, ilmga eʼtiborni kuchaytiradi, turli xil masjid, madrasalar, kutubxonalar uz faoliyatini olib boradi. Biroq oddiy aholiga soliqlarni kuchaytiradi, bu esa aholining noroziligiga sabab boʻladi.

1011- yilda Xurosonda boshlangan ocharchilik minglab insonlarning nobud boʻlishiga olib keladi. Tashqaridan qaraganda Mahmud Gʻaznaviyning davlati kuchli boʻlsa-da aslida yemirilib borayotgan edi. Zero, uning vafotidan keyin saltanatning tushkunlikka yuz tutishi ham shundadir. Birgina uning vafotidan keyin Xorazmning mustaqil boʻlib ketishi buning isbotidir. Shundan keyin saljuqiy turklarning Xurosonga nisbatan qiziqib qolishadi va avval Mahmud Gʻaznaviyning roziligi bilan baʼzi hududlariga joylashgan boʻlsa endilikda shu hududlarni egallashni boshlaydi. Gʻaznaviylarning siyosatidan, soliqlarning koʻpayishidan norozi boʻlgan mahalliy aholi ham saljuqiy turklari qoʻllab- quvvatlaydi.

¹ Q.Usmonov. M.Sidiqov. S.Burxonov. Oʻzbekiston tarixi-2006. 124-b

Gʻaznaviylar qoʻshini bilan saljuqiylar oʻrtasida eng yirik jang 1035-yilda Nissa shahri yaqinida boʻlib oʻtadi. Saljuqiylar bu yurishda gʻalaba qozonadi va koʻp hududlarni egallashga muvofiq boʻladi. Xurosonning katta hududlari asosan Nishopurni (1035-yil) da egallaydi. Tez vaqt ichida hokimiyatni egallagan Maʼsudning oʻgʻli Mavdud ham bir necha bor kuch toʻplab Saljuqiylar bilan urush olib borgan boʻlsa-da, ammo oʻz qoʻshinini magʻlubiyatdan saqlab qola olmadi. 1059-yilda Gʻaznaviylarning muhim tayanchi boʻlgan Balxning Saljuqiylar qoʻliga oʻtishi Gʻaznaviylarning soʻnggi umidini ham puchga chiqardi. Bu esa, pirovardda, Gʻaznaviylar davlatining tarix sahnasida butunlay yoʻqolib ketishiga sabab boʻldi. Tariximiz bizning milliy gʻururimiz, shonli sharafimizdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganlaridek: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga oʻrgatishimiz, ularni tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur¹.”

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Gʻaznaviylar davlatining tashkil topishi va yuksalishi ayniqsa Mahmud Gʻaznaviyning tarixiy faoliyatini oʻrganish jarayonida Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida Mahmud Gʻaznaviy islom olamida eng birinchi boʻlib “Sulton” nomini olgani, Xudoni sevuvchi va ilmning doʻsti, pokdin va gʻoziyshoh ekanligi haqidagi maʼlumotlarni bu asarni oʻqish jarayonimizda oʻzimiz uchun yangilik qilib oldik. Shuningdek, Mahmud Gʻaznaviy Gʻaznaviylar davlatining davlat sifatida shakllanishida bevosita ishtirok etib davlat taraqqiyotining yuksalishiga katta hissa qoʻshdi.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati:

1. A. Sagdullayev. Oʻzbekiston tarixi I T.2019. 635-b
2. Normatov Otabek Mahamatjonvich. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. Toshkent - 2023. 300-b
3. Q.Usmonov. M.Sidiqov. S.Burxonov. Oʻzbekiston tarixi-2006. 347-b
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Oʻzbekiston Toshkent-2016.56-b

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Oʻzbekiston Toshkent-2016. 34 b.

AMIR TEMUR HAYOTI VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT

Sardorbek BO'RIYEV
Chirchiq pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Sh. Parmonov
Chirchiq davlat pedagogika univrsiteti gumanitar
fanlar fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bobokalonimiz Amir Temurni hayoti, siyosat maydoniga qanday kirib kelganligi va undan keyingi davrda Temuriylar davrida madaniyatni qanday rivojlangani ularga hissasini qo'shgan buyuk shaxslar haqida, qisqacha so'z boradi.

Kalit so'zlar: barlos urug'i, Go'ri Amir, "Temur tuzuklari" UNESCO, Milliy istiqlol, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Gavharshodbegim

Amir Temur turkiy barlos urug'ining biy (urug' oqsoqoli)laridan bo'lmish Muhammad Tarag'ay va Buxoro shariat qonunlarini sharhlovchisining qizi Takina Mohbegimlarning farzandi bo'lib, 1336— yilda Shahrisabzga yaqin Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topgan. Uning to'liq ismi Sohibqiron Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barkuldir¹. An'analarga muvofiq, Tarag'ay o'z o'g'liga otda yurishni, ov qilishni, xat-savodni, islom dinining tartib-qoidalarini o'rgatgan. Jumladan, Sohibqiron bilim olishni yetti yoshidan boshlagani haqida o'zining "Tarjimai holi"da shunday yozadi: "Yetti yoshga to'lganimda meni madrasaga olib borishdi va qo'limga so'zlar jadvalini berishdi. Men o'qiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan behad xursand bo'ldim².

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda madaniyat o'z rivojining yuksak cho'qqisiga chiqadi. Temuriylar sulolasining yalovbardori ulug' Amir Temurni shu paytga qadar o'tgan jahongirlarning birontasi bilan ham qiyoslab bo'lmaydi. Bu fikrni ulug' bobomiz va uning avlodlari qoldirgan ulkan moddiy madaniyat yodgorliklarigina emas, balki jahon fani va madaniyatiga buyuk va salmoqli hissa qo'shgan

¹ O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun (tarix yo'nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; OkzR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.- T. „IQDISOD-MOLIYA“ 2006, 520 b

² O'zbekiston tarixi: Ma'ruzalar kursi / Hasanov B. V. va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 251 b.

Ulug‘bek, Bobur va boshqalarning temuriylar sulolasidan bo‘lganligi ham isbotlaydi. Amir Temur shaxsining ulug‘ligi uning dunyoda buyuk saltanatga asos solganligida emas, yoki o‘zining sohibqironlik faoliyati davomida 30 marta yurishlar qilib, biror marta bo‘lsa-da, yengilmaganligida ham emas, uning mardligi va qahramonligi kabi g‘oyatda muhim fazilatlarida, albatta. Bu fazilat va omillar ham so‘zsiz Amir Temur shaxsini ulug‘lashda va uni jahonga mashhur qilishda katta o‘rin tutgan. Amir Temurning dunyoda eng ulug‘ va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo‘lgan fazilatlar “Temur tuzuklari”da o‘z ifodasini topgan. Bu fazilatlar: Birinchisi va eng asosiysi islom dini, Qur‘oni Karim va uning g‘oyasiga cheksiz sadoqatda. “...har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim”, deydi u. “Yana tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu o‘yinlar asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xshar ekan, uni ko‘rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kas-u nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi”.

Amir Temur o‘ta taqvodor musulmon bo‘lgan, islom qonunlari va shariatlari doirasidan chetga chiqmagan. U o‘z farzandlari va nabiralardan axloqiy pok insof-diyonatli va adolatli bo‘lishni talab qilgan. Amir Temur o‘z o‘rniga valiahdlikka katta o‘g‘li Jahongir Mirzoni loyiq deb topadi. Lekin Jahongir Mirzo bevaqt bu dunyoni tark etadi. Shundan so‘ng ulug‘ Amir o‘z nabirasi Xalil Sultonni valiahdlikka birdan-bir da‘vogar deb hisoblaydi, chunki u jasur, qo‘rqmas va mard bahodir edi. Ammo kutilmagan voqea sodir bo‘ladi.¹

Amir Temur Vatanimiz tarixida, o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat ko‘rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida e‘tirof topgan yorqin siymodir. Afsuski, Amir Temur nomi sobiq mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida qoralanib, avlodlar nazaridan chetga surilib kelindi. Biroq o‘zbek davlatchiligini qayta tiklagan, buyuk davlat darajasiga ko‘targan, jahonga shuhrat taratgan Amir Temurning tarixiy xizmatini jahon afkor ommasi nazaridan yashirish, uni Qatag‘on zanjirida ushlab turish vaqti o‘tdi. Milliy istiqlol tufayli o‘z ona tariximizni xolisona yoritish, tarixiy haqiqatni qaror toptirish barobarida Amir Temur

¹ O‘ZBEKISTON TARIXI B.J.Eshov, A.A.Odilov Toshkent-2013 3-456-b. Vatan tarixi. K.1 / Mas‘ul muharrir: A.Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. — T.: «Sharq», 2010. — 512 b.

bobomizning nomini, nuroniy qiyofasini tiklash baxtiga muyassar bo'ldik. Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1996 yilning Amir Temur yili deb e'lon qilinishi va shu yili buyuk bobokalonimiz tavalludining 660— yilgining mamlakatimizda hamda ,tashabbusi bilan butun dunyo miqyosida keng nishonlanishi — bu hozirgi minnatdor avlodlarning, qolaversa, jahon ahlining bu buyuk zotga, uning ulug'vor ishlariga bildirgan cheksiz hurmati va e'zozi ramzidir

Shohrux Hirot, Balx shaharlarini qayta tikladi, Chingizxon yurishi vaqtida vayron bo'lgan Marv shahri qayta barpo etildi, unga Murg'ob daryosidan ariq qazdirilib, shahar suv bilan ta'minlandi. Xurosonning barcha shaharlarida obodonchilik, qurilish ishlariga katta e'tibor berildi, qator madaniy-ma'naviy xarakterdagi imoratlar qurildi. SHohruxning o'g'illari Mirzo Boysunqur Hirotda, Ibrohim Sulton Sherozda ilm-fan, ma'rifat yuksalishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Shohruxning xotini Gavharshodbegim Hirotda barpo etgan me'moriy majmuasi hozirda shaharning eng diqqatga sazovor joyi hisoblanadi. Hirotdagi eng gavjum joylardan biri Shohruxning o'g'li Boysung'ur tashkil etgan “Kitobxona” nomini olgan joy bo'lib qoldi. Bu erda o'z davrining eng sara kitoblari qayta ko'chirilar, sotib olinar va sotilar edi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyligi natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati ayniqsa o'z rivojini maromiga etkazdi. Mirak naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san'ati ham o'z faoliyatini shu erdan boshlagan edi. Hirotlik va xurosonlik ko'plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlaydilar. Masalan, Shohrux davrida yashagan taniqli zodagon Hoji Arslon tarxon o'zining ma'rifatparvarligi bilan nom chiqargan edi. Lekin, har holda hukmdorlar ichida ilm-fan, ma'rifat va madaniyatga yetarli homiylik qilgan shaxs bu o'zi ham buyuk olim bo'lgan Mirzo Ulug'bek hisoblanadi. Yurtboshimiz I. Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida buyuk olim va davlat arbobi xususida jumladan quyidagi yuksak ehtiromni aks ettiruvchi e'tirofni qayd etgan edi: “Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi”. Mirzo Ulug'bek uning zamondoshlari, muarrixlarning xabar berishlaricha, sharq mutafakkirlari, ular orqali yunon mumtoz ilmiy asarlaridan xabardor bo'lgan. Mirzo Ulug'bek zamondoshi G'iyosiddin Koshiyning yozishiga ko'ra, Mirzo Ulug'bek o'ta zukko va juda ilmi shaxs

bo‘lib, Qur’oni karimni yod bilgan, arab va fors tillarini yaxshi bilib, tafsir va hadis ilmi bobida bilimdon inson, fikh, mantiq, adabiyot, musiqa, riyoziyot va falakiyot ilmlarini chuqur bilgan qomusiy olim bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek islom olamida ilk bora hukmdorlik va olimlik darajasini birgalikda olib bordi. U Movarounnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Xususan Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz) ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417-yil Buxoro, 1420-yili Samarqandda, 1433 yillarda G‘ijduvonda madrasalar barpo etdi. Samarqandning obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo‘lib, Go‘ri Amir, Shohizinda me‘moriy majmualarini oxiriga etkazadi. Shohi Zinda majmuasida masjid, peshtoq, chortoq quriladi. Mirzo Ulug‘bek davrida Registon maydoni shakllandi, unga Ulug‘bek 336 madrasasidan tashqari xonakoh, karvonsaroy, o‘ymakor yog‘ochlar bilan bezalgan Muqatta masjidi bino etildi.¹

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Amir Temur siyosat maydoniga kelgandan keyin, Movarounnahr hududida yangi renesansga qadam qo‘yiladi. Mo‘g‘illar paytida buzilgan imoratlar qaytadan quriladi. Undan tashqari ilm-fani ham juda rivoj topadi. Saltanatda masjidu-madrasalarga katta e‘tibor qaratiladi. Amir Temur nafaqat Sharq diyoriga balki butun jahonga yaxshi inson deb tanilgan lekin shuni aytish kerakki, mustabid paytida boshqacha yomonlab bo‘rttirib gapirilgan, yomonlangan, lekin buni ta’siri bo‘lmadi bu renesans hozirgacha juda keng qamrovli ilm-fanga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; OkzR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.- T. „IQDISOD-MOLIYA“ 2006, 520 b.
2. O‘zbekiston tarixi: Ma’ruzalar kursi / Hasanov B. V. va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 251 b.
- 3 Vatan tarixi. K.1 / Mas’ul muharrir: A. Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. — T.: «Sharq», 2010. — 512 b.
4. O‘ZBEKISTON TARIXI. B.J.Eshov, A.A.Odilov Toshkent-2013 3-456-b

¹ O‘zbekiston tarixi: Ma’ruzalar kursi / Hasanov B. V. va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 251 b.

O‘ZBEKISTONDA ILK O‘RTA ASRLARDA ILK DAVLATCHILIK VA DAVLATLARNING TASHKIL TOPISH JARAYONLARI

Fotima ALIVOYEVA
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 23/1-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: F. Kamoliddinov
Chirchiq davlat pedagogika instituti jahon tarix o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda ilk o‘rta asrlarda ilk davlatchilik va davlatlarning tashkil topishi, rivojlanishi xususidagi fikrlarimiz o‘rin olgandir. Hamda bu davlatlarning tariximizdagi tutgan o‘rni ularning tarixiy jarayonlardagi olib borgan siyosatlarini ham yoritilishiga ahamiyat qaratiladi, davlatchilik tushunchalariga keng ta’rif berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, madaniyat, siyosat, bosqinchilik, davlatchilik, tarix.

Davlat bu majburlash kuchiga ya’ni hokimiyatga ega bo‘lgan, fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta’minlovchi, fuqarolari va hududida istiqomat qiluvchi insonlarning manfaatlarini o‘ylagan holda kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirishi, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarning amalga oshirilishi mustaqil siyosiy tashkilotdir. Davlatning eng asosiy vazifasi hokimiyat bilan jamiyatni birlashtirib siyosiy jarayonlarni yuzaga keltirishdir. Davlatlarning kelib chiqishi insoniyat tarixida muhim omil sifati qaraladi. Insoniyat tarixdan odamzodning turmush-tarzida rivojlanish jarayonlarining o‘sib borishi sivilizatsiya deyiladi va bu sivilizatsion jarayonlarda davlatchilik tushunchasi va davlatlarning tashkil etilishi muhim o‘rin kasb etadi. Dastlabki davlatlar sug‘orma dehqonchilik rivojlanishi asosida vujudga kelgan. Dunyoda ilk sivilizatsiyalashgan davlatlar bu Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Elam (hozirgi Eron hududlari), Hindiston va Xitoyda bundan 4-5ming yillar muqaddam davlatchilik vujudga kela boshlagan. Xususan O‘rta Osiyo hududlarida ham davlatchilikning ilk alomatlari o‘rta asrlarga to‘g‘ri keladi.¹

Mintaqaning, jumladan, O‘zbekistonning ilk o‘rta asrlar davriga oid bo‘lgan davlatchilik tarixiga nazar solsak, bu davrda ko‘plab mayda va yirik davlatlarning shakllanishi hamda ularning tarix sahnasidan ketishi bilan birga o‘ziga xos iz qoldirib

¹ Rustambek Shamsutdinov, Husanboy Mo‘minov “O‘zbekiston Tarixi” Toshkent-2021yil, 31-bet.

ketganligining guvohi bo‘lamiz. Ilk o‘rta asrlar davrida qadimgi O‘zbekiston hududlariga turli xalqlarning kirib kelishi davom etdi. V asrning birinchi choragida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo‘ylari orqali ko‘chmanchi aholi kidariylar (yuechji yoki toxarlarning avlodi) kirib keladi. Ularga Kidar ismli hukmdor yo‘lboshchilik qilgani uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Ta’kidlash lozimki, milodning IV-V asrlari O‘rta Osiyo qadimgi tarixining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ulkan kushonlar davlati ichki va tashki kurashlar natijasida bir qancha mustaqil davlatlarga bo‘linib ketadi. O‘rta Osiyoning janubida uning tarkibidan Toxariston va Marv ajralib chiqadi. Ilk o‘rta asrlarda mintaqada sug‘orish inshootlari takomillashib, yangi-yangi yerlar o‘zlashtiriladi. O‘zlashtirilgan yerlarda, yirik sug‘orish inshootlari boshida, markaziy shaharlarning atroflarida, dehqonchilik vohalarining chegaralarida qo‘rg‘onlar, qasrlar va istehkomlar qad ko‘taradi. Istehkomlarning to‘rt burchagi baland mustahkamlanib, devor-u mo‘rilari bir necha qator kamondan o‘q uzish uchun shinaklar va istehkomlar bilan ta‘minlangan¹. Qalin mudofali zodagonlar qo‘rg‘onlari ilk o‘rta asrlarning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot taqozosi bilan bunyod etilgan bo‘lib, asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, harbiy garnizon to‘planadigan joy, ma‘muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol- yarog‘ saqlanadigan ombor vazifasini o‘tagan. VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya ya’ni, Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Xalqlarimiz davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Turk xoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. Markaziy Osiyo o‘z geografik joylashuviga ko‘ra Yevrosiyo materigining azaliy sivilizatsion jarayonlar kesishadigan eng qulay hududi hisoblanadi. Aynan shu hududdan Buyuk Ipak yo‘lining o‘tishi ham tasodifiy hol emas edi. Buyuk Ipak yo‘li turli sivilizatsiyalararo madaniy uyg‘unlikni vujudga keltiradi. Qadimdan to XII asrga qadar Markaziy Osiyoda uchta yetakchi etnos muhim o‘rin tutgan. Bular xitoylar, turklar va sug‘dlardir. Ushbu uch etnos o‘rtasida kechgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar orasida turk va sug‘d etnoslararo munosabatlar keyingi asrlardagi etnik shakllanishlarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqotchilar tarixda miloddan avvalgi IV-III asrlardayoq sug‘dlarning xitoylar va

¹ A.S.Sagdullayev. “O‘zbekiston tarixi, I-kitob”,; ‘Donishmand Ziyo’, Toshkent-2021, 23-bet.

prototurk qabilalari bilan munosabatlarga kirisha boshlaganliklarini ta'kidlaydilar. Deyarli bir yarim ming yillik tarixiy davr ichida sug'dlar va turklar bir mintaqada yashab o'zaro hamkorlik qilganlar. Qiyosiy tipologik tahlil sug'd va turklarning jamiyatlari deyarli tengdosh ekanligini ko'rsatmoqda. Bu holat etnik munosabatlar uchun muhim hisoblangan. Haqli ravishda VI – VIII Markaziy Osiyo “turk-sug'd” davri nomini oldi. Mintaqada yagona tarixiy madaniy makon vujudga kelishiga asos soldi. Aynan shu davr turk-sug'd simbiozi davri sifatida baholanadi. Bu jarayon Markaziy Osiyoning deyarli barcha tarixi geografik o'lkalarida kechgan. Jumladan, bizning mintaqa uchun akademik K.Shoniyozov ta'kidlaganidek; miloddan avvalgi II-I asrlarda vohalardan dehqon, hunarmand va savdogar aholi bilan shu hududga kirib kelgan chorvador etnik qatlam madaniyati aralashib, o'ziga xos sinkretik – madaniyat hosil qilgan. Bepoyon Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari tarixida ilk o'rta asrlar nafaqat etnik yuksalish, balki davlatchilik an'analarini rivojlanish tiklash va qudratga yetkazish davri ham hisoblanadi. Turk xoqonligining qaror topishi esa barcha sohalarda rivojlanish va taraqqiyot uchun omil bo'ldi. Xoqonlik qaror topgunga qadar ham sug'dlarning ular hayotiga kirib kelishi kuzatilgani ma'lum ma'noda xoqonlikning ma'muriy-boshqaruviga zamin yaratgan. O'troq sug'dlarning har tomonlama maslahatlari va ko'maklari turklarning davlatchiligini shakllanishiga ta'sir o'tkazgan deya olamiz. Sug'd savdo koloniyalari – shahar-davlatlar tizimi ko'plab ko'chmanchilarning o'troqlashuviga, yarim o'troq va ko'chmanchilarning esa shaharsozligi rivojiga asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu manbalar VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar O'rxon-Yenisey yozuvlari, Xitoyning 'Tan xonadoni tarixi' kabilardir. Undan tashqari o'rta asrlar mualliflari at-Tabariy, Beruniy, Nashraxiy kabi allomalarimiz asarlarida ham Turk xoqonligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Ta'kidlash joizki turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542 yilga to'g'ri keladi. Turli manbalarda turklar 'turk el', 'turk', 'turkash', 'tukdus', 'tu-kyu', 'tuk-yut' kabi nomlar bilan tilga olinadi. Kuchli, baquvvat, botir kabi ma'nolarni anglatuvchi 'turk' atamasi dastlab etnik xususiyatga ega bo'lmay ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan. Turk xoqonligida Xoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor “Yabg'u” (Bahodir) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg'u

taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo‘lgan uluslarga bo‘linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko‘ra taxt aksariyat hollarda otadan o‘g‘ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo‘ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalar to taxtga o‘tirgunlariga qadar o‘zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O‘rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, xoqonning nazoratchisi –’tudun’ deb atalgan . Turk xoqonligi konfederativ davlat bo‘lgan. Turkiylar o‘z yurti va davlatini “el” deb atashgan. Birinchi turk xoqoni Buminxon elxon unvoniga ega bo‘lganligi bejiz emas. Xoqonlik tarkibidagi ko‘plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma’lum miqdordagi soliqlar va o‘lponlarni o‘z vaqtida yig‘ib olish maqsadida xoqonlikda maxsus ma’muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yaqin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a’zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarning ma’lumot berishicha, u to‘rtga bo‘lingan. Ya’ni qarindoshlar, xoqonga ittifoqdosh bo‘lgan qabila va xalqlar; xoqonning o‘ng tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va ma’muriy xodimlar; xoqonning chap tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo‘lgan. Xoqonning qarindoshlariga ya’ni o‘g‘illari, amakisi, jiyanalari va aka-ukalariga ’tegin’ unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma’lumot berilishicha, xoqonlikda beshta oliy mansab — yexu (yabg‘u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) qabilar mavjud bo‘lib, ularning barchasi me’ros qilib qoldirilgan¹. Turk xoqonligi davlatining asosini yer bilan birga xalq tashkil etar edi. O‘z davrida O‘rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an’anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo‘jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko‘chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug‘, qabilachilik an’analari nihoyatda kuchli bo‘lib, qabila va urug‘ jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo‘lgan. Ko‘chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar “budun” yoki “qora budun” deb atashgan. Xoqonlikda keng miqyosda dehqonchilik ham qilinardi. Xitoy manbalari, “garchi turklar doimiy

¹ Bahodir Eshov. “O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarix”. Toshkent 2014, 154-bet

yashash joylariga ega bo‘lmasa ham, lekin ularning har birining ajratib berilgan yeri bor”ligi haqida ma’lumot beradi. Aynan mana shunday ajratib berilgan yerlarda dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor yerlar markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va boshqalar) bilan mashg‘ul bo‘lib o‘zlari zabt etgan hududlardagi tizimiga ma’lum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham Farg‘ona, Sug‘d, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan. Misol uchun, Sug‘d va Farg‘onada oliy hukmdor — ‘ixshid’ Toxaristonda — ‘malikshoh’, Xorazmdan- ‘xorazmshoh’, Keshdan — ‘ixrid’, Buxoroda — ‘xudot’, Ustrushonada — ‘afshin’, Choch va Eloqda — ‘budun’ deb atalgan. Ilk o‘rta asrlarda mintaqada sug‘orish inshootlari takomillashib, yangi-yangi yerlar o‘zlashtiriladi. O‘zlashtirilgan yerlarda, yirik sug‘orish inshootlari boshida, markaziy shaharlarning atroflarida, dehqonchilik vohalarining chegaralarida qo‘rg‘onlar, qasrlar va istehkomlar qad ko‘taradi. Istehkomlarning to‘rt burchagi baland mustahkamlanib, devor-u mo‘rilar bir necha qator kamondan o‘q uzish uchun shinaklar va istehkomlar bilan ta’minlangan. Qalin mudofaali zodagonlar qo‘rg‘onlari ilk o‘rta asrlarning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot taqozosi bilan bunyod etilgan bo‘lib, asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, harbiy garnizon to‘planadigan joy, ma’muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol- yarog‘ saqlanadigan ombor vazifasini o‘tagan¹. Bularning barchasi buyuk bir tarixga ega bo‘lib, hozirda ham bu davirga oid ilmiy-amaliy o‘rganishlar olib borilayotgani va nafaqat bu jarayonlar Markaziy Osiyo haqida hattoki Jahon tarixiga ham bog‘liqligi va bu jarayonlarni jahon olimlarini ham yurtimizda tadqiqot ishlarini olib borishga katta qiziqish uyg‘otmoqdadir.

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi konsepsiyasi asosida o‘zbek davlatchilik jarayonlarini bo‘lish va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish keyingi yillarda chop etilayotgan ilmiy asarlar, tadqiqotlar, davlatchilik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalardagi mavzular ham juda dolzarbligini qayd etib o‘tishimiz lozimdir. O‘zi

¹ Shaydullayev Sh. “O‘zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqtriya misolida)”. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Samarqand: 2009.

davlatchilik tarixini o'rganayotganimizda, biror bir davr yoki shu davr va davlatchilik masalalarida mavjud holatlarga xususiyatlardan kelib chiqqan holda voqelikni anglash va uni tahlil qila bilish, ko'rilayotgan voqealarni yoki jarayonlar haqida to'g'ri xulosalar chiqarishga katta yordam beradi. Aynan yurtimizda mavjud bo'lgan o'rta asrlar davlatchilik tariximiz ham juda boydir. Bu davr tarixi haqidagi ma'lumotlar ko'plab tarixchilar tomonidan qayd etib o'tilgan. Ushbu maqolamizda yurtimiz hududidagi ilk o'rta asrlarda ilk davlatlar va ularning tashkil topish, boshqaruv jarayonlarini yoritib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustambek Shamsutdinov, Husanboy Mo'minov "O'zbekiston Tarixi", Toshkent-2021yil 31-bet
2. A.S.Sagdullayev. O'zbekiston tarix, I-kitob,: Donishmand Ziyoy, Toshkent-2021, 23-bet.
3. Bahodir Eshov. "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarix", Toshkent 2014,154-bet
4. Shaydullayev Sh. "O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqtriya misolida)". Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Samarqand: 2009.

AMIR TEMURNING ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI SIFATIDA OLIB BORGAN SIYOSATI

Feruza USERBAYEVA

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Umumiy tarix metodikasi kafedrasida "Jahon tarixi" fani
o'qituvchisi F. Kamoliddinov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, XIV-XVI asr renessansi hamda Amir Temurning ilm-fan homiysi sifatida amalga oshirgan siyosatlariga to'xtalib o'tiladi. Amir Temur davrida Ilm-fan arboblari yaratilgan sharoitlar, madaniyat sohasida amalga oshirilgan ishlari xususida so'z boradi. Bugungi zamon yoshlarining tarbiyalashda "Amir Temur o'g'itlari" ning ahamiyati haqidagi bugungi zamon liderlarining fikrlariga hamda ko'plab allomalarning ham mulohazalariga to'xtalib o'tiladi.

Kalit soʻzlar: Lashkar, davlat, reja, adolat, hukmdor, ilm, madaniyat, tarix, renessans.

Jahon tarixi zaminida koʻhna Sharq tarixi alohida oʻrin egallaydi. Maʼlumki, har bir davr oʻzining tarixiy shaxslarini yaratgan va mazkur shaxslar tarix silsilasining vujudga keltirganlar. Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlari tarixini oʻrganishda Temur va temuriylar davrini mufassal oʻrganmay turib bu mintaqaning tarixiga baho berish mumkin emas. Zero, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Temur va temuriylar davri mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonida ulkan ijobiy burilishlar davri boʻlgan¹. Aynan mana shu davrda koʻplab sohalarda tub burilishlar koʻzga yaqqol tashlanadi. Har bir sohada yangiliklar amalga oshiriladi.

XIV asr renessans davri Osiyo va Islom tarixida XIV-XVI asrlarni qamrab olgan davr hisoblanadi. Shu davr oraligʻida Temuriylar sulolasi boshqargan, koʻplab sohalarni rivojlanishi uchun turtki boʻlgan davr boʻlgan. Renaissance-soʻzi fransuzcha “qayta tugʻilish” degan maʼnoni anglatadi. Temuriylar uygʻonish davrida XV asrlarda moʻgʻul bosqinlaridan soʻng oʻz choʻqqisiga erishdi. Oʻzbek xalqining uzoq asrlik tarixi davomida XIV asrning ikkinchi yarmida ulugʻ fohit Amir Temur nomi bogʻliq davr oʻziga xos oʻrin egallaydi². Amir Temur hukmdor boʻlgan davrdan boshlab bosh-boshdoqlikka chek qoʻyadi. Mamlakatni birlashtirish borasida ilk urinishlarni amalga oshiradi. Amir Temur bobomiz Islom dinining himoyachisi va targʻibotchisi sifatida yaratganini tan oladi. Shu yoʻlda u markazlashgan davlat asoschisi boʻlib maydonga chiqdi. Bu borada taqdir mohir sarkarda, yengilmas lashkarboshi sharafini nasib etdi. Insoniyat oldidagi xizmatlaridan biri ilm-fan va sanʼat homiysi ekanligidadir³. Amir Temur siymosi haqida soʻz borar ekan uning haqiqatdan har bir ishda mohir, oʻz ishining ustasi, mohir lashkarboshi, davlat arbobi, xalq kelajagi uchun jonkuyar hukmdor, adolatning yaqqol timsoli ekanligi haqida qancha gapirsak shuncha ozdir. Uning amalga oshirgan koʻplab ishlari aynan uygʻonish davrining ilk bosqichini boshlab berdi desak hech ham mubolagʻa boʻlmaydi. Aynan Amir Temur davrida

¹ Тургун Файзиев “Темурийлар шажараси”, Ёзувчи нашриёти -Хазина,Тошкент-1995, 7-бет

² Aziz Qayumov “Amir Temur qissalari” ,’Yozuvchi nashriyoti’, Toshkent-1996,3-bet

³ Xakim Sattoriy “Amir Temur sevgan yurt”, ’Oʻzbekiston’, Toshkent-1996, 3-bet

bilamizki hokimiyat o'zining gullagan cho'qqisiga erishdi. Buning sababi esa Amir Temurning shohlik shohsupasida munosib o'tirganligidan dalolat beradi. Amir Temur davrida xalq hayoti har bir soha bo'yicha o'sdi. Amir Temur ilm-fan sohasiga ham e'tibor qaratdi. Amir Temurning ilm-fan xomiysi sifatidagi xizmatlari tahsinga sazovordir. Qaysi mamlakatki xotirjamlik, tinchlik, dorilomonlik bo'lsa, gul ekish, ekin tikish, niholni parvarish etish, uy qurish, ilm o'rganish, kitob yozish, ashula aytish, bog'lar barpo etish imkoni tug'iladi, bir so'z bilan aytganda, insonlar qalbida ma'naviyat chechaklari yaproq yozadi. Va tabiiyki, mamlakatda ilm va fanni rivojlanishi uchun ana shunday xotirjamlik va moddiy ta'minlanganlik bo'lishsa kerak. Amir Temur Turon saltanatida ilm-fanning rivojlanishi, unib-o'sishi, kamol topishiga qulay sharoitlar, ulkan imkoniyatlar yaratib berdi¹. Ilm-fanning gullab yashnagan davri bo'lgan desak hech ham xato bo'lmaydi. Amir Temurning faoliyatini ko'plab adiblar ta'riflashganidek, Amir Temur ilmning qadriga yetadigan va rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradigan, ko'plab sohadagi olimlar bilan muzokara qila oladigan hukmdor edi. Ilm-fan sohasiga qiziqish aynan uning oilasidan boshlangan. Hattoki Amir Temurning farzandlari (qizlari, o'g'illariga) ko'plab sohadagi fanlardan tahsil berilar edi. Amir Temur Turon saltanatining ilm-fanning rivojlanishi uchun sharoit yaratib bergan edi. Ilm-fanning o'sishi uchun ko'plab imkoniyatlar ham mavjud edi. Amir Temur nafaqat ilm fan sohasiga balki bunyodkorlik sohasiga ham juda katta e'tibor bergan. "Amr etdimki, -degan xitob bilan o'z tuzuklaridan birida shunday so'zlar keltiradi, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloq masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona solsunlar, kasallar uchun shifohona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansunlar. Har bir shaharda dorul-amorat (hukumdor saroyi) va dorul adolat (adolat saroyi) qursunlar..."deb yozadi. Bundan ko'rinib turinibdiki Amir Temur o'z davrining bunyodkor hukumdorlaridan biri bo'lganini. Yana Amir Temurning bir xislati tahsinga sazovorki Amir Temur nafaqat o'z yurtida, balki o'zi bosib olgan hududlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. O'z hokimiyatining markazi qilib Samarqandni belgiladi va

¹ Muhammad Ali "Amir Temur salnomasi", 'Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti', Toshkent-2008, 12-bet

dunyoning eng obod shahriga aylantirdi. Sohibqiron o‘z saltanatida tinchlik osoyishtalikni va barqarorlikni ta’minlashga eng asosiy vazifa deb qaragan va bu borada barcha choralarni ishga solgan. Buning natijasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilgan. Bu ul zotning adolatli, xalqparvar siyosati natijasidir¹. Sharafiddin Ali Yazdiy sohibqironni shunday ta’riflaydi:

“Sohibqironning himmati ul erdikim, yo‘llar aning ayyomi davlatida emin bo‘lg‘ay va hudo bandalari har sorikim borsalar, alarg‘a tashvish va taraddud bo‘lmag‘ay, farog‘ay bila borib kelg‘aylar, Munga ko‘p sa‘y qilur erdi” deb yozadi o‘sha davr tarixchilaridan biri. Tarixchi Amir Temurning irodasi mustahkam, qattiqo‘l va adolatli davlat raxbari ekanligini, davlatni qonunlarga asoslangan holda boshqargani hamda o‘zi shohid bo‘lgan voqealar haqida ma’lumotlar berib o‘tgan.

Amir Temur davri davlatchiligi haqida yozilgan asarlardan biri “Temur tuzuklari”²dir. Ushbu asar Amir Temur harbiy va siyosiy faoliyati haqida ma’lumot beruvchi tarixiy asrlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda davlatchiligimiz tarixini o‘rganishda va tadqiq etish muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ushbu kitobni takror o‘qish va kitobning haqiqiy mag‘zini chaqa bilishlik birinchi galda rahbarning, qolaversa ziyoli insonlar uchun kerakli va foydalidir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov bu kitob xususida shunday fikr bildirdilar. “Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo‘yib, tushunib, chuqur anglab o‘qisa, ularning qalbida milliy g‘urur tuyg‘usi yuksaladi, o‘zining qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo‘lib voyaga yetadi” degan. Albatta yoshlarimiz orasida ushbu kitobni keng yoyilishiga zamin yaratishimiz darkordir. Bu kitobda keltirilgan o‘gitlar juda noyobdir! Masalan;

“Yaxshilarga-yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko‘rsating” degan o‘gitlari shular jumlasidandir. Ushbu so‘zlardan shuni anglashimiz mumkinki Amir Temurning haqiqiy adolat egasi

¹ Л.Керен, А.Саидов “Амир Темур ва Франция“, ’Адолат’, Тошкент-1996, 17-бет

² Shoxistaxon O‘ljayeva “Amir Temur davlat boshqaruvu”, ’Akademnashr’, Toshkent-2017, 16-bet

ekanligini. Hattoki “yomonlarning esa o‘z yomonliklariga topshirdim” ya’ni yomonlarning ishlarini shunchaki o‘z yomon ishlariga topshirganliklarini. Shu jumladan yaxshilarning hurmat qilganligini ularga izzat-ikrom ko‘rsatgani bu ham odil shoxning ishidir. Amir Temur sayid-u sharflarning hurmat qilar, ulamo-yu fozillarga yuksak izzat ko‘rsatar, qadriga yetar, qo‘lidan bir ish keladigan jamiki ustahunarmandlardan, kasb egalaridan mehrini darig‘ tutmasdi. Tarixchilarning guvohlik berishicha, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari uning safdoshlari bo‘lishgan, tarix haqidagi kitoblarni o‘qishni va u haqdagi hikoyalarni tinglashni nihoyatda xush ko‘rgan. Saltanat yumushlaridan xalos bo‘lgach, har oqshom ulamo va fozillarni huzuriga chorlab, fan va dinning nozik jihatlaridan suhbatlar qurar, bahslar uyushtirar, teran savollar berib o‘ylantirib qo‘yardi. Chuqur bilmi-yu zukkoligi, turfa davlatlar va ularning podshohlari tarixini yaxshi bilish bilan Ibn Xaldunday ulkan olimni hayratga solganini aytadilar¹. Amir Temur siyomosiga qancha ta’rif bersak kamdir. Uning tarix zarvaraqlarida tutgan o‘rni juda kattadir. Har bir sohada olib borgan siyosati adolatli va aql idrok bilan olib borilgandir.

Amir Temur bobomiz dunyo jamiyatida o‘z dong‘ini taratgan hukmdorlardan bo‘lgan. Sharqning o‘zida bobomiz nomiga bag‘ishlab olti yuzdan, butun dunyoda esa mingdan ortiq kitob yozilgan bo‘lib, dunyoda hali ayrim arbob yoki sarkardalar haqida buncha kitob yozilmagan. Bundan ko‘rinib turibdi-ki bobomiz shaxsiga qiziqish benihoya katta ekanligini dunyo hamjamiyatida. Bobomiz o‘z davrining mohir sarkardasi bo‘lish bilan bir qatorda ilm-fan arbobi bo‘lgan desak maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolamizda bobomizning ilm-fan sohasida amalga oshirgan ishlari xususida so‘z yuritdik. Ilm-fan sohasiga berilgan e’tibor va rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar haqida atroflicha fikr yuritishga harakat qildik. Sohibqiron shaxsi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov shunday ta’rif beradilar

Sohibqiron Amir Temurning shaxsi uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir.

¹ Muhammad Ali “Amir Temur salnomasi”, ‘Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti’, Toshkent-2008, 43-bet

Kimki o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!

Albatta bugungi yoshlarimizning tarbiyalashda Amir Temur bobomizdek shonli tariximizda o‘zining o‘chmas izini qoldirgan bobomiz meroslari bilan tarbiyalashimiz lozimdir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тургун Файзиев “Темурийлар шажараси”, Ёзувчи нашриёти-Хазина, Тошкент-1995, 7-бет
2. Aziz Qayumov “Amir Temur qissalari”, ‘Yozuvchi nashriyoti’, Toshkent-1996,3-bet
3. Hakim Sattoriy “Amir Temur sevgan yurt”, ‘O‘zbekiston’, Toshkent-1996, 3-bet
4. Muhammad Ali “Amir Temur solnomasi”, ‘Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti’, Toshkent-2008, 12-bet
5. Л.Керен, А.Саидов “Амир Темур ва Франция“, ‘Адолат’, Тошкент-1996, 17-бет
6. Shoxistaxon O‘ljayeva “Amir Temur davlat boshqaruvi”, ‘Akademnashr’, Toshkent-2017, 16-bet
7. Muhammad Ali “Amir Temur solnomasi”, ‘Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti’, Toshkent-2008, 43-bet.

“MAMLAKATLAR TANAZZULI SABABLARI” ASARI VA UNDA IJTIMOY FALSAFIY KATEGORIYALARNING AKS ETISHI

Ahrorjon OQILOV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasida
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD L. To‘rayev

Annotatsiya: Ushbu maqola Daron Ajemo‘g‘li va Jeyms Robinsonning hammualliflikdagi asari “Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarining ijtimoiy falsafa kategoriyalari orqali tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, iqtisodiyot, davlat, huquq, naturalistik yondashuv, idealistik yondashuv, materialistik yondashuv, inklyuziv institutlar, ekstraktiv

institutlar, dialektik tizim, sinergetik tizim, ijtimoiy soha, iqtisodiy soha, ma'naviy soha, siyosiy soha

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asari Yevropa va Amerika qo'shma shtatlarida ommalashgan bestseller asar hisoblanadi. Bu asar odatdagi ijtimoiy va siyosiy asarlardan farqli o'laroq yakka muallif tomonidan yozilmagan. “Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asari hammualliflikda yozilgan bo'lib uning mualliflari Massachusetts texnologiya instituti professori siyosiy iqtisod tadqiqotchisi Daron Ajemo'g'li va iqtisodchi va siyosatshunos Chikago universitetining Xarris nomidagi jamoat siyosati maktabi professori Jeyms Robinsonlar hisoblanadi. Bu asarda ideologik jihatdan turli xil joriy nazariyalardan keng tarqalgan geografik determenizm, madaniy ta'sir, bilimsizlik teoriylarini ham tahliliy ham tanqidiy ruh bilan tadqiq etiladi. Davriy nuqtayi nazardan esa Qadimgi Rimdan tortib to rivojlangan va iqtisodiy dastaklardan ustalik bilan foydalanayotgan Xitoygacha bo'lgan davrni qamrab oladi. “Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarining hududiy qamrovi umumiy jihatdan barcha global makonlarni qamrab olsa-da xususiy jihatdan Shimoliy va Janubiy Amerika qit'alari, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Malayziya kabi orollar, Yaqin va Uzoq Sharq kabi shartli hududlarni o'z ichiga oladi.

Asarda turli sivilizatsiyalar, madaniyatlari o'xshash va qarama-qarshi bo'lgan xalqlar, falsafiy tafakkurlarni shakllantirgan omillar jamiyatning qudratli va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydigan institutlarning tahlili ilmiy asosda yoritilishi uchun dalillar taqdim etiladi.

Asarda yetakchi nazariyotchilar Maks Veber, Adam Smit, Jeffri Saks, Jared Daymondning fikrlariga nisbatan ba'zan ijobiy, ba'zan qarama-qarshi fikrlarni uchratish mumkin. Shu bilan bir qatorda asarda yangi nazariyani taqdim qilish uchun faktlar keltirilib, uning asosli ekani mantiqiy tabulardan holi nuqtayi nazarni talab qiladi.

Aksar ijtimoiy va siyosiy asarlar o'z diqqat e'tiborini davlat va hukumat vakillari jamiyat o'zanini o'zgartiruvchi muruvvat sifatida ko'radi. Davlat va hokimiyat qo'lida bo'lgan kishilar uni o'z holicha xoh u tiraniyaga aylangan bo'lsin, xoh manipulyativ diktaturaning “yumshoq kuch” siyosatidan boshlangan bo'lsin jamiyat davlat istagandek boshqariladi degan g'oyaga murojaat qiladi.

Daron Ajemo'g'li va Jeyms Robinsonlar esa o'z asarining asosiy obyektini odatdagidek yagona emas, balki ikki qutbli deb hisoblaydi. Bular ijtimoiy institutlar va jamiyat bo'lib mamlakatning ravnaq topishi va tarix sahnasidan siqib chiqarilishining asosiy omili shu ikki qutbda ekanligiga urg'u beradi. Ajemo'g'li va Robinson bu ikki qutbni bir vaqtda teng imkoniyatli va teng kuchli subyekt deb emas, balki jamiyatni qo'zg'atuvchi elementlar ijtimoiy institutlar qo'lida ekanligini ta'kidlagani holda uning yaqqol dominant ekanligiga urg'u beradi. Ijtimoiy institutlarni ilmiy erkinligini ta'minlamagan har qanday jamiyat o'z bag'rida kakistokratiyani tarbiyalayotgani aniq deb hisoblaydi.

Asarda obyektiv jihatdan ijtimoiy institutlar shartli va farqli ravishda ikki bir-biriga zid ko'rinishlari talqin qilingan. Ular:

1. Inklyuziv institutlar;
2. Ekstraktiv institutlar.

Jamiyatlarning bo'linishi esa asosan dixatomik yondashuv yoki boshqacha aytganda dual qarashni o'zida ifoda etgan holda Karl Popper nazariyasiga xayrixohlik ruhi mavjudligi sezilib turadi.

Jamiyatlar o'z maqsadlari tanlashi va ularni amalga oshirishda albatta nazariyalar dogmaga aylanib qolmagan va elastik xususiyatga ega bo'lishi zarurligi masalasi ko'tariladi.

Asar mualliflari asarda jamiyat rivojlanishi va uning taraqqiyotining tarixiy-davriy nazariyalariga turlicha talqin va yondashuvlarni taqdim etiladi.

Xususan, asarda birinchi unsurlardan biri sifatida din jamiyat rivojiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'riladi. Undagi nazariyaga ko'ra ba'zi bir jamiyatlarning taraqqiyotiga asosiy sabab ularning e'tiqodida uchraydigan institutsional jihatlar ekanligini ta'kidlaydi. Biroq ayrim o'rinlarda diniy unsurlar jamiyat rivojiga to'siq bo'lishi mumkinligini ham eslatib o'tadi. Bu fikrga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, asarda keltirilgan diniy sabab tufayli vujudga kelgan to'siqlarning negizida talqin va germenevtika turishini ham anglash zarur. Ba'zi o'rinlarda din va unda nazarda tutilgan ma'nolardan chetlashilgani yoki unda qayd etilgan ruxsatlar va cheklovlar qo'pol tarzda buzib, ayrim hollarda siyosiy tizim manfaatiga

moslashtirilgani bu dinning emas, unga e'tiqod qiluvchilar va undan o'z manfaati yo'lida foydalangan shaxslarning kamchiligidir.

Idealistik talqinga esa asar mazmuni oppozitsiyada turadi. U hukmdor qatlam va uni ideallashtiruvchilardan bo'lmish Aflotun va Arastu kabi shaxslarning nazariy talqinlarini hurmatga loyiq deb ko'rsada, biroq ular tomonidan ilgari surilgan takliflar va siyosiy teoriyalarni ma'qullamaydi. Boshqa tarafdin esa asarda davlat va jamiyat alohida tushuncha ekanligi ta'sir va tavsif uchun ularni albatta ayri holda talqin qilinishi kerakligini bayon qiladi. Davlat jamiyat hayoti va uning tamaddunlar hosil qilishdagi o'rnini muntazam va doimiy qonunlarning ijrosi va hadlar to'qnashuvini chegaralashda deb biladi. Jamiyat esa davlatning siyosiy kuchi ortishi bilan uning tanazzuli muqarrarligini ko'rsatadi. Bunga misol tariqasida Qadimgi Rim Imperiyasida 510-yildagi demokratiyaning qaror topishini u birmuncha ekstraktiv bo'lsada, xalq ixtiyori ifodalangani uchun kuchli davlatga aylangani qachonki hukumat Avgust tomonidan egallanib unda diktatura hukmronligi va yakka shaxs monarxiyasining qaror topishi bilan Rimning tugashi boshlangan edi deb hisoblaydi. Rim Imperiyasi ma'lum bir vaqt kuch-qudratga erishgan bo'lsada, lekin tanazzuli o'zini uzoq kuttirmadi. Imperiya o'z nomi bilan zulmga qurilgan tizim edi va boshqa bir kuch tomonidan yakson qilindi. Bu va boshqa mustabid tuzumlarining nihoyasi shunday ko'rinishda bo'lishini dalillaydi. Shu bilan birgalikda "Mamlakatlar tanazzuli sabablari" asarida "ijtimoiy shartnoma"ga ega bo'lgan jamiyatlar katta kuch ekanligi ta'kidlansa, boshqa jihatdan "ijtimoiy shartnoma"ga hadya sifatida emas, erishiladigan maqsad sifatida qarash lozimligi uqtiriladi.

Materialistik talqin esa asarda muqobil va maqbul yo'llardan biri hisoblanadi. Uning asoschilari bo'lmish Karl Marks va Fridrix Engelslar asarda ijobiy tomondan talqin qilingan. Jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun albatta iqtisodiy institutlar tizimli ishlashi kerakligini qayd etgandi. Asarda Angliya hukumatida "Sharafli inqilob"ga qadar ixtirolar va kashfiyotlarga cheklov qo'yilganligi oqibatida iqtisodiy to'siqlar o'rnatilgani oqibatida moddiy qiyinchiliklarga duch kelangani misol qilib ko'rsatilgan. Bu qo'shimcha ludditlar qirolligi Amerikaning sobiq davlatlari va

boshqa ko‘plab misollarni keltirgan. Iqtisod rivojlanishi uchun albatta iqtisodiy rag‘bat kerakligini shart qiladi.

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarida nafaqat iqtisodiy va siyosiy masalalar, balki ijtimoiy muhit va uni baholash hamda unga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tadi. Asar mazmuniga ko‘ra ijtimoiy bilish avvalo jamiyatlarning sinergetik xususiyatlaridan kelib chiqib yondashilishi kerak deb hisoblansa-da, biroq umumiy fokus jamiyatning rivojida institutlar xususan iqtisodiy institutlarga qarab taraqqiyotga erishgan yoki tanazzulga yuz tutgan jamiyatlarga bo‘linadi. Aynan iqtisodiy ko‘rsatgichlarning daxlsizligi jamiyatning kelajagini futurologik talqin qilish uchun eng qulay vosita sifatida ko‘riladi.

Qadriyatlar masalasi esa jamiyatga nisbatan kam ta’sirga ega komponent hisoblanadi. Bunga misol sifatida 38-parallel bilan ajratilgan ikki davlat Janubiy va Shimoliy Koreya keltiriladi. Chiziqning janubi taraqqiy etgan, turmush darajasi yuqori bo‘lgani holda tili, urf-odatlar va madaniyati bir bo‘lgan chegaraning shimolidagi qo‘shnisi og‘ir va ayanchli sharoitda yashashga majbur bo‘layotganini isbot sifatida beriladi. Bu juda o‘rinli o‘xshatish deyish mumkin! Bundan tashqari Nogales shahri orqali Meksika va AQSh chegarasi bilangina bo‘lingan bir shaharning yaqqol tafovutlari keltirilsa, Usmonlilardan ajralib chiqqan Misr yangicha dunyoqarashni qabul qilganini argumentlar tariqasida mutaxassislariga solishtirma-qiyosiy uslubdan foydalangan holda taqdim qiladi. Shuningdek jamiyatni baholash bevosita unda yashovchi shaxslar va uning ekspluatatorlarining dunyoqarashini ham mezon qilib olishni taqozo etadi. Asar bunda har qanday taraqqiyotga erishgan jamiyatni umumiy etalon deb hisoblamaydi yoki aksincha tanazzulga uchragan jamiyatlarni bir qilib chiqindi sifatida ko‘rishdan yiroq, balki bu xususiyatlarning o‘ziga xos va ayrim o‘rinlarda takrorlanmas sabablari borligini tahlil qiladi. Agar shunday tahlil qilinmaganda asar konsperologiyadan uncha ham farq qilmagan bo‘lardi. Jamiyatlar tamaddunini kafolatlaydigan nazariya sifatida Charlz Pirsning pragmatizmni yaxshi jihat sifatida taklif etilayotganini sezish mumkin. Bu o‘z-o‘zidan jamiyatda axloqning chetlashishi va disasotsatsiyalashuvi yuz beradi. Har bir xatti-harakat manfaatlar ustiga

quriladi va bunga qo‘shimcha ravishda ishonchdan ko‘ra tiyib turish mexanizmlarining ustunligiga e‘tibor qaratiladi.

Ijtimoiy masalasi asarda bevosita moliyaviy ehtiyojlar va moddiy rag‘batning asosini tashkil qiluvchi element sifatida ko‘riladi. Ya’ni Nogales o‘lkasi, 38-parallel, Kuba qirolligidagi ikki standartlik unda yuz bergan iqtisodiy cheklovlarning ko‘pligi, moddiy yuksalish aholining turmushini o‘zgartirmagani holda ekspluatatorlarning manfaatlariga ishlashi va xalq mehnatining qiymatsizligi bilan malakalansa, bunga ziddiyat o‘laroq xuddi qo‘shnilarda aholining mehnati va inson resursiga yuqori baho berilishi, aholining iqtisodiy cheklovlar qurshovidan holi ekanligi va ishlab chiqaruvchi xo‘jalik mulkiy barqarorlik va kelajakka nisbatan ham moddiy, ham ma’naviy sharoitlarni yaratish imkonining mavjudligi natijasida o‘ta yuqori nuqtalarni zabt etayotganligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi misollar orqali esa mualliflar jamiyat taraqqiyotining asosini ta’minlovchi moddiy rag‘batlar keyinchalik davlat ravnaqining ham elementi ekanligini bildiradi. Bunda o‘zaro zanjir sifatida siyosat va siyosiy iroda, shuningdek ma’naviy erkinlikning ham kafolatlari zarurligini talab qiladi.

Jamiyatning asosiy sohalari. Ma’lumki, jamiyatning asosiy sohalari deyilganda quyidagi to‘rt soha tushuniladi. Bular:

1. Iqtisodiy;
2. Ijtimoiy;
3. Siyosiy;
4. Ma’naviy.

Asarda bu sohalar va unga doir xususiyatlar bayoni va unga yondashuvlar turli tomonlardan turlicha qarashlarda ifodalangan. Ya’ni mualliflar masalalarda yaqqol pretsidentni emas balki kontrast yuzaga chiqishi zarurligi qayd etiladi. Asar nuqtasi jamiyatning ba’zisiga iqtisodiy sohani qo‘yishga intilsa-da mohiyatan har bir soha ba’zisiga munosib ekanligi ta’kidlanadi. Bu yaxlit kompleks bo‘lib birini ikkinchisidan ayirish, birini biridan ustun qo‘yish to‘g‘ri emas deb hisoblanadi.

Jamiyat dialektik tizim sifatida. Asar jamiyatning dialektik tizimni tabiiy deb qabul qiladi, lekin dialektika mutlaq yechim sifatida ko‘rilmaydi. Bunga asosiy sabab

sifatida esa jamiyatning dilaketik rivojlanishi o‘z-o‘zidan ichki cheklov tizimlarini joriy qilishi va bu unda yashovchi kishilarning ma’naviy va siyosiy ahamiyati pasayishini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy siyiq muhit esa shaxsni shaxs sifatida emas majburiyatlardan iborat buyum sifatida ko‘rishga olib keladi. Bunday jamiyatlar esa hech qachon na’mana vazifasini bajarolmaydi. Jamiyatlar va uning rivojlanishi kimdir yuqori kimdir esa quyiroqda turishi tanqid ostiga olinadi. Inson hamisha boshqalar bilan hisoblashib yashashi esa yashamaslikni bildiradi.

Jamiyat sinergetik tizim sifatida ko‘rish. Jamiyatni sinergetik tizim sifatida ko‘rish asar mohiyatiga yetishmaydigan xususiyat hisoblanadi. Sababi asar mualliflari jamiyatlarni solishtirar ekan ularda taraqqiy etgan jamiyatlardek yashashga aslida istagi bor yoki yo‘qligini inobatga olmaydi. Xususan, bu haqida Abulfayz Elchibey shunday degan edi: “Qulsifatlar ozod qilinsa, yo qullik davrini qo‘msaydi yoki bozordan o‘ziga quldor sotib oladi¹”.

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asari mualliflari bu jihatdan jamiyatlar va uning xohish-istaklari muvofiqligini va jamiyatdagi qadriyatlar taklif etilayotgan iqtisodiy nuqtayi nazarga nisbatan kompromisga kela olishi yoki uni o‘z-o‘zidan siqib chiqarishi to‘g‘risidagi nazariyalarda bu masalani shaxslar manfaati va irodasi nuqtayi nazaridan emas, balki jamiyat va uning a‘zolari rakursidan turib yondashishlari o‘rinli bo‘lardi. Har qanday gipotezada xato bo‘lishi mumkinligi va uning nuqsonlari birdaniga emas, balki turli aspektlardan kelib chiqib ko‘rinishi albatta hisobga olinishi darkor. “Yevropasentrizm”, “Osiyosentrizm” yoki “Orientalistik” nuqtayi nazardan yondashish albatta biryoqlamalikning belgisi sifatida qaraladi. Bu o‘z-o‘zidan “Rim — boqiy shahar” degan qarashning prototipi sifatida ko‘rish mumkin.

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarida ijtimoiy soha

Asar mualliflari ijtimoiy sohani davlatlarning taraqqiyoti va tanazzulining muhim omillaridan biri sifatida ko‘radi. Jamiyatni boshqaradigan oz sonli kishilar jamiyatni o‘zida aks ettiruvchi qatlam sifatida ko‘riladi. Xususan, Angliyada “Sharafli inqilob”ning yuz berishi, Fransiyada “Buyuk fransuz inqilobi”ning paydo bo‘lishiga jamiyat va uning ichida ro‘y berganlar to‘lqinlar sabab bo‘ldi. Bu esa totalitar va avtoritar rejimlar uchun

¹ Kuchsizlar kuchi. Vatslav Gavel – Toshkent: “Azon kitoblari”.T.: 2021

norozijamiat juda katta xatarli hisoblanadi. Ijtimoiy soha regulyatorlik funksiyasini qoʻldan berib qoʻymaslik uchun oʻz vakillarini munosib tayinlashi lozim. Bu holatga misol sifatida Delano Ruzvelt oʻz rahbarligida prezidentlik vakolatidan kelib chiqib sudlar va ularning imkoniyatlarini cheklash va sud ishlariga aralashish huquqini qoʻlga kiritmoqchi boʻldi. Bu orqali Delano Ruzvelt oʻzining kelgusidagi faoliyati va harakatlarini oqlash va bunga kafolatni qoʻlga kiritishni istadi. Jamiyat yetishtirgan davlat organlari vakillari bu yondashuv va uning yakuni ogʻirligini anglagan holda Delano Ruzveltga qarshi kurashadi. Bu jamiyat va uning ahamiyati ulkan ekanligiga dalolat qiladi. Bu yerda yana anglashilishi mumkin boʻlgan faktor lider oʻzining “Buyuk depressiya”dan olib chiqqanligini vaj qilishidan unda sokrallashuv paydo boʻlganini ham koʻramiz. Shu bilan birga Ruzvelt oʻz reputatsiyasini va xarizmasi keyinchalik oʻzini tiyib turuvchi dastakni yoʻq qilish uchun foydalanishi bu takrorlanib turadigan holat ekanligini anglatadi. Bunday holatda jamiyat buni tushunishi va oʻz irodasini koʻrsatishi zarur. Jamiyat oʻz-oʻzini tashkil qiluvchi tizim sifatida albatta ichki qarama-qarshilikka duch kelishi va oxir oqibat antogonizm olib borish va unda hamma uchun teng shartnomalar yuzaga kelishini taqozo qiladi.

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarida iqtisodiy soha

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarida davrlar va ularda hukm surgan davlatlardagi iqtisodiy jarayonlar taqqoslash usulida taqdim etiladi. Asarda iqtisodiy sohadagi yoʻnalishlarda Adam Smit versiyasi maqbul variant hisoblanadi. Mamlakatda davlatning iqtisodga ajralishi oʻgir oqibatlariga olib kelishini Yevropada “sanoat inqilobi”ning kechikishiga olib kelganligi uzoq vaqt natura xoʻjaligining saqlab qolishiga sabab boʻlganligi misollar bilan tushuntirilgan. Bunga muqobil variant sifatida Jon Meynard Keyns tomonidan ilgari surilgan gibrid iqtisodiyot metodi ilgari suriladi. Delano Ruzvelt tomonidan foydalanilgan iqtisod oʻz vaqtida davlatni velosipedning ikki yordamchi gʻildirak singari iqtisodiy kollapslardan chiqib ketishi va yoki saqlab qolishi mumkin. Bu holat kakistokratiyalarda emas demokratiyada qisqa muddatli retsessiyadan chiqishi uchun yordam beradi degan xulosaga keladi. Biroq davlat aralashuvini davomli boʻlib qolishidan saqlab qolishi katta ahamiyatga ega. Aks holda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Amerikada kuzatilgan monopoliyalar

hukmronligini paydo qiladi. Bu holatda Teodor Ruzvelt, Vudro Vilsonlar tomonidan amalga oshirilgan siyosiy qadamlarni pretsident sifatida ko‘rish mumkin.

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarida siyosiy va huquqiy soha

Asarda siyosiy-huquqiy sohaning ahamiyati totalitar tuzumlar va demokratiya tizimlari o‘rtasidagi farqda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yangi davr Rossiya Imperiyasi yoki Janubiy Amerika davlatlarida yuz bergan iqtisodiy to‘siqlar ko‘pincha noto‘g‘ri siyosatdan kelib chiqqan.

Siyosiy rejimlar asosan jamiyatlar bilan o‘zaro aloqador bo‘lib, yopiq jamiyatlar yopiq siyosatlarni vujudga keltiradi. Natijada, bu korrupsiyaga to‘yingan totalitar va avtoritar siyosatni paydo qiladi. Ochiq jamiyatlar esa totalitar yoki absolyut monarxiya tuzumlarini oxir-oqibat yengib chiqishini isbotlaydi.

Asarning mohiyati siyosiy institutlar o‘zida elitarizmni ham namoyon qiladi. Egolitarizmni istovchi jamiyatlar esa buning uchun ma‘naviy yuksaklik va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashi zarur.

“Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asarida ma‘naviy soha

Bugungi kunda jamiyatlarda hukm surayotgan eng kuchli siyosat Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan “Yumshoq kuch” strategiyasi ekanligi ta‘kidlanadi. Jamiyatlar va ularning turmush darajasini yuqorilashi uchun unda ma‘naviy soha va ilmiy daraja oshishi talab qilinadi. Jamiyat ishonch vijdon kabi axloqiy kategoriyalarning o‘ziga ishonib qolmasligi zarur. Jamiyat o‘z siyosatchilarini tiyib turishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Daron Ajemo‘g‘li va Jeyms Robinson tomonidan yozilgan “Mamlakatlar tanazzuli sabablari” asari o‘zida ijtimoiy, ma‘naviy, siyosiy, iqtisodiy sohalarning tahlili va bunda kerakli faktlar va argumentlarni o‘z ichiga oladi. Asar o‘zidagi mohiyatdan kelib chiqib futurologik tahlilga imkon beradi. Asar nafaqat siyosat, balki jamiyat va boshqa sohalar uchun ham qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamlakatlar tanazzuli sabablari. Daron Ajemog‘li, Jeyms Robinson. “Asaxiy books”. T.:2023
2. Kuchsizlar kuchi. Vatslav Gavel. “Azon kitoblari”.T.: 2021

MISR QADIMGI PODSHOLIK DAVRIDA

Qunduzxon ISLAMOVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

Tarix yoʻnalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: M. Saʼdullayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti oʻqituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bevosita Qadimgi Misr tarixiga nazar tashlab, aynan Qadimgi podsholikning vujudga kelishi haqida maʼlumotlar berilgan. Qadimgi podsholik davrida hukm surgan sulolalar va firavnlarni toʻgʻrisida, ularning yuritgan siyosatiga toʻxtalib oʻtilgan. Misr davlatining kengayib borishi, qoʻshni davlatlar bilan olib borilgan janglar tafsilotlari bilan tanishish mumkin.

Kalit soʻzlar: Nil vodiysi, Memfis, firavn, ehromlar, Qora tuproq, Egipet, nomlar.

Tarix shunday bir fanki, uni anglab oʻrgangan sayin insoniyat oʻtmishi sirlarga naqadar boyligini anglay boshlaysiz. Oʻzingiz uchun aniqlagan javoblar yanada qiziqarli savollarga olib boradi. Moziy bizdan yana qancha tilsimlarini yashirgan deb oʻylaysiz. Ne bir ajib kashfiyotlar oʻz izlanuvchilarini kutib turibdi. Tarixchilar mudom izlanishda va sirlar kalitini topish ilinjida.

Insoniyat tarixida eng diqqatga sazovor va hali-hanuzgacha oʻzga jalb qilayotgan sivilizatsiyalardan biri Qadimgi Misr davlati hisoblanadi. Qadimgi Misr vujudga kelgan manzil, boshqaruv shakli, oddiy aholining turmush tarzi firavnlarni shaxsiyati eng koʻzga koʻringan jihatlaridir.

Misr Nil vodiysida vujudga kelib gullab yashnagan. Nil dunyodagi eng uzun daryolardan biri boʻlib, aynan shu joyda Qadimgi Misr tamadduniga tamal toshi qoʻyilgan. Nil toshqini paytida oqib kelgan togʻ jinslaridan daryo qizil tusga kirgan. Toshqin tugagach, tuproq va togʻ jinslaridan hosil boʻlgan zarralar suv bosgan joylarda choʻkib, qoramtir quyqumlar qoldiradi. Shuning uchun ham misrliklar Nil vohasini “Qora tuproq”, yunonlar esa “Egipet” deyishgan¹. Yunon tarixchisi Geradot “Misr-Nil sovgʻasi”

¹ A.Kabirov. Qadimgi Sharq tarixi. Tafakkur. 2016-yil. 15-bet.

deb ta'riflaydi.¹ .Avvaliga bir qancha tarqoq nomlardan iborat bo'lgan Qadimgi Misr sekin astalik bilan birlashib yaxlit davlatga davlatga birlashadi. Miloddan avvalgi 3000-yili Menes yagona Misrning firavniga aylanadi.

Qadimgi Misr tarixini o'rganishni qulaylashtirish uchun olimlar uni beshta davrga bo'lib oladilar. Ilk, qadimgi, o'rta, yangi va so'nggi podsholik davrlaridir. Ilk podsholik davri mil. Avv 3000 yildan 2800 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda 1 va 2 sulola vakillari hukmronlik qilishgan. Poytaxt shahar qilib Memfis va birlashgan Misr podsholigining tashkil topishi edi. Ilk podsholik davrida, xususan fir'avn Jyer davrida Misr qo'shinlari janubda Nubiya, shimoli-sharqda Sinay yarimoroliga bir necha marta bostirib kirgan. Ular bu mamlakatlardan ko'plab asir va behisob boyliklar olib qaytganlar². Keyinchalik bu sulolalar tanazzulga yuz tutib o'rnini Qadimgi podshohlik firavnlari ga bo'shatib beradi.

Qadimgi Podsholik Misr tarixida mill. Avv 2800 yildan 2250 yilgacha davom etgan. Unda firavnlarning 3 va 6 sulolalari hukmronlik qilishgan³. 3 sulolaning eng yorqin vakillaridan biri firavn Joser edi. U Memfis shahrining avvalgi mavqeini tikladi. Podshohlarning hokimiyatini kuchaytirdi va shu bilan birga podshohlarning jismi xudolar kabi boshlab yil hisobini sirus yulduzining tongda chiqishiga qarab belgilanadigan taqvim ishlab chiqildi. Uning vorislari davrida podsho tomonidan juda qattiq nazorat qilinadigan davlat apparati shakllanishi tugatildi. Nomlarni boshqaruvchi nomarxlar avloddan avlodga o'tmasdan balki, firavn tomonidan tayinlanishi amalda qo'llana boshlandi. Qudratli bo'lgan 3 sulola vakillar tomonidan mahobatli ehromlar qurish boshlab berildi. Bizga ma'lum bo'lgan ilk ehromlar Mediumga yaqin joylashgan 3 sulola davriga borib taqaladi. Bora-bora bu inshootlarni qurish shunchalik avj oladiki, natijada qurilish asboblari ham takomillashib, yuksak natijalarga erishiladi. 4 sulola vakili Snufruning vorislari davrida ehromlar qurish shu darajada kuchaydiki hatto har bir misrlik taqvodor uchun bunday maqbarani qurishda qatnashish Sharaf hisoblangan. Bu davrning eng o'ziga xos tomoni

¹ R.Rajabov. Jahon Tarixi. Toshkent. 2018-yil. 13-bet.

² A.Kabirov. Qadimgi Sharq Tarixi. Tafakkur. 2016-yil. 42-bet.

³ A.Kabirov. Qadimgi Sharq Tarixi. Tafakkur. 2016-yil. 44-bet.

yagona hozirgi kunda ham qanday qurilgani noaniq qolayotgan Xeops ehromi qad rostladi. Bu ehromning balandligi 147 metr. Uning o'g'li Xafra ehromi 143 metrni tashkil etsa, Menkaura tomonidan bunyod etilgan ehrom 66 metrga teng edi. Ehromlarning xomashyosi bo'lgan toshlar Nil daryosining o'ng sohili bo'ylab cho'zilgan arab qirlaridagi tosh konlaridan qazib olingan hamda silliqlanib, sollarga ortilgan holda suv yo'li bilan olib kelingan. O'rtacha taxminan 25 -30 yil davomida qurib bitkazilgan. Ularning qurilishida yuz minglab oddiy odamlar mehnat qilganlar. Qiziqarli tomonlardan biri ushbu ehromlar qurilishida tosh qurollar bilan birgalikda meteorit temir qurollar ham ishlatilgan. Hozirgi kunda kam bo'lsa ham topilgan bu qurollar nihoyatda kamyob bo'lib, bu qurollarning qandaydir diniy-sehriy kuchi bor deb ishonilgan. Misrliklarga ma'lum bo'lgan eng qadimgi metallar qo'rg'oshin, mis, oltin keyinchalik keyinchalik esa meteorit temir bo'lgan.¹

V sulola davriga kelib ulkan piramidalar qurish to'xtatiladi. Sulolalar endi kichik hajmli piramidalar qura boshlaganlar. Qadimgi podsholik gullab-yashnagan davrda firavnlarni nafaqat oddiy xalq uchun hatto saroy amaldorlari uchun ham qo'l yetmas joyda edi. Hech kimga firavnni ismini aytishga ruxsat berilmas shuning uchun firavn ya'ni "ulug' uy" yoki "ulug' xonadon" deb murojaat qilinar edi. Firavnlarni, shuningdek, bosh koin ham bo'lib, barcha yer va fuqarolarning egasi sanalgan². Firavnni bunalik cheksiz qudrati uning qo'lida bevosita butun davlat yerlari jamlanganligida edi. Misrning keyingi davri mobaynida ham Davlat hokimiyati tuzilmasi o'zgarmay qoldi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi ham o'zgarmadi. Qadimgi Misrning boy, o'ziga xos madaniyati asoslari qadimgi podsholik davrida yaratildi. Qadimgi podsholik davrida Misrda hokimiyatning mutlaq despotiya shakli to'la qaror topdi. Firavnlarning ilohiy kuchlar bilan aloqadorligi, ularning hamisha haq bo'lishi, oddiy aholining qo'li yetmas joyda ekanligiga qattiq ishonilgan. Bu g'oya ma'lum bir davlat mafkurasining asosiga aylangan edi. Chunki o'zining ilohiyligiga ishonirgan hukmdorga davlatni boshqarish, xalqni qo'lida tutib turish ancha ishini yengillashtirib bergan.

¹ V.Avdiiyev. Qadimgi Sharq Tarixi. Oliy va O'rta maktab i. Toshkent.1964-yil. 199-bet.

² Sh. Vohidov. A.Qodirov. Sharqning mashhur sulolalari. Toshkent. Akademiashr.2013-yil. 7-bet.

Buni biz nafaqat Misr tarixida, balki ko'pgina yirik sivilizatsiyalar boshqaruv jarayonlarida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Hokimiyatning ilohiyligini saqlab turish maqsadida hatto qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga ham guvoh bo'lamiz. Bu Qadimgi Misrlilar uchun oddiy hol bo'lib, hech qanday ajablanarli jihati ko'zga tashlanmagan. Misr aholisi fir'avn hayotlik chog'idayoq xudolarga sig'ingandek ularga sig'ingan. Firavn vafot etgach, uni yer xudosi, osmon xudolarining merosxo'ri sifatida toshdan qurilgan ulkan maqbaralarga dafn etilgan. Fir'avnlarini ko'mishdan oldin uning tanasi koinlar tomonidan mumiyolangan. Bu jarayoni 70 kun davom etgan. Mumiyolash orqali fir'avn tanasini saqlab, tosh tobut "sarkofag" ga qo'yishgan. Qadimgi misrlilarning tasavvurida har-bir inson "Ka" deb nomlangan ilohiy quvvatga ega bo'lib, o'limidan keyin ushbu quvvat yashashni davom ettirishiga Bu madaniyatning mazmun-mohiyati, syujet, motivlari shakllanib, an'ana sifatida keyingi davrlarga o'tdi.

Iqtisodiyot, ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari ham o'zgarmay qoldi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi qadimgi podsholik davridan boshlab boshqa hududlar mamlakatlari uchun meros bo'lib xizmat qildi. Qo'shni Osiyo mamlakatlari Afrikaning markaziy qismigacha bo'lgan hududlar Misr sivilizatsiyasidan bahramand bo'ldilar hamda ijobiy o'zlashtirilib, o'z madaniyatlarini yaratdilar. Qadimgi podsholik davrida Misrda harbiy ishlar rivojlanadi. Qo'shning asosiy quroli o'q-yoy bo'lgan. Qurol- aslaha va o'q-yoy zaxirasi yaratilib, maxsus joylarda saqlangan. Sinay yarim oroli va Efiopiya (Nubiya) chegaralarida chegara harbiy qismlari mavjud bo'lgan. Ko'ngilli qo'shinga alohida harbiy boshliqlar boshchilik qilgan. Davlat qo'shini asosan erkin ziroatkor va chorvador misrlilardan tashkil etilgan bo'lib, o'q-yoy, nayza, kalta bronza chopqi bilan qurollangan piyodalardan iborat bo'lgan. Shimoliy va janubiy chegaralarda garnizonlar turgan. Qo'shin asosan ko'ngillilardan iborat piyodalar bo'lib, fir'avning vakolatli odami va harbiy bo'lmagan mansabdor shaxslar boshchiligida yurishga chiqqan. Kambag'al jangchilar oddiy kamon va o'qlar bilan qurollanganlar. Jang aravalari va otliqlardan foydalanilmagan.¹

¹ Urakov. Tursinov. Biykuziyev. Xaynazarov. Jahon Tarixi. Innovatsion-ziyo. 2020-yil. 17-bet.

Qadimgi Misr podsholari va ularning amaldorlari mamlakat xo‘jaligini rivojlantirish uchun yangi yerlar o‘zlashtirish, to‘g‘on, kanal va boshqa sug‘orish shahobchalarini qurish ishiga alohida e‘tibor berganlar. Chunki Misrdek issiq mamlakatlarda sug‘orma dehqonchilik xo‘jalikning asosini tashkil etgan. Misr dehqonlari don, dukkakli ekinlar ekkan, poliz va sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirgan va bog‘dorchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Misrda ziroat ishlarining barcha og‘irliklari dehqonlar va qullar yelkasiga tushgan edi. Qadimgi podsholik davrida fir‘avnlarni chorvachilikka katta e‘tibor bergan. Ular qoramol, echki, cho‘chqa, eshak va parranda boqqanlar. Dehqonchilik va chorvachilik misrliklarning asosiy oziq-ovqat manbai hisoblangan. Chunki chorva mahsulotlari misrliklarni avval go‘sht, yog‘, sut-qatiq, keltirilgan teri, jun va ishchi hayvon kuchi bilan ta‘minlagan. Bu davrda misrliklar hunarmandchilik sohasida jiddiy yutuqlarga erishganlar. Misrda miskarlik, qurolsozlik, me‘morchilik va hunarmandchilikning boshqa sohalari ancha rivoj topgan edi. Shu davrda kulolchilik charxi kashf etilib, kulolchilik yanada rivojlangan.

Misrda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Dehqonlar, chorvadorlar hunarmandlar o‘z ixtiyorlaridagi ortiqcha narsalarni o‘zaro almashganlar. O‘zaro almashuv ichki va tashqi bozorni vujudga keltirgan. Savdo Qadimgi Misr tarixida asosiy o‘rinlardan biri bo‘lgan. Nil daryosi bo‘ylab savdo kemalari muntazam qatnab turgan. Qo‘shni davlatlar Liviya, Nubiya, Efiopiya, Falastin, Finikiya kabilar bilan savdo aloqalari yuksak darajada rivojlangan. Lekin shunga qaramay oddiy aholining ahvoli ancha yomon bo‘lib, og‘ir soliqlardan tashqari, davlat miqyosida qurilish va ta‘mirlash ishlariga majburiy safarbar etilar edi. Yana o‘sha paytlarda Nil daryosining suvi keskin pasayib bordi. Mutaxassislarning fikricha, hosilning kamayishi, ochlik va ijtimoiy norozilikning kuchayishi pirovardda davlat tizimining yemirilishiga sabab bo‘ldi.

Mil. avv. XXII asr boshlarida Yuqori Misr boshlarida Yuqori Misrning markazi bo‘lgan Memfisda 8-sulola bilan bir vaqtning o‘zida Nil vodiysining o‘rta qismida yangi 9-sulola hukmronlik qila boshladi. Bu esa davlat boshqaruvidagi parokandalikka olib keladi. Qadimgi podsholikning oxirlariga kelib mamlakatdagi hokimliklar-nomlar (kichik

davlatlar) fir'avnlariga itoat etmay, mustaqil bo'lishga intilganlar. Soliqlar miqdorining ortishi va qo'shimcha majburiy xizmatlar Oddiy xalqning sabr kosasini to'lib, mamlakatda qo'zg'olonlar boshlanishiga sabab bo'lgan. M. av. XXIII asrda mamlakat yana mayda nomlarga bo'linib ketgan. Mayda nomlar esa bir-birlari bilan qonli urushlarni olib borganlar. Shu tariqa Misrda Qadimgi podsholik inqirozga uchrab, mamlakatda tarqoqlik davri boshlangan.

Insoniyat tarixi, siyosiy boshqaruv va o'zaro jang-u jadallar eng qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Shunday ekan tarixni o'rganishni aynan shu davrdan boshlamoq kerak. Qadimgi Misrning sulolalar tarixi, firavnlarning siyosati bilan tanishib tanazulga yuz tutish davrlarini ko'zdan kechirdik. Har qanday davlat avvalo ichki nizolarni bartaraf etishi, tashqi siyosatda izchil diplomatiyani amalga oshirishi lozim. Qadimgi Misr firavnlari hukmronlikning yuksak cho'qqisiga erishganlar. Ammo vaqtlar o'tib bu hukmronlik oddiy xalq gardaniga shunchalik og'ir yuk bo'ldiki, natijada xalq qo'zg'alib o'z huquqlarini talab eta boshladi. Qadimgi Misr o'zining takrorlanmas tarixi bilan barchani o'ziga jalb etishda davom etmoqda. Balki shuning uchundir hali ham izlanish va tadqiqotlar aslo to'xtamagan. Chunki tarixning bizga ochmagan sirlari ko'p. Har qanday tarixiy kashfiyot bizni tarixni qayta ko'rib chiqishga majbur etsa ajab emas. Tarixda oxirgi xulosa bo'lmasligining sababi ham ana shu aslida. Zero yakuniy xulosa aytilsa, bu boshqa kashfiyotlarga yo'l bermasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Kabirov .Qadimgi Sharq Tarixi. Tafakkur- 2016 yil. 15-bet.
2. R. Rajabov. Jahon Tarixi. Toshkent-2018 yil. 13-bet.
3. A.Kabirov. Qadimgi Sharq tarixi. Tafakkur-2016 yil. 42-bet.
4. A.Kabirov. qadimgi Sharq Tarixi. Tafakkur-2016-yil. 44-bet.
5. В. Авдиев Кадимги Шарк Тарихи Олий ва Урта Мактаб Тошкент-1964 yil. 199-bet.
6. Sh.Vohidov. A.Qodirov. Sharqning mashhur sulolalari. Toshkent. Akademnashr. 2013-yil. 7-bet.
7. Urakov, Tursunov, Biykuziyev, Xaynazarov Jahon Tarixi. Inavatsion- Ziyo 2020 yil 17-bet.

QADIMGI HINDISTONDA HINDUIYLIK VA VEDALARGA QARSHI KURASH

Ilhom IRGASHEV

TDSHU, Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati) yo 'nalishi

3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, I. Ikramova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qadimgi Hindistondagi diniy-falsafiy ta'limotlar ko'rib chiqilgan. Bu hududda shakllangan ilk diniy ta'limot hinduiylikka va vedalardagi mavjud fikrlarga qo'shilmagan buddaviylik, jaynizm, lokayata kabi diniy-falsafiy ta'limotlarni qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: hinduiylik, vedalar, sansara, nirvana, chorvaka, lokayata, buddaviylik, jaynizm, oriylar migratsiyasi, Moxendjodaro va Xarappa, astika va nastika, kastachilik.

Qadimgi Hindiston xuddi Xitoy singari o'z qadriyatlarini va madaniyatini ming yillar davomida saqlab, rivojlantirib kelmoqda. Biz qadimgi Hindiston tarixini 2 ga bo'lishimiz mumkin: vedalardan oldingi davr va vedalardan keyingi davr. Radikal hind tarixchilari qadimgi hind tarixini vedalardan boshlanadi deyishsa, mo'tadil hind tarixchilari esa vedalardan oldingi davrni ham tan olishadi. Qadimgi Hindistonda dastlab mil.avv. 4-ming yillikdan boshlab Hind va Gang daryolari vodiysida aholi dehqonchilik bilan shug'ullanishni boshlagan. Keyinchalik mil.avv. 3-ming yillikdan Moxendjodaro va Xarappa sivilizatsiyasi vujudga kela boshlagan. Moxendjodaro va Xarappa aglomeratsiyasida 7-8 mln nafar aholi istiqomat qilgan, uylar pishgan g'ishtdan qurilgan, sopol quvurlar tizimi topilgan. Sopol quvurlar tizimi topilishi ushbu madaniyat naqadar yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. "Keyinchalik Moxendjodaro va Xarappa sivilizatsiyasi inqirozga yuz tuta boshlaydi, bu inqirozning sababi aniq emas"¹. Ba'zi manbalarda Moxendjodaro va Xarappani suv bosgan deyishsa, boshqalarda bunga oriylar migratsiyasi sabab bo'lgan deyishadi. Nima ham bo'lgan taqdirda ushbu madaniyat vedalardan oldin mavjud bo'lgan sanaladi.

¹ Кулаичев А.П. История Индии. – М.: Тривола, 1999. – С. 1.

Oriylar migratsiyasi qachon yuz berganligi noma'lum, bu haqda tarixchilar ikki xil gipotezaga ega: mil.avv. 2-ming yillarda yoki mil. avv. 7-6-asrlarda. Oriylar elitani qirib tashlab, kastachilikni o'ylab topishgan, chunki bu ideologiya xalqni boshqarish uchun oson edi. Propaganda, ideologiya eng kuchli narsa hisoblanadi.

Qadimgi hind jamiyati sotsial strukturasi xalqning turmush tarzi, ma'naviy hayotiga katta ta'sir o'tkazgan. Uning xarakterli xususiyatlaridan biri varna (Yevropada kasta deb atalgan)larga bo'linishidir. Ular braxmanlar, kshatriylar, vayshilar, shudralarga bo'linib, har bir varna o'zining ramziy rangiga ega: braxmanlar – oq, kshatriylar – qizil, vayshilar – sariq, shudralar – qora rangda. “Har bir varna kishilarning o'z-o'zi bilan chegaralangan yopiq guruhidan iborat bo'lib, jamiyat hayotida aniq o'ringa va mavqeyiga ega. Nikohlar ham varna ichida tuzilgan, turli xil varna vakillari o'rtasida nikoh qurish taqiqlangan, varnaga mansublik avloddan avlodga o'tgan”¹. Varnalarning faoliyat yuritish turi ham belgilab qo'yilgan: aqliy mehnat bilan oliy tabaqa – braxmanlar (kohinlar); harbiy ish bilan kshatriylar, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo bilan vayshilar; og'ir jismoniy ishlar bilan shudralar shug'ullanishgan. “Braxman” (ma'nosi shavkatli hayot) so'zi qadimgi hindlarning bosh xudolaridan biri Braxmanning nomidan olingan. “Kshatriy” so'zi “kish” egallamoq, egallash, boshqarish fe'lidan olingan. “Vaysh” sodiqlik, bog'liqlik, degan ma'nolarga ega. “Shudra” so'zining ma'nosi va kelib chiqishi noaniq. Dastlabki uchta varna oriylardan tashkil topgan. Ular uchun jamiyatda bilim o'choqlari, eshiklari ochiq edi. Hokimiyat, boshqaruv ishlari braxmanlar qo'lida bo'lgan. Bu kasta tizimi, insonlarni tabaqalarga ajratish oddiy xalqqa yoqmas edi va shuning natijasida Qadimgi Hindistonda yangi dinlar va falsafiy maktablar vujudga kela boshlaydi.

Qadimgi Hindistonda falsafiy maktablar 2 ga bo'lingan: astika va nastika. Astikaga brahmanizm, hinduiylik kirgan. Nastikaga esa buddizm, jaynizm, chorvaka va lokayata ta'limotlari kirgan.

Buddaviylik (Budda nomidan olingan) – jahonda keng tarqalgan dinlardan biri (xristianlik va islom dini bilan birga). Unga e'tiqod qiluvchilar taxminan 500 milliondan ortiq. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra,

¹ D.A.Po'latova, M.Q.Qodirov, J.B.Sulaymonov. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – B. 45-48.

Buddizmga Siddhartha Gautama (Budda) asos solgan. Buddizmda 2 asosiy yoʻnalish mavjud: Xinyana va Maxayana. Keyingisi juda koʻp sekta va mazhablarga boʻlinadi. Boshqa dinlardan farqli ravishda, Buddizmda hech bir oʻzgarmas narsa yoʻq, hatto xudo ham oʻzgaruvchan deb uqtiriladi. Faqat on yoki lahzalar silsilasi mavjud boʻlib, ularning har biri yoʻqolib, keyingisiga oʻrin beradi. Buddizm taʼlimotiga koʻra, inson doimo azob-uqubatga mahkum va bunga uning oʻzi sabab boʻladi. Azob-uqubattan qutulish uchun koʻngil xush koʻrgan barcha narsalardan oʻzini tiyish darkor. Muntazam ravishda yolgʻondan, oʻgʻrilikdan, boshqaga zarar yetkazishdan, zinodan oʻzini tiyish hamda meditatsiya (ongni oliy haqiqatga yetishishga qaratish) “bodxi”, yaʼni “xotirjamlik”ka va oxir-oqibatda nirvanaga (azob-uqubatning tugashi)ga olib keladi. Buddizm zaminida 3 narsa: Budda, Dxarma va Sangxaga eʼtiqod yotadi.

Jaynizm qadimgi hind jamiyatidagi harbiylar (kshatriy) bilan ruhoniy – brahmanlar oʻrtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi oqibatida vujudga kelgan. Baʼzi tadqiqotchilar fikricha, Jaynizm buddizmning bir mazhabidir. Jaynizm buddizm kabi brahmanizmning murakkab rasm-rusumlariga va tashqi shakliga qarshi chiqdi. Vedalarning muqaddasligini, qurbonliklar qilishni, ruhoniylar va xudolarning inson taqdiriga hal qiluvchi taʼsirini inkor etdi. Jaynlar oʻz jamoasiga kirish uchun barcha Varna (kasta)dagi erkak va ayollarga yoʻl ochdi. Jaynizmda markaziy oʻrinni Jon haqidagi taʼlimot egallaydi. Bunga koʻra, inson joni barcha qilmishlari uchun javobgar, chunki bu qilmishlar karma qonuni asosida roʻy beradi, karma qonuni tanni jon bilan bogʻlaydi, insonni yerdagi ishlarga zanjirband etadi va uning keyingi qayta tugʻilishlarini belgilab beradi. Kishilar “oʻz jonini oʻzi xalos qilishi”, “qayta tugʻilishlardan ozod boʻlishi” mumkin. Bunga erishish uchun Jaynga eʼtiqod qilish, Jayn taʼlimotiga ishonish, Jayn belgilagan axloq meʼyorlariga rioya qilishi kerak. Jaynizmda axloqiy kamolotga yetishishning va karma qonunidan qutulishning birdan-bir yoʻli zohidlik hisoblanadi. Jaynizmning aynan shu qismi uni buddaviylik bilan birlashtirib turuvchi qismi hisoblanadi. Jaynlarda, shuningdek, tirik tabiatga ziyon yetkazish taqiqlangan. Shuning natijasida ular tirik tabiatga ziyon yetkazishi mumkin deb hisoblaydigan dehqonchilik, chorvachilik va shu kabi ishlar bilan shugʻullanishmagan. Jaynizm tarafdorlari hozirgi kunda asosan bankirlar, sudxoʻrlar, savdogarlar, hunarmandlar va zargarlardan iborat. Hozirgi kundagi hind

milliarder va millionerlarining ko'p qismi jaynist hisoblanadi. Ushbu din vakillari hozirgi Hindistonda aholining 0,5% tashkil etishiga qaramay, jaynizm Hindiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Lokayata falsafasi brahmanizmga qarshi bo'lib, dunyo (tabiat)ni ilohiy kuchlarsiz izohlash kerak, degan g'oyani ilgari suradi. Lokayata ta'limotiga ko'ra, inson 4 unsuridan tashkil topgan, u o'lgach, undagi tuproq unsuri tuproqqa, suv unsuri suvga, olov unsuri olovga, havo unsuri havoga, sezgilar esa fazoga aylanadi. Inson tana va ruh birligida namoyon bo'ladi. Tana o'lishi bilan ong ham yo'qoladi. Har bir inson bir marta yashaydi. U qaytadan tirilmaydi. Lokayata jon, ruhning ko'chib yurishini rad etadi. Lokayata namoyandalari o'z ta'limotlarida xudojo'ylikka qarshi yerdagi hayotni targ'ib etadi. Ular kastachilikni qoralab, barcha insonlar teng, degan g'oyani ilgari suradi. Ularning fikricha, olamda sodir bo'lib turadigan hodisa va jarayonlarning sababchisi moddiy borliqdir. Masalan, olovning issiq, suvning sovuq bo'lishini aynan shu hodisalarning o'zidan izlash lozim. Inson hayotining mohiyati – shu dunyoda rohat qilishdir, ya'ni “ye, ich, lazzatlanib qol” degan tamoyilga amal qilishgan. Lokayatada farovon hayot, insonning axloqiy kamoloti g'oyalari olg'a surilgan. Lokayata vakillari bilish nazariyasida sensualizm mavqeyida turib, sezgi – bilishning birdan-bir ishonchli manbai deb hisoblaydi. Lokayataning keyingi ko'rinishi chorvaka deb ataladi.

Shoh Bimbasara hinduiylikka qarshi kurashida buddizm va jaynizmdan proksi loyihalar sifatida foydalangan. Shuningdek, shoh Bimbasara buddizm, jaynizm, lokayata va chorvaka uchun platforma yaratib bergan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Hindistonda aholining kastachilikdan, hinduiylikning turli rasm-rusumlaridan, brahmanlarning cheksiz ulug'lanishidan noroziligi natijasida yangi diniy-falsafiy maktablar vujudga kela boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.A.Po'latova, M.Q.Qodirov, J.B.Sulaymonov. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2018.
2. Кулаичев А.П. История Индии. – М.: Тривола, 1999. – С. 1.

AHMAD ZAKI VALIDIY HAYOTI VA SHAXSIYATIGA TASNIF

Shahrizoda QULDOSHEVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yoʻnalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: S. Toshtemirova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻonning hayoti, ilmiy izlanishlari, siyosiy qarashlari, boshqird xalqining kelib chiqishi, urf-odatlarini, diniy-falsafiy qarashlari haqida fikr yuritiladi. Turkiy va moʻgʻullarning davlat tashkiloti, Turkiston shahri viloyatlari, shomonlarning falsafiy, moddiy-maʼnaviy olam haqidagi tasavvurlari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻon, “Xotiralar”, Boshqirdiston, Turkiston, “Bugungi Turkiston va uning yaqin tarixi”, Mohanjodaro, Oq Edil, soʻqliqay, ungoʻt, turkiy, tadqiqot.

Oʻzbekiston hududida ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik tadqiqotchilar orasida qardosh turkiy xalqlar vakili, boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻon alohida oʻrin tutadi. U 1890-yil 10-dekabrda Boshqirdistonda ziyoli oilada tavallud topgan. Avval u qishloqdagi musulmon diniy maktabini tamomlab, keyin Qozondagi Qosimiya diniy pedagogika ilmgohiga oʻqishga kiradi. A.Zaki Validiy Ufa va Qozondagi “Usmoniya”, “Shahobiddin Marjoniy”, “Qosimiya” madrasalarida ham tahsil olgan¹. 1910-1913-yillar ichida mazkur ilmgohda turkiy xalqlar tarixi va arab adabiyoti fanidan talabalarga saboq beradi. Shuning barobarida Qozon universitetida sirdan oʻqiy boshlaydi. Uning ilk maqolalari jadid maʼrifatparvarligi gʻoyalari hamohang tarzda oʻsha davrning islohot gʻoyalari bilan sugʻorilgan “Tarjimon”, “Shoʻro”, “Maktab”, “Vaqt”, “Suyumbeka”, “Yulduz”, “Turmush” kabi jurnal va gazetalarda muntazam eʼlon qilib borilgan. Ahmad Zaki Validiy arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgan,

Sharq tarixi va adabiyotiga qiziqqan, rus sharqshunos olimlarining asarlari bilan ham yaxshi tanish boʻlgan².

¹ Юлдашбаев А. Заки Валиди как политик, ученый и патриот // Ватандаш. 2009. N 9.

² Абдурахмонов М., Зохийдий А. А.З.Валидий Туғоннинг Туркистонга илмий сафари (1913-1914 йиллар).- Ташкент. Фан. 1937. 75-б.

Akademik V.V.Bartold Zaki Validiyini Sank-Peterburg universitetining Sharq tillari fakulteti hamda o'zining tashabbusi bilan tuzilgan Xalqaro O'rta Osiyo tadqiq Komitetida faoliyat yuritishga taklif qilgan. Yevropa davlatlaridagi, xususan, Germaniya, Avstriya, Parij va London kutubxonalaridan islom qo'lyozmalarini qidirib topish va tadqiq etishga jalb etmoqchi bo'lgan. Ammo Birinchi jahon urushining boshlanishi bu rejalarni yuzaga chiqishini to'xtatib qo'ydi. Asosan, uning "Turk va tatar tarixi" (1912-y) degan ilk kitobi shuhrat keltirdi, zamonasining mashhur olimlari e'tiboriga tushdi. 1913-yili uni Qozon universiteti tarix va arxeologiya jamiyati sharq qo'lyozmalari va osori-atiqalarini o'rganish uchun Farg'ona vodiysiga ilmiy safarga jo'natadi. Xuddi shu maqsadlarda u 1914-yili Rossiya Fanlar Akademiyasi hamda Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqni tadqiq etish xalqaro jamiyati yo'llanmasi bilan Buxoro amirligida bo'ladi.

Uning "Xotiralar", "Tarixiy tadqiqotlar usuli", "Bugungi Turkiston va uning yaqin tarixi" asarlari turkiy xalqlar dini (islom dini), falsafasi, tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlarini haqida juda boy manbalarni o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Xususan, "Bugungi Turkiston va uning yaqin tarixi" nomli asarining birinchi bobi turkiy xalqlar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, Kaspiy dengizidan Oltoy, Olatog', Tyanshan tog'larigacha cho'zilgan yerlarni qamrab olgan. Zaki Validiy Markaziy Osiyo tarixining o'sha davrda eng kam o'rganilgan XV asr Temuriylar davridan boshlab, (Temuriylar davriga oid 30 dan ortiq asarlar yozgan) XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr tarixiga alohida e'tibor qaratib, 400 dan ortiq asarlar yaratdi. Bu davrda yozilgan barcha asarlar, qo'lyozmalar bilan tanishib, tahlil qilishga muvaffaq bo'ldi. Zaki Validiy "Hindlarning Mohanjodaro madaniyatini diniy-falsafiy tahlilida O'rta Osiyo turkiylari tarixida uchragan o'xshashliklari aslida turkiylar va mo'g'ullarga qarashli bo'lgan", deydi. Turkiy va mo'g'ullarning davlat tashkiloti, Turkiston shahri viloyatlari, shomonlarning falsafiy, moddiy-ma'naviy olam haqidagi tasavvurlari bunga yaqqol dalilligi, garchi ularning kosmogoniyalari boshqa madaniyatlar ta'siriga uchragan bo'lsa-da, xususan, hukmdorni oq kigizga to'rt burchidan ushlab ko'tarish, o'lkani bo'lib idora qilish, kigiz burchidan ushlagan qabila biylariga davlat ishlarida suyanish, shaharlarning to'rt burchakli ekanligi, to'rt darvozaga olib boruvchi to'rtta shohko'chaning shahar bo'ylab cho'zilgan¹ ligini ta'kidlaydi.

¹ Исследование по генеалогии эмира Тимура // Маджлиси-и Армаган- Ильми. Проф. Мухаммед Шафи Presentatsion. Volume. Laxor.1966. С. 106-113.

Ahmad Zaki Validiy “Xotiralar” kitobida o‘zining o‘tmish hayoti haqida shunday deydi: “Boshqirdlar boshqa turkiy qabilalaridan farq qilib “z” va “ch” tovushlari o‘rnida “dx” va “s” tovushlaridan foydalanganlar va ular to‘rt guruhga bo‘linganlar. Men mansub bo‘lgan so‘qli-qaylar esa uchinchi guruhga oiddir. Ellik besh yildan beri tarixchi hisoblansam-da, o‘z urug‘im tarixi haqida kam ma‘lumotga egaman. Oq Edil daryosiga quyiladigan Yig‘gan daryosining bir irmog‘ida joylashgan va qishlog‘imizning asosini tashkil etadigan so‘qli-qay va ungo‘t urug‘lari XIX asr boshlarida avlodlarimiz bo‘lgan. Kuzon va Bokiga tegishli ikki tepada va Yakubga qarashli quduq boshida tarqoq joylashgan 12 xonadondan iborat ekan. XVIII asrdagi urushlar natijasida ular ko‘p talofat ko‘rishgan va kimsasiz yerlarga aylangan. Chor hukumati bizdan tortib olgan bo‘sh yerlarga, otam tug‘ilgan yili, 1860-yilda ko‘p sonli “minzala-misharlari” deb nomlanuvchi g‘arbiy Boshqirdistondagi qishloq aholisini keltirib, alohida mahalla holida joylashtirish-gach, qishlog‘imizning asosiy qismi tashkil bo‘lgan.

Men o‘n to‘rt yoshimdanoq Erandiqdagi Kusi va No‘g‘ay qishloqlariga tez-tez borib turardim va u yerdagi keksa yoshdagi odamlar va qarindoshlarimiz xotirasida saqlanib qolgan “Murodim” (Edigey(Mirza o‘g‘li Nuriddin) dostonini yozib olgan edim. Mening yozganlarim bizda ma‘lum bo‘lgan rivoyatlarga qo‘shimcha bo‘ldi. Mening dastlabki ilmiy tadqiqotlarimdan biri mana shu dostonga oid bo‘lib, 1911-yilda nashr qilingan maqolam hisoblanadi.

Otasi eski urf-odatlariga mustahkam bog‘langan kishi edi. Tatarlarda bo‘lmagan odatlar tufayli Kashshof Mulla bilan doimo tortishib turardi. Bu kishi otasining orqasidan “shariat o‘rniga zakonni afzal bilgan mulla” der edi. Buxoroda tahsil ko‘rgan Kashshof Mullaning “zakon” degani boshqirdlarning shariatiga mos tushmas edi. Bundan tashqari, diniy qurbonlik qilish va mehmonga ziyofat berish uchun mol so‘yishda, zakot berishda va meros ishlarida shariat bilan inji oila hayotini muvoza-natga keltiradigan bosh nizom edi.

1944-yil voqealar vaqtida otasining xotiralari allaqachon unutilgan, faqat onasining xayoli “Asrovchi farishta” deyilguvchi malak kabi yonida bo‘lar edi. Onasi o‘z hayoti davomida hech qachon eng kichik bir gunoh qilmagan va Ahmad Zaki Validiyga nisbatan behad samimiy bo‘lgan edi. Onasi o‘rgatgan forscha, turkcha she‘rlari faqatgina axloqiy parchalardan iborat emas, balki, ular orasida adabiy va

estetik she'rlar ham bor edi. Onasi yod oldirgan Navoiy g'azallarini mumtoz parchalar ekanini keyinchalik shoirning kulliyotini boshdan oxirigacha o'qib chiqqandagina bilgan. Lekin bularni onasiga kim o'rgatganini bilmas edi¹.

Ahmad Zaki Validiy o'z davrining faol siyosatchisi va Boshqirdiston hukumatining raisi, boshqird, o'zbek, fors, arab, rus, nemis, lotin, turk, ingliz, turkman, qozoq xalqlarining ma'naviy-ruhiy holatini, hayotini tushuna olgan va tushuntira bilgan siyosatchi ham edi. Turkiy xalqlar, xususan, Boshqirdiston taraqqiyoti va mustaqilligi uchun olib borgan faol harakatlari bolsheviklar hukumati tomonidan keskin qarshiliklarga uchrab, tazyiqlar kuchaya borgach, Zaki Validiy o'n bir yil davom etgan siyosiy faoliyatidan so'ng, 1925-yilda mamlakatni tark etdi va Istanbulga ketdi. Bu yerda u o'z faoliyatini butunlay ilm-fan va ta'limga bag'ishladi. 1930-yilda Vena universitetiga o'qishga kirib, 1935-yilda "Real Gymnasium" hamda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Islom ilmlari bo'yicha falsafa fanlari doktori darajasini olib, Bonn universitetining islom ilmlari faxriy professori darajasiga erishdi. Shunday qilib, A.Z.Validiy keyinchalik o'z hayoti va faoliyatini xorijda- Turkiyada davom ettirdi, turk, nemis, fransuz, ingliz, arab, venger, rus va boshqird tillarida to'rt yuzdan ortiq ilmiy ish e'lon qildi. Xorijda uning bugungi kunda mashhur bo'lgan "Bugungi turk eli va yaqin tarixi"² (Istanbul, 1942-1947) va "Xotiralar"³ (Istanbul, 1969) kabi mashhur asarlari chop etildi va butun turk dunyosiga tanildi. Validiy 1970-yil 26-iyulda Istanbulda vafot etgan.

Ahmad Zaki Validiyning ilmiy merosida diniy falsafa, sharqshunoslik, tarix, madaniyat, geografiya, etnografiya, iqtisodiyot, toponimika, arxeologiyaga oid ma'lumotlar, qarashlar uyg'unlashib ketgan edi. Uning asarlarining yo'nalishi, mavzusi rang-barang, manbalari esa juda boy hamda ko'p tillarda bitilganligi uning bilimlari juda keng, qiziqishlari serqirra bo'lganligidan dalolat beradi. Uning falsafiy, diniy, tarixiy, madaniy va boshqa sohalarga xilma-xil ma'lumotlar manbai sifatida qiziqib qarashi masalaning bir jihati bo'lsa, ikkinchi jihati olimning o'ziga xos dunyoqarashi,

¹ Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества 1916. Пг. Т.22. С. 303-320.

² Zeki Velidi Togan. Hatiralar. Ankara. 1999, 60. S. 106.

³ Zeki Velidi Togan. Eski Türk ve Mogollarin haritalari ve haritaciligi meselesine dair notlar// Kopuz. Istanbul. 1966. Sayi 5. S. 164-169.

fikrlash doirasi, voqea va hodisalarga munosabati, urf-odatlar va qadriyatlarni baholay olishi Ahmad Zaki Validiyning teran fikrli faylasufligidan ma'lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Юлдашбаев А. Заки Валиди как политик, ученый и патриот // Ватандаш. 2009. N 9.
2. Абдурахмонов М., Зохийдий А. А.З.Валидий Туғоннинг Туркистонга илмий сафари (1913-1914 йиллар).- Ташкент. Фан. 1937. 75-б.
3. Исследование по генеалогии эмира Тимура // Маджлис-и Армаган- Ильми. Проф. Мухаммед Шафи. Presentatsion. Volume. Laxor.1966. С. 106-113.
4. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества 1916. Пг. Т.22. С. 303-320.
4. Ахмад Заки Валидий Туғон. “Хотиралар”. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. Тошкент- “Истикбол нури”, 2014. Б 24-26.
5. Zeki Velidi Togan. Natiralar. Ankara. 1999, 60. S. 106.
6. Zeki Velidi Togan. Eski Türk ve Mogollarin haritalari ve haritaciligi meselesine dair notlar// Kopuz. Istanbul. 1966. Sayi 5. S. 164-169.

QADIMGI SHARQ TAMADDUNI MA'NAVIIY ASOSLARI

Sevinch AZAMATOVA
TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD J. Sulaymonov

Annotatsiya: Kutubxonalar insoniyat hamjamiyati erishgan yutuqlardan darak beradi va ularning tarixi, fondlaridagi noyob asarlari har davrda o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu maqolada kutubxonalar tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, sharqda ilk ilm-ma'rifat markazi vazifasini bajargan ikki kutubxona, xususan, Oshurbanipal va Iskandariya kutubxonalari haqida ma'lumot beriladi. Bunda ular o'z fondlaridagi asarlarni qay tartibda saqlaganligi, tashkiliy masalalari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: kutubxona, katalog, mixxat yozuvi, Shumerlar, akademiya, qo'lyozma, gil taxtachalar.

Kitoblar bu insoniyatning bilimlarni tashuvchi o'ziga xos zanjirdir. Kutubxonalar esa bizga ana shunday qimmatli ma'lumotlarni saqlab yetkazib kelishadi. Hozirgi raqamli axborot davrida ma'lumotlarni saqlash va ularni yetkazish ortiqcha kuch va mablag' talab qilmas, ammo, qadimda bu ish o'ziga xos qiyinchiliklarga ega bo'lgan. Insoniyat aqliy salohiyatidagi hozirgi yutuqlarga erishishida, qadimgi davrdagi buyuk shaxslarning asarlarini bizgacha yetib kelishida muhim o'rin egallagan kutubxonalar tarixidagi ikki buyuk kutubxona Oshurbanipal va Iskandariya kutubxonalari qay tartibda tashkil etilganligi va ma'lumotlar to'planish jarayoni, taqdiri haqida ko'rib chiqamiz.

Ossuriya poytaxti Kuyunjikda topilgan qadimgi mixxat yozuvida yozilgan gil taxtachalar kutubxonasi boshqa qadimgi davr kutubxonalaridan hajmi, kengligi, va hujjat sifati bilan ajralib turadi. Kutubxonadagi taxtachalarda tarix, adabiyot, fan, ilohiyot va huquq kabi turli mavzularni o'z ichiga olgan. U 30 000 dan ortiq¹ loy taxtachalardan iborat. Kutubxona shoh Oshurbanipal davrida bunyod etilgan.

Oshurbanipal miloddan avvalgi 669-626-yillarda Ossuriya shohi bo'lgan. U iqtidorli qo'mondon, o'qimishli va ilmga rag'batli, saxiy inson deb tanilgan. Uning hukmronligi davrida Ossuriya san'ati va adabiyoti juda yaxshi rivojlanadi. Oshurbanipal kutubxonani to'plash uchun mamlakatning turli yerlariga matnlarni ko'chirib keltirish uchun kotiblarni yuboradi. Kutubxonada qirol yurishlari davomida qo'lga kiritgan mixxat taxtachalar ham bo'lgan. O'z davrida kutubxonada 100 mingdan ortiq gil taxtachalari to'plangan. Matnlar bobil, akkad, va shummer tillarida yozilgan.

Matnlar nafaqat tarixiy solnomalar, xudolar ro'yxati va adabiy matnlardan tashkil topgan, balki astronomiya tibbiyot va boshqa tabiiy bilimlar ham yoritilgan. Xususan, 30 ta gil taxtachada tibbiy ma'lumotlar mavjud edi. Unda dori vositalari va ulardan foydalanish usullar bayon etilgan kitoblar ham bo'lgan. Bu kabi ma'lumotlar bizga qadimgi xalqlarning ilmiy salohiyatini tushuntiradi va bizni ular erishgan ilmfan yutuqlari bilan tanishtiradi. Shuningdek adabiy sohalarda ham qadimgi xalqlar juda katta va boy meros qoldirganlar. Masalan, "Tavba sanolari", "Yurakni tinchlantiruvchi dardli qo'shiqlar" Ossuriya adabiyotining yuksak taraqqiyotidan dalolat beradi.

¹ <https://www.deccanherald.com/opinion/the-fantastic-library-of-ashurbanipal-953562.html>

Ossuriya kutubxonachilari Mesopatamiya adabiyotining eng ajoyib asari, jahon adabiyotining eng buyuk dostonlaridan biri Gilgamish haqidagi dostonni ko'chirib olib saqlab qolishgan. Gilgamish dostonini Britaniya muzeyi xodimi J.Smit aniqlagan. U Nineviyadan olib kelingan mixxat taxtachalarni o'rgangan. Smit Oshurbanipal hukmronlik yillarini aniqlagan va u o'zining buyuk kutubxonasini qanday to'plaganligi ma'lum bo'lgan.

Kutubxonaning kattagina qismini tarixiy solnomalar tashkil qiladi. Ularda, asosan, harbiy yurishlar, qamallar, qal'alarning egallanishi, mahalliy qo'zg'olonlar tasvirlangan. Yana podshohlarning ov manzaralari tasvirlangan yilnomalar ham bor va ularda shohlar she'rni ovlayotgani tasvirlangan. Ular orasida Oshurbanipal yilnomasi o'ziga xos yorqin badiiy shakl bilan ajralib turadi.

Kutubxona Oshurbanipalning ikkita saroyining maxsus hashamatli binolarida joylashgan bo'lib ulardan biri "Ko'rsatmalar va maslahatlar uyi" deb nomlangan.

Kutubxonachilar kataloglashtirish, matnlarni tadqiq qilish va ularni nusxalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirganlar. Har bir taxtachadagi sarlavha sahifasida nusxa olingan asl nusxaning nomi ko'rsatilgan. Undan tashqari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ularga berilgan alohida izohlar ham mavjud edi. Gil taxtachalarda ketma ketlikni saqlab qolish va seriyaning tegishli pozitsiyasini aniqlash maqsadida birinchi taxtacha oxiridagi qator ikkinchi taxtacha boshidagi qatorda takrorlangan. Ushbu tartiblarning barchasi kutubxona qat'iy bir tizim asosida tuzilganligini isbotlaydi va hozirgi kunda ham tadqiqotchilarga turkumlarni qayta tiklash imkonini beradi. Har bir asar alohida quti yoki loy sandiqda saqlangan. Kutubxonada "Kim bu taxtachalarni olib ketishga jur'at etsa Ashur va Belitni g'azabi bilan jazolansin, uning nomi va merosxo'rlari bu yurtda abadiy unutilsin" degan yozuv bor edi. Bu shuni anglatadiki, kutubxonadan ma'lum bir kitobxonlar doirasi foydalanishi mumkin bo'lgan.

Oshurbanipal kutubxonasining tarixi achinarli. U Babil va Midiya qo'shinlari hujumi ostida Nineviya qulagandan keyin vayron qilingan.

XX asrning o'rtalarida ingliz arxeologi O.Layard¹ Kuyunjikdagi shimoliy saroyning 40-41-xonalaridan qirol lavhalarining katta qismini topadi. Kutubxonadagi eng katta taxtacha 9 dyumga teng bo'lsa, eng kichigi 1 dumni tashkil qilgan. Biroq, olim

¹https://www.worldhistory.org/Library_of_Ashurbanipal/

kutubxonaning faqat bir qismini ochdi, aksariyat kitoblar boshqa joyda saqlangan. Kutubxonani tadqiq qilish ishlarini Layardning sobiq yordamchisi O.Rassam davom ettirib, yana bir hashamatli saroyini kashf etdi. U mashhur arslon zalini va kutubxonaning ikkinchi kattagina qismini topgan edi. Kutubxonadagi gil taxtachalar hozirgi kunda Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Oshurbanipal kutubxonasining ahamiyati shundaki, u o'zida qadimgi sharq xalqlari madaniyat, urf-odati, mifologiyasi, tarixi, ilm-fan yutuqlarining haqiqiy xazinasini saqlagan. Ushbu kutubxona orqali biz dunyoni ularning tili va dunyoqarashi orqali anglay olamiz va antik davr haqida juda katta tasavvurga ega bo'lishimizga yordam beradi.

Navbatdagi kutubxona esa Iskandariya kutubxonasi hisoblanib, ko'plab olimlar tomonidan Buyuk kutubxona deb e'tirof etiladi. Qadimgi Iskandariya kutubxonasi haqidagi ko'plab ma'lumotlar afsonalarga aralashib ketgan. Kutubxona tashkil etilishi borasidagi fikrlar ham baxslidir. Kutubxona ochilishi miloddan avvalgi 285-yilga to'g'ri keladi degan taxminlar mavjud.¹ Uning qurilishi makedoniyalik Iskandar davrida boshlangan, lekin u vafot etgunga qadar tugallanmagan. Uning vafotidan so'ng qurilishni davom ettirish Misr satrapligini boshqargan Ptolomey Soterga o'tadi. Kutubxona qurilishi haqida bizgacha yetib kelgan eng qadimgi manba "Aristey maktubi"ning (miloddan avvalgi II asr) guvohlik berishicha, haqiqiy to'liq ko'rinishdagi kutubxona Soterning avlodi Filadelfiy nomi bilan tanilgan Ptolomey II davriga kelib, uning akademiyasi bilan birga qurib bitkaziladi. Ptolomey II asos solgan akademiya (ba'zilar uni muzey deb ham ataydi) dastlab Muzalar uchun ibodatxona bo'lgan bo'lsa, keyinchalik kutubxonada ishlaydigan olimlar va tadqiqodchilar uchun turar-joy vazifasini bajargan. Bundan tashqari shaharning boshqa qismida kutubxonaning "Qiz kutubxonasi" deb ataladigan qismi ham bo'lib, u yerda ham kitoblar fondi saqlangan. Akademiya va kutubxona bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib akademiya kutubxonaning ajralmas qismi hisoblangan.

Ptolomey soter dastlab Muzalar ibodatxonasini tashkil etayotgandan unga peripatetiklar maktabini ko'chirishni reja qilgan. Bu maktab to'laligicha Iskandariyaga

¹https://journals.ekb.eg/article_70332_9cf76027dac1736c08e150239bdc42d3.pdf

ko‘chirilmagan bo‘lsa-da, kutubxona Aristotel asarlarining kattagina qismiga egalik qilgan. Kutubxona yaratilishi va Aristotel asarlari bilan boyitilishida peripatetiklar maktabi a‘zosi Faleriy Demetriyning xizmatlari katta bo‘lgan. Akademiyaga olimlarni jalb qilish uchun Ptolomeylar olimlarga bepul ovqat turar-joy, xizmatkorlar, soliq imtiyozlari va umrbod yaxshi maosh taklif qilganlar. Bu ishlar besamar ketmadi. Strabon, Zenodot, Aristofan, Erotosfen, Gerofil va Evklid kabi yirik faylasuflar va olimlar aynan mana shu yerda o‘z ilmiy faoliyatlari bilan shug‘ullanganlar. Ptolomeylar davrida kutubxona va akademiya intellektual markaz vazifasini bajargan. Keyinchalik bu hududlar Rim hududiga o‘tgach imperiya himoyasiga olinadi.

Akademiyaning bosh binosi va kutubxona bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ularni yo‘laklar, ustunlar va hovlilar tarmog‘i o‘rab turgan. Tajribalar o‘tkazish uchun botanika bog‘lari va zoologik ko‘rgazmalar ham bo‘lganligi sababli bu hudud muzey deb ham atalgan. Bu yer nafaqat ilmiy markaz va kutubxona bo‘lgan, balki odamlar madaniy hordiq chiqarishlari ham mumkin bo‘lib ochiq amfiteatr- exadra ham mavjud edi¹.

Har qanday kutubxonaning asosiy vazifalaridan biri bu kitoblarni to‘plashdir. Iskandariya kutubxonasi ham bundan mustasno emas. Kutubxona fondiga tegishli 400.000 dan 700.000 gacha bo‘lgan pergament o‘ramlari ham turli yo‘llar orqali yig‘ilgan. Kutubxonadagi asosiy meros dastlabki uchta Ptolomey davrida yig‘iladi. Ular bu uchun hech qanday mablag‘ va kuchlarini ayashmagan. Ular Afinadagi jahon durdona asarlarining asl nusxalarini kutubxonada qoldirib, sifatli pergamentga ko‘chirilgan nusxalarini qaytarishgan. Iskandariya bandargohi butun o‘rta yer dengizi, shuningdek, Hindiston va sharqdan kelgan kemalarni o‘ziga jalb qilgan. Bu kemalarda turli moddiy boyliklar bilan birga o‘ta noyob asarlar va pergament o‘ramlari ham keltirilgan. Ushbu kitoblarni tekshirish maqsadida olgan bandargoh qo‘riqchilari ham kemalarning egalariga asl nusxani topshirmaganlar.

Ptolomeylar o‘z kutubxonalarini “universal” deb hisoblashgan. Kutubxonadan insoniyatning barcha bilimlarini topish mumkin deb bilganlar.

Kutubxona tashkiliy masalalarini hal qilish muhim bo‘lgan. Sababi, muassasaning kattaligi va kitoblarning mavzu ko‘lami xilma-xilligi edi. Kutubxona tashkiliy

¹ http://www.alexandrianlibrary.org/?page_id=252

masalalarini uning dastlabki kutubxonachi Zenodot amalga oshiradi. U kitoblarni uch asosiy toifaga ajratadi:

Birinchi toifaga tarix kitoblari, tahrirlangan va standartlashtirilgan adabiy asarlar va Ptolomeylar davri adabiyotining yangi asarlari kiradi.

Ikkinchi toifaga yuqorida aytib oʻtilgan standartlashtirilgan ishlarni solishtirish va yaratishda foydalanilgan holdinglar kirgan. Ushbu turkum oʻz ichiga xatlar va xaritalarni ham olgan.

Uchinchi guruh koʻpchiligi grek tiliga oʻgirilgan va birinchi guruhda mavjud boʻlgan original qoʻlyozmalarni oʻz ichiga olgan. Bu boʻlimlarning har biridagi asarlarni zenodot ularning muallifi ismidagi bosh harfga qarab alifbo tartibida joylashtirgan. Bundan tashqari, materiallar oʻzining joyiga oson qaytarilishi va kutubxona foydalanuvchilari har safar undan nima borligini bilish maqsadida oʻramni ochishga majbur boʻlmasligi uchun Zenodot qoʻl ostidagi kutubxona jamoasi har bir oʻram tagiga shu asar muallifi, sarlavhasi va mavzusi haqida maʼlumot beruvchi kichkina osilib turadigan belgi oʻrnatishgan. Zamonaviy kutubxonalarga odatlangan kishilarga aniq va oddiy boʻlib koʻrinishiga qaramay, bu meta axborotning kutubxonalar tarixida birinchi qayd etilgan qoʻllanishi edi.

Zenodotning tadbqiq etgan bu usullari alohida ahamiyat kasb etsada, keyinchalik kutubxona kengaya borishi bilan samaradorlik darajasi tushib ketgan. Kutubxonadagi keyingi tashkiliy ishlar Kallimax nomi bilan bogʻliq. U kutubxonadagi adabiyotlarni janrlarga qarab boʻlimlarga ajratgan va barcha mualliflarni alifbo tartibida ismlarining birinchi harfi boʻyicha joylashtirgan. Kallimax kutubxonadagi kitoblar va ularning mualliflari haqidagi maʼlumotlarni kataloglashtirdi. U hozirgi zamonaviy kutubxonalaridagi kataloglarga oʻxshash boʻlsa-da, butun kutubxonani qamrab olmadi.

Kutubxona maʼmuriyati ham muhim hisoblanib, uning direktori kutubxona uchun foydali ishlarni amalga oshira oladigan bilimli va tajribali odam boʻlishi muhim edi. Dastlab Ptolomey Soter kutubxona direktorligi vazifasiga Teofrastni taklif etadi, ammo Teofrast bu taklifdan voz kechgach bu vazifani Zenodot egallaydi. Direktor qirol saroyi tomonidan tayinlangan va koʻpincha qirol bolalariga tarbiyachi boʻlgan. U

kutubxona, uni saqlash, o‘sishi va xodimlari uchun mas’ul shaxs hisoblangan. Bundan tashqari u ruhoniylk vazifasini ham bajargan.

Kutubxona taqdiri keyinchalik ayanchli bo‘ldi va bu masala haligacha bahslidir. Ko‘plab tadqiqotlar ham kutubxona yo‘q bo‘lishidagi afsona va hikoyalardan keak tarixiy faktlarni qidirishga qaratilgan. Hatto. bir hikoyaning bir necha xil turlari ham uchraydi.

Dastlabki va eng keng tarqalgan va mashhur qarashlardan biri bu Sezarning miloddan avvalgi 48-yilda Pompeyni ta’qib qilish ortidan Iskandariyaga borganligi va bandargohdagi kemalarni yoqishga buyruq berganligi haqidagi faktlardir. Yong‘in kutubxona binosiga ham o‘tgan va unga zarar yetkazgan. Keyingi davrlarda kutubxonaning katta zarar ko‘rishi imperator Avrelian va qirolicha Zenobiya bilan milodiy 272-yilda sodir bo‘lgan urush hisoblanadi. Bundan eng katta zarar akademiya tegadi. Xristianlik keng tarqala boshlagach insonlar orasida dogmatik fikrlar shakllanadi va hurfikrlilik yo‘qola boradi. Buning natijasida esa fuqarolar orasida ko‘plab diniy nizolar va kelishmovchiliklar yuzaga keladi. 391-yilda yuz bergan shunday g‘alayonlar natijasida dastlab Muzalar ibodatxonasi deb bilingan akademiya va kutubxona vayron qilinadi. 415-yilda xristian prefikti Kril yahudiylarga Iskandariyani tark etishlarini buyuradi. Bu qarorga akademiya so‘nggi olimlardan hisoblanmish Gipatiya norozilik bildiradi. Kril uni qatl etadi va kutubxonaning qolgan qismi uning izdoshlari tomonidan talon-taroj qilinib, yoqib yuboriladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, kutubxonaning bir qismi keyinchalik ham yashagan. Xalifa Umar davridagi yurishlar natijasida Iskandariya egallangach ba’zi kitoblar kutubxonadan olib ketilgan va qolganlarini hamomlarda 6 oy davomida yoqishgan degan qarashlar ham bor. Ammo, arablarning kutubxonani yoqib yuborishi haqidagi hikoyaga afsona deb qaraydiganlar ham mavjud.¹ Nima bo‘lgan taqdirda ham kutubxona fondining asosiy qismi bizning davrimizga qadar yetib kelmagan.

Iskandariya kutubxonasi, nafaqat, insoniyat ilmiy merosining durdonalarini o‘zida jamlagan muazzam kutubxonada edi, balki, u o‘ziga xos maktab va tadqiqot

¹ Roy MacLeod The Library of Alexandria. Centre of learning in the world. I.B.Traus-2004. P-10

markazi ham bo'ldi. Kutubxona shoirlar, tarixchilar, musiqachilar, matematiklar, astronomlar, faylasuflar va olimlarga qirol homiyligida yashash imkonini ham berildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu ikki kutubxona bilimlarni yig'gan va kelajak avlodga yetkazib bergan. Ularda bilim va ko'nikma orttirish uchun yetarli sharoitlar mavjud bo'lgan. Ushbu ikki kutubxona tarixi achinarli bo'lsa-da, ular kitoblarni saqlashda va yetkazilishida o'ziga xos muhim bosqich vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Материалы Всероссийской научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. Этюды культуры. – Томск-2014.
2. В.И.Авдиев. История древнего востока. – Москва-1970.
3. K.Ryhlt, B.Barjamovic. Libraries before Alexandria. Oxford university press-2019.
4. Yun Lee Too. The idea of the library in the ancient world. Oxford university press-2010.
5. James Westfall Thompson. Ancient libraries. University of California press-1940.
6. Roy MacLeod. The Library of Alexandria: Centre of learning in the world. I.B.Traus-2004.
7. George Smith. Assyrian discoveries. New York-1875.
8. https://www.worldhistory.org/Library_of_Ashurbanipal/
9. <https://koreascience.kr/article/JAKO200220417556643.pdf>
10. https://journals.ekb.eg/article_70332_9cf76027dac1736c08e150239bdc42d3.pdf

“OSOR AL-BOQIYA” ASARIDAGI “PAYG‘AMBARLIK DA’VO QILGAN KISHILAR” BOBINING TAHLILI

Yulduz G‘ANIYEVA
TDSHU, Falsafa yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD L.To‘rayev

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Osor al-Boqiya” asaridagi Payg‘ambarlik da’vo qilgan kishilar xususida muhim ma’lumotlar berilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, Osor al-Boqiya, Avesto, Moniy, mazdakiylik, falsafiy g‘oya.

Hali-hanuz ilm-fanga qo‘shgan hissasi, qilgan buyuk kashfiyotlari bilan dunyo e’tirofiga sazovor bo‘layotgan mashhur allomalarimizdan biri, yetuk qomusiy olim Abu

Rayhon Beruniydir. Amalga oshirgan kashfiyotlari va kuchli falsafiy g'oyalari bilan o'z nomini abadiyatga muxrlangan Beruniy merosi ancha salmoqlidir. U qoldirgan merosning ahamiyati nafaqat bugungi kunda balki o'sha davrda ham yaxshi anglab yetilgan edi. asosan birlamchi manba sifatida murojaat qilingan. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganildi, tadqiq etildi, ammo uning asarlari juda xilma-xil va turli sohalarni qamrab oladiki, uning haligacha yuzaga chiqmagan qirralari talaygina. Beruniy asarlari sharqshunoslik, astraromiya, geografiya, tarix, filologiya va boshqa ko'pgina fan mutaxassislari uchun muhim manbadir. Shu sababdan ham bugungi kunda Beruniyini o'rganish va o'sib kelayotgan yosh avlodga ham nafaqat Beruniy balki, boshqa allomalarimiz to'g'risida atroflicha ma'lumot berish maqsadida, qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Nomlarini abadiylashtirish uchun chora-tadbirlar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 24-may kuni "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹ qarorning tasdiqlanishi buyuk allomalarimizning qadimiy qo'lyozma asarlarini chuqur o'rganishga, dunyoga tanitishda imkoniyat eshiklarini ochdi. Jumladan, 2022-yil 25-avgustda qabul qilingan yana bir qaror Beruniy tavalludining 1050 yilligini YUNESKO shafeligi ostida nishonlash, Abu Rayhon Beruniy nomi berilgan yodgorlik majmualarini ta'mirlash, alloma ijodiga mansub asarlarni restavratsiya qilish va ishonchli saqlash uchun zarur sharoitlar yaratish, Abu Rayhon Beruniy merosini o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish, Beruniy siymosi tasvirlangan markalar, ko'rgazmali axborot vositalari, oltin va kumush yubiley tangalarini muomalaga chiqarish kabilardan ko'zda tutadi.²

Ta'kidlab o'tilganidek, Beruniyning qoldirgan merosi ancha salmoqli. Sulton Mahmud zamonida Shimoliy Hindistonning ko'p viloyatlariga sayohat qildi. 13 yil davomida hind xalqi adabiyoti, madaniyati, tarixi urf-odatini o'rganish bilan shug'ullanib, "Hindlarning aqlga sig'adigan yoki sig'maydigan ta'limotlarining haqiqatini aniqlash" yoki "Hindiston" risolasini yozadi. Umrining so'ngi yillarida esa "Mineralogiya", "qonuni Ma'sudiy", "Saydana" kabi asarlar yozgan. Bu asarlarida bir

¹lex.uz/docs/3211987

²lex.uz/6172044

qancha trigonometrik jadvallar kiritadi. “Saydana”da esa mingdan ortiq o‘simlik nomlarini 30 tilda berib o‘tgan va ilmiy an’anaga ko‘ra asarlarini arab tilida yozgan.¹

Bu jarayonda ko‘rishimiz mumkinki, uning ilm sohasida amalga oshirgan ba’zi ishlari o‘sha davr uchun yangilik bo‘lgan. Uning “Hindiston” asari ushbu geografik hududni o‘rganish uchun juda qimmatli manba bo‘lib, hind xalqi madaniyatining o‘tmish unsurlari va zamonaviy ko‘rinishlarini qiyoslash va davlat tarixida, ijtimoiy hayotida sodir bo‘lgan muhim voqealarni bilish imkonini beradi.

Beruniy Jurjonda muhojirlikda yashagan paytlarida “Osor al-boqiya an al-qurin al-xoliya” asarini yoza boshlaydi. Bu asar Beruniyga juda katta shuhrat keltirgan va uni fanning turli sohalariga qiziquvchi olim ekanligini isbotladi. Asarda qadimgi xalqlar to‘g‘risida berilgan ma’lumotlar ishonchliligi va qadimiyligi bilan berilgan bo‘lib, g‘oyat ahamiyatlidir. Shuningdek bu asarda Beruniy turli ixtilofli masalalar, tarixiy xatolar ustidan ham o‘z fikrini berish, ularni isbotlash bilan birga bu xatoliklarni dalillar asosida to‘g‘irlaydi. Bundan tashqari asarda turli millat va elatlarga, bir qancha din va ta’limotlarga murojaat qilinadi hamda ular tahlil qilinadi. Allomaning shu kabi jihatlari uning asarlari qiymatini o‘z zamonida ham bugungi kunda ham oshirib kelmoqda. “Osor al-boqiya” asarining “Payg‘ambarlik da’vo qilgan kishilar va ularning aldangan ummatlari-ularga Olamlar egasining la’nati bo‘lsin-tarixlari ustida so‘z” bobida bir qancha soxta payg‘ambarlar keltiriladi va ularning ta’limotlari to‘g‘risida atroflicha ma’lumotlar beriladi.

Zikr qilingan soxta payg‘ambarlarning avvalgisi Budasofdir. U Taxmuras podshohligidan bir yil o‘tganda Hindiston zaminida yuzaga chiqdi va o‘zi bilan fors tilida bitilgan kitob olib keldi. Budasof sobiylik mazhabiga da’vat etdi va unga ko‘pchilik xalq ergashgan. Aytishlaricha Ka’ba va uning sanamlari sobiylarniki bo‘lgan, ularga ibodat qilganlar esa sobiylardan bo‘lgan. Ularda uch vaqt farz namozlari bo‘lgan, bundan tashqari belgilangan soatlarda uch marta nafl namozlari o‘qilgan. Ularning ko‘pgina payg‘ambarlari yunon faylasuflari bo‘lishgan. Budasof yuzaga chiqishidan avval shamaniylar bo‘lib, yerning Sharq tomonida turar va butlarga

¹Hamidjon Xomidiy, “Ko‘hna sharq darg‘alari”, Toshkent-1999 B.35-36

sig'inardi. Ulardagi ayrim masalalaridagi hukmlar musulmonlar va yahudiylik dinidagi hukmlarga o'xshaydi.¹

Budasof ilgari surgan bu mazhab bir qancha din va ta'limotlar asosiga qurildi. Asardagi ma'lumotga ko'ra, Budasof targ'ib etgan mazhabda majusiylik va yahudiylik qorishgan shaklda namoyon bo'lgan. Bundan tashqari, ularning e'tiqodlari va hind xalqi diniy qarashlari o'rtasida ham bog'liqlik mavjud. Ba'zi amallari va ba'zi masalalari bilan esa islom diniga o'xshash tomonlarini ko'rish mumkin.

Undan keyin ozarbayjonlik Zardusht yuzaga chiqdi. Bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" edi. Kitob maxsus tilda yozilgan. Ibroniylar Zardusht Ilyos payg'ambar shogirdlaridan edi, deya da'vo qilishadi. Zardusht o'zining tug'ilish kitobida esa bolalik paytlarida Xarronda hikmatshunos Ilyosdan ilm o'rganganini aytadi. Zardushtga Rumliklar ham da'vo qiladi. Asarda yozilishicha, Podshoh Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tilla suvi bilan bitilgan bir nusxasi bo'lgan. "Avesto" o'ttiz "nask" bo'lgan, Iskandar yondirganidan keyin majusiylar qo'lida o'n ikki nask qoladi. Qur'on bo'laklari haftiyak deyilganidek, nask Avestodagi bo'laklarning nomidir.²

Zardusht payg'ambarlikni da'vo qildi, bunga xalqni, hukmdorni ham ishontirdi. Zardusht soxta payg'ambar sifatida talqin etilsa ham, ushbu din kishilarni ezgulikka chorlaydi, mehnatkashlikka, yaxshi amallar qilishga, boshqalarga yaxshi munosabatda bo'lishga, yurtni obod qilishga chaqiradi. Mana shu kabi jihatlar e'tiqodchilar sonining muttasil oshib borishiga imkon yaratdi. Zardushtiylik ta'limoti ming yildan uzoqroq davr mobaynida o'z e'tiqodchilarning hayot tarzini belgilab keldi.

Majusiylar gumonicha, Zardusht osmondan kunduz yarmida Balxdagi bir ayvon tomiga tushgan. Tom yorilib, hukmdor Bishtosf uyqudan uyg'onadi. Zardusht uni majusiylikka, tangriga imon keltirib, uni pok va muqaddas bo'lishga, shaytonga ibodat qilmaslikka, podshohlarga bo'ysunishga, o'z tabiatini isloh etishga da'vat etgan.³

¹ Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Beruniy, Toshkent: "Fan" 1968 B.233-235

² Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Beruniy, Toshkent: "Fan" 1968 B.236-238

³ Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Beruniy, Toshkent: "Fan" 1968 B. 236-37

Zardusht o‘z ta’limoti, yangi yetishib kelayotgan din asnosida davlat hokimiyatida ham birlikka erishishga, Podshohlar hukmronligini mustahkam saqlashga, xalqni kichik viloyat yoki noiblik boshqaruvchilarini sadoqat bilan xizmat qilishga da’vat etadi. Bu din mazhablarga bo‘linmadi, dastlabki yaratilgan diniy ta’limot saqlanib qoladi.

So‘ngra ikkovidan keyin Fodarun shogirdi Moniy keldi. U majusiylar, xristianlar, sanaviylar ya’ni ikkilanuvchilar mazhablarini bilgan. U ham payg‘ambarlik da’vo qildi. Ta’limotining Shopur ibn Ardasheriga atab yozilgan “Shopuraqon” nomli kitobda o‘z aksini topgan. So‘ngra “bu oxirgi asrda men Moniyga-haqiqiy xudoning elchisiga-shu vahiy tushirilib va payg‘ambar keltirilib, Bobil zaminiga yuborildim”.¹

Moniy mavjud aksariyat din va ta’limotlardan xabardor edi, ularni chuqur bilardi. Bu esa unga bu ta’limotlarni qiyoslash, ularning kamchiliklarini o‘rganish yutuqli tomonlarini bilish imkonini beradi. Moniy borliq haqidagi qarashlarini ham berib o‘tadi. Axloqiy qarashlarida insonlarni dunyoviylikdan yiroq bo‘lishga, tarkidunyochilikda yashashga targ‘ib etadi. Shuningdek, ta’limotda, sadaqa qilish, bir kunlik ovqat va bir yilga yetadigan kiyimdan boshqa mol-mulk to‘plamaslik kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Moniy yaratgan ta’limotidagi hayvonlarni so‘ymaslik, ularga ziyon yetkazmaslik o‘simliklarni suv va olovni toptamaslik kerakligi va bunday harakatlar harom qilinganligi buddaviylik elementlarini, tarki dunyo qilish, xalqni da’vat qilib doim yo‘lga solish uchun dunyo kezish kabi jihatlari bilan esa xristianlikni yodga soladi. Bu jarayondan ham ma’lum bo‘ladiki ushbu din mustaqil holda shakllanmaydi, balki avvalgi din va ta’limotlar asosida yuzaga keladi. Moniy “Tiriklar xazinasini”, “Jabborlar” haqida kitobi, “Sirlar kitobi” kabi kitoblar yozdi va ularda Iso Masihning ramzlarini ochganini aytdi. Shopurdan so‘ng Shoh Bahrom uni ayanchli tarzda o‘limga hukm qiladi va Jandishopur shahrining darvozasiga ostirdi. Bu darvoza Beruniy davri paytida ham “Moniy darvozasi” deb atalgan. Moniydan so‘ng ham ta’limotga ergashuvchilar kattagina jamoalarni tashkil qilgan. Moniylik ko‘pgina yirik davlatlarning davlat diniga aylanadi.

¹Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Beruniy, Toshkent: “Fan” 1968 B.241

XIX asr soʻngida Sharqiy Turkistondan moniy traktatlarining parchalari topilgan. XX asr boshlarida esa Misrdan taʼlimot asoschisi Moniy asarining koʻptilidagi tarjimasi chiqdi. Bundan tashqari, turk-moniy muhitida yaratilgan maʼnaviy yodgorliklar katta ahamiyatga egadir. Moniylik falsafasida turk-moniy muhitida yaratilgan sheʼrlar muhim oʻrin tutadi.¹

Moniylik dini oʻz gʻoyalari bilan Markaziy Osiyo va Erondan boshqa mintaqalarda ham tarqaldi. Oʻz navbatida taʼlimot chuqur falsafiy qarashlarni oʻzida mujassamlashtirgan edi. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari ushbu dinning asosiy gʻoyalari va taʼlimotlari bilan tanishtiradi.

Ulardan keyin Naso aholisidan boʻlgan Mazdak ibn Xamdodon degan kishi paydo boʻldi. U sanaviylikka daʼvat etdi. Qabod ham unga imon keltirdi. Baʼzi eronliklar fikricha, Qabod unga faqat tobelari koʻpaygan paytda, davlati uchun xavfli boʻlishidan qoʻrqib, majburiy surʼatda ergashadi. Baʼzilarning fikriga koʻra, Mazdak hiylagarlardan boʻlgan va oʻz manfaatini yuzasidan bu mazhabni oʻylab chiqaradi.²

Mazdak targʻib etgan mazhab taʼlimotidagi asosiy gʻoyalar oʻz manfaatlariga moslashtirilgan holda targʻib etiladi. Va faqatgina shu jihatdan taʼlimotini oʻylab chiqaradi. Mazhabini eʼlon qilgandan soʻng siyosiy nufuzga ham ega boʻladi. Yaʼni asta-sekin davlat hayotida inkor etib boʻlmas oʻringa ega boʻlib boradi. Unga imon keltirgan Qabod uning xohish-istaklarini soʻzsiz amalga oshiradi. Uning taʼlimotida diniy va falsafiy gʻoyalarga qaraganda ijtimoiy masalalarga va mulkiy tenglikka eʼtibor qaratadi.

“Osor al-Boqiya”da islom dini paydo boʻlganidan keyingi davrlarida ham bir nechta soxta paygʻambarlar paydo boʻldi. Oʻninchi hijrat yilida Yamomada Musaylima paydo boʻldi. Abu Muslim davrida Baxofarid ibn Moh Furudin, Muqanna nomi bilan tanilgan Hoshim ibn Hakim, soʻngra fors aholisidan soʻfiylar yoʻlini tutgan Husayn ibn Mansur al-Xalloj, Ibn Abu Zakariyo at-Tammomiy, Ibn Abu Azoqir kabilar ham paygʻambarlik daʼvo qildilar. Bu toʻgʻrisida “Osor al-boqiya”da ularning taʼlimoti, asosiy

¹Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent-2018 B.209

²Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Beruniy, Toshkent: “Fan” 1968 B.244

g'oyalari haqida to'liq ma'lumot beriladi. Nomi sanab o'tilgan kishilarning barchasi-ning ta'limoti haqiqatga emas balki, insonlarga yolg'on so'zlash, o'z manfaati yo'lida ulardan foydalanish asosiga quriladi. Yuqorida nomi sanab o'tilganlarning har birining hayoti fojia bilan yakunlanadi. Ma'lumki bu insonlar ilgari surgan ta'limotlari islom dinidan so'ng yuzaga chiqdi, ularning ta'limotlari esa islom aqidalariga, axloqiy tizimiga, diniy dalillarga mos kelmagan va e'tiqodchilari boshqa din va ta'limotlaridan birmuncha kam, alohida yo'nalish sifatida uzoq vaqtgacha saqlanib qolmagan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Beruniyning Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari o'tmishni, o'sha davrda Sharq xalqlari tarixida yuz bergan muhim voqealarni, siyosiy-ijtimoiy hayotini o'rganishda muhim manbadir. Bu kabi manbalar ko'p ammo Beruniy asari o'zining qadimiyligi va keltirilgan masalalarning har biriga xolisona yondashgani bilan ahamiyatlidir. Beruniy fikr yuritayotgan mavzusi yuzasidan olgan axborotini rostligi yoki haqiqatdan yiroqligi borasida fikr yuritadi, imkoni boricha aniq ma'lumot keltirishga harakat qiladi. Ta'kidlash o'rinliki, asarlarida ma'lumotlar o'zgarishsiz, asl holatida beriladi. Mana shunday jihatlari bilan o'sha davrdan toki bugungi kungacha qimmatli va noyob manba sifatida o'rganiladi va foydalaniladi. Aynan yuqorida tahlil qilingan "Payg'ambarlik da'vo qilgan kishilar" bobida ham aniq ma'lumotlar beradi. Ularning ta'limotini o'quvchiga tushunarli holda yetkazib bergan. Bu bob orqali, o'tmishda mavjud dinlar haqida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Unda o'sha davr kishilarining mafkuraviy qarashlari, diniy e'tiqodlari tasvirlangan. Bularning hammasi bu insonlarning falsafiy qarashlarini, dunyoga munosabatlarini bilish imkonini ham beradi. Beruniyning masalaga obyektiv qarashini aytib o'tdik, shuningdek, u kelajak avlodga dars bo'lishi va kelgusida bunday masalalarda xatoga yo'l qo'ymasliklari uchun o'tmish xatolarini ham keltiradi. Abu Rayhon Beruniy asardagi bu bob orqali soxta payg'ambarlardan va ularning yolg'on da'vatlaridan ogoh qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidjon Xomidiy, "Ko'hna sharq darg'alari", Toshkent-1999
2. "Buyuk siymolar, allomalar". Toshkent-1995
3. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Beruniy, Toshkent: "Fan" 1968
4. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2018.
5. lex.uz/docs/3211987

ABU ALI IBN SINO — QOMUSIY ILM SOHIBI

Jasminabonu UMIDOVA
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti tarix yo‘nalishi
1- bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sh. Parmonov
— *Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdá Abu Ali ibn Sinoning tabobat ilmiga , nafaqat tabobat ilmiga balki tilshunoslikka, tarixga va boshqa shu kabi fanlarga qo‘shgan hissasi ilmiy faktlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Abu Ali ibn Sino, tibbiyot, Tib qonunlari, Falsafa, Kimyo, Psixologiya.

Abu Ali ibn Sino (to‘liq ismi: Abu Ali al-Husayn ibn Abd Allāh ibn Sino al-Balxiy — O‘rta osiyolik buyuk qomusiy olim, olimi, tabib va faylasuf deb yuritilgan. 980-yilning 18-iyunida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan¹ va 1037-yilning 16-avgustida Hamadonda vafot etgan. G‘arbda Avitsenna (ingl. Avicenna) nomi bilan mashhur. Al Husayn Ibn Abdulloh ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino — buyuk olim, tabib, musiqachi. O‘rta Osiyo va Eronda yashagan, turli hukmdorlar paytida tabib va vazir bo‘lgan. Ibn Sino risolalari Sharq hamda G‘arbda bag‘oyat mashhur. “Tib qonunlari” nazariy va klinik meditsina ensiklopediyasi — yunon, rum, hind hamda o‘rta osiyolik tabiblar nuqtai-nazari jamlanmasi — bir necha asr davomida, hatto Yevropada ham zarur qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Meditsinaga oid ishlari Ibn Sinoning asosiy meditsina asarlari

“Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fit-tibb») — ensiklopedik xarakterdagi asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday

¹ Bahodir Eshov A.A. Odilov O‘zbekiston tarixi I b 258

mayda bo‘laklar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumliligiga e‘tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxov kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga o‘girilgan ko‘p-lab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismdan iborat bo‘lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta‘rifiga bag‘ishlangan¹. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o‘simlik ko‘rinishidadir. “Dori vositalari” («Al-Adviyat al kalbiya») — Xamadonga birinchi borishi vaqtida yozgan. Mazkur asarda pnevma hosil bo‘lganda va namoyon bo‘lganda yurak faoliyati, xususan, yurak kasalligi va davosi haqida batafsil yoritib berilgan².

“Xatolarni to‘g‘irlash va ogohlantirish orqali turli usullarda olib tashlash” («Daf‘ al-mazorr al kulliya an al-abdon al insoniya bi-tadorik anvo‘ xato an-tadbir»).

“Sharobning foydasi va zarari haqida” («Siyosat al-badan va fazoil ash-sharob va manofi‘ix va mazorix») — Ibn Sinoning eng qisqa risolasi.

“Tabobat haqida doston” («Urdjusa fit-tib»).

“Tomir urushi haqida risola” («Risolayi nabziya»).

“Sayohatchilar uchun tadbirlar” («Fi tadbir al-musofirin»).

“Shahvoniy kuch haqida risola” («Risola fil-l-box») — kasallik, uni oldini olish va shahvat buzilishlarini davolash ifodalangan.

“Sirka-asal haqida risola” («Risola fi-s-sikandjubin») — turli tarkibga ega sirka va asalni tayyorlash va kasalliklarda iste‘moli ta‘riflangan.

“Sachratqi haqida risola” («Risola fil-xindabo»).

“Qon olishda qon tomirlar” («Risola fil-uruk al-mafsuda»).

«Risola-yi judiya» — quloq, oshqozon, tish kasalliklari ta‘rifi keltirilgan. Bundan tashqari, unda gigiyena muammolari keltirilgan. Ayrim tadqiqotchilar Avitsennaning muallifligiga shubha qilishadi.

Kimyo: Kimyo sohasida Ibn Sino efir moylarini haydash jarayonini ochgan. Xlorid, oltingugurt va azot kislotalari, kaliy va natriy gidroksidini chiqara olgan.

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi-B 231

² Arbob.uz " ijtimoiy tarmog‘i

Astronomiya

Ibn Sino astronomiya sohasida Arastuning yulduzlarga Quyosh nuridan yorug'lik tushadi degan qarashlariga qarshi chiqarkan, yulduzlar o'z yorug'ligi bilan porlaydi, shuningdek, sayyoralar ham o'zi nur sochadi, deya taxmin qilgan. 1032 yil 24 may kuni Zuhra sayyorasi Quyosh gardishidan o'tayotganini kuzatganini ma'lum qilgan. Biroq, hozirgi zamon olimlari mazkur o'tish aynan shu yerda va shu vaqtda bo'lganligiga gumon qilishadi. Bu kuzatuvdan u ptolomey kosmologiyasiga binoan, Zuhra sayyorasi gohida Yerga Quyoshdan ko'ra yaqinroq kelishini asoslash maqsadida foydalangan.

Falsafa: Ibn Sino metafizika fani tushunchasida Arastu izidan borgan. Al Farobiydan keyin u mavjudlik va mavjud emaslik o'rtasidagi farqni boshqalarga nisbatan hamda mavjudlik va mavjud emaslik o'rtasidagi farqni o'ziga nisbatan ko'rsatadi. Ibn Sino Yaratganning abadiy ekanligini ta'kidlaydi. Abadiylik tushunchasini Ibn Sino emanatsiyaning noopltonik tushunchasi yordamida tushuntirib, shu orqali u boshlang'ich yagonalikdan ko'plik jonzotlar dunyosiga o'tishni mantiqiy yoritib bergan. Biroq, koinotga bir kishi kelib chiqishining yakuniy natijasi sifatida emas, balki barcha ixtiyoriy mavjudotning zarur elementi sifatida qarab, noopltonik tushunchadan farqli ravishda, emanatsiya jarayonini samoviy osmon olami bilan chegaralab qo'ydi. Koinot uch olamga bo'lingan: moddiy dunyo, yaralmagan abadiy qiyofa dunyosi va dunyoning barcha xilma-xilliklarini o'zida jalb qilgan dunyo. Inson tanasi va qalb birligi tirik jonni hosil qiladi; falsafiy fikrlovchi insonga aqlli qalbni qabul qilishga moyil tana asos bo'ladi. Mutlaq haqiqatga fikrlash jarayonining eng yuqori nuqtasida hozir bo'luvchi ichki hissiyot orqali erishiladi¹.

Psixologiya: Ibn Sino, shuningdek, temperament va inson xarakteri haqida o'z ta'limotini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, inson mijozi to'rtga bo'linadi: issiq, sovuq, nam va quruq (zamonaviy psixologiyadagi to'rt mijozga mos ravishda). Mazkur mijozlar turg'un emas, balki meteorologik va havo o'zgarishi kabi tashqi yoki ichki omillar natijasida o'zgaradi. Organizmdagi suyuqlik darajasi ham inson mijoziga o'zgarishlar kiritishi mumkin. Oddiy mijoz turlari bilan birga, Avitsenna yana to'rt mukammal

¹ B. Aminov, N.Norqulov "O'zbekiston tarixi". B 187.

mijozni ajratib, ular organizmdagi to‘rt suyuqlikdan biri (qon, shilliq, sariq va qora safro) ustun kelishiga ko‘ra tuslanishini bayon qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abu Ali ibn Sinoni dunyo bilimlarining barcha jabhalarda o‘zini yorqin tarzda ko‘rsata olgan qomusiy olim desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U kelajak avlodlarga o‘zidan yetarlicha bilim va tajribalarni meros qilib qoldirgan buyuk siymodir. Abu Ali ibn Sinoning bizga qoldirgan eng katta va mashhur asari bu tabobat ilmiga bag‘ishlangan “Tib qonunlari” asari hisoblanadi. Bu asardan nafaqat butun sharq balki Yevropa mamlakatlari ham hozir -hozirgacha o‘rinli foydalanib kelishmoqda. Shu sababli ham Ibn Sinoni o‘z davrida tabobat ilmining sultoni deya ta’riflashgan. Abu Ali ibn Sinoning boshqa sohalarda olib borgan ishlarini esa yuqoridagi tezisimizdan bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bahodir Eshov A.A. Odilov O‘zbekiston tarixi I-T 2013.
2. A. Sagdullayev. “O‘zbekiston tarixi”. -Toshkent 2002.
3. “Arbob.uz” ijtimoiy tarmog‘i
4. Aminov, N.Norqulov. “O‘zbekiston tarixi”. -T Akademik nashr 2002.
5. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov Vatan tarixi. 1-kitob –T., 2011.

ABU RAYXON BERUNIY ASARLARIDA ILM VA HUNAR EGALARIGA BO‘LGAN MUNOSABAT

Sevinch TILABJONOVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich Tarix yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.n, professor Ya. G‘afforov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolani Abu Rayxon Beruniy ijodlaridan bir shingil deyishlik mumkin. Beruniy asarlarida ilm va hunar ahli, olimlar, mehnatkashlar haqida ko‘p o‘rinlarda so‘z boradi. Maqolada ijtimoiy masalalardagi Abu Rayxon Beruniyning fikrlarini ko‘rishlik mumkin. Davlat va jamiyatning tayanchi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sohani aytishlik mumkin. Shu sababda o‘rta asrlarning buyuk olimlaridan hisoblanmish Abu Rayxon Beruniyning bu masaladagi fikr-mulohazalari keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Abu Rayxon Beruniy, Qomusiy olim, ilm, hunar, mehnat, olim.

Abu Rayhon Beruniy — oʻrta asrlarda yashab, ijod qilgan buyuk olimlardan biri hisoblanadi. Uning toʻliq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy boʻlib, Abu Rayhon kunyasi, yaʼni Rayhonning otasi deganidir. Muhammad mutafakkirning ismi, Beruniy esa taxallusidir. Alloma 973-yil 9-sentyabrda Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida tavallud topgan. Buyuk olimning bergan maʼlumotlariga koʻra, onasi oʻtin terish bilan tirikchilik qilib, kun kechirgan. Abu Rayhon Beruniy oddiy bir faqir oilada tugʻilib voyaga yetgan. U ota-onasidan juda yosh yetim qolgan va Iroqiylar xonadonida tarbiyalangan. Al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur oʻrgandi. U juda yoshligidan ilm va fanga qiziqqan.¹

Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy bizga oʻzlarining qimmatli va qadrli asarlarini qoldirganlar. Bu asarlarni oʻqib oʻrganar ekanmiz Beruniy hazratlarining ilm-fan sohalari boʻyicha anchayin keng qamrovli ilmlarga ega ekanliklarini koʻrishimiz mumkin. Asarlarida yosh avlodga turli ilmlar bilan birga hikmat va oʻgitlarini ham berganlar. Ilm oʻrganish bilan kamolga yetadi.

Eng muhim gʻoya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmatini uning avlod-ajdodlarining kim boʻlganligi emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi. Har bir davrning urf-odatlarini oʻziga xos boʻladi va inson ahli ularga rioya qilmogʻi darkordir, aks holda nizom va bir xillik yoʻqolsa, tartib ham yoʻq boʻladi, deb uqtiradi buyuk donishmand. Olimning fikrlariga tayanib shunday muhim qisqacha xulosalar chiqarish mumkinki, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Inson avvalo halol mehnati bilan ulugʻlanadi, kishilik jamiyatining asl ibtidosi ham mehnatdandir².

Dinimiz ham mehnatni ulugʻlaydi. Mehnat deganda faqat dehqonchilik yoki ogʻir jismoniy ishlarni tushunmasligimiz kerak. Biror kasb va hunarni oʻrganishlik jarayoni ham qiyin va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Buning natijasida oʻrganilgan

¹ Maʼnaviyat yulduzlari “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2001 95-b

²Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi (Darslik). Tashmatov Sh.X., Asatullaev X.S., Allaberganov Z.G. Toshkent – 2018. 50-51-b

kasb-kor Bani Odamni ulug'likka yetaklaydi. Beruniy asarlaridan shuni bilishimiz mumkinki bilimlarni egallash va hunar o'rganish uchun mehnat qilish lozim. Ushbu jarayon doim takrorlanadi va takomillashib boradi.

Abu Rayxon Beruniy mehnatni turlarga ajratib, ularning har qaysisi alohida talab va ehtiyojlar asosida vujudga kelishini ko'rsatib berdi. Binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini og'ir mehnat deb biladi. Ilm, ma'rifat zahmatkashlari mehnatiga ta'rif berish, ilm olish, o'qish eng kerakli mehnat ekanligini isbotlaydi. Shunga ko'ra olimlarning mehnatini qadrlash turli ilmlar ko'payishiga olib keladi. Olim jamiyatning asosini moddiy ne'matlar uchun bo'lgan harakatlarda, mehnatda deb biladi. Allomaning 152 asari ma'lum bo'lib, bizgacha uning faqat 30 tasi yetib kelgan. Jami asarlarining 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga, 18 tasi adabiyotga bag'ishlangan¹.

Qul mehnati, majburiy mehnatdan erkin kishilarning faoliyati usutunligi isbotlab beriladi (erkin bozor munosabatlarining asosi). Mehnatkashlarning xohish-irodasiga qarshi, ularni majburlab ishlatishga qarshi bo'lgan, chunki bunday mehnat samarasi pastdir. Meros bo'lib avloddan avlodga o'tib keladigan hunarlar yuqori baholangan².

Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki Beruniy mehnatni: og'ir mehnat va aqliy mehnatga bo'lmoqda. Shuningdek ilm ahlini ulug'lashlik, ularni mehnatini boshqa soha vakillaridan ustun qo'yishga chaqirmoqda. Buning sababi o'laroq har soha har mehnatning asosi ilmga borib taqalishligini aytishlik mumkin. Biror hunar yo'qki ilmini o'rganmasdan u hunarning ustasi bo'lishlik mumkin bo'lsa. Fikr davomida shuni aytish mumkinki qullar mehnatidan erkin kishilarning mehnati doimo ustun turadi. Buni biz hozirgi kunda erkin bozor munosabatlari sifatida bilamiz. Yurtimiz hududida asrlar davomida hunarmandchilik avloddan avlodga meros sifatida o'tuvchi kasb bo'lgan. Buning natijasida bir hududning ma'lum mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik

¹ Imom Buxoriy Xalqaro Ilmiy-Tadqiqot Marzaki, O'zbekistondagi islom sivilizatsiya markazi "Abu Rayhon Beruniy" IBXITM-2022 6-7-b

² Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O'rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev. Toshkent – 2005. 65-b

sexlarga aylanib qolganini ko‘ramiz. Bunday vaziyatda kasbning barcha sir asrorlari bir oila bir sulola tarzida davom ettirilib kelingan.

Beruniy og‘ir jismoniy mehnat qiluvchilar, ya’ni konda ishlovchilar, yer ostida gavhar qidiruvchilar, dehqonlar to‘g‘risida, ularga berilishi kerak bo‘lgan imtiyozlar va ish haqi haqida “Minerologiya” asarida keng mulohaza yuritadi. Ayniqsa, ochiq va yer ostidagi kon ishlariga alohida e’tibor beriladi, yerosti konlarini mustahkamlash (falokatning oldini olish uchun), yerosti suvlarini chiqarib tashlash, olingan rudani yuqoriga olib chiqish uchun maxsus moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kon atrofida konchilar qishlog‘ini barpo etish zarurligi ko‘rsatiladi. Yerosti boyliklarini qazib olish ishlari katta jismoniy mehnat, ixtirochilik, aqliy mehnat va bilim sarflashni talab etadi.¹

Olimning mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “Minerologiya”da hozirgi kunning muhim kasblaridan hisoblanadigan konchilik haqida va bu ishda nimalarga ahamiyat qaratishlik keraklidir to‘g‘risida so‘z borgan. Konchilik anchayin qiyin va xatarli ishlardan hisoblanadi. Shu sababdan avvalo havfsizlik masalalariga ahamiyat qaratish kerakligini va bu ish aqliy mehnat talab qilishi aytilgan. Aqliy va jismoniy mehnat doimo bir biri bilan aloqada bo‘lishligi ko‘rinib turibdi. Hech kim menga bulardan biri yetarlik ikkinchisi menga kerak emas deya olmaydi. Shunday ekan ota-bobolarimiz yo‘lidan yurib har ikkisini birdek olib borishimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar aqliy va jismoniy mehnatga bo‘linishligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek bu ikkisining chambarchas uzviy bog‘liqligi, birini ikkinchisidan ajrata olmaymiz. O‘rganish va o‘rgatish jarayonida ham bu jihatlarga e’tibor berishligimiz lozim. Insonning asosiy maqsadlaridan biri yer yuzini obod qilishlikdir. Shu maqsad yo‘lida odamzod umri davomida tinim bilmay mehnat qiladi. Atrofimizda inson qo‘li bilan obod qilingan ko‘plab joylarni ko‘rishligimiz mumkin. Yana bir jihatni aytib o‘tishlik kerakki Abu Rayxon Beruniy hozirgi kunimizga aloqador ko‘plab ilmlarning debochasini yaratgan olimlardan hisobladi. Shunday ekan qomusiy allomamizning ilmlarini o‘rganishda davom etishligimiz kerak.

¹ Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O‘rmonov. Iqtisod-Moliya. Toshkent – 2007 45-b

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ma’naviyat yulduzlari “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2001 95-b
2. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (Darslik). Tashmatov Sh.X., Asatullaev X.S., Allaberganov Z.G. Toshkent – 2018.
3. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. A. Razzoqov, Sh. Tashmatov, N. O‘rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev. Toshkent – 2005.
4. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. A. Razzoqov, Sh. Tashmatov, N. O‘rmonov. Iqtisod-Moliya. Toshkent – 2007
5. Imom Buxoriy Xalqaro Ilmiy-Tadqiqot Marzaki, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiya markazi “Abu Rayhon Beruniy” IBXITM-2022

집들이- KOREYS XALQINING UY TO‘YI MAROSIMI

Durdona JO‘RAYEVA
TDSHU, Filologiya va tillarni o‘qitish (koreys tili)
yo‘nalishi 2 –bosqich talabasi,
ilmiy rahbar: PhD, dots. v.b. D. Ashirbayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys xalqining 집들이- ya’ni, yangi uyga ko‘chib o‘tishni nishonlash marosimi haqida so‘z yuritiladi. Ushbu marosimda uy egalariga yaxshilik tilash maqsadida hadya etiluvchi sovg‘alarning turli-tuman qiziqarli ma’nolari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: uy, ziyofat kuni, ko‘chib kelish, salomlashish, gugurt, sham, taom, taklifnoma.

Har bir xalq uchun o‘z uyiga ega bo‘lish katta ma’noni anglatadi. Koreys urf-odatlariga ko‘ra yangi uyga ko‘chib o‘tgandan so‘ng, qarindoshlar va yaqinlarni ziyofatga taklif qilish odat tusiga kirgan. Ayrim koreys madaniyatshunoslar bu marosimni *mehmonni uyga chaqirmoq, ziyorat qilmoq, uyning manzilini bilmoq*, kabi ifodalar bilan yoritishadi. Shuningdek, yangi ko‘chib o‘tilgan uyga yoki yangi turmush qurgan oilaning uyiga tashrif buyurish bu 집알 [Jipal] deb nomlanadi.¹ Shu bilan birga, ko‘chish vaqtida ovqat tayyorlash va mehmonlarga xizmat qilish jarayoni

¹ Cho Yong- Hee, Han Yumi, Tcho Hye- Young. Korean Culture in 100 Keywords. Korea, 2017.- P.140.

esa 들떡¹[deulteok] deb ataladi. Uy to‘yi bilan bog‘liq ajoyib irimlar va marosim sovg‘alari borki, ular bilan birin-ketin tanishib chiqamiz.

Koreyslarda 이삿날 [isannal], ya‘ni, *ko‘chilgan kunda uy egalari tushiga cho‘chqa hayvoni kirsa, uy egalarining hayotiga baxt va daromad olib keladi degan irim ham mavjud. Shu bilan bir qatorda qadimda uy egalarini qo‘rquvga soluvchi bir jihat ham bo‘lganki, ular shu kuni o‘g‘ri tushishidan hayiqishgan. Sababi esa uy egalarining qattiq charchog‘i ularni tunda hushyor tortishdan bir oz toliqtirgan.*

Uy to‘yi marosimining tarixi juda qadimga borib taqaladi va turli an‘analarni o‘zida aks ettiradi. O‘tmishda uy to‘yida amalga oshirilgan urf-odatlariga ko‘ra qo‘ni-qo‘shnilar bilan birga bo‘lib, ko‘chib o‘tish marosimlarida qishloq ahli ko‘maklashar, birga bayram qilishar edi. Bu orqali yangi uyda tinch-osoyishta hayot uchun ibodat qilish marosimi mavjud bo‘lgan va bugungi kungacha saqlanib qolgan. Mazkur marosim boshlanishidan avval isiriq, spirtli ichimlik, toza suv, tol novdasi yoki yashil barg tayyorlab qo‘yilgan. “Uyni himoya qilish, yovuz ruhlardan saqlash va barcha ishlar ijobiy amalga oshishida yordam berish” ma‘nosini ifodalovchi o‘ziga xos marosim uy egalari tomonidan Osmon va Yer Xudosiga ta‘zim qilish orqali amalga oshirilgan.²

Koreys xalqi urf-odatlarida ham ham o‘zbek xalqi singari mehmonga bo‘sh qo‘l bilan borilmaydi. ”빈손으로 가면 안 된다” ya‘ni, *bo‘sh qo‘l bilan borish mumkin emas/ bo‘sh qo‘l bilan borilmaydi* kabi naql bor. Shu sababdan mehmonlar uy egalari o‘zlari bilan turli xil sovg‘alar olib boradilar. Mehmonlar hadya etadigan sovg‘alarning har birida o‘ziga xos ma‘no mavjud bo‘lib, kelajakdagi ishlariga ezgu tilaklar o‘zida mujassamlashtirgandir.

Uy to‘yiga taklif qilinganda, sovg‘a sifatida sovun, kir yuvish vositasi, sochiq, gigiyenik qog‘oz, gugurt, sham, va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlarini tuhfa qilish odatiy holdir. Qadim zamonlardan beri keng tarqalgan sovg‘alardan biri -gigiyenik qog‘oz hisoblanadi. Aslida, gigiyenik qog‘oz juda foydali va kundalik hayotda har kuni

¹ 떡 [Tokk]- mehmonlarga beriladigan taom “tokk” deb ataladi. Bu guruchdan tayyorlanadigan shirinlik bo‘lib, Chusok bayramida, tug‘ilgan kun va milliy bayramlarda tortiladigan shirinlik.

² Jeon Mi. 문화속. 2008. –P. 60.

foydalaniluvchi vositadir. Uni sovg'a qilishdan maqsad uy egalarining muammolari hech bir to'siqsiz o'z yechimini topishi hamda uzoq umr ko'rish kabi ramzlarni ifodalaydi.¹

Sovg'alardan yana biri – kir yuvish vositasi ham eng mashhur sovg'alardan. Kir yuvish vositasidagi pufakchalar baxt va boylikni anglatadi. Shamlar esa xuddi yo'lni yoritib, yangi uyga kirmoqchi bo'lgan barcha yovuz ruhlarni va baxtsiz narsalarni haydashini anglatadi. Gugurt – olov kabi porloq va omadli hayotni ifodalaydi. Shundan ko'rinib turibdiki, asosan, sovun, gigiyenik qog'oz va kir yuvish vositalari asosiy sovg'a sifatida hadya qilinadi. Yuqorida qayd etilgan sovg'alardan tashqari uy egalari istagini inobatga olgan holda sovg'a tanlash ham muhimdir.

Yangi ko'chib o'tilgan uyda mehmonlarni taom bilan siylash muhim odatlardan biri. Uy to'yi marosimida koreys oshxonasida turli taomlar tayyorlanadi. Bular: 떡 [ttok] guruchdan tayyorlanadigan shirinlik, 갈비찜 [galbi- jjim] mol go'shtining qovurg'asidan tayyorlanadigan taom, 불고기 [bulgogi] go'shtdan tayyorlanadigan taom va h.k. Ziyofat uchun taomnoma shunchalik xilma-xil bo'ladiki, uyga taklif qilinganlarning yoshi, jinsi va didini hisobga olgan holda taomnoma tuzilishi muhimdir.²

Uy to'yi ziyofatiga taklif qilish uchun yozilgan taklifnomada, uni nisbatan erkin yozish mumkin, jumladan taklifnomaning sanasi va joylashuvi kabi asosiy ma'lumotlarni oddiy hujjatdan ko'ra chiroyliroq shaklda yozish mumkin. Uy to'yi marosimiga mos dizaynni tanlab, ajoyib taklifnomani yaratish mumkin. Taklifnomalarda esa taklif sanasi, vaqti, joylashuvi va marosim tafsilotlari kabi asosiy ma'lumotlarni to'ldirish va taklif etiladigan mehmonlarni marosim haqida ma'lum darajada xabardor qilish kerak.³

¹ Song Yeong-Jung. 한국어 표준교재. 2014.- P. 191.

² Xan Sim-Mi, Li Ki-Seong, Li Ji-Yeong, Yun Jeong -Nam, Li Yun-Ju, Choey Yeong-long. 새 연세 한국어. 2019. –P.102.

³ Li Jeong- Hui. 한국어와 한국 문화. 2014. -P.130.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, koreys xalqining uy to'yi marosimi boshqa an'analardan ajralib turadigan, o'ziga xos marosim bo'lib, unda uy egalariga hadya qilinuvchi har bir sovg'aning o'z ramziyligi mavjud. O'tmishdan beri, urf-odatlariga boy ushbu marosim bugungi kunda ham koreys xalqining ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallab, o'z ahamiyatini saqlab qolganini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cho Yong- Hee, Han Yumi, Tcho Hye-Young. Korea, Korean Culture in 100 Keywords. 2017. –P.146.
2. Jeon Mi. 문화속 한국어. 2008. –P. 60.
3. Jeong-Sook Kim, Department of Korean Language and Literature, Korea University, 한국어 표준교재. 2014. –P.191.
4. Xan Sim-Mi, Li Ki-Seong, Li Ji-Yeong, Yun Jeong Nam, Li Yun-ju, Choey Yeong-Long. 새 연세 한국어. Yonsei University University Press Center 2019. –P.102.
5. Li Jeong- Hui. 한국어와 한국 문화. Korea Immigration Foundation 2014.- P.130.

ФЕНОМЕН ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОГО ДИСКУРСА

Акмаль АБДУРАХИМОВ

ТГУВ, направление «Восточная философия и культура»

студент 2 курса 98 362 33 66

Научный руководитель: д.ф.н., профессор Э. Иззетова

Аннотация: В научной статье поставлена задача проследить генезис и эволюцию представлений о «машинном интеллекте», «искусственном интеллекте», показать постепенную реализацию этих идей на практике. Проанализировать основные параметры искусственного интеллекта и определить его особенности. Раскрыть сущность естественного интеллекта и обосновать диалектическую взаимосвязь с искусственным интеллектом.

Ключевые слова: философия, «машинный интеллект», искусственный интеллект (ИИ), естественный интеллект, технологии, человек и машина, естественный-искусственный мир, образы реальности, нейронные сети, философская рефлексия, онтологическая модель

Формирование философии искусственного интеллекта, как междисциплинарной науки, восходит ко второй половине XX века. Востребованность этой науки объясняется тем, что данная новая отрасль философского знания исследует не только сущность и механизм «машинного мышления», «искусственного интеллекта», но и другие аспекты функционирования этого феномена. Актуальность проблемы возрастает в связи с ростом влияния искусственного интеллекта на общество и «выживанием» человечества¹. История философии искусственного интеллекта исследует возможности компьютерной реализации мышления и персонологических параметров.

Выдающие ученые-изобретатели во все времена стремились воплотить в реальности идею создания разумных машин релевантных образу и подобию человека, наделенных талантом думать, двигаться, слышать, вести себя осознано. История свидетельствует, что такие попытки были предприняты изобретателями еще в эпоху античности. Первую работающую машину, способную выполнять сложение двух чисел, сконструировал в XVII в. Б.Паскаль. Инициативу подхватил Г.Лейбниц и разработал машину, которая выполняла уже четыре арифметических действия с числами. Эстафета в дальнейшем перешла французскому изобретателю XVIII века Ж.де Вокансону, которому удалось изготовить антропоморфного механического музыканта. В тот же период Ф. фон Кнаус сконструировал несколько машин, которые могли пером писать большие тексты. Л.Террос-и-Кеведо изобрел электромеханическое устройство (1914), которому было подвластно разыгрывать простейшие шахматные эндшпили².

Философское осмысление искусственного и естественного интеллекта. В реалиях современного мира искусственный интеллект рассматривается как теория и метод создания компьютерных программ, способных выполнять задачи, аналогичные человеческому разуму. Разделение реальности на “два

¹ Дубровский Д. И. Проблема свободы воли и современная нейронаука // Журнал высшей нервной деятельности. 2017. Т. 67. № 6. — С. 739–754.

² Орешников И.М., Шкерина Т.И. Философские размышления о проблеме искусственного интеллекта. 2017// История и педагогика естествознания, 2017, №4. – С.8.

мира” — естественный и искусственный – свидетельствует о росте влияния искусственного интеллекта на современность. Прогнозируемый рост мирового рынка технологий искусственного интеллекта к 2024 году подчёркивает социальную значимость этой дилеммы, в частности в силу развития технологических гигантов, таких как OpenAI и другие системы GPT. В данном контексте возникает необходимость в философской рефлексии о природе и функционировании ИИ в обществе.

Термин «искусственный интеллект» включен в научно-философский аппарат Джоном Маккарти. Согласно определения Дж. Маккарти, «искусственный интеллект — свойство интеллектуальных систем выполнять творческие функции, которые традиционно считаются прерогативой человека; наука и технология создания интеллектуальных машин, особенно интеллектуальных компьютерных программ»¹.

В научной литературе выявлены основные параметры «искусственного интеллекта». Речь идет о таких характеристиках, как: а) возможность решать сложные задачи, аккумулировать большие объемы информации и работать с ними; б) существование в них собственной внутренней модели внешнего мира; в) данная модель позволяет сохранить индивидуальность, относительную автономность системы в оценке ситуации, содержит потенциал семантической и прагматической интерпретации запросов к системе; г) задатки пополнения наличных знаний и к дедуктивному выводу, иными словами, к генерации информации, которая в явном виде не содержится в системе; д) это качество позволяет системе конструировать информационную структуру с новой семантикой и практической направленностью; е) способность применять в неопределенных ситуациях инструмент «понимания» естественного языка, а так же умение включаться в диалоговое взаимодействие с человеком; ж) способность к адаптации ².

¹ McCarthy J. Artificial Intelligence. [Электронный ресурс] / McCarthy J. // 2021 г. — Режим доступа: <http://jmc.stanford.edu/artificial-intelligence/index.html>.

² Орешников И.М., Шкерина Т.И. Философские размышления о проблеме искусственного интеллекта. 2017// История и педагогика естествознания, 2017, №4. – С.8.

В научно-философских исследованиях, посвященных природе человеческого разума, естественного интеллекта дается следующая интерпретация. По своей сущности естественный интеллект представляет собой мета-когнитивную способность человека. Благодаря чему он имеет возможность оценивать, интегрировать и организовывать знания, выделяя из них семантические структуры. Помимо этого, он обладает талантом к целеполаганию и саморегуляции, что дает человеку возможность адаптироваться к быстро меняющимся социальным условиям действительности. Соответственно, это открывает перспективы для конструирования социальных взаимодействий на основе понимания сущности происходящего. Естественный интеллект человека – это комплексная характеристика его умственного потенциала, когнитивных способностей, понимание реального мира, собственного «Я» — «Ты»- «Другой», представляет собой систему всех умственных способностей, навыков и умений. Данный феномен включает в себя такие компоненты, как познавательные инструменты, идеальные образы, весь комплекс форм абстрактного, рационально-логического, креативного и интуитивного мышления, ассоциации, воображение, фантазия, идеальные конструкции и образы, которые опережают настоящее и нацелены на будущее. Важно помнить о том, что «в интеллектуальной деятельности человека участвуют не только рациональные, логические и языковые средства, но и бессознательные и иррациональные явления и процессы и даже человеческая телесность»¹.

Подведя итог выше изложенному можно констатировать, что естественный интеллект не только природное образование, поэтому в этом ракурсе можно говорить о законах его функционирования и развития, но и образование «внеприродное», существование которого подчиняется случайности и уникальности, то есть естественный интеллект изменяется также и «сингулярно». Естественный интеллект вместе с тем является частью мировоззрения, мироощущения, мировосприятия и миропонимания субъекта деятельности. Сравнение естественного интеллекта с искусственным довольно таки сложная

¹ Орешников И.М., Шкерина Т.И. Философские размышления о проблеме искусственного интеллекта. 2017// История и педагогика естествознания, 2017, №4. – С.7.

процедура, но важно помнить, что все же это техника, которую разрабатывает и конструирует человек в качестве средства для достижения своих жизненно-важных целей. Соответственно, «если он хочет для решения каких-то задач наделить искусственный интеллект самостоятельностью и автономией, то должен делать это не во вред себе и всегда иметь возможность подобную самостоятельность ограничить или вообще отменить»¹.

Искусственный интеллект связан с механизмами передачи сигналов в головной мозг, через нейронные сети, которые выступают в качестве ядра искусственного интеллекта². Авторы, исследующие нейронные сети и прогресс в области компьютерных моделей, упоминают о синапсах и медиаторах. Те, кто пытаются понять природу естественного интеллекта, как правило, обращаются к философским концепциям³. В современном мире развитие искусственного интеллекта в распознавании образов не представляется уже таким сложным, как моделирование специализированных функций интеллекта⁴. В данном контексте предпринимается попытка построить онтологическую модель формирования теорий искусственного интеллекта. Эта модель опирается на философские идеи и принципы, такие как принцип познаваемости мира, принцип развития и всеобщей связи, принцип историзма, а также сама идея создания “мыслящих” машин.

Искусственный интеллект, в свою очередь, характеризуется процедурным подходом и стремлением к созданию абстрактных моделей, воспроизводящих представления и знания о мире. В научной литературе декларируется идея, что искусственный интеллект также отражает реальное отношение человека к социуму и способствует усилению синтеза когнитивных процедур, основанных

¹ Розин В.М. Концепции и понятия искусственного и естественного интеллекта(методологический анализ) <https://www.phisci.info/jour/article/view/3660>

² Махаматов Т.М. Философские основания искусственного интеллекта. Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета. 2019;9(4). – С.52. <https://doi.org/10.26794/2226-7867-2019-9-4-52-56>

³ Смирнов Е.В. Проблема искусственного интеллекта: онтологические и гносеологические аспекты: автореф. дис. ... кандидата философских наук. Магнитогорский гос. ун-т, Магнитогорск, 2012. – 30с.

⁴ Лешкевич Т. Г. Искусственный интеллект в контексте философского осмысления // Вопросы философии. 2023. Т. № 5. — С. 50 – 60.

на сенситивном и рациональном опыте¹. Отдельные авторы интерпретируют искусственный интеллект как явление наделенное способностью находить смысл в информации и формировать цели, а также выбирать стратегии их достижения. Хотя искусственный интеллект и представляет собой абстрактный идеал, он включает в себя человеческую познавательную активность, а также способность к адаптации и синтезу познавательных процедур. Тем не менее, искусственная деятельность остается связанной с основными принципами естественного интеллекта, хотя и лишена некоторых его характеристик².

Рассмотрение искусственного интеллекта через призму философии, свидетельствует о том, что он дистанцируется от простого субстратного подхода к познанию. Его эволюция начинается в те моменты человеческой активности, когда она, выступая против предметного мира, стремится к выявлению внутренних связей между объектами, и эти связи предстают как результирующее “пересечение” функций предметного и духовного миров. Тем не менее, искусственный интеллект не ограничивается простой формализацией явлений и процессов. Он не стремится превратить всё знание в формально-логическую систему.

Заключение. В результате проведенного исследования мы пришли к выводу, что искусственный интеллект представляет собой сложное и многогранное явление. Выступает в роли фактора крупномасштабных трансформаций социокультурной реальности. Изменения происходящие могут носить как положительный характер, так и оказывать негативное воздействие на человека и современную цивилизацию. Важнейшей задачей философского дискурса является, с одной стороны, оценка последствий разработки машинного интеллекта, с другой — подготовка человечества к его возникновению. Философия, являясь рациональным типом мировоззрения, выдвигает на повестку дня задачу: выработать аргументированное и сбалансированное отношение к активному внедрению систем искусственного интеллекта.

¹Дубровский Д. И. Проблема свободы воли и современная нейронаука // Журнал высшей нервной деятельности. 2017. Т. 67. № 6. — С. 745..

²Глуздов Д.В.Философско-антропологический анализ противоречий развития искусственного интеллекта//Философская мысль. – 2023. – С.106 – 118.

Необходимо так же рассмотреть, какие риски сопровождают этот процесс, какое именно воздействие они оказывают на миропонимание современного индивида, на его отношение к окружающему миру.

Список использованной литературы:

1. Дубровский Д. И. Проблема свободы воли и современная нейронаука // Журнал высшей нервной деятельности. 2017. Т. 67. № 6. — С. 739–754.
2. Орешников И.М., Шкерина Т.И. Философские размышления о проблеме искусственного интеллекта. 2017// История и педагогика естествознания, 2017, №4. – С.5 — 11.
3. McCarthy J. Artificial Intelligence. [Электронный ресурс] / McCarthy J. // 2021 г. — Режим доступа: <http://jmc.stanford.edu/artificial-intelligence/index.html>.
4. Розин В.М. Концепции и понятия искусственного и естественного интеллекта (методологический анализ) <https://www.phisci.info/jour/article/view/3660>
5. Махаматов Т.М. Философские основания искусственного интеллекта. Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета. 2019;9(4). – С.52-56. <https://doi.org/10.26794/2226-7867-2019-9-4-52-56>
6. Смирнов Е.В. Проблема искусственного интеллекта: онтологические и гносеологические аспекты: автореф. дис. ... кандидата философских наук. Магнитогорский гос. ун-т, Магнитогорск, 2012. – 30с.
7. Лешкевич Т. Г. Искусственный интеллект в контексте философского осмысления // Вопросы философии. 2023. Т. № 5. — С. 50 – 60.
8. Глуздов Д.В. — Философско-антропологический анализ противоречий развития искусственного интеллекта//Философская мысль. – 2023. – С.106 – 118.

ZAKI VALIDIY TO‘G‘ON DUNYOQARASHI SHAKLLANISHINING NAZARIY VA G‘OYAVIY ASOSLARI

Dilora TURSUNALIYEVA

Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi

4-kurs turk-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: I. Ikramova

Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqolada Turkistonning muhiti, davri, ijtimoiy hayoti va unda Zaki Validiyning tutgan o‘rni kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Zaki Validiyning o‘z davri ziyolisi sifatida jarayonlarga faol munosabati, ijodida aks etishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zaki Validiy To‘g‘on, jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, renesans, Gasprinskiy, Farididdin Attor, So‘fi Olloyor.

O‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

“Shu nuqtai nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta‘sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega”¹.

Qadimdan butun dunyoga beshik bo‘lgan bu ona diyorumizda dunyoni titratgan buyuk daholar birga o‘lkamizni vayron qilishda o‘z hissalarini qo‘shgan ba‘zi insonlarni ham o‘z bag‘rida voyaga yetkazdi. Albatta, bu ko‘hna zaminimizda o‘z yurtini sevganlar, vatani uchun jonini fido qilganlar va afsuski, o‘z yurtini shirin joni uchun sotganlar ham chiqqan. Kamtarona hissalarini tufayli qanchadan-qancha ziyolilar nohaq o‘limga hukm qilindi, bu esa vatanimizning zavoli uchun qo‘shimcha yordam bo‘ldi. Ammo vatanni uyg‘otish uchun, yoshlarni ilmi qilish uchun kuchlar bor edi. Bu ziyoli qatlam ham og‘ir zulmlar, tashviqotlar qaramay olg‘a bordi va o‘sha paytda mevasini bermagan hosil biroz vaqtdan so‘ng o‘z mevasini berdi. XX asrda uyqudan bosh ko‘tarmagan xalqni ko‘zlarini ochish, zulmga qarshi bosh ko‘tarish, vatanni o‘sha paytdagi texnikalar bilan tanishtirish va foydalandirish kabi ustuvor vazifalar bosh maqsad edi. Ko‘zlangan maqsad ba‘zilari amalga oshdi qolganlari ushalmas orzuga aylandi. Lekin ularning o‘sha paytda ilgan sa‘y-harakatlari kelajak uchun o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi.

¹ <https://daryo.uz/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrigi-elon-qildi>

Ma'rifatchilik harakatlaridan so'ng milliy-ma'naviy uyg'onish harakati – jadidchilik vujudga kelib, xalqni qayta jonlantirdi. Bir qator yetuk namoyondalar bu harakatni ilgari surib, oz bo'lsa-da natijalarga erishishdi.

Turkiston tarixini yoritadigan asarlar ko'p: qadimgi tarix yaqin tarix, eng yangi tarix. Ammo bu millatning o'z o'tmishini to'liq anglab yetishi uchun yetarlimi? XIX asr so'ngida Gasprinskiyni iztirobga solgan masala – turkiy millatlar o'z o'tmishlarini qay tarzda yaxshi anglab yetishlari mumkinligi masalasi edi. Buning uchun turkiy xalqlarning shonli o'tmishi, ularning zamonaviy ahvollarini tartibga solish, kelajak taraqqiyotlari uchun bugundan harakat qilishlari lozimligini uqtirishi kerak. Gasprinskiy Turkistonning yangi tarixi, ya'ni Rossiyaning bosqini va undan keyingi davr tarixini yaratishga targ'ib qilish barobarida o'zi ham bu ishga kirishar ekan, o'lkaning o'tmishi barcha turkiy xalqlar uchun ibrat bo'la olishiga asosiy e'tibor qaratdi: “Yunon tarixlarida Transoksaniya, arab tarix kitoblarida Movarounnahr, bizning turkiy tarix asarlarida esa Chig'atoy yurti, Dashti Qipchoq va so'ng zamonlarda Turkiston Viloyati nomlari bilan mashhur buyuk qit'aning o'tmishdagi kechirgan voqealari juda ibratnamodir”¹.

Gasprinskiy Turkiston xonliklarining rus bosqini arafasidagi ahvolini shunday ta'riflaydi: “Zamonamizga kelgunga qadar Turkistonning ahvoli va vaziyati borgan sayin qiyinlashib, tushkunlashib yangi tarixi nodonlik, bilimsizlik va mutaassiblik dengiziga cho'kkan holda rus istilosiga yo'l va sabab tayyorlashdan iborat bo'ldi. Noto'g'ri siyosat, axloqsizlik, taqlid shaklidagi taqvodorlik qahramon va bahodirlar o'g'illarini otdan tushirib nochor darvesh holiga va yo soqolli xotinlar shakliga solgan edi. Tanazzul shu darajaga yetgan ediki, ota-bobolari 500 kishidan iborat bir kichik qo'shin bilan 40 ming mo'g'ulga qarshi oyoqqa turgani holda o'g'illari 500 bo'la turib 40 rus askaridan jayron kabi qochganlariga tarix bir necha bor guvoh bo'ldi”².

Islohotlar harakati, Uyg'onish davri, Ma'rifat davri va sanoat inqilobi kabi ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan g'ururli G'arb sivilizatsiyasi XIX asrda muhim bekatlardan

¹ Zaynabidin Abdirashidov. Ismoil Gasprinskiy va Turkistonning yangi tarixi masalasi. – T., 2019. – B. 48.

² Zaynabidin Abdirashidov. Ismoil Gasprinskiy va Turkistonning yangi tarixi masalasi. – T., 2019. – B. 53.

muvaffaqiyatli o'ta oldi va bu maqsad uchun og'ir to'lovlarni to'ladi. XIX asrga kelib u fan, texnika, san'at, falsafa va boshqa sohalarda o'zining global hukmronligini mutlaqo e'lon qildi. Boshqa tomondan, zamonga taslim bo'lib, asta-sekin eskirib qolgan antik dunyoning qudratli madaniyat markazlarida G'arbdan yoyilgan intellektual harakatlar o'z samarasini bera boshladi. Mustamlakalarga ega bo'lish uchun turli usullarga murojaat qilgan g'arb sivilizatsiyasining mag'rur namoyandalari mutlaq monarxiya boshqaruvidagi ayrim imperiya va davlatlarga qarshi ayovsiz kurashga kirishib, ularni o'zlariga bo'ysundirishga harakat qilishdi. Shunga ko'ra, ular muxolifat guruhlari va muhokama qilingan siyosiy tashkilotlar uchun najot yo'lini qidirayotgan guruhlarni qo'llab-quvvatladilar. Turkiya, Rossiya, Eron va Xitoy kabi boy va chuqur tarixga ega davlatlar zamonaviy dunyoga moslashish uchun kurashib, ko'plab olimlarni yetishtirgan. Ulardan biri Rossiya asirida bo'lgan turk qabilasidan bo'lgan boshqirdlarga mansub Zaki Validiy To'g'on ekanligiga shubha yo'q. U qoldirgan asarlarining ilmiy teranligidan ham yaqqol ko'rinib turibdiki, g'oyat iste'dodli shaxs bo'lgan To'g'an yoshligida arab, fors, rus kabi muhim tillarni o'rgangan va ilm-fan sohasi tufayli ilmiy doiralarda e'tirof etilgan.

Turk millatining qadimiy vatani Buyuk Turkistonning shimoli-g'arbiy chegaralari va yerlarini tashkil etuvchi Ural tog'lari hududi o'tgan asrdagi buyuk siyosiy harakatlar va milliy istiqlol kurashlarida Ural va Ulug' Turkistonda yashovchi turk millatining juda katta bir ommasiga yo'l ko'rsatgan va ayni paytda o'zining buyuk tarixchi ekanligini hammaga isbotlagan Zaki Validiy To'g'onidir. U 1890 yil Boshqirdistonning Sterlitamak ovuliga yondosh Kuzen qishlog'ida dunyoga kelgan. Dunyo sharqda tug'ilgan, tarbiyasi va shaxsiyatiga ega bo'lgan, jismoniy va madaniy jihatdan tarixiy beshik bo'lgan. Bu beshikning aniq joylashuvi Ural tog'larining janubiy etaklarida joylashgan Kuzen ovulida bo'lib, bir tomoni tog'li va o'rmonli hududlar, ikkinchi tomoni dasht.

To'g'on davrida bu ovul turklari chorvachilik, dehqonchilik va o'rmonchilik ishlari bilan kun kechirgan. Aksariyat boshqird turklari singari, Kuzen ovuli turklari ham yarim ko'chmanchi bo'lib, katta yerlar va yaylovlarga ega edilar. Ular tarixiy qabilaviy guruhlarni ham, tarixiy doston va an'analarni ham saqlab qolgan boshqird

turklariga mansubdir. “To‘g‘on qabilasi Soqli-Kaylarga mansub bo‘lib, qadimgi turk qabilalari orasida mustaqillikning afsonaviy boshlovchilaridan biri bo‘lgan Kay turklaridan kelib chiqqan. Bular orasida istiqlol yo‘lida chor Rossiyasi va qalmoqlarga qarshi olib borilgan urushlar xotiralari ham, joy nomlari ham og‘zaki ifodada hali hamon yashab kelmoqda”¹.

Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning dunyoqarashi shakllanishida o‘sha paytning muhiti, oilasining o‘rni, qabila va urug‘chilikka oid an‘analar, yashaydigan joylashuvning o‘rni beqiyos edi. Istarlitamoq shahrida ulamodan No‘g‘oy o‘g‘illari bo‘lib, No‘g‘oy mirzolari naslidan ekan. Ularning otalaridan biri mana shu Allohberdi mozoriga ko‘milgan ekan. “Otamning va amakilarimning ustozlari ana o‘shalar bo‘lgan. Ular biznikiga mehmon bo‘lib kelishardi, ulamolardan bo‘lishlariga qaramay, ichkilikka berilgan edilar. Kuzan o‘g‘illaridan bo‘lgan beshinchi otamiz Eshto‘g‘on (To‘g‘on familiyam shundan olingan) bizdan juda uzoqdagi Kamalik degan joyda ruslar bilan bo‘lgan janglarda halok bo‘lgan”².

Olim yoshligidan arab va fors tillarini o‘rgangan, 6-7 yoshidan boshlab rus tilini ham o‘rgana boshlagan. Rus tilini o‘rganishiga otasi sababchi bo‘lgan. Otasi harbiy xizmat vaqtida rus tilini bilmagani uchun ko‘p ozorlar chekkanligi sababli farzandiga rus tilini o‘rgatishni orzu qilgan. To‘rt yil davomida rus tilini dastavval Abdurahmon Mengliboyevdan so‘ngra Shohibek O‘zbekovdan tahsil oldi.

Fors tilini esa onasidan mukammal tarzda o‘rgangan. Onam fors tilini til sifatida emas, XIII asr Eron so‘fiy shoiri Farididdin Attor va XVII asrda Buxoroda turkiycha bilan birga forschada ham ijod qilgan So‘fiy Olloyor talqin qilgan tasavvufiy fikrlar tili sifatida o‘zlashtirgan edi. “Men o‘zimni taniganimdan beri biz “Agoy” deb ataydigan mehmonxonamiz devorida katta bir lavha osig‘liq turardi. Uning chekkalariga Yassaviydan, Attordan va boshqa mutasavviflardan olingan so‘fiyona turkcha va forscha she‘rlar yozilgan edi. O‘rta qismlarida esa, xotiramda qolganiga ko‘ra, uch

¹ Dursun Yıldırım. Zeki Velidî Togan ve Türkistan millî hareketi. – Türkiye. – B. 277.

² Zeki Velidî Togan. Hâtıralar. – Türkiye, 2021. – B. 4.

darveshning boshi tasvirlangan edi. Ko‘zlaridan daryo bo‘lib moviy yoshlar oqar, oqqan yoshlar ko‘lni tashkil etib qishloqni oladigandek qilib ko‘rsatilgan edi”¹.

Zaki Validiyning ilm talabida yurishi, o‘sha davrning asl yuzini ko‘rishida otasining hissasi katta edi. Uning otasi din va hayotni bir-biriga aralashmagan, balki eski an‘analarga sodiq odam bo‘lgan. O‘zining bunyod etgan madrasasida talabalarga ilm nurini tarqatardi. Bu ilm nuridan faylasuf qonib ichgan edi. “Men otamning madrasasida o‘zidan arabcha diniy darslarni, Zaki Xalfa va Kashshof Mullaodan forsha, Abdurahmon va Shohibekdan ruscha hamda riyozatni o‘rgandim. Mening eng ko‘p maroq bilan qilgan ishim talabalarga faqatgina payshanba kuni ruxsat berilgani holda bizda har oqshom tushiladigan kurashlarda qatnashish edi. Asal majlislarini ham o‘tkazib yubormadim. Chiroq o‘chirilib uyquga ketgunga qadar xalq hikoyalari aytilar edi. Ularni juda yoqtirardim”².

Zaki Validiy To‘g‘onning keyingi tahsili Kuzen qishlog‘idan 14 kilometr uzoqda joylashgan O‘tak qishlog‘ida edi. Tog‘asining uyidagi tahsil u uchun keyingi harakatlarida ko‘mak berdi. Chunki u Habib Najjorning boy kutubxonasida yashar edi. Tog‘asi ham otasi kabi arab tilini mukammal bilar, “Tarjimon” gazetasini, Turkiyada gazetalarini o‘qir edi. Olim tog‘asi haqida shunday deydi: “Tog‘am ham otam singari arab tili va bu tildagi falsafiy-axloqiy asarlar bilan mashg‘ul bo‘lardi. Ammo ikkalasining dunyoqarashida farqli tomonlar bor edi. Tog‘am dunyoning yumaloq shaklda ekanini Flammorionaning tarjimasidan bilib olgan edi. Hay‘at va riyoziyotni zamonaviy ma‘noda bilardi. Otam esa bu masalaga yagona murshid deb hisoblagani XII asrning islom mutafakkiri G‘azzoliyning qarashi bilan boqardi. Yerning yumaloqligiga, oyni yerdan kichik va yerga yaqin, quyoshning yerdan katta va yerdan uzoq ekaniga ishonar, quyosh va oy tutilishi nima ekanligini bilar edi. Biroq yerning quyosh atrofida aylanishiga ishonmasdi”³.

Olim tahsilini tog‘asining madrasasida davom ettirarkan o‘sha davrning qiyinchiliklari va holati sababli hafta har kun o‘qiy olmas, martdanoq uyiga chorva

¹ Zeki Velidî Togan. Hâtıralar. – Türkiye, 2021. – B. 20.

² Zeki Velidî Togan. Hâtıralar. – Türkiye, 2021. – B. 19.

³ Zeki Velidî Togan. Hâtıralar. – Türkiye, 2021. – B.16.

mollarini boqish uchun kelardi. Ammo tog‘asining yonidagi muhit u uchun quyoshning chiqishi kabi bo‘ldi. “Arab tili balog‘ati” oid “Mutavval” kitobi tarjimai holga oid Ibn Xollikon, Toshko‘pruzoda, Abdulhay Luknaviy asarlari turkiyalik donishmand va siyosatchi Mehmet Orif Beyning “Ming bir hadis” nomli asari, Ernest Renan, V.R.Dreper, Artur Shopengauer, Muhammad Abduh, Farid Vajdiy kabi insonlarning asarlarini 16-18 yoshidayoq suv kabi qonib ichgan edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda yoshlarni ma’rifatli bo‘lishlarida va yurtning keyingi kelajagini belgilab berishda ma’rifatparvarlar va jadidlarning o‘rni beqiyosdir. Shu jumladan, Zaki Validiy ham o‘z davrining barcha jabhalarida faol ishtirok etdi. Garchand turli mashaqqat va qiyinchiliklar bo‘lishiga qaramay o‘z maqsadi yo‘lida olg‘a bordi. Bir jamiyatni, xalqni qayta tiklashda o‘zining beqiyos hissasini qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dursun Yıldırım. Zeki Velidî Togan ve Türkistan millî hareketi. – Türkiye. – B. 277.
2. Zaynabidin Abdirashidov. Ismoil Gasprinskiy va Turkistonning yangi tarixi masalasi. – T., 2019. – B. 53.
3. Zeki Velidî Togan. Hâtıralar. – Türkiye, 2021. – B. 19.
4. <https://daryo.uz/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrigi-elon-qildi>

IBN TUFAYLNING “HAYY IBN YAQZON” ASARINING FALSAFIY TAHLILI

Xushnoza RASHIDOVA

TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti

Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

I. Ikramova

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Hayy ibn Yaqzon” asaridagi ontologik, gnoseologik qarashlari falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, Ibn Tufaylning hayoti hamda ilmiy faoliyati haqida ham ma’lumotlar taqdim qilingan.

Kalit soʻzlar: allegorik-falsafiy roman, inson tafakkuri, falsafa, bilim, koinot, tabiat, ilm.

Abu Bakr ibn Tufayl hayoti haqida juda kam maʼlumotlar mavjud. Aniqlanishicha, u taxminan 1116 yilda Granadaning shimoli-sharqiy qismida, bugungi kunda Guadix nomi bilan mashhur shahar yaqinida, oʻsha paytda Almoravidlarning Barbarlar sulolasi (1046-1147) hukmronlik qilgan shaharda tugʻilgan. Ibn Tufayl arablardan edi. U, ehtimol, Pireney yarim orolidagi ikkita intellektual qalʼa boʻlgan Sevilya va Kordovada tahsil olgan. Ibn Tufayl Ispaniyada tibbiyot, matematika, astronomiya, fizika va boshqa tabiiy fanlar hamda sheʼriyatdan bilim oldi. Oʻqishni tugatgandan soʻng u dastlab Ispaniyaning hozirgi Granada shahriga shifokor sifatida joylashadi. Oʻsha vaqtlarda Pireney yarim oroli va Magʻribning katta qismlarida Almohadlar sulolasi (1147—1269) hukmronlik qilgan. Ularning Ibn Tufayl davridagi hukmdori xalifa Abu Yaʼqub Yusuf (1163–1184 yillar hukmronligi) maʼrifatli hukmdor boʻlib, yunon falsafasiga juda qiziqar edi. U Ibn Tufaylni Marokashning Marrakesh shahrida oʻzining saroy tabibi va bosh maslahatchisi etib tayinladi va u yerda Ibn Tufayl nufuzli ziyoliga aylandi.

Ibn Tufayl 1185 yilda Marokashda vafot etdi. Baʼzi rivoyatlarga koʻra, Ibn Tufaylning dafn marosimida hattoki xalifaning oʻzi ham ishtirok etgan. Ibn Tufayl keng intellektual va badiiy qiziqishlarga ega boʻlgan, xususan astronomiyada oʻz davrining umumeʼtirof etilgan Ptolomey tizimiga zid fikrlarni bildirgan.¹ Ammo, uning barcha ilmiy va falsafiy merosidan bizgacha faqat “Hayy ibn Yaqzon” qissasi yetib kelgan. Ibn Tufaylning mashhur “Hayy ibn Yaqzon” romanining Yevropa tillariga ilk tarjimalari tufayli Ibn Tufayl oʻrta asrlar xristian Yevropasida ham shuhrat qozondi. Ibn Tufaylning “Hayy ibn Yaqzon” asari (nomi roman qahramoni nomi bilan boshlanadi) olis orolda yolgʻiz va insoniyat sivilizatsiyasi bilan aloqasi boʻlmagan holda oʻsib-ulgʻaygan va faqat aqliy urinish va maʼnaviyat orqali Xudoni bilayotgan bola haqidagi juda qiziq hikoyadir.

Adabiy qahramon sifatida Hayy Robinzon Kruzoning oʻziga xos prototipini oʻzida mujassam etgan, u oʻziga toʻliq ishongan va boshqa insonlar, sivilizatsiyadan

¹ Сагадеев А.В. Средневековая арабо-мусульманская философия. Том 3. М.: Марджани, 2010. – 362с.

uzoqda. Biroq, Ibn Tufaylning kitobi shunchaki tropik oroldagi buyuk sarguzashtlar yoki inson qiyofasidagi Robinzon Kruzo haqidagi hikoya emas. Aksincha, bu dunyo va koinot haqida bilim va tushunchaga ega bo'lishga qat'iy intilayotgan odamning hikoyasidir. Bashorat va ilohiy vahiy yordamisiz, faqat o'zining o'tkir kuzatish, tabiatni maqsadli o'rganish va aql-zakovatiga tayanib, Hayy ellik yoshida asta-sekin bilish jarayoni orqali Xudoni topadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, Hayyning intellektual mavhumligi hech qanday insoniy tilda ildiz otgan emas. Romanda (149-bet) o'qiganimizdek, Hayy "so'zlashni" bilmas edi. To'g'rirog'i, u qo'shni atrofdan kelgan mehmonni uchratganidan so'nggina voyaga yetgandagina inson tilini o'rgandi. Keling, mumtoz arab adabiyotining ushbu durdona asari syujetiga to'xtalamiz. Muqaddima: Hayotning kelib chiqishi;

Muqaddimada Ibn Tufayl o'z romanining ilmiy asoslarini bayon qiladi. U diniy-falsafiy qarashlarini o'rgangan bir qancha musulmon olimlarining, jumladan, Yevropada ham mashhur bo'lgan al-Forobiy, Ibn Sino va Ibn Bajjaning qarashlari uning dunyoqarashi shakllanishiga katta ta'sir etdi. O'sha paytda, shuningdek, zamonasining eng nufuzli musulmon ilohiyotchisi va tasavvufchisi Abu Homid al-G'azzoliy ham, garchi ularning bilim va o'rganishga individual yondashuvlari sezilarli darajada farq qilsa-da, bu o'rta asr musulmon mutafakkirlari, jumladan, Ibn Tufaylga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ibn Tufayl qarashlari ikkita umumiy xususiyatga ega. Birinchidan, ularning fundamental falsafiy bilim tushunchalariga bo'lgan qiziqishi va bu mavzuga Platon va Aristotel asarlarining ta'siri; ikkinchidan, bilim izlash va egallashda namoyon bo'ladigan inson qobiliyatlari haqida fikr yuritishda falsafa, aql va din o'rtasidagi munosabatlarning muhim rolidir.

Asosan nazariy muqaddimadan so'ng Ibn Tufayl Hayy tug'ilishining g'ayrioddiy holatlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni ochib beradi. Birinchidan, u Hayy Hind okeanining bir joyida, ekvator yaqinidagi mo'tadil iqlimli kimsasiz orolda yashaganini aytadi. Shu narsa o'quvchi diqqatini tezda o'ziga tortadi, chunki muallif Hayy qanday paydo bo'lganligining ikki xil variantini taklif qiladi.

Hayyning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlardan birida aytilishicha, zolim podshohning singlisi Hayyni qo'shni saltanatdan bo'lgan Yaqzon ismli odam bilan

taqiqlangan ishqiy munosabatlarining mevasi sifatida dunyoga keltirgan. Malika o‘zining tosh yurakli ukasi va podshosining g‘azabidan qo‘rqib, yangi tug‘ilgan chaqaloqning taqdirini Xudoga ishonib topshirdi va emizikli go‘dakni yaxshilab muhrlangan qutiga solib dengizga uloqtiradi. Kichkintoy bilan quti oxir-oqibat kimsasiz orolga keladi. Bu adabiy motiv, chaqaloq Musoning Injildagi va Qur’ondagi hikoyasiga ishora qiladi. Boshqa bir ilmiy asosga ko‘ra, Hayy orolda hech qanday inson ishtirokisiz tug‘ilgan. Hammasi bir oz loy achitish boshlanganda boshlandi. Issiqlik sovuq bilan, quruqlik bilan nam. Bu tabiiy jarayonlar loyda pufakchalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan, bu esa, o‘z navbatida, ruh uchun bo‘sh joy yaratgan va u “doimiy ravishda Allohdan tabarruk – pok bo‘lsin” (107-bet). Bu achituvchi loy va Xudo yuborgan jon birikmalaridan Hayy, inson o‘ziga xos tasavvufiy o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan. (Muqaddas Kitobdagi birinchi inson Odam Ato haqidagi g‘oyaga e’tibor bering: loydan hosil bo‘lgan, ota-onasi ham, o‘tmishi ham bo‘lmagan boshqa odam jonlangan.) Keyin loydan qon ivishi hosil bo‘lib, embrionga aylandi. Bu hayotning kelib chiqishi haqidagi Qur’on rivoyatlarida tasvirlanganidek, shaxsga aylandi. Asosiy bo‘lim: Inson o‘sishi va bilimga chanqoqlik.

Hayy tug‘ilishining ikki xil hikoyasi ikkalasi ham romanning asosiy qismidan ertakning yagona davomiga olib keladi. Bu yerda Hayyning hayoti har yetti yil davom etadigan yetti bosqichdan iborat ketma-ketlikda rivojlanib borayotgani tasvirlangan. Hayy hayotining birinchi bosqichi uning bolaligidir. Bir qush chaqaloq Hayyni topadi. Uni emizib, g‘amxo‘rlik qilib, o‘z farzandidek tarbiyalaydi. Orolida kapitan va boshqa hayvonlar bilan birga yashagan Hayy mehr va iliqlik, baxtsizlik, uyat va qayg‘u kabi asosiy his-tuyg‘ularga ega bo‘ladi. Shuningdek, u cho‘lda omon qolish uchun zarur bo‘lgan ba’zi ko‘nikmalarni o‘rganadi: masalan, o‘z ovqatini qanday topish va o‘zini himoya qilish. Yetti yoshida u nihoyat, o‘zining hayvon emasligini yoki hech bo‘lmaganda “boshqa hayvonlar” dan butunlay farq qilishini tushunadi. Ikkinchi va uchinchi bosqichda Hayy yigirma bir yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Hayy endi hayvonlardan farqli o‘laroq, yalang‘och va himoyasiz ekanini tushundi. Shunday qilib, u o‘zini barglar va patlar bilan qoplashni boshlaydi va

o‘zining jismoniy afzalliklaridan, masalan, tik yurish qobiliyatidan foydalanishni o‘rganadi.

Hayy ham aqlidan ongli ravishda foydalana boshlaydi. Kuzatish, tajriba va o‘xshash fikrlash orqali u o‘zi yashayotgan dunyo haqidagi bilimni sezilarli darajada oshiradi. U, masalan, tabiatda topilgan ba’zi narsalarni o‘zgartirishi va moslashtira olishini aniqlaydi. Shuningdek, u yong‘inni qanday boshqarishni va himoya boshpanasini qanday qurishni o‘rganadi. Harakat-endi uning hayotining asosiga aylandi. Qachonki, uning sevimli “onasi” o‘lsa, u azob va qayg‘uga to‘ladi. U nima uchun harakatni to‘xtatganini bilish uchun u qo‘ziqorinni kesib tashlashga qaror qiladi. U jonzotning yuragini topadi, uning fikricha, u yerda hayot joylashgan. U yurakni ochadi va uning xonalaridan biri qonga to‘lgan, ikkinchisi esa bo‘sh ekanligini aniqlaydi. Uning xulosasiga ko‘ra, onasining hayotiy kuchi bo‘sh bo‘lgan bu xonada bo‘lsa kerak. Hayy uchun bu qushning o‘limini tushuntiradi. Uning xulosasiga ko‘ra, o‘lik faqat bo‘sh korpus bo‘lib, uni ilgari jonlantirgan “nafas”siz hech narsaga arzimaydi. Demak, uning onasiga mehr va mehr-muhabbat tuyg‘ulari endi qo‘g‘irchoqning jonsiz tanasida emas, faqat qalbdan “uzilib ketgan” borliqda (115-bet), ya’ni, Hayy xulosa qilganidek, o‘limdan ko‘ra ruh ko‘proq yashaydi.¹

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, bu asarda Hayyning hayoti davomidagi voqea-hodisalar yoritib berilgan. Uning qanday qilib jamiyatdagi insonlar bilan kelishib keta olishi kabi masalalar ko‘rsatib o‘tilgan. Ya’ni, asarda Hayyning hayoti bosqichlarga bo‘linib tasvirlab berilgan. U atrofiga odamlar yaqinlashishi bilan “so‘zlash”ni o‘rganadi. Ana shu jarayondan boshlab uning hayotida turli xil o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Ya’ni, unda jamiyatga moslashish va tanqidiy tafakkur shakllana boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сагадеев А.В. Средневековая арабо-мусульманская философия. Том 3. М.: Марджани, 2010. – 362с.
2. <https://www.ias.edu/ideas/2018/guenther-mysteries>

¹ <https://www.ias.edu/ideas/2018/guenther-mysteries>

XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISODIYOT

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI TAHLILI

Diyorbek RAHMATULLAYEV
TDSHU, 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: N.Imamova TDSHU
“Matematika va umumiy iqtisodiy fanlar”
kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ma'lumki O'zbekiston globallashtirish sharoitida sanoatlashgan iqtisodiyotga tobora integratsiyalashib bormoqda. Xususan, so'ngi yillarda YaIM hajmida sanoat ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, fan va texnika ulushining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ulushlaridan ortib borayotgani, shu bilan birga ekin maydonlarining bosqichma bosqich intensivlashtirilayotgani agrar sohaning yangi bosqichga o'tayotganidan darak bermoqda.

Ammo mavjud ekologik muammolar ham yil sayin jadal sur'atlarda rivojlanib, yurtimiz iqtisodiyotida yuqori o'rin tutgan sohalardan biri qishloq xo'jaligi sohasiga tahdid solmoqda. Bular: suv tanqisligi, tuproq eroziyasi, tabiiy ofatlar, global isish va shu kabilardir. Eng achinarlisi Orol dengizi havzasining qurishi ortidan butun Markaziy Osiyo ekotizimining buzilishi, mintaqada yashovchi aholi salomatligiga jiddiy xavf solishi bilan birga Qoraqalpog'iston, Buxoro, Navoiy, Xorazm kabi viloyatlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga qaratilgan ko'plab yer maydonlarining sho'rqlash darajasining ortishi kuzatilmoqda. Buning ortidan sholi, don kabi mahsulotlarning aholi ehtiyojlarini qondira olmasligi va bu mahsulotlar importining ortishiga olib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, YaIM, erroziya, sho'rqlanish, Orolbo'yi mintaqasi, yashillashtirish, rezolyutsiya.

Bugungi kunda insoniyat kelajagiga daxl qiluvchi muammolar soni va ularning ko'lami tobora kengayib, ta'siri esa kuchayib bormoqda. Rivojlanayotgan

mamlakatlardagi inson populyatsiyasining tartibsiz va shiddat bilan o‘sayotgani, suv resurslari va yer osti qazilma boyliklar, minerallardan tartibsiz foydalanilayotgani, oziq ovqat yetishmasligi, davlatlar o‘rtasidagi siyosiy ziddiyatlar, zararli kimyoviy sanoat sektorlarining ortib borishi, o‘rmon yong‘inlari, dunyo okeanlari, ko‘llar, dengizlarning ifloslanishi buning ortidan esa flora va fauna olamiga qayta tiklanmas va juda ayanchli zarar yetkazilmoqda.

2013 yil 15 yanvarda Jenevada joylashgan Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum WEF) tahlilnomasiga ko‘ra, iqtisodiy va ekologik muammolar insoniyat yuzlashayotgan asosiy xatardir.

“Tabiiy ofatlar tez-tez kuzatilayotganiga aslida atmosferani bulg‘ayotgan gazlar sababchi. Iqlim o‘zgarishiga tayyorlanmaslik jiddiy muammo, chunki xalqaro hamjamiyat ayni damda hammani tashvishlantirayotgan masalalar, xususan iqtisodiyotga e‘tibor qaratib, byudjet qanchaga yetishi va nimaga sarflanishi kerakligini o‘ylayapti. Vaholanki, ekologik muammolarni hal etish uchun uzoq muddatli sarmoyalar zarur, infratuzilma yangilanishi kerak” – deydi yetakchi iqtisodchi ekspert Xauel¹.

Bilamizki suv tanqisligi asrimizdagi rivojlangan, rivojlanayotgan va rivojlanishdan ortda bo‘lgan mamlakatlarning bariga birdek tahdid solayotgan muammolardan biridir. Sayyoramizda eng katta resurs bu – suv bo‘lishiga (yer sayyorasining 70% qismi) qaramay uning katta qismi dunyo okeanlariga to‘g‘ri keladi, ichishga yaroqli suv resurslari esa atigi 3% ni tashkil qilib, daryo, ko‘l va yer osti suvlari hisoblanadi.

Global aholi populyatsiyasi shiddatli ravishda o‘sib borar ekan, suv eng qimmat mahsulotlar qatoriga kirishi, aholi migratsiyalashuvi, mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarga ham sabab bo‘lishi muqarrar. Afrika mamlakatlarining katta qismidagi aksariyat insonlar mana bir asrdiki ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekib kelmoqdalar. Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, Afrikadagi aksariyat mamlakatlari kerakli infratuzilma mavjud emasligi uchun foydalaniladigan suvni qayta ishlay olmaydi, kanallar va to‘g‘onlar qurish uchun katta sarmoya sarflash

¹ Jahon iqtisodiy forumi 2013(world economic forum 2013 WEF2013)

imkoniyatiga ega emas. Qit'adagi suv muammosi eng kuchli mamlakatlar – Eritreya, Sudan, Gvineya, Somali va Nigeryadir. Ming afsuski yaqin 50 yilda bunday hududlar soni yanada ko'payishi prognoz qilinmoqda, va bu hududlar qatorida Markaziy Osiyo mamlakatlarining ham mavjudligi mintaqadagi mamlakatlarning suvdan foydalanishda yanada birdamlik va oqilona yo'llarini izlashlari kerakligini ko'rsatadi. Suv muammosi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi Orol dengizi negizida afsuski o'z tasdig'ini topmoqda.

O'zbekiston Dunyo resurslari instituti (World Resource Institute) tomonidan e'lon qilingan suv stressidan aziyat chekuvchi mamlakatlar reytingida 164 mamlakat orasidan 25-o'rinni egalladi¹.

Tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekiston yuqori suv tanqisligi mavjud 27 davlatdan iborat guruhga kiritilgan. Ular orasida Afg'oniston (27-o'rin), Turkiya (32-o'rin), Qirg'iziston (38-o'rin), Portugaliya (41-o'rin), Italiya (44- o'rin)[1:2].

2022 yil 5-dekabrda iqlim o'zgarishining O'zbekiston agrar sohasiga ta'siriga bag'ishlangan yig'ilishida O'zbekistonda bir daqiqada 9 metr kvadrat cho'llanish ro'y berayotgani ma'lum qilindi. Bunga asosiy sabablardan harorat va yog'ingarchilikning o'zgarishi, suv toshqinlari, ekstremal ob-havo kabilarni keltirish mumkin. Bular agrotadbirkorlar, fermer va dehqon xo'jaliklari daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay oziq ovqat yetishmovchiligi va sifat ko'rsatkichlaridagi pasayishlarga ham olib keladi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti sarmoya bo'limi iqtisodchisi Andriy Yarmak O'zbekistonda artezian suvlardan ko'p foydalanish bo'yicha xavotirlarini bildirib, buning oqibatida mamlakatda ichimlik suvi tanqisligi kelib chiqishini ta'kidlagan. Uning fikricha, yaqin yillarda O'zbekistonda meva-sabzavot yetishtirishning o'sish suratlari sekinlashishi, hatto kamayib ketishi mumkin. Ammo, mamlakatimizda bu muammoga o'z vaqtida yechim topish va suvdan tejamkorlik bilan foydalanish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda, xususan tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy qilinmoqda. Ushbu usul tatbiq qilingan mamlakatlardan biri Isroilda meva va sabzavot yetishtirish 60-70 foizga oshgan

¹ Jahon resurslari institutining 2022 yilgi reytingi (World Resource Institute)

Afsuski ba'zi muammolarni hal qilishda katta miqdordagi mablag' va vaqt kerak bo'ladi. Bunday muammolardan biri Markaziy Osiyoning O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida joylashgan dengizning qurishidir. Ushbu Orol dengizining achinarli holati, inson omilida vujudga kelgani, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'siri, noto'g'ri suv siyosati natijasidir. Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. gektarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuz qumli aerozollarini tarqatish manbaiga, "o'lik" dengizga aylandi. Bu yerda har yili atmosferaga 80 dan 100 mln. tonnagacha chang ko'tariladi¹.

Shu bilan bir vaqtda, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llashish suratlari o'sib bormoqda. Yer maydonlarining juda katta qismida tuproq unumdorligi pasayishiga olib kelmoqda va bu tabiiy ravishda hosilning kamayishiga sabab bo'ladi.

Xulosa: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ekologik muammolar so'ngi bir asr ichida o'zining "yangi" bosqichiga ko'tarilgan. Yirik megapolislarda havoning ifloslanishi, qayta tiklanuvchi energiyaga hamon to'laqonli o'tolmayotgani, suv va atrof muhitga sintetik kimyoviy chiqindilarning tartibsiz tashlanayotgani, davlatlar byudjetlarini boyitish va o'zaro raqobatda ortda qolmaslik uchun sanoat zonalarini, atmosferaga katta hajmda zararli chiqindilar chiqishiga qaramasdan zavod va fabrikalar sonini orttirishda davom etmoqda.

Bu muammolarning yechimi uchun aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak O'zbekistonda har bir kishi 1 sutkada 2-3 litr chuchuk iste'mol qiladi. Gidrosferaning faqatgina 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida esa bu ko'rsatkich anchayin yuqori ayrim sohalarni ko'radigan bo'lsak, 1 tonna bug'doy yetishtirish

¹ Jahon resurslari institutining 2022 yilgi reytingi (World Resource Institute)

uchun — 1,5 tonna , 1 tonna sholi uchun – 4-5 ming tonna, 1 tonna paxta yetishtirish uchun – 10 ming tonna suv sarflanadi¹.

Iqtisodiy tomondan bu mahsulotlar importidan kelayotgan foyda yuqori bo‘lishi mumkin, ammo yaqin kelajakda yirik iqtisodiy muammo, ya’ni suv tanqisligi muammosini unutmashlik shart. Mamlakat iqtisodiyotini boyitishda boshqa alternativlardan foydalanish, davlatning iqtisodiy portfeliga zamonaviy sohalarni kiritishni yanada kuchliroq rag‘batlantirish kerak bo‘ladi. Texnologik asrning boshlanish nuqtasida turibmiz, ko‘rishimiz mumkinki ba’zi global axborot texnologiyalariga asoslangan, ma’lumot sotuvchi kompaniyalarning bir yillik daromadi trillionlab dollarlarni tashkil qilmoqda, bu esa hattoki ko‘plab rivojlangan mamlakatlar yillik daromadidan bir necha barobar ortiqroqdir. Misol uchun Microsoft 3 trillion AQSH dollari, Google 1,8 trillion AQSH dollari, Meta 567 milliard AQSH dollari, Iphone 3,7 trillion AQSH dollarini tashkil qilmoqda².

IT texnologiyalarini rivojlantirish bilan birga mamlakatning tarixiy shaharlari va nodir tabiatga ega shaharlarini yanada rivojlantirish orqali mamlakatni turizm “stansiya”laridan biriga aylantirish, yuqori daromad keltiruvchi sohalardan yana biri xizmat ko‘rsatish sohasini jonlantirish mumkin. Jahonda Parij, London, Istanbul, Dubai kabi xizmat ko‘rsatish va turizm salohiyati yuqori shaharlarga yiliga yuz millionlab sayyohlar tashrif buyurishadi va mamlakatga milliardlab dollar foyda keltirishadi. Markaziy Osiyoning turizm yuragi hisoblanuvchi Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlarini dunyo xalqlariga muhtasham tarixi va o‘zgacha inshootlari, sharqona madaniyatini reklama qilishning yanada samarali va yangi turlarini yaratish, xalqaro turizm manziliga aylantirish lozim. Misol qiladigan bo‘lsak birgina Fransiya poytaxti Parij shahriga 2023 yilda 128 mln sayyohlar tashrif buyurgan, mamlakat YIM ga 163 mlrd dollar foyda keltirib umumiy hisobda bu ko‘rsatkich YIM ning 9,3 foiz ni tashkil qiladi, shu bilan birga 2,9 mln kishini ish bilan band qilgan. O‘zbekistonda turizm shaharlarini barpo etish va sayyohlik infratuzilmasini tashkillashtirish uchun

¹ Fanlar akademiyasi qoshidagi seysmologiya institutining 2022 yilgi tadqiqotidan

² BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sammiti 2021da iqtisodchi Andriy Yarmak nutqidan

soʻngi yillarda yirik investitsion loyihalar jalb qilinmoqda xususan 2023 yilda turizm targʻiboti uchun 100 mlrd soʻm ajratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Jahon iqtisodiy forumi 2013(world economic forum 2013 WEF2013)
2. Jahon resurslari institutining 2022 yilgi reytingi (World Resource Institute)
3. Jahon resurslari institutining 2022 yilgi reytingi (World Resource Institute)
4. Fanlar akademiyasi qoshidagi seysmologiya institutining 2022 yilgi tadqiqotidan
5. BMTning oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi sammiti 2021da iqtisodchi Andriy Yarmak nutqidan

ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ

*Людмила ПОПОВА
ТГУВ, 4 курс, факультет Японоведения (ХМИ),
Научный руководитель: Н. Турсунова
старший учитель, ТГУВ*

Аннотация: В данной статье рассмотрен аспект основных особенностей рекламной деятельности страховых компаний с теоретической точки зрения. Была рассмотрена особенность страховых продуктов, которая влияет на подачу рекламы, а также рассмотрены ошибки, которые обычно страховые компании допускают при подаче своей рекламной кампании. Также были рассмотрены основные виды рекламы, которые чаще всего используются для рекламы страховых услуг.

Ключевые слова: Страховые продукты, страхование, реклама, ошибки, рекламные кампании, страховые услуги.

Для работы финансовых организаций огромное значение имеет в первую очередь качественная реклама и собственно сама репутация. Для страховщиков, реклама, это все. Реклама в данном случае служит для доноса ценности услуг до потребителя. Реклама не просто дает возможность рассказать и донести определенную информацию до своих клиентов, но и помогает страховой компании выделиться на фоне своих конкурентов, а также сформулировать ассоциации

связанные с ней. Успех на страховом рынке, это в первую очередь умение продать определенной компанией свою услугу. Но никак нельзя продать то, что потребителю будет не понятно. Увидев на большом таблоиде красивую рекламу, потребитель, конечно же, может запомнить данную рекламу, но так и не понять, что именно ему предлагают купить. Именно поэтому из-за некорректного применения рекламы, многим страховым компаниям так и не удается добиться успеха в проделанной ими работе. Благодаря развитию современного мира, идет развитие, как рекламы, так и страхования. Наши потребности увеличиваются с каждым днем, и нам всегда хочется чего-то нового. Именно поэтому необходимо тщательно и детально выстраивать стратегию маркетинга и постоянно ее совершенствовать.

Ключевым фактором в рекламной деятельности страховых организаций является специфика страхового продукта. Если рассматривать РФ, и законы данной страны о страховании, то статья 957. ГК РФ гласит: «Договор страхования, если в нем не предусмотрено иное, вступает в силу в момент уплаты страховой премии или первого ее взноса. Страхование, обусловленное договором страхования, распространяется на страховые случаи, произошедшие после вступления договора страхования в силу, если в договоре не предусмотрен иной срок начала действия страхования»¹.

Всегда клиент страховой компании платит за услугу, которую он никак не может потрогать-использовать. Согласно психологии, люди всегда стараются покупать тот товар, которые они могут потрогать, или услугу, которую они могут ощутить, нежели чем что-то на будущее, что может вовсе и не пригодиться. Покупая тот или иной страховой полис, мы — как страхователи приобретаем свою финансовую безопасность в будущем, лишь в том случае если с нами произойдет тот или иной страховой случай. Страховщики в данном случае через рекламу должны уметь объяснять выгоду таких покупок и рассказывать все нюансы для того, чтобы

¹ «Гражданский кодекс Российской Федерации (часть вторая)» от 26.01.1996 N 14-ФЗ (ред. от 24.07.2023) (с изм. и доп., вступ. в силу с 12.09.2023) — «Консультант Плюс». [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <http://www.consultant.ru/> (Дата обращения: 11.01.2024)

у нас, будучи страхователями, не было сомнений касательно того, что мы покупаем «кота в мешке»¹.

Какой бы реклама не была хорошей, если услуга или товар не соответствуют выпускаемой рекламе, то, скорее всего новый клиент разочаруется в покупке, и возможно, а это бывает в 47% случаев, оставит отрицательный отзыв. Таким образом, коммерческая реклама будет приносить компании не прибыль, а только убыток. Исходя из этого, можно прийти к выводу, что страховое обслуживание клиентов является одним из основных элементов удовлетворения страховых интересов, его уровень влияет на спрос на страховые услуги, иными словами, чем выше уровень обслуживания у определенного страховщика, тем выше спрос на его страховые услуги. Однако чем выше уровень обслуживания, тем больше затрат. Поэтому руководство всегда старается найти оптимальное соотношение уровня обслуживания к экономическим факторам, связанным с обслуживанием.

Главная причина, по которой использование рекламы в сфере страхования является настолько важным, это:

1. Продление старых договоров;
2. Увеличение количества заключения новых.

В связи с этим страховые компании предпринимают следующие шаги:

- Постоянно формируют имидж страны;
- Информировать потенциальных клиентов, которые уже застрахованы, о действующих видах страхования;
- Постоянно провоцируют желание потребителей более подробно ознакомиться с теми или иными видами услуг, которые предоставляются страховой компанией².

Самой распространенной ошибкой страховщиков является их самоуверенность, или как они утверждают, убеждение в том, что страхователи только и ждут

¹ Официальный сайт «Страхование рисков» – справочный портал о страховании. [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://risk-insurance.ru/insurance-management/marketing>

² Концевич Г.Е. Основные проблемы в обеспечении эффективности современной российской страховой компании // Вестник ПНИПУ. Социально-экономические науки. 2021. №3. [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnyie-problemy-v-obespechenii-effektivnosti-sovremennoy-rossiyskoy-strahovoy-kompanii>

того момента, чтобы порадоваться новым видам страхования. Во многих случаях это совсем не так. Чаще всего страховщику приходится доказывать, не один раз и не один год, выгоду нового вида страхования. Когда данное обстоятельство, будет рассмотрено со всех сторон, и страховщик начнет вносить соответствующие коррективы в организацию рекламы и информировать страхователей о плюсах предлагаемых видов страховых услуг, есть основания рассчитывать, что проводимая кампания будет иметь успех¹. Как пример, можно рассмотреть опрос в РФ в 2023 году, в котором приняло участие достаточно большое количество людей. «АльфаСтрахование» страховой компанией было проведено достаточно большое мероприятие, о внедрении страховки от разбитого сердца. Итоги проведения данного мероприятия. Показали, что 87% россиян хотели бы иметь данного вида страховку, 10% опрошенных считают, что чему быть того не миновать, а 3% ответили, что не ищут никаких отношений. Несмотря на большое количество проголосовавших за, понятно, что никаких плодов данная страховая кампания не сможет принести².

Страховые организации, впрочем, как и любые коммерческие организации нуждаются в качественной рекламной деятельности. Потенциальным страхователям важно, чтобы страховая компания была «на слуху». В главные задачи службы рекламы страховщика входит ознакомление аудитории со страховыми услугами, представления своей аудитории о конкретной страховой компании, ознакомление аудитории со страховыми услугами, изменение поведения потребителей.

Страховым компаниям важно доносить до своих потенциальных клиентов значимость страховых услуг. А именно показывать, что может быть, если не купить страховой полис: потенциальный клиент думает, что купив страховой полис и вложив определенное количество денег, он потеряет их и «подарит компании». Но ведь если со страхователем что-то случится, а именно страховое событие, оно повлечет за собой кучу расходов и потерь, все эти убытки в свою очередь может покрыть страховая компания по договору страхования. Поэтому покупка страхового

¹ Ермасов, С. В. Страхование: учебник для бакалавров — Образовательная платформа Юрайт [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://urait.ru/bcode/425155>

² https://www.alfastrah.ru/news/15719006/?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F

полиса, проще говоря, своей страховки – это покупка своей финансовой подушки и моральной безопасности в будущем. На это собственно и должна быть основана рекламная деятельность страховых компаний.

Для рекламы своих страховых услуг, предоставляющая свои услуги компания используют различные виды рекламы.

Большое значение здесь занимает наружная реклама. При данном виде рекламы используется широкоформатный рекламный плакат, который размещается на специализированных стендах. В нем обычно приводится информация об условиях отдельных видах страхования, при необходимости дается пояснение условных примеров, а также указывается размер тарифов. Именно данного рода рекламные щиты привлекают внимание достаточно большого количества потенциальных клиентов.

Следующим технологическим способом применения рекламы страховых компаний является телевидение. Главное и основное преимущество данного метода в том, что на зрителя воздействуют 3 основных фактора: звук, движение и изображение.

И последнее, местная реклама. Это рекламные объявления, размещенные там, где могут заинтересовать покупателя. Например, клиент может увидеть рекламу КАСКО в автосалоне, а пациент или врач рекламу страхования жизни и здоровья в поликлинике или больнице.

Успешные страховые компании должны отслеживать тенденции развития и разрабатывать сценарии возможных событий, прогнозировать изменения, которые в дальнейшем могут повлиять на развитие компании, и планировать ответные меры, повышая роль стратегических подходов. Простыми словами они должны думать наперед и предвидеть возможные неудачи и провалы. При этом эти подходы в условиях глобализации и кризисов должны уметь сочетаться с непрерывным планированием¹.

¹ Голубков Е. П. Маркетинг для профессионалов: практический курс: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры — Образовательная платформа Юрайт [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://urait.ru/bcode/507921/>

В современном мире, качественная рекламная деятельность способна сделать страховую компанию конкурентоспособной и внести большой вклад в развитие экономики страны. Так страхование обеспечивает стабильность экономического развития и выполняет роль стимулятора экономического роста, накапливая сбережения в виде страховых премий и переводя их в инвестиции, тем самым увеличивая эффективность всей финансовой системы страны. Отсутствие цифровизации в сфере привело к тому, что охват услугами остается на крайне низком уровне. При том, что некоторые страховые услуги являются обязательными, по предварительным расчетам застрахованы только 7,2% работодателей, 8,6% перевозчиков, 1,8% опасных объектов и 9,2% строительно-монтажных работ.

Случаи необоснованного отказа от страховых выплат или неуплаты их в срок снижают доверие населения к страховым услугам.

Например, в 2022 году страховые выплаты в мире составили: в Нидерландах — 93%, в Германии — 78%, во Франции — 76%, в России, Белоруссии и Армении — 50%, в Узбекистане в сфере общего страхования всего лишь 24%, включая страхование жизни 42%, что показывает низкий уровень выплат по сравнению с остальными странами.¹

О масштабах мирового рынка страховых услуг имеют место быть следующие данные (таблица 1)². Нужно заметить, что в расчетах аналитики Swiss Re используют отчетные данные по странам без какой-либо корректировки на их состав.

Таблица 1.

Масштабы мирового рынка страховых услуг

(общие сведения о сборе страховых премий за 2010 год)

¹ Басманов Е. Крупнейшие страховые компании мира наращивают доли акций в своих портфелях. РБК Daily. 2011. 2 марта. <http://rbcdaily.ru/2011/03/02/world/562949979787567>

² <http://www.swissre.com/sigma/>

Регионы и организации	Совокупный объем собранных страховых премий (в млн. долл США)	Изменение (в %) с поправкой на инфляцию	Доля мирового рынка (в%)	Объем собранных премий (в% к ВВП)	Страховые премии на душу населения (в долл. США)
<i>Америка</i>	1 409 530	0,7	32,49	6,71	1 519,2
Северная Америка	1 281 664	0,0	29,54	7,90	3 724,4
Латинская Америка и Карибы	127 867	8,2	2,95	2,68	219,1
<i>Европа</i>	1 620 437	1,8	37,35	7,47	1 850,2
Западная Европа	1 532 631	1,9	35,32	8,44	2 890,3
Центральная и Восточная Европа	87 806	-0,4	2,02	2,62	272,5
<i>Азия</i>	1 161 118	7,2	26,76	6,16	281,5
Япония и новые индустриальные страны Азии	791 349	2,8	18,24	10,64	3 733,3
Южная и Восточная Азия	336 448	18,8	7,75	3,66	93,9
Средний Восток и Центральная Азия	33 321	10,1	0,77	1,51	105,0
<i>Африка</i>	66 719	-1,1	1,54	3,86	64,7
<i>Океания</i>	81 160	2,3	1,87	5,82	2 283,1
<i>Всего в мире</i>	4 338 964	2,7	100,00	6,89	627,3
Промышленно развитые страны	3 688 758	1,4	85,01	8,65	3 526,7
Развивающиеся рынки	650 206	11,0	14,99	2,99	110,1
ОЭСР	3 629 636	1,2	83,65	8,14	2 847,8
G7	2 843 371	0,7	65,53	8,76	3 775,2
Еврозона	1 069 855	3,1	24,66	8,15	3 005,2
ЕС, 27 стран	1 482 347	1,9	34,16	8,43	2 736,3
НАФТА	1 300 859	0,0	29,98	7,54	2 859,7
АСЕАН	57 169	9,3	1,32	2,97	103,6

Вывод

Данным образом, мировой страховой рынок оценивается почти в 1,5 трлн.долл. США. Основную долю, это 83,65% занимают страны – члены ОЭСР. Если рассматривать по регионам, то абсолютным лидером является Западная Европа – 37,35%, мирового рынка, и Северной Америки (где, безусловно доминирует США) – 29,54%.

В целом можно удостоверять, что страхование имеет серьезные перспективы значительного роста.¹ При этом учитывая значение страхования для социально-экономического развития страны необходимо использование имеющегося мирового опыта и поиск новых решений.

Список литературы:

1. «Гражданский кодекс Российской Федерации (часть вторая)» от 26.01.1996 N 14-ФЗ (ред. от 24.07.2023) (с изм. и доп., вступ. в силу с 12.09.2023) — «Консультант Плюс». [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <http://www.consultant.ru/> (Дата обращения: 11.01.2024)
2. Официальный сайт «Страхование рисков» – справочный портал о страховании. [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://risk-insurance.ru/insurance-management/marketing>
3. Концевич Г.Е. Основные проблемы в обеспечении эффективности современной российской страховой компании // Вестник ПНИПУ. Социально-экономические науки. 2021. №3. [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-problemy-v-obespechenii-effektivnosti-sovremennoy-rossiyskoy-strahovoy-kompanii>
4. Ермасов, С. В. Страхование: учебник для бакалавров — Образовательная платформа Юрайт [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://urait.ru/bcode/425155>
5. https://www.alfastrah.ru/news/15719006/?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F
6. Голубков Е. П. Маркетинг для профессионалов: практический курс: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры — Образовательная платформа Юрайт [электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: <https://urait.ru/bcode/507921/>
7. Басманов Е. Крупнейшие страховые компании мира наращивают доли акций в своих портфелях. РБК Daily. 2011. 2 марта. <http://rbcdaily.ru/2011/03/02/world/562949979787567>
8. <http://www.swissre.com/sigma/>
9. <http://www.finmarket.ru/z/nws/pressinf.asp?id=1260388>

¹ <http://www.finmarket.ru/z/nws/pressinf.asp?id=1260388>

GLOBALLASHUV VA GEOSIYOSIY KESKINLIK SHAROITIDA JURNALISTIKA VAZIFALARINING O‘ZGARIB BORISHI

Mohichehra QADAMOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
xalqaro jurnalistika yonalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Fil. f.d, professor Q. Omonov

Annotatsiya: Jurnalist kasbining mohiyati va uning hozirgi global jarayonlarga ta’siri.

Kalit so‘zlar: jurnalistika, so‘z erkinligi, jamoatchilik, press-reliz, yangilik, efir, kontent tizimlari, mediamakon, axborot urushi.

Keyingi yillarda dunyo miqyosida globallashuv va geosiyosiy keskinlik jarayonlarining o‘zgarib borishi zamonaviy jurnalistikaning an’anaviy vazifalarining o‘zgarib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ayni kunlarda “Jurnalistika qanday kasb, Jurnalistlar aynan nima qiladi?” kabi savollar global siyosat va jamiyatimizdagi ehtiyojlar asosida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu kasb egalari faqat xabar berish va kundalik axborot bilan ta’minlash vazifasini bajarmasdan, balki jamiyat va davlat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘tash hamda davlatlararo aloqalarni belgilashda ham rol o‘ynamoqdalar. Shuningdek jamiyatning ijtimoiy fikrini yo‘naltirishda ham ma’lum o‘ringa ega bo‘lmoqda.

“Jurnalistlar voqea va muammolar va ularning hayotiga qanday ta’sir qilishlari haqida jamoatchilikni xabardor qiladi”¹, — deydi Rebekka Brisko, Houston Style jurnali milliy nashri muxbiri.

SiriusXM-dagi POTUS kanalining boshlovchisi o‘rinbosari Kent Klein agar ular o‘z ishiga jurnalist kabi yondashsalar, ya’ni ishga jiddiy yondashsa, aniqlik va yaxshi yozishga intilishsa, ular jurnalist bo‘lishi haqidagi fikrni ilgari surgan.

O‘tgan 2023 yilda G‘azo sektoridagi mojaroli hududlarda kasbiy faoliyati bilan bog‘liq holatlarda 50 ga yaqin jurnalistlarning vafot etganini bunga misol qilish mumkin².

¹ Mediabistro.com <https://www.mediabistro.com/climb-the-ladder/skills-expertise/what-does-a-journalist-do/> “What does a journalist do” maqolasidan olingan.

² <https://kun.uz/news/2023/11/20/cpj-gazo-sektoridagi-urushda-48-jurnalist-halok-boldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F11%2F20%2Fcpj-gazo-sektoridagi-urushda-48-jurnalist-halok-boldi>

Asosiy qism. Jurnalistlar hikoyachilardir. Erkinlikka intilish har bir jurnalistning ajralmas huquqi bo‘lib qanday tushunish, amalga oshirish masalasi, uni ta’minlash uchun va albatta huquqiy kafolatlar, huquqiy jihatlar, muayyan siyosiy tuzilmalardan himoyalanih, iqtisodiy erkinlik shu bilan birga undagi erkinlikning yanada ortishi bularga misoldir.

Ular radio, televideniye, internet, gazeta-jurnal, blog yoki boshqa elektron vositalar orqali ma’lumot tarqatish, ta’limot berish va axborotlar to‘plashning turli xil usullaridan foydalanishadi.

Ular ijtimoiy muammolar va siyosatdan tortib, sport va o‘yin-kulgigacha bo‘lgan har qanday ma’lumot asosida yangiliklar yaratadilar va xabar beradilar. Jurnalistlar o‘z fikrlarini shakllantirishlari va oqilona qarorlar qabul qilishlari uchun ma’lumotni taqdim etadi.

Aytib o‘tganimdek bu hikoyachilarga hikoyaga kirish uchun biroz mehnat talab etiladi. Jurnalist press-revizlarni ko‘rib chiqish va hikoya g‘oyalarini ishlab chiqish uchun vaqt sarflaydi. Faktlarni tekshirish, chuqur fikrni ilgari surib, bitta mavzuni soatlar, oylar, ba’zan yillar davomida tadqiq qilishadi, manbalar bilan ishlashadi va munosabatlarni o‘rganishadi, shuningdek, mavzular bilan yuzma-yuz, qadamma-qadam suhbat qurishadi.

Jurnalist qayerda ishlashiga qarab, yangiliklar lavhasi, reportaj, fotosuratlar olish va ijtimoiy media platformalari uchun kontent, jumladan, videolar tayyorlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Xo‘p, jurnalistga qanday ko‘nikmalar kerak?

Intervyu va shaxslararo munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ba’zi mavzulardan ma’lumot olish juda qiyin, xuddi tishlarni donalab-donalab tortib olish kabi bo‘lishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari qanday iste’mol qilinishini anglab yetishimiz kerak. Oshpaz bo‘lsakda o‘zimizni iste’molchi o‘rniga qo‘yib ko‘rishimiz lozim. Raqamli ko‘nikmalar kerakligi ham shular qatorida.

HTML va CMS, ENPS Elektron yangiliklar ishlab chiqarish tizimi kabi efirdagi kontent tizimlari, raqamli tahrirlash dasturlari va tahliliy tajribalar, raqamli makon haqida gapiradigan bo‘lsam, yana savol tug‘iladi, bloggerlar va mashhurlar haqida xabar beradigan odamlar jurnalistmi?

Biror kishini jurnalist qiladigan narsa haqida umumiy fikr yo‘q, shuning uchun javob kimdan so‘rashingizga bog‘liq. SiriusXM-dagi POTUS kanalining boshlovchisi o‘rinbosari Kent Klein agar ular o‘z ishiga jurnalist kabi yondashsalar, ya‘ni ishga jiddiy yondashsa, aniqlik va yaxshi yozishga intilishsa, ular jurnalist bo‘lishi haqidagi fikrni ilgari surgan.

So‘ngi yillardagi global siyosiy jarayonlar jurnalistikaning muhim sohalaridan biri ekanini yana bir marta ko‘rsatdi. Dunyoning bir qancha nuqtalarida ziddiyatli vaziyatlar kelib chiqqach, o‘sha hududlarda qanchadan qancha jurnalistlar halok bo‘lganini ko‘rish mumkin. O‘tgan 2023 yilda G‘azo sektoridagi mojaroli hududlarda kasbiy faoliyati bilan bog‘liq holatlarda 50 ga yaqin jurnalistlarning vafot etganini bunga misol qilish mumkin.

Shuningdek, oxirgi yillarda axborot urushi ham medimakondagi asosiy xavflardan biriga aylandi, deyish mumkin. Mintaqalar davlatlar o‘rtasida axborot tarqatishda bir-birini gij-gijlash, manipulyatsiya qilish, yolg‘on axborot kabi atamalar paydo bo‘lmoqda. Axborot urushlari insonlar o‘rtasidagi urushlardan kam xavf tug‘dirmasligi aniq, chunki butunjahon internet tizimidan barcha insonlar foydalanadi va ular bunday urushlar qurboniga aylanishi hech gapmas¹.

Xulosa. Bilamizki, har bir ishning o‘z qiyinchiligi, mashaqqati va talablari bor. Qiyinchilikni qanday qabul qilish, to‘siqlarni yengib o‘tishda kuch topa olish va jurnalistikaning bir bo‘lagiga aylanish esa o‘sha mas‘uliyatli kasb egasining o‘zigagina bog‘liq. Jurnalistikaga shunchaki kasb sifatida qarash mumkinmas, u mahorat, mas‘uliyat hamdir. Chunki yuqorida ta‘kidlaganimdek, zamon shuni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda jurnalistikaga bo‘lgan e‘tibor so‘ngi yillarda oshib borayotganini ham ushbu qatlamga ehtiyoj borligida, jamiyatning muhim sohalaridan biriligida ko‘rish mumkin. Xususan, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining ochilgani, bugunga kelib ushbu oliygohni har yili yuzlab talabalar bitirayotganini bunga misol qilish mumkin. Bundan tashqari ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida ham jurnalistika bilan bog‘liq yo‘nalishlar ochilganini keltirish mumkin.

¹<https://factchecking.uz/uz/2023/06/30/axborot-psixologik-urush-davrida-mediaiste%CA%BCmolinimalarga-e%CA%BCtibor-qaratish-kerak/>

Jurnalistikada nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar ham muhim deb hisoblayman. Bu borada ham telekanallar, radiokanallar hamda internet nashrlari yosh jurnalistlarni ish o‘rganishlari uchun taklif qilmoqda. O‘zbekistonninggina ommaviy axborot vositalari emas, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjonning yetakchi media kompaniyalari vakillari ham yurtimizga tashrif buyurib, yosh jurnalistlar bilan suhbatlashayotganini ko‘rish mumkin. Umuman olganda talab bo‘lgan soha yetarli darajada kadrlardan to‘ldirilishi uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda. Endigi muhim ish — yoshlardan o‘qish va o‘rganish, uni tatbiq etish talab qilinadi, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “What does a journalist do”. Mediabistro.com: <https://www.mediabistro.com/climb-the-ladder/skills-expertise/what-does-a-journalist-do/>
2. “G‘azo sektoridagi urushda 48 jurnalist halok bo‘ldi”. Kun.uz: <https://kun.uz/news/2023/11/20/cpj-gazo-sektoridagi-urushda-48-jurnalist-halok-boldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F11%2F20%2Fcpj-gazo-sektoridagi-urushda-48-jurnalist-halok-boldi>
3. “Axborot-siyosiy urush davrida media iste‘moli: nimalarga etibor qaratish kerak”. Factchecking.uz:
4. <https://factchecking.uz/uz/2023/06/30/axborot-psixologik-urush-davrida-mediaiste%CA%BCmoli-nimalarga-e%CA%BCtiber-qaratish-kerak/>

THE CURRENT EXTREME POLLUTION IN TASHKENT AND WAYS TO RESOLVE IT

Muhammadayub YUSUPOV

TSUOS, Economy, politics and tourism of Eastern countries, course 2.

Research advisor: senior teacher, Z.Mirabdullaeva

Abstract: How come is this air pollution taking place, even though Tashkent is a pretty small city and its population is fewer unlike other cities in Asia ? The most obligated actions to overcome and bring nature back are crucial. This article explains all reasons regarding current pollution in our country and what is making it even worse.

Key words: Air pollution, nature, gass, coal, vehicles, man-made problems, deficient water.

The world we are occupying is rich in oppotunities and full of materials with which we can create a place where everyone might be far ahead of global dangers such

as climate change or chronic diseases, however a human being itself is causing those problems and sometimes making wrong decisions which leads to a loss of nature. Air pollution is contamination of the indoor or outdoor environment by any chemical, physical or biological agent that modifies the natural characteristics of the atmosphere. There are only two factors out there that cause air pollution, one is natural reasons like sand dust, other one is man-made such as vehicle emissions, fuel oils or carbon dioxide from greenhouses. Household combustion devices, motor vehicles, industrial facilities and forest fires are common sources of air pollution.




According to the IQAir portal, 21th February at 08:50 the concentration of small PM2.5 dispersed particles in the air of Tashkent was 196 µg/m³ — this is a “harmful” indicator which made Tashkent rank first among world cities in terms of air pollution¹. Now let’s face it: what exact reasons are behind the situation? First of all, using of low-quality Ai-80 gasoline in large volumes, as well as the burning of fuel oil and coal in heating systems, is indeed leading ones. Earlier, the Minister of Energy, Jorabek Mirzamahmudov, announced that the stock of fuel oil for the production of electricity was increased by 7.4 times to 340,000 tons which is a greater amount than ever before.

Live most polluted major city ranking ⓘ

11:34 (local time)

AQI US legend



Rank	Major city, country/region	AQI US	Followers
1	 Tashkent, Uzbekistan	175	89.6K followers
2	 Delhi, India	173	2.7M followers
3	 Lahore, Pakistan	160	368.6K followers

¹ World air quality. Air quality index (AQI) and PM2.5 air pollution in the world. <https://www.iqair.com/uzbekistan/toshkent-shahri/tashkent/nest-one>

The climatologist also emphasized the influence of the geographical location of the city of Tashkent. Dust and waste coming from large industrial enterprises in Ohangaron, Angren, Olmalik, mineral nitrogen fertilizers in Chirchik, and wastes released into the atmosphere are trapped in the city. As it turned out, the filters of some factories in cities above-mentioned are outdated. The president of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, set the task of starting the installation of automatic air monitoring stations in the cities of Tashkent and Nukus, regional centers and 20 industrialized districts¹. A majority of trees are being cut down; as a result climate change, desertification, soil erosion, increased greenhouse gases in the atmosphere are taking place. A lot of construction actions have been conducted in recent years. The problem of ecology and environment may reach an alarming level in the near future unless we ourselves do something for our country and future generations.

It is appropriate to implement several measures to preserve nature as possible. For instance, hybrid cars, are one of the most beneficial ways to secure the environment and save gas resources on Earth. As the press service of the president reported, it is aimed to increase the production of cars in Uzbekistan to 1 million units by 2030. Moreover, recycling plays a big role as it prevents pollution and reduces greenhouse gases by reducing the need to mine and process new raw materials. The waste problem today is considered as one of the most pressing environmental issues in the world. The analysis shows that the volume of household and industrial waste has been ramping up from year to year in recent years. Especially in the twenty-first century, the increase in household waste has begun to have a huge negative impact on environmental sustainability. Furthermore, great yet ubiquitous construction projects are here and there and year by year building a house is becoming a business. I think building activities should be put on hold for some time since the dust coming out of them has a significant effect on the air in the city.

¹ From the meeting of the video selector regarding the priority tasks to be implemented in the fields of housing, construction, communal economy, transport and ecology in 2024. [https://kun.uz/news/2024/01/29/ayrim-korxonalar-na-soliq-tolashni-na-atrof-muhitni-himoya-qilishni-oylayapti-prezident](https://kun.uz/news/2024/01/29/ayrim-korxonalar-na-soliq-tolashni-na-atrof-muhitni-himoya-qilishni-oylayapti-prezident?q=%2Fuz%2Fnews%2F2024%2F01%2F29%2Fayrim-korxonalar-na-soliq-tolashni-na-atrof-muhitni-himoya-qilishni-oylayapti-prezident)

Increasing greening measures across the city is also one of the important plans. Trees give off oxygen that we need to breath, reduce the amount of storm water runoff, which reduces erosion and pollution in our waterways. They provide us with a variety of things to fulfil our daily requirements, including food to eat, air to breathe, clothes to cover our body, wood, medicine, shelter, and many products for human benefit. Last year the presidential decree “green space” national project was adopted and is being promoted and trees are being planted step by step. It is the duty of all of us to further increase the level of greenness in our country.

Human activities are the main villain that harms nature. Earlier, it was not evident the dangerous effects of human exploitation on nature. When we think that we have only cut down a single tree, which might not damage nature, remember that there would be hundreds of others who think like you. So, one tree becomes hundreds, thousands and millions. At this pace, nature will soon exhaust its resources, and we will be suffering from various natural disasters and diseases. To put it simply, our mere existence would be threatened.

Although we need to have an abode to live in, a car to make long-distance close, and money to buy, we also need the nature. All important factors for humans is given by nature. While we get food to eat, air to breathe and water to drink from nature, we also enjoy the natural beauty and sounds as they lift our moods. It provides us with many resources, and we return its kindness by overexploiting and harming nature, which is sad. Thus, as people living on Earth, we need to be conscious of our actions on surroundings that disrupt its natural flow. Maybe it is time to support back, let’s make a purpose and create an environment that will serve the young generation.

References:

1. www.iqair.com
2. www.who.int
3. <https://en.wikipedia.org>
4. <https://kun.uz>
5. <https://lex.uz>

ACTIVITY OF TOUR OPERATORS IN TOURISM DEVELOPMENT MANAGEMENT

Dilyayra TESHAYEVA

*TDSHU, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti siyosati va turizmi kafedrasida
turizm fakulteti malayziya-ingliz guruhi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: TDSHU, o'qituvchisi S. Gazieva*

Abstract: In this article, the reasons that hinder the development of tourism, as well as the analysis of conferences on tourism and the contribution of conferences to the development of tourism, and the system of tour operators and their role in tourism. The attitude to tourism in Uzbekistan and decisions and decrees on tourism. Also The achievements of the conferences held in the territory of Uzbekistan were directly covered.

Key words: Concept of tourism, goals and tasks, history of tourism.

Today, in the process of globalization, special attention is paid to tourism. It is no exaggeration to say that tourism brings benefits as an income product in developed countries. The United States of America, the countries of the European Union, Malaysia, and Saudi Arabia, which are considered giant countries, are a clear example of these. In the context of global development, it is important to strengthen interstate relations and develop tourism international conferences play a key role in preventing urgent international problems

TOURISM is a temporary stay of an individual in the country, without engaging in activities related to income from sources, departure and travel from the place of permanent residence. Let's mention five travelers who changed the world. The reason is that as a result of geographical discoveries, the world map was formed at a new stage. Today's tourism development relies on these discoveries. Below we explain the main early travelers on the world map¹

Christopher Columbus (1451-1506), known as the traveler who ended his life of greed, was a real seafarer. He studied geography. He put forward the idea of going to India through the Atlantic Ocean. The reason is that in those days, Turkey separated East and West and opposed it. With the financial support of the King of Spain, he went

¹ Mirziyoyev Sh.M. New Uzbekistan strategy. — T.: "Uzbekistan", 2022

to the open sea in 1492 and discovered the countries of San Salvador (Gaunahani), Juan Island (now Cuba), and Espanol (Haiti). As a result, Europe will discover the archipelago of the Greater Antilles, the Orinoco river basin, and Central America. Vasco da Gama (1490 — 1542) continued his father's journey and became the first in the world to open a way from Portugal to the East through the ocean. As a result of several successful expeditions, he reached India. Fernando Magellan (1480 — 1521), who first started his journey with Admiral Francisco Almeda's fleet, after several expeditions, Fernando reached the Malay Archipelago in Indonesia, South America, later named after him James Cook (1728 — 1779) explores the Straits of Magellan, the Moluccas, and the Philippine Islands. Based on the financial support of England, he made a great contribution to geography by discovering the eastern coast of Australia, the islands of New Zealand and New Guinea. As a result of Cook's mapping, he included New Caledonia, South Georgia, Easter, Marquesas, and Commonwealth Islands on the map. It crosses the southern hemisphere. Together with this, he visited Hawaii, Christmas and several islands. Mikluho Maclay (1846-1888) traveled to the Canary Islands, then Madeira, Morocco, and the coast of the Red Sea. They mainly study fauna and become ethnographers. He was more interested in flowers. Maclay researched the indigenous people of South-East Asia, Australia and Guinea Islands. In the science of the basics of tourism, descriptive method is also widely used. This method is relatively simple and widely used. consists of systematization and collection of data in chronological order. Method of tourism research¹:

1. Descriptive method is a relatively simple and quick-to-use method that serves to collect and systematize information about past events in chronological order.

2. The method of cartography (taking a map of a place, making a map of a certain place) — determining travel routes, defining and classifying regions according to natural conditions, landscapes, population composition.
3. Comparison — historical method. Collecting and identifying the similarities and differences in the culture of different peoples. The Mazur method is used together with the cartography method

¹ M.T. Mirzayev, M.T. Aliyeva. Basics of tourism Study guide 2011

4. Historical-logical method. It is a collection of methods that allow to organize historical processes in a logical sequence.

According to the classic (traditional) scheme of activity, the tour operator promotes only the wholesale sale of tourist products to the tourist agents-promoters, and the agents-promoters distribute these products by regions and regions and sell them through local tourist agencies. The retail sale of tours to the consumer — the tourist is carried out by a tourist agency (abbreviated as a travel agency).¹ Usually, in order to perform the function of a tour operator, it is necessary not only to register the enterprise as a legal entity, but also to obtain a special license for such activity. For example, this issue was clarified in the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated November 1, 2003 “On approval of the Regulation on Licensing of Tourism Activities”. In Russia (note: the procedure for licensing international tourist activities was introduced in 1995 by a court order), obtaining a license is required only for the implementation of international tourist activities. No license or special registration is required for activities in the field of domestic tourism. In Uzbekistan, a single license is required for domestic and international tourism. The tour operator is responsible to the consumer of the tourist product. It is from him that the consumer buys a package of services that includes the services of many different companies. This liability includes the appropriate guarantees of the tour operator (a bank guarantee for a certain amount of funds deposit or other provision, professional liability insurance if possible under licensing laws (Note: if the performance function is not performed, or intentionally, the tour operator It is possible to collect a lot of money and disappear immediately. This is regularly done by tourism fraudsters and extortionists. In addition, the licensing institution and various guarantees protect tourists from such incidents. cannot protect) is intended. Travel agencies (travel agent) are legal entities that perform the function of retail sales of certain tourist services and types to consumers (tourists) or customers. With a tour operator or travel agency, it is related to the financial sector and even An agency contract binds a wide variety of interactions and settlements that

¹ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 27, 1992 on the establishment of the National Company “Uzbektourism”.

may provide for some degree of redistribution of responsibility. As a seller, the travel agent has limited liability for the tourist product if his function under the agency contract consists only of this mediation function. Miso! for a) providing certain services; b) tourist packages received from the tour operator; d) there are agencies that sell a set of different services that are not tied to a package, for example, for individual tourists. Several types of activities are distinguished in the field of agency¹:

a) sale of types on behalf of a person and on behalf of an enterprise. In essence, it is a "store of tourist vouchers" of various tour operators. All the details of the tour operator and the agent who made such a sale are always indicated in the tourist voucher (Note: in countries with the concept of agency percentage, the amount of the agency percentage is always shown on the check or voucher for tourist services will be shown. In such countries, there are no vouchers, but there is a voucher, we note that there is a special frame for writing down the information on the cash register. In this case, the agency itself performs the function of a tour operator, bearing all the consequences and responsibility);

b) Tours on his own behalf, but the tourist product belongs to a specific tour operator d) Selling a tourist product on its own behalf (without mentioning that this product belongs to a specific tour operator), a jointly created tourist product.

Emphasized. It was noted that these relations are developing consistently in the cultural-humanitarian and tourism spheres along with the economic sphere. At the conference, representatives of international organizations and experts exchanged views on preserving tangible and intangible cultural heritage objects in the region, increasing general knowledge about the cultural heritage of the peoples of the countries located on the Great Silk Road, and effectively using new opportunities for sustainable development of tourism. International projects related to cultural objects were discussed at the conference. Lectures were held on topics such as support, digital copying of manuscripts stored in world museums, research of classical music samples, and inter-religious relations in the Middle Ages. Event a memorandum of cooperation was signed between the

¹ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5611 "On additional measures for the rapid development of tourism in the Republic of Uzbekistan". 5 January 2019'.

International University of Tourism “Silk Road” in Samarkand and the International Institute of Central Asian Studies on the training of qualified personnel.

CONCLUSION: The countries of Central Asia, especially Uzbekistan, are paying special attention to tourism. Dozens of conferences on tourism are being held in Uzbekistan. Decisions on the more rapid development of tourism have been made at the conferences, mutual agreements and agreements have been made between the countries. With the help of foreign experts, several activities are being conducted to develop the tourism sector of Uzbekistan. Through the construction of the Great Silk Road Institute, qualified personnel are being trained: tour operators, tour agents, and tour guides. Tourism is a wide-ranging field and operates together with more than 20 professions. Central Asian countries are also developing tourism by maintaining good relations with foreign countries. However, there are problems in the international arena: Covid-19, the Russia-Ukraine war, and the ongoing Israeli-Palestinian wars are causing a drop in demand for tourism. remained and thereby opened more roads to tourism. Travelers preferred to travel to the territory of Uzbekistan, which is far from the warring countries. Tourism, which suffered as a result of the war, is now developing in Uzbekistan. The flow of tourists is increasing year by year as a result of freedom in the activity of tour operators.

References:

1. M.T. Mirzayev, M.T. Aliyeva. Basics of tourism Study guide 2011
2. Mirziyoyev Sh.M. New Uzbekistan strategy. — T.: "Uzbekistan", 2022.
3. Mirziyoyev Sh.M. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader's activity. — T.: "Uzbekistan", 2017.
4. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5611 "On additional measures for the rapid development of tourism in the Republic of Uzbekistan". 5 January 2019'.
5. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 27, 1992 on the establishment of the National Company "Uzbektourism".
6. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 15, 1992 "On the State Program for the Development of Tourism in Uzbekistan in the Period Until 2005".
7. Law “On Tourism”. August 20, 1999.
8. G. Nazarova, M. Mirzayev. The right to tourism. Study guide a. — T., 2003.

XORAZMSHOHLAR DAVLAT BOSHQARUVI VA IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOT

Shohruh QILICHEV

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Gumanitar fanlar fakulteti tarix yoʻnalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sh. Parmonov

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

Oʻzbekiston tarixi kafedrasi oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz tarixidagi eng yirik davlatlardan biri boʻlgan Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy iqtisodiy hayoti, Davlat lavozimlari, Qoʻshin tuzilishi va ichki tartiblari va jang qilish uslublari yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Xorazmshohlar, Movarounnahr, Xuroson, Xorazmshoh Takash, Sulton Muhammad, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Vazirlar, Amirlar Dargoh.

Xorazmshohlar davlatida mutlaq hokimiyat davlat boshligʻi yaʼni xorazmshohga tegishli edi saroy dargohida asosan xorazmshohning hukmdor sifatidagi faoliyatiga yordam beruvchi quyidagi amaldorlar toʻplanganligini koʻrish mumkin.¹

Xorazmshohlar davlati boshqaruv tartibida anʼanaviy dargoh va devon tizimiga rioya qilinar edi. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorasi «al-majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan boʻlib, uni vazir boshqargan. Vazir — mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs boʻlgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi boʻlib, bevosita unga boʻysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va raiyat (fuqarolar) oʻrtasida vositachilik qilgan. Barcha davlat amaldorlari, jumladan, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga boʻysungan. Vazir ning vazifalari quyidagilardan iborat boʻlgan:

- asʼhob ad-davanin yoki devonxonalar amaldorlarining boshligʻi. Yuqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan boʻshatgan;

- davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan;

¹ Сагдуллаев_А_С_Ўзбекистонда_давлат_бошқаруви_тарихи – Б. 86.

- davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy oзуqа va ashyolar bilan ta'minlanishini belgilagan;

- bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;

- sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan, ba'zi paytlarda qo'shin jo'natib, ularga boshchilik qilgan.

Xorazmshohlar davlatida vazirlik lavozimi katta hurmatga ega bo'lib, o'rta asr manbalarining birida vazir haqida shunday ma'lumot beriladi; "Eng yuksak mahkama — vazorat (vazirlik) bo'lib, barcha jamoat ishlari hamda odamlar hayotining to'g'ri yo'ldan borishi u bilan aloqadordir, buning natijasida mamlakatning chiroyi va martabasi ortadi, davlatda tartib va qonunchilik o'rnatiladi. Vazir — idora qilish qonunlarini, davlat kelajagini biladigan, hayotiy tajribaga boy, yaxshi ishlarga undovchi, shon-shuhrat va yutuqlarga yetaklovchi, fuqarolar ahvolidan ro'yi-rost xabardor qilib turadigan, ko'rsatmalariga to'la ravishda ishonish mumkin bo'lgan kishi bo'lishi lozim¹."

Vazirlarga sadr, dastur, xojayi buzruk kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimidagi shaxs o'zining siyohdoni (dovot) va ma'lum xil movutdan o'ralgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Vazir tashqariga chiqqan vaqtida uning oldida dastasi tilla bilan qoplangan to'rtta nayzalik kishi yurib borgan. Vazirlar aksariyat arab va fors tillarining bilimdonlari bo'lishgan. Qabul vaqtida vazir hukmdorning o'ng tomonida o'tirgan. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Otsiz davrida paydo bo'lgan edi.

Tarixiy manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansab, lavozimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi:

Amiri shikor — sulton ovlarini tashkil etgan.

Amir ul-a'lam (aiamdor) — sulton bayroqdori.

Qissador — hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig'ib, payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshirar edi. U eng obro'li mansabdorlardan biri bo'lgan.

Tashtdor — sulton hammomlari va hovuzlarining boshligi, Uning qo'lida ko'plab qullar ham bo'lgan. U sultonga eng yaqin kishilardan biri bo'lgan. Masalan, xorazmshoh

¹ A. Sagdullayev O'zbekiston tarixi I — B 426.

Muhammad tashtdori Ayoza keyinchalik o'n ming otlashkar berilgan. Sulton unga malik (hokim) unvonini ham bergan.

Farrosh — sulton o'rni-to'shak saqlanadigan farroshxona boshligi bo'lib, uning ixtiyorida gilam, chodir, ko'rpatoshaklar bo'lgan. Farroshga ko'plab o'rgatilgan qullar xizmat qilgan.

Choshnigir — dasturxon yozilgan vaqtda sulton taomlari xavfsizligi uchun javob berar edi.

Sharobdor — sulton sharobxonasining boshligi.

Xorazmshohlar ijroiya boshqaruvida tug'ro (insho) devoni rasmiy hujjat, yozishlarini tuzish bilan shug'ullangan.

Istifo devoni — moliya ishlari bilan, ishrof devoni — davlat nazorati tadbirlari bilan, devoni arz — harbiy masalalar, qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlash, shaxsiy tarkibni nazorat qilish, harbiy ko'riklar o'tkazish, harbiylarga ajratilgan mulklar nazorati kabilar bilan shug'ullangan.

Devoni xos — maxsus devon hisoblanib, sulolaga tegishli bo'lgan yer-suv, mol-mulk, sulton xizmatidagilarga maosh berish bilan mashg'ul bo'lgan.

Tarixiy manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra Xorazmshoh o'z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimini joriy qilgan. Aholining aksariyati harbiy ta'limdan xabardor bo'lgan. Davlatdagi harbiy qo'shin soni davr va yurishlarga qarab o'zgarib turgan. Masalan, 1195-yili harbiy devonxonaning daftarlarida qayd etishicha, xorazmshoh Takish qo'shinida 170 ming nafar otlashkar bor edi. 1214-yilda xorazmshoh Muhammadning Fors Iroqi, Ozarbayjonga qilgan yurishida 100 ming nafar suvoriy bo'lgan. 1218-yilgi ko'rikda 150 mingga yaqin otlashkar, 100 ming piyoda askar mavjudligi qayd etilgan.

1211 va 1212-yillarda qoraxitoylarga qilingan yurishlarda xorazmshoh Muhammad otlashkarlari sonining o'zi 400 ming nafar bo'lganligi alohida tarzda ta'kidlangan¹. Shuningdek, Bag'dod xalifaligiga qarshi yurishda ham 400 ming nafar suvoriy qatnashganligini harbiy devondagi qayd daftarlari ham tasdiqlaydi. Xorazmshohlar doimiy harbiy qismlardan tashqari, shaxsiy muhofaza qo'shini (xaras)ga ham ega bo'lib, ular yollanma askarlar (mamluklar) dan tuzilgan edi. Xorazmshoh Muhammad shaxsiy

¹ A. Sagdullayev O'zbekiston tarixi IToshkent 2021. — B 426.

qo‘shinida 10 ming nafar kishi bo‘lgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, eng oliy harbiy boshqaruv — devon al-jaysh (harbiy ishlar devoni) hisoblangan.

Xorazmshohlar yangi istilo etilgan o‘lka va viloyat yerlarini amirlarga iqto sifatida taqsimlab berishgan. Ularga, o‘z navbatida, amiralumaro faxriy unvoni berilar edi. 10 ming kishilik suvoriylar guruhiga qo‘mondonlik qilgan kishilarga malik unvoni berilgan. Choparlarga chovush unvoni, ularning boshligiga esa muqaddam chovushiya degan nomlar berilgan. Shuningdek, maxsus xufya va ayg‘oqchilar bo‘linmalari ham mavjud bo‘lgan. An’anaviy urush qurollaridan tashqari palaxmonlar (manjaniq), qamal qilish uskunalari (dabbabat), yuradigan minoralar (matarks), devor buzadigan moslamalar (jamalukat), hujum vaqtida ishlatiladigan narvonlar (salalim) ham bo‘lgan.

Davlatda ko‘plab harbiy jihatdan mustahkam qal’alar mavjud edi (Istahr, Hot Hurandiz. Qohira, Ustunavand, Ardahn va boshqalar).

Qal’alardagi gamizonlarga — musatahfizlar qo‘mondonlik qilishgan. Qo‘shindagi harbiy nozir — nozir al-jaysh bo‘lib, u harbiy devonxona boshlig‘ining nazorati ostida faoliyat ko‘rsatgan. Davlatda aholi tinchligi bilan shihnalari o‘z odamlari bilan shug‘ullanishgan.

Shihna aholi ichida xavfsizlik masalalariga mas’ul bo‘lgan. Urushdan aval xorazmshohlar albatta harbiy kengash chaqirishar, unga yirik harbiy sarkardalar, ulamolar, faqihlar, munajjimlar taklif etilar edi.

Xorazmshohlar davlatida tibbiyot ilmi ham rivoj topgan edi. Masalan, al-Qoniniy atoqli tabib bo‘lib, tibbiyotga oid qator asarlar yozgan. U o‘zini Umar Hayyomning shogirdi deb hisoblagan. U xorazmshoh Otsizga atab «Kitob fil hikma» («Donishmandlik kitobi») asarini, ibn Xorogiy esa — tarix va falsafa bo‘yicha asarlarini yozgan. Salohiyatli olim sifatida Otsiz uni o‘z saroyiga chaqirib olgan.

Jo‘g‘rofiya sohasida Najib Bakronning «Jahonnoma» nomli xarita va izohli asari e’tiborga molik ishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Sharqshunos olim Z.Bunyodov Xorazmshohlar davlatining 50 ga yaqin mashhur shoir, olim, ulamolarining nomini sanab olgan¹.

Sulton yangi madrasalar qurilishini odatda taniqli din arboblari topshirgan. Masalan, Xurosondagi bir madrasa qurilishi — muftiy va imom Ali Balxiyga, Nishopurdagi madrasa

¹ Z.Bunyodov Xorazmshohlar – Anushteginiylar davlati 1097-1231-yillarda“ Toshkent 1998 .- B 61

qurilishi — muftiy va mudarris imom Abduljabbor Kufiyga topshirilgan va hokazo. Bu davrda Buxoro yaqinidagi Dehqon degan joyda xalq kutubxonasi ham ochilgan edi.

Xorazmshohlar davlatining vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, Nishopur, Isfahon, Balx, Hirotdan chiqqan arboblardan bo'lishgan. Xorazm davlatiga qarashli viloyatlarning ma'muriy boshqaruvida ham mahalliy vazirlar faoliyat ko'rsatishgan.

Xorazmshohlar davlatining markazi Gurganj shahri edi. Buyuk geograf olim Yoqut Hamaviy mo'g'ullar istilosi arafasida, 1219-yili mazkur shaharda bo'lganida u haqda: "Men Gurganj kabi buyuk, boy va go'zal shaharni ko'rmadim", deb yozgan edi. Shahar, ayniqsa sulton Takish va xorazmshoh Muhammadlar hukmronliklari davrida gullab-yashnadi. Shaharda 50 dan ziyod hunarmandchilik sohalari taraqqiy etgan, u ichki va tashqi savdo chorrahalarida joylashgani bois savdo-sotiq juda taraqqiy topgan. Gurganj savdogarlari o'z mollarini hatto Ispaniyaga ham olib borib sotishgan. Zakariyo Qazviniy shahar aholisining ko'pligi, undagi Tanura va Maydon mahallalari, Qobilon darvozasi haqida ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Shahar juda obod, xushmanzara, hashamatli imoratlarga boy bo'lgan.

Tarixiy manbalarda bundan tashqari birgina Xorazm vohasida 11 ta shahar mavjud bo'lganligi ham qayd etiladi. Mamlakatdagi boshqa eng yirik shaharlar qatorida Buxoro va Samarqand ham tilga olinadi. Birgina Buxoro viloyatida 5 ta shahar, 50 ga yaqin qishloqlar mavjudligi vohaning boy salohiyatidan darak berar edi.

Undan tashqari, O'rta Osiyoning o'zida xorazmshohlarga tegishli Kesh, Taroz, O'tror, Xo'jand, Termiz, Isfijob, O'zgand, Nasaf, Banokat, Niso, Marv va boshqalar mamlakat hayotida katta rol o'ynashgan. Xorazm shohlarga tegishli boshqa hududlardagi Nishopur, Isfahon, Sheroz, Hamadon, G'azna, Balx, Ray va boshqalar katta shaharlar sirasiga kirib, o'z vaqtida madaniy o'choqlar vazifasini ham o'tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Sagdullayev O'zbekiston tarixi I — Toshkent, 2021.
2. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi. 1-jild. –T., 1993.
3. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. –T., 1994.
4. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. 1-kitob – B. 221.
5. Z. Bunyodov Xorazmshohlar – Anushteginiylar davlati 1097-1231-yillarda Toshkent 1998.

PRIVATE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: EXPENSIVE OR WORTH PAYING?

Farangizbonu XAKIMOVA

TSUOS, 1-course, Economics and studies of foreign countries, Korea,

Academic advisor: Sh. Kambarova

TSUOS, Department of “Mathematics and general economic sciences” (PhD)

Abstract: This article gives information about public and private education systems in Uzbekistan. Costs of both of them are compared and President’s decisions on private education system are provided in this article.

Key words: Private schools, Public school, education, online education, uniform, system, IELTS, SAT, STEAM subjects, eMaktab.uz

Private schools and learning centers have become popular enough in last decade in Uzbekistan. What is surprising is, citizens currently do not know much about the evolution of economic and social impact of private education. Therefore, there is a much debated issue among Uzbek parents whether private educational system is expensive or worth paying. Undoubtedly, parents know enough about the positive effects of private schools on their children’s life and still they consider that those type of schools are more expensive than it should be.

Public education system

Children are taught free at governmental schools in Uzbekistan and students do wear uniform which is white shirt and black skirt or trousers in general. They are taught basic subjects such as mathematics, mother tongue and PE. Foreign languages (English and Russian) are taught usually 4 times a week and length of lessons is 45 minutes. Children have 4 to 7 lessons a day and they study 6 days a week. Parents and children are able to know their marks and home assignments on an online platform called eMaktab.uz¹ Online education can be available in unexpected cases such as pandemics.

¹ <https://emaktab.uz/>

Students are usually at school until from 8:00 to 14:00. Students may take extra courses after their lessons. Furthermore, they do have chance to do sports or play musical instruments professionally since they have time after lessons.

Getting into university stage

Public school education is not enough to get into university. First reason is subjects are not deeply taught and much details regarding the subject are not given during the lesson. Secondly, not enough foreign language classes. For taking international exams such as IELTS or SAT foreign languages should be taught not only 4 times a week. Thirdly, entrance exams are difficult enough. Candidates should solve 90 tests from 5 subjects in 3 hours.

To get into universities and learn foreign languages students usually take extra classes and language courses. These kind of courses are available at private learning centers. Private education system will be analyzed in further paragraphs.

Studying one subject at the learning centers is normally 650.000 sums in 2024th year. One student takes minimum 2 years to learn a language and 1 year to learn one subject. 650.000 sums multiplied by 24 months is 16.600.000 sums. There are 4 more subjects to study which means 650.000 multiplied by 4 and the result is again multiplied by 12months and that is 31.200.000 sums. There are other expenses such as foreign language examination fee, transportation costs, stationery, books and other expenses. In overall, making student get into governmental university in Uzbekistan costs approximately 49.000.000 sums.

	Amount	Cost per month (in Uzbek sums)	Period (in months)	Cost (in Uzbek sums)
Foreign language	1	650.000	24	16.600.000
Subject	4	650.000	12	31.200.000

*the table is drawn by the author

Private education system

Private school students in some cases don't wear uniform but in some cases they do wear and uniform is usually given by the schools. Basic subjects, STEAM subjects,

Foreign languages (English, Russian, Arabic, French and others) are deeply taught. Students are at school for the rest of the day. In the morning they usually study and after classes they take extra classes such as foreign languages, robotechnics, science and mathematics. Teachers make students ready for International examinations as IELTS and SAT. International teachers also work in some of the schools. Quality of the lesson is taken into consideration and teachers use interactive methods of teaching. If student does not understand the theme, they always can get help from teacher or academic support teacher who generally help them with assignments. Problem solving, time management, leading skills of students are also developed there. When it comes to sports, swimming, football and other type of sports are also usually available. Students are fed 2 to 5 times a day at school. Students with food restrictions have special menu. In some private schools students leave at 5 PM and in some private schools students do stay at school dormitory 5 days a week. They also have special online platform where they can know their marks, home assignments, deadlines, get extra materials, ask questions and upload their assignments. Students are able to use school computers to study. All of these cost from 500.000 sums to 2.000.000 sums in regions and from 3.000.000 to 5.000.000-10.000.000 sums in Tashkent ¹.

Cost of private schools can seem expensive but also we cannot ignore the benefits as well. When private school students graduate they can easily get into the university. They do have international certificates, they do know foreign languages, they are well aware of STEAM subjects and they are good leaders.

In addition to this, according to the Decision PQ-3651 of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 5 2018, *“Starting from October 1, 2023, the Ministry of Preschool and School Education will enter into an agreement with a private partner as a state partner in the establishment of non-state preschool education organizations based on public-private partnership (for agreements concluded before*

¹ Sh. Xalikova O‘zbekistonda qancha nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti bor <https://uz.kursiv.media/uz/2023-08-08/ozbekistonda-qancha-nodavlat-umumiy-orta-talim-tashkilotlari-bor/>

October 1, 2023, Preschool educational agency is determined) and monitors the proper fulfillment of the terms of the agreement by the private partner”¹.

Analysis

Among public and private schools in Uzbekistan, 383 were private out of 10296 in 2023. That means that only 3,7% of schools in Uzbekistan are private and they are given license to teach from the government².

We still cannot ignore that students studying at private schools may not have time for their hobbies. For example, if a student wants to learn playing musical instrument professionally, they may not have time to go to additional courses as they have to be at school till the evening or even they have to stay there. Public school students can do sports professionally, play musical instrument professionally and etc. Because after classes they are free and have time to be busy with their hobbies.

Furthermore, as private school students do not see their parents they grow independently. They learn how to make decisions independently and solve their problems on their own. What about their feelings?! They always miss their parents. They also want to talk to their parents about what happened at school. As a result they grow without feelings and for them “Parents” may mean some people who always give them money and pay for their education. Public school students have time to talk to their parents, help their parents with house chores, watch movies and cartoons together and they have opportunity to eat food cooked by their parents. For them their parents are the biggest support and the motivation in the future they will be the ones supporting their parents.

Conclusion

Benjamin Franklin once said “An investment in education always pays the higher returns.” Private education system in Uzbekistan costs how it should cost. Private school is the best opportunity for the families with both parents or only parent

¹ O‘zbekiston respublikasi prezidentining qarori maktabgacha ta’lim sohasida davlay-xususiy sheriklikni yanada qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida <https://lex.uz/uz/docs/-6619781>

² Sh. Xalikova O‘zbekistonda qancha nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti bor <https://uz.kursiv.media/uz/2023-08-08/ozbekistonda-qancha-nodavlat-umumiy-orta-talim-tashkilotlari-bor/>

working from morning to evening. They may not have time to do home assignments with their children or all the time check if their children are studying. There are special staff at private schools to help children with studying. Parents can see what their children have done during the week in their free time. Meanwhile, if one of parents works, public schools are also not bad idea. Parent who does not work can help their children with everything and regularly check if children are doing their home assignments on time. Both educating systems have advantages and disadvantages and choosing one depends on parents and their income. Private education is not expensive but worth paying.

Literatures and websites:

1. <https://uz.kursiv.media/uz/2023-08-08/ozbekistonda-qancha-nodavlat-umumiy-orta-talim-tashkilotlari-bor/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 27.09.2023dagi PQ-316 son <https://lex.uz/uz/docs/-6619781>
3. The pros and cons of private schools <https://theweek.com/tag/private-school><https://emaktab.uz/>

MUNDARIJA			
TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK			
1.	<i>Gulnoza HAMIDOVA</i>	ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDAGI YORDAMCHI FE‘LLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	3
2.	<i>Shahobiddin YO‘LDOSHEV</i>	ARAB VA INGLIZ TILLARIDA OLMOSH KATEGORIYASI	7
3.	<i>Sarvinoz NISHONBOYEVA</i>	TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA O‘SIMLIK NOMLARI BILAN BOG‘LIQ ISMLARNING O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI	11
4.	Дильфуза АББАСОВА, Шахноза АКРАМОВА	РАЗНИЦА МЕЖДУ ГРАММАТИКАМИ 이/가 и -은/는 В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ	17
5.	<i>Sabrina MENGIROVA</i>	TURK TILIDAGI TEZ AYTISHLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIGI	24
6.	<i>Sevinch PO‘LATOVA</i>	OGAHIIY HIKMATLARI	31
7.	<i>Ruxsora SHUKUROVA</i>	OGAHIIY NAZMIDA FASLLAR TASVIRI	34
8.	<i>Feruza TOJIBOYEVA</i>	OGAHIIY TUYUQLARI	37
9.	<i>Elinur USMONOVA</i>	MAQOL VA MATAL JANRDAGI BADIY XUSUSIYATLAR	41
10.	<i>Parvina KAZAKBOYEVA</i>	OGAHIIY G‘AZALLARIDA ISHQ MAVZUSI	44
11.	<i>Muxlisa ABDULLAJONOVA</i>	XX ASR IKKINCHI YARMIDA BAHRAYN HIKOYANAVISLIGINING RIVOJLANISH BOSQISHLARI	49
12.	<i>Baxmuëp САИДОВ</i>	ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ ДЖУБРАНА ХАЛИЛА ДЖУБРАНА И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ПРОПОК»	53
13.	<i>Sardorbek BOTIRALIYEV</i>	YUSUF IDRISNING “SHO‘RPESHONA” HIKOYASIDA IJTIMOY MUAMMOLARNING BADIY TALQINI	59
14.	<i>Irodaxon IBROXIMOVA</i>	“KALILA VA DIMNA”- ABADIYOTGA DAXLDOR YODGORLIK	63
15.	<i>Ma‘rifat HOLIQOVA</i>	“NIL SHOIRI” HOFIZ IBROHIM IJODIDA VATAN TUYG‘USI MASALASI	69
16.	<i>Nilufar O‘RMONOVA</i>	TAVFIQ HAKIMNING “G‘ORDA UXLAYOTGANLAR” ASARINING G‘OYAVIY — BADIY XUSUSIYATLARI	73
17.	<i>Xolida SADULLAYEVA</i>	TAVFIQ HAKIM ASARLARINING MAVZULAR KO‘LAMI	77
18.	<i>Zulfiya MO‘MINOVA</i>	BAHRAYN YOZUVCHISI -ALI ABDULLOH XALIFA	82
19.	<i>Zulayho NURMATOVA</i>	ARAB VA O‘ZBEK MA‘RIFATPARVARLARI HARAKATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	86
GID HAMROHLIGI VA TARJIMASHUNOSLIK			
20.	<i>Nargiza HAKIMOVA</i>	KOMPYUTER TERMINLARINING TURK TILIGA O‘ZLASHISHI	91
21.	<i>Mokhinur AZIMKULOVA</i>	REGARDING THE TRANSLATION OF MUHAMMAD YUSUF’S POEMS INTO ENGLISH	94

22.	<i>Fardona YAXSHIBOYEVA</i>	XORIJIY TILLARDA TELERADIO DASTURLAR TAYYORLASH: MAQSAD VA ASOSIY VAZIFALAR	98
23.	<i>Doniyor RAXIMOV</i>	AFG‘ON XALQI MULOQOTIDA DINIY FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING TARJIMASI	102
TARIX VA FALSAFA			
24.	<i>Azamat FAYZULLAYEV</i>	QIYOMAT KUNI URUSHIDAN SO‘NG ARAB-ISROIL MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	109
25.	<i>Xurshid O‘ZBEKOV</i>	OGAHIY-YIRIK TARIXCHI OLIM, UNING MUARRIXLIK FAOLIYATIDAN AYRIM MULOHAZALAR	113
26.	<i>Yuldosh ALTIBOYEV</i>	ABDULLAXON II NING HOKIMYATGA KELISHI JARAYONIDA QARSHI VOHASINING O‘RNI	120
27.	<i>Zuhra JO‘RAYEVA</i>	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MOVAROUNNAHR VA HINDISTON TARIXIDAGI O‘RNI	127
28.	<i>Sevinch JUMABOYEVA</i>	MA‘MUN AKADEMIYASINING TA‘LIM SOHASIGA QO‘SHGAN XISSASI	133
29.	<i>Zuxra SHOASLONOVA</i>	KO‘HNA URGANCH TARIXI	137
30.	<i>Shodiyona JUMANOVA</i>	G‘AZNAVIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPIHI VA YUKSALISHI	140
31.	<i>Sardorbek BO‘RIYEV</i>	AMIR TEMUR HAYOTI VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT	144
32.	<i>Fotima ALIVOYEVA</i>	O‘ZBEKISTONDA ILK O‘RTA ASRLARDA ILK DAVLATCHILIK VA DAVLATLARNING TASHKIL TOPIH JARAYONLARI	148
33.	<i>Feruza USERBAYEVA</i>	AMIR TEMURNING ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI SIFATIDA OLIB BORGAN SIYOSATI	153
34.	<i>Ahrorjon OQILOV</i>	“MAMLAKATLAR TANAZZULI SABABLARI” ASARI VA UNDA IJTIMOY FALSAFIY KATEGORIYALARNING AKS ETISHI	158
35.	<i>Qunduzxon ISLAMOVA</i>	MISR QADIMGI PODSHOLIK DAVRIDA	167
36.	<i>Ilhom IRGASHEV</i>	QADIMGI HINDISTONDA HINDUIYLIK VA VEDALARGA QARSHI KURASH	173
37.	<i>Shahrizoda QULDOSHEVA</i>	AHMAD ZAKI VALIDIY HAYOTI VA SHAXSIYATIGA TASNIF	177
38.	<i>Sevinch AZAMATOVA</i>	QADIMGI SHARQ TAMADDUNI MA‘NAVIY ASOSLARI	181
39.	<i>Yulduz G‘ANIYEVA</i>	“OSOR AL-BOQIYA” ASARIDAGI “PAYG‘AMBARLIK DA‘VO QILGAN KISHILAR” BOBINING TAHLILI	188
40.	<i>Jasminabonu UMIDOVA</i>	ABU ALI IBN SINO — QOMUSIY ILM SOHIBI	195
41.	<i>Sevinch TILABJONOVA</i>	ABU RAYXON BERUNIY ASARLARIDA ILM VA HUNAR EGALARIGA BO‘LGAN MUNOSABAT	198
42.	<i>Durdona JO‘RAYEVA</i>	집들이- KOREYS XALQINING UY TO‘YI MAROSIMI	202
43.	<i>Акмаль АБДУРАХИМОВ</i>	ФЕНОМЕН ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОГО ДИСКУРСА	205

44.	<i>Dilora TURSUNALIYEVA</i>	ZAKI VALIDIY TO'G'ON DUNYOQARASHI SHAKLLANISHINING NAZARIY VA G'OYAVIY ASOSLARI	211
45.	<i>Xushnoza RASHIDOVA</i>	IBN TUFAYLNING "HAYY IBN YAQZON" ASARINING FALSAFIY TAHLILI	217
XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISODIYOT			
46.	<i>Diyorbek RAHMATULLAYEV</i>	GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI TAHLILI	222
47.	<i>Людмила ПОПОВА</i>	ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ	227
48.	<i>Mohichehra QADAMOVA</i>	GLOBALLASHUV VA GEOSIYOSIY KESKINLIK SHAROITIDA JURNALISTIKA VAZIFALARINING O'ZGARIB BORISHI	235
49.	<i>Muhammadayub YUSUPOV</i>	THE CURRENT EXTREME POLLUTION IN TASHKENT AND WAYS TO RESOLVE IT	238
50.	<i>Dilyayra TESHAYEVA</i>	ACTIVITY OF TOUR OPERATORS IN TOURISM DEVELOPMENT MANAGEMENT	242
51.	<i>Shohruh QILICHEV</i>	XORAZMSHOHLAR DAVLAT BOSHQARUVI VA IJTIMOIIY- SIYOSIY HAYOT	247
PEDAGOGIKA VA METODIKA			
52.	<i>Farangizbonu XAKIMOVA</i>	PRIVATE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: EXPENSIVE OR WORTH PAYING?	252